



SALOHIYAT – MEZONI



Ilmiy maqolalar to'plami

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIIY FAKULTETI

**MILLIIY G'OIIYA, MA'NAVIYAT
ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI KAFEDRASI**

ILMIY MAQOLALAR

TO'PLAMI

«SALOHIYAT MEZONI»

8-SON



NAMANGAN-2016

Mazkur maqolalar to'plami Namangan Davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasining 2016 yil 6 fevraldagi 6-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Mas'ul muharrir:

katta o'qituvchi O. Chuboyeva

Taqrizchilar:

**Tarix fanlari nomzodi, dotsent T.
Qozoqov,
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent
Z. Isaqova**

Ilmiy to'plam Namangan Davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2016 yil 10 mart kungi 3-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

© NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI, 2016 YIL

22351

Muqaddima

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ngi qisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy-ma'naviy sohalarida taraqqiyot hamda yangilanishning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini tanladi. Mamlakatimiz o'tgan qisqa vaqt mobaynida ulkan yutuqlarga erishdi. Vatanimizda sog'lom, osoyishta ijtimoiy muhit, siyosiy barqarorlik vujudga kelib, fuqarolarimizga o'z qobiliyat va iste'dodlarini namoyon qilish, yaratish, bunyodkorlik bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyat yaratildi.

Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tish tajribasi, oqilona va odilona ichki hamda tashqi siyosati, tanlagan yo'li – rivojlanishning «O'zbek modeli» nomi bilan dunyoga tarqalib tan olindi. Bularning hammasi, avvalo, Prezidentimiz Islom Karimovning beqiyos xizmati tufayli vujudga keldi. O'zbekistonning «o'ziga xos va o'ziga mos» taraqqiyot yo'lining mazmun-mohiyati, yo'nalishlari I. Karimov asarlarida ishlab chiqilgan.

Prezidentimiz istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab milliy an'analarimizga asoslangan yangi davlatchilik nazariyasi, milliy tiklanish g'oyasini ishlab chiqdi. I. Karimovning har bir nutqi, har bir asarida mamlakatimizning o'tmishi va bugungi taraqqiyoti, bu rivojlanish zamiridagi mavjud muammolar, istiqbolda mo'ljallangan strategik masalalar, mintaqaviy va xalqaro siyosat, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va mavqei kabi dolzarb masalalar yoritilgan.

Ayniqsa, mamlakatimizdagi demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyati qurish borasidagi amalga oshirilayotgan faoliyat ayrim davlatlarda asrlar davomida bajarilgan amaliyotga tenglashtirilmogda.

Huquqiy davlat qurilishidagi islohotlarni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati islohotlarida ko'rishimiz mumkin. Huquq sohaları bo'yicha qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz qonunchilikni takomillashtirish masalalari jahon tajribasi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillariga mos keladi.

Biz qonun ustuvorligi tamoyilini insonparvarlik jihatlariga asoslandik. Davlat qurilishi, mulkchilikning barcha turlarini huquqiy asolarini mustahkamlash va jazolarni liberallashtirish borasida katta yutuqlarga erishdik. Davlatchilik va huquq sohasidagi har bir bo'lib o'tadigan tadbirlarimiz kelajak avlodlarga olib borilayotgan demokratik islohotlarni yetkazib berish va ularni bunyodkorlik ruxida tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ilmiy to'plamdagi materiallar avvalo mualliflarning muayyan sohadagi bilimlarni va qarashlarini ifoda etsa, ushbu sohaga qiziquvchilar uchun bilim olishda ma'lumot va axborot vazifasini o'taydi deb hisoblaymiz.

Ozodaxon Chuboyeva, huquqshunos.

“Salohiyat-mezoni” nomli ilmiy to’plam tarixi

T. Qozoqov

Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti, t. f. n.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy fanlar sohasida ham ulkan ishlar amalga oshirildi. Respublika ijtimoiy-gumanitar fanlar mutaxassislari tomonidan talaygina ilmiy adabiyotlar nashr etildi.

Bugungi kunda Namangan Davlat universiteti “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi professor-o’qituvchilari tomonidan ilmiy ishlar borasida samarali izlanishlar amalga oshirilmoqda. Uning natijasi sifatida “Salohiyat-Mezoni” nomli an’anaviy yillik ilmiy-ijodiy maqolalar to’plamining nashr etilishini misol qilib keltirish mumkin. Mutaxassislar va iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy mehnatlari mahsuli sifatida nashrga tayyorlangan to’plamning barcha sonlarida ayni dolzarb maqolalar jamlangan.

Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi a’zolari 2010 yildan e’tiboran professor-o’qituvchilarning “Salohiyat”, talabalarning esa “Mezon” nomli yillik ilmiy maqolalari to’plamini nashr etishni yo’lga qo’yganlar.

To’plamning 2-sonidan e’tiboran “Salohiyat” va “Mezon” ilmiy to’plamlari kafedra yig’ilishining qarori bilan birlashtirildi hamda “Salohiyat-Mezon” deb yuritila boshlandi. Ilmiy to’plam 6-sonidan boshlab esa, “Salohiyat mezon” deb yuritila boshladi.

Ayni paytda mazkur ilmiy nashrning nufuzini shundan ham bilish bo’ladiki, uning nashr etilishida Respublikamizning ko’plab oliy o’quv yurtlari professor-o’qituvchilari ham o’z ilmiy maqolalari bilan ishtirok etib kelmoqdalar.

Jumladan, o’tgan davr mobaynida to’plamning sonlarida nashr etish uchun O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, O’zbekiston Milliy universiteti, Termiz Davlat universiteti, Qarshi Davlat universiteti, Farg’ona Davlat universiteti, Nizomiy nomli Pedagogika universiteti, Qo’qon Davlat pedagogika instituti va boshqa ta’lim dargohlaridan ilmiy maqolalar olindi.

Mazkur to’plamda taniqli olimlar bilan bir qatorda iqtidorli yoshlarning maqolalari ham chop etilayotgani quvonarli hol. Eng muhimi yoshlarning ilmga intilib fan cho’qqilarini egallashlarida ushbu to’plamning xizmati borligini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Ilmiy to’plamda respublikamizdagi mavjud Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o’qituvchilari va o’quvchilarining ham bir talay maqolalari e’lon qilindi. Jumladan, Nam DU qoshidagi 1-akademik litsey, Namangan tumani Axborot texnologiyalari va servis kasb-hunar kolleji, Namangan tumani Pedagogika kolleji, Uchqo’rg’on tumani Yangiyer qishloq xo’jalik kasb-hunar kolleji, Namangan tibbiyot kolleji, Chust tumani XTB 17-maktab, Namangan yuridik kolleji, Termiz Bank kolleji o’qituvchisi, Termiz axborot texnologiyalar va maishiy xizmat ko’rsatish kolleji, To’raqo’rg’on xizmat ko’rsatish kasb-hunar kolleji, To’raqo’rg’on tumani 13-maktab, Namangan Yengil sanoat kolleji,

Farg'ona pedagogika kolleji, Namangan shahar 7-maktab, Uchqo'rg'on Pedagogika kolleji, Namangan shahar 13-maktab, Namangan shahar 27-maktab, Marg'ilon yengil sanoat va pedagogika kasb-hunar kolleji, Farg'ona shahar 46-sonli MTM, Farg'ona shahar 2-ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji, Qo'qon avtotransport kolleji, FAR DU qoshidagi 2-son akademik litsey, Farg'ona sanoat va xizmat ko'rsatish kolleji, Marg'ilon tibbiyot kolleji, Uchko'prik sanoat va qishloq xo'jalik kolleji, Uchko'prik xizmat ko'rsatish va servis kasb-hunar kolleji, Quva pedagogika va iqtisodiyot kolleji, Qo'shtepa iqtisodiyot kolleji o'qituvchi va o'quvchilarining maqolalarini misol qilib keltirish mumkin.

2010 yildan to 2016 yilga qadar ilmiy to'plamda quyidagi tarzda maqolalar e'lon qilindi:

Nashr soni	Chop etilgan maqola soni	Shundan			
		Kafedra a'zolari maqolalari	Talabalar-ning maqolalari	Boshqa kafedralar va ta'lim dargohlari professor-o'qituvchilarining maqolalari	Akademik Litsey va KHK lari o'qituvchi va o'quvchilarining maqolalari
Salohiyat-1	23	10	-	12	1
Mezon-1	9	1	8	-	-
Salohiyat-Mezon-2	26	11	6	6	3
Salohiyat-Mezon-3	35	12	15	1	7
Salohiyat-Mezon-4	84	20	10	38	16
Salohiyat-Mezon-5	86	26	21	36	3
Salohiyat-Mezoni-6	123	29	38	48	8
Salohiyat-Mezoni-7	71	20	24	22	5
Salohiyat-Mezoni-8	60	5	47	3	5
Salohiyat-Mezoni-9	85	16	26	17	26
Jami:	602	150	195	183	74

Yana shuni ham ta'kidlash joizki, mazkur ilmiy to'plamda nafaqat o'zbek tilidagi, balki rus, ingliz va fors tillaridagi maqolalar ham chop etildi.

Ma'naviy madaniyat masalasida mulohazalar

O. K. Chuboyeva
Huquqshunos

XXI asr bo'sag'asidagi jamiyat o'zgarishlari, milliy chegaralar o'zgarishlari davlatlarning ichki taraqqiyotiga turlicha ta'sirlarni vujudga keltirdi. Bu davr dunyo miqyosidagi yuksak madaniy taraqqiyot uchun qulaylikni vujudga keltirdi. Ma'naviy yetuk millat o'z milliy taraqqiyoti madaniyatini yuksaltirdi. Yer yuzidagi tsivilizatsiyalashgan har bir millat o'z qadriyatlarini qaror toptirdi.

Ma'naviy madaniyat ijtimoiylashuv jarayonidagi muhim voqelik hisoblanadi. Chunki taraqqiyotning tizimli rivojlanishi va tadrijiyligi insoniyatni juda ko'p ijobiy yutuqlarga erishtirar ekan, ayrim qusurlar ham taraqqiy etib boradi.

Taraqqiyotning ijobiy jihatlari va salbiy jihatlari uyg'unlashib boradi. Keyingi taraqqiyot jarayoni ommaviy madaniyat deb nom olgan jarayonni vujudga keltirdi. Bu jarayoni yer yuzining juda ko'p qismini egallab borib taraqqiy etayotgan jamiyatni xavotirga solib kelmoqda. Chunki, ommaviy madaniyat jamiyatning har qanday ma'naviy, ma'rifiy, madaniy sohasi rivojidadagi virus yoki shu sohalar taraqqiyotidagi ko'zga tashlanib turgan yara hisoblanadi.

Bu holatning vujudga kelishi jarayoni sabablari nimalardan iborat:

- avvalo, ma'naviy tarbiyaning yetarli emasligi;
- ikkinchidan, e'tiqodning zaifligidan;
- asosiysi beparvolik kayfiyatidan vujudga keladi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, bu beparvolik ommaviy madaniyatning vujudga kelishiga zamin yaratibgina qolmay, jamiyatda qo'poruvchilik kayfiyatining shakllanishiga ham olib kelishi mumkin. Biiz bu holatni yaqin tarixda kuzatdik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan beparvolik masalasiga juda ko'p urg'u berib borilgan. Bu borada, Prezidentimiz, "Bizda bir beparvolik kayfiyati borki, men bu haqda doimo ogohlantirib kelaman. Lekin odamning boshiga sinov yoki kulfat tushmasa, ko'zi ochilmas ekan. Asrlar davomida ko'p qiyin, og'ir kunlarni ko'rgan xalqimiz mana shunday hikmatli bir maqolni aytgan: "Boshga tushganni ko'z ko'radi". Bu maqol mag'zini har kim chuqur o'ylab ko'rsa, uning to'g'riligiga iqror bo'lishi, agarki boshiga bir kulfat tushsa, xayoliga keltirishi tabiiy hol¹, -deya o'tgan asrda ogoh etgan.

Ma'nau yetuk tarbiyalangan insonlar hech qachon beparvolikka yo'l qo'ymaydi. Ma'nau yetuk inson hamisha o'z ustida ishlaydi. Jamiyatdagi har qanday qusurga murosasizligini bildiradi.

Ma'naviy madaniyat ommaviy madaniyatga nisbatan jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish kabi takomillashmog'i kerak.

¹Karimov I.A. Iroda va iymon – e'tiqodimiz sinovi. T.: Ma'naviyat. 1999.-TAT. T-8. -B. 2

Biz kelajak avlodni ma'nan yetuk etib tarbiyalash borasida ommaviy madaniyat tushunchasini, uning salbiy jihatlarini yuarcha muassasalarda tushuntirib bormog'imiz kerak. Chunki, ommaviy madaniyat ma'nan qashshoq ommaning o'z ma'naviyatsizsizligi natijasiga erishgan qoloq madaniyatini ijtimoiylashtirishda, insonlarni, ayniqsa, yosh avlodni bunyodkorlik ruxini so'ndirishda, jamiyatni inqirozga yetklashda ko'zga tashlanadi. Ushbu harakatda ketayotgan omma o'z kelajagiga beparvo tarbiyalanadi. Ularning harakatlari "eymo"lik va "got"lik va shu kabi tuturuqsiz guruxlarning shakllanishiga zamin bo'ladi. Ulardagi ma'naviy zaiflik kelajakka bo'lgan ishonchni so'ndiradi. Jamiyatni tanazzulga olib keladi.

Madaniyat asli yashash jarayonidagi taraqqiyot hisoblanib, ushbu jarayon bunyodkorlik, insonlarning yashash sharoitlarini mdaniylashuvi hasoblanishi talab etiladi. Bu jarayon chindanda, axborotlashuv jarayonida, texnika taraqqiyotida, maishiy hayotda yuksak daraja bo'lishini va bu jarayon globallashuvini ko'rsatmoqda.

Madaniyatning jamiyatlararo universallashuvi shakllanmoqda. Hozirgi kunda madaniyat jarayonining universallashuvi ko'zga tashlana boshladi. Bu jarayon o'zining juda ko'p ijobiy jihatlari bilan birga ommaviy madaniyat ta'sirida qusurlarini namoyon qilmoqda.

Hozirgi kunda ma'daniy globallashuv salbiy jihatlari san'at va madaniyat axlining o'zini tutishi, kiyinish madaniyati va urf-odatlar shakllanishida, reklama roliklaridagi namoyishlarda hammani o'ziga jalb etmoqda. Bu jamiyat a'zolarini o'ziga kuchli jalb etib kelmoqda va taqlidlar uchun asos bo'lmoqda.

Bu o'rinda ham madaniy universallashuv jarayoniga o'z mulohazalarimizni bildirib o'tishimiz va yoshlardan bu holat bo'yicha fikrlarini o'rganishimiz maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Chunki, madaniy universallashuv ko'pincha o'zini yetuk madaniyatga ega deb hisoblayotgan G'arb madaniyati, yoki o'zini gegemon hisoblayotgan Amerika madaniyati hisobiga shakllanmoqda. Vaholangki, bu millatlarning moziysi uzoqqa bormagan. Va kechagina varvarlik hayotida yashagan xalqlar o'z varvarona hayoti qoldiqlarini dunyo madaniyati qilib ko'rsatmoqchi bo'lishadi.

-madaniy universallashuning davriyligi;

-madaniy universallashuvning gegemon xalqlar tomonidan qaram xalqlarga singdirilishi;

-ayrim halqlar tomonidan o'zini ma'nan qoloq madaniyatini ko'z-ko'z qilayotgan mamlakatlardagi guruxlar madaniyatiga ko'r-ko'rona taqlid qlish va ergashishi jarayoni ko'zga tashlanishi;

-ma'nan qoloq madaniyatning xalqlar tomonidan qoralanishi va unga nisbatan kurash jarayoni kechishi;

O'zbeklarning o'ziga yarasha uzoq o'tmishi, sharqona shakllangan madaniyati, nafosatli va go'zal madaniyati borki, bu madaniyatni o'rganish uchun asrlar kamlik qiladi. Bu madaniyatga aml qilmoq kerak. Bu madaniyat

ma'nolar majmuasidan vujudga kelgan. Har bir odatimizning, har bir merosimizning o'z tarixi va ma'nomazmuni borki, u insoniy tarbiyani o'zida jamlaydi.

Shu nuqtai nazardan, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlar tahsinga loyiq. Chunki, hozirda har bir axoli xududlarida axoli dam olish va madaniyat markazlari tashkil etildi. Bu maskanlarda milliy g'ururimiz bo'lgan milliy madaniyatimiz taraqqiyotini o'rgatuvchi to'garaklar tashkil etildi.

Ushbu maskanlarning ish faoliyati biln bog'liq yangiliklar ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib etib borilmoqda.

Faqat ushb maskanlarni taraqqiyotiga mas'ul va shu soha bo'yicha yetuk bilimga ega milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq bo'yicha bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash va jamiyat orasida yanada ma'naviya madaniyatga hissasini qo'shish uchun yuborish kun tartibidagi asosiy masala bo'lmog'i kerak. Buning uchun shu yo'nalishga davlat ta'lim granti asosida o'qitishga talabalar kvotasini ko'paytirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Fuqarolik jamiyatining ma'naviy asosi

*Xurshid Mirzaxmedov
Namangan davlat universiteti
katta o'qituvchi*

Mamlakatimizda demokratiyaga asoslangan erkin fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borar ekanmiz, bugungi dunyo global vaziyati ne chog'li murakkab, tahlikali va qaltis ekanini; bunday vaziyatda esa jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy sohalari bilan bir qatorda jamoyatning ma'naviy sohasini taraqqiy topdirishga har doimgidanda teranroq e'tibor bilan qarash zamon talabiga aylanganini ta'kidlab o'tish joiz. Bu haqida president I. A. Karimov shunday degan edilar: "Hozirgi vaqtda dunyoning uzoq yaqin turli hududlarida yuz berayotgan tashvishli voqealar keskinlashib borayotgan bir vaziyatda, biz xushyorlik va sergakligimizni yo'qotmasdan kimlar bizga xayrixoh, kimlar bizga g'arazli ko'z bilan qarayotganini, bugungi davr oldimizga qanday o'tkir talab va vazifa qo'yayotganini chuqur anglab ogoh, sezgir va safarbar bo'lib yashashimiz talab qilinmoqda"².

Zero, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kim yaxshi-yu kim yomon, kim do'st-u kim dushman ekanini bilish, ajrata olish; ogoh sezgir bo'lish, doimo g'ayratli, safarbarlik bilan yashash ham kishining ong-u shuuri, ma'naviyati bilan bevosita bog'liqdir.

Shu o'rinda to'xtalib o'tish joiz, ma'naviyat, ma'naviy olam o'zi nima?

Ma'naviyat ijtimoiy hodisa va ilmiy tushuncha sifatida o'ziga xos ko'plab hususiyatga ega bo'lib, mustaqil obyekt sifatida mustaqil obyekt sifatida falsafiy

2 Karimov I.A. "Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir". "Ozbekiston". 2015-yil. 271- bet.

tahlil qilishni talab etadi. Barcha davrlarda yashagan mutafakkirlar “rux”, “ma’naviyat”, “ma’naviylik” kabi tushunchalar to’g’risida hamda ma’naviy sohaning esa jamiyat hayotida muhim o’rin tutishi ushbu sohaga bo’lgan e’tiborni yanada kuchaytirish foydadan holi emasligi haqida turli mulohazalar bildirib o’tganlar.

Qadimgi sharq (Xitoy, Hindiston, Vavilon, Misr, va boshqalar), so’ngra antik davr va o’rta asrda yashagan mutafakkirlar ma’naviylik muammosiga katta e’tibor qaratganlar. Gilgamish to’g’risida Shumer eposi, hind Vedalari va Upanishadalari, Konfutsiy, Avesto ta’limotlari, Aflotun, Arastu, Farobiy, Beruniy, Ibn sino, Navoiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida jamiyatning ma’naviy sohasiga kuchli qiziqish bo’lganligi, ma’naviyat inson shakllanishining eng yuksak cho’qqisi ekanligi va u doimo ilmiy falsafiy qiziqish uyg’otganligini ko’rsatadi.

Yangi davrga kelib, bu muammoga qiziqish yanada kuchayib bormoqda. Fan va texnika qanchalik darajada rivojlansa, ma’naviyat to’g’risidagi masalaga shunchalik e’tibor kuchayib, ilmiy texnik rivojlanishning ma’naviy mohiyati to’g’risidagi masala tez-tez yuzaga chiqib turibdi.

Ma’naviyat hususida gapirar ekan A. Erkavev shunday degan edi: “Ma’naviyat-insonning ijtimoiy madaniy mavjudod sifatida mohiyatidir, ya’ni insonning mexr-muruvvat, adolat, to’g’rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go’zallikni sevish zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko’plab asl insoniy hislatlari va fazilatlarining uzviy birlik mushtaraklik kasb etgan majmuidir”³.

Demak, ma’naviyat insonlarni boshqa mavjudodlardan ajratib turuvchi vosita bo’libgina qolmay, ular hayoti davomida muhim ahamiyat kasb etuvchi ijobiy sifatlar majmuyi, ma’lum faoliyatga undovchi kuch vazifasini ham o’taydi.

Ma’naviyat hususida M. Imomnazarov “Ma’naviyat –insonning ma’lum darajadagi jismoniy, aqliy va ruhiy layoqati hamda dunyoqarashini ifodalovchi tushunchdir” – degan edi⁴.

Prezidentimiz I. A. Karimov esa bu borada fikr bildirar ekan, “Xalqimizning ma’naviy ruhini mustahkamlash rivojlantirish—O’zbekistonda davlatning va jamiyatning eng muhim vazifasidir”⁵-deb malakatimizda ushbu sohaga, ya’ni jamiyatning ma’naviy sohasiga ne chog’li e’tibor qaratilayotganiga urg’u bergan edilar.

Darxaqiqat, ma’naviyatni takomillashtirish mamlakatimiz va millatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ayniqsa, asosiy vazifa darajasiga ko’tarilmoqda. Bu faqat mamlakatimiz ichki hayoti bilan bog’liq bo’libgina qolmay, balki uning barqaror rivojlanishiga tahdid solishga urinayotgan tashqi

³ Erkayev A. “Ma’naviyat—millat nishoni”. Toshkent. “Ma’naviyat”. 1997-yil. 27-bet.

⁴ Imomnazarov M. “Ma’naviyatimizning takomil bosqichlari”. Toshkent. 1996-yil. 6-bet.

⁵ Karimov I.A. “O’zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. Toshkent. 1993-yil 74-bet.

oqimlarning mavjudligi bilan ham bog'liqdir. Ularning, ayniqsa, hayot tajribasiga ega bo'lmagan yoshlarning ongini egallab, o'z buzg'unchi g'oyalarni uqtirish orqali g'araz niyatlarini amalga oshirishga urinayotgani eng ayachli holdir. Chunki yurtboshimiz ham ta'kidlaganlaridek ma'lum yurt taqdiri uning tarkibida istiqomat qilayotgan hamda aholining ko'pchilik qismini tashkil etuvchi yoshlar qo'lida. Xo'sh endi ongi turli buzg'unchi g'oyalar bilan izdan chiqqib bo'lgan o'sha yoshlar yurt taqdirini nima ustiga qura oladi? Umuman, yurt taqdirini o'shanday yoshlarga ishonib bo'ladimi? Yo'q albatta! Bizningcha ham shunday.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda bugungi kun yoshlariga:

Birinchidan, milliy o'zlikni tanitish, milliy g'ururni uyg'otuvchi axborotlarni turli yo'sinda yetkazish masalasiga katta e'tabor qaratish lozim. Albatta bu materiallar yoshlarni butun xayolotini jalb etgan, qiziqтира olgan turli tezkor axborot vositalarida berib borilayotgan axborotlar qatorida tura olishi, ya'ni ular bilan tenglasha oladigan darajada qiziqarli, ommaga tushunarli tarzda namoyon bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, yoshlar o'rtasida xuddi shu berib borilayotgan ma'lumotlar yuzasidan turli munozali tadbirlar yoki musobaqalar olib borish lozim. Bu kabi tadbirlarning ko'lamini, mavzularini ko'paytirish: nafaqat yurtimizda balki butun jahonda yuz berayotgan xodisalar yuzasidan tashkil etilishi bugungi kun yoshlarini xushyorlikka chaqirish bilan bir qatorda, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarga to'g'ri baho bera olish va vatan taqdiriga befarq bolmaslikka o'rgatadi.

Uchinchidan, aholining boshqa qatlamlarini ham unutmagan holda ular bilan ham ishlashning yangicha usullarini yaratish. Bunda aholini turli xususiyatlarni hisobga olgan holda ma'lum guruxlarga bolib olgan holda (Masalan, ikki xil tuzum ikki xil mafkura guvohi bo'lib turgan katta yoshli qatlam, nogironlar yoki imkoniyati cheklangan shaxslar, malum ish joyida band toifa yoxud hech qayerda ishlamaydigan kishilar, ma'lum muddat jazo muddati o'tab chiqqanlar va boshqalar), albatta, ularning ma'lum hususiyatini hisobga olgan holda ma'lum dasturlar ishlab chiqish lozim. Eng asosiysi, aholining hech bir qatlami e'tibordan chetda qolmasligidir.

Jamiyatni ma'naviy sohasini ma'lum tizimini yartish hamda uni rivojlantirish -- bora bora jamiyatning ijtimoiy, iqsodiy, siyosiy sohalari rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Chunki bu sohalarning hech birini ma'naviy sohadan bo'lak tasavvur etish qiyin. Aksincha, ular birgalikda teng rivojalandirilsa kutilgan matijaga osonroq erishiladi.

Yuqorida biz "demokratik davlat qurmoqdamiz" -- degan firni ilgari surgan edik. Shu o'rinda savol tug'uladi: demokratiya o'zi nima? Bugungi mavzuyimizga qanchalik dahldor? Bu savollarga javob topishga urunib ko'rsak.

Demokratiya- ongli fikrlash, har qanday ehtiroslardan holi, aql-idrokka tayangan munosabat. Demokratiya -- yuksak ma'naviyatni va ichki madaniyatni oshkor etish imkoniyati. Demokratiyani anglash -shahsning barcha uchun birday

zarur bo'lgan qonunlarga to'la rioya etish; huquqqa tayanib yashash salohiyati, inson haq huquqlarini himoya qilishni hamda o'zgalarning ham huquqlarini xurmat qilishni, umumjamiyat manfaatlarini himoya qiladigan barchaning qonunlarga bo'ysunib yashashini o'rgatadi. Mana shu jihatlari bilan ham demokartiyani ma'naviyat bilan uzviy bog'liq deyish mumkin.

Mustaqillik tufayli erkinlik, demokratiya nimaligini va o'zligimizni tanidik, chin ma'noda kashf etdik deyish mumkin. Ammo to ma'naviy kamolatga yetmaguncha, to xatti- harakatlarimiz aql-u idrok doirasi bilan demokratiyaga yo'naltirilmas ekan davlatni rivojlantirish, mustaxkamlash borasida biz xohlagandek natijaga erishib bo'lmaydi.

Ana shundan kelib chiqib, Prezidentimiz I. A. Karimov : "... demokratiya o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Demokratiya aqliy va jismoniy mehnat qilib, tinimsiz ter ko'kib, hayotning achchiq chuchugini obdon totib keyinaytish mumkinki, hatto fojeali tajribalarni ham boshdan o'tkazib, og'ir sinov va qarashlarga mardona bardosh beribgina erishish mumkin".

Demak, anashu murakkab jarayonlarga har birimiz alohida tayyorgarlik ko'rishimiz, ichki ma'naviy qudrat bilan o'zimizni tarbiyalab borimiz kerak. Davlat esa jamiyatimiz ma'naviy sohasi istiqbollarini belgilovchi bosh yo'lboshchi hisoblanadi. Uning barcha islohotlari zamirida ushbu sohaga e'tiborni ko'rish mumkin.

Kitob — g'oyalar ummoni

*Feruza Abdullayeva,
O'zDSMI magistranti*

KITOB — insoniyatning buyuk kashfiyoti. Insoniyat tomonidan bu so'zlar necha asrlarki aytib kelinadi. Bunda chuqur ma'no bor. Kitob nashri kashf qilinibdiki, inson u bilan oshno. Insoniyat bugunga kelib ilm-fandagi, texnika, tibbiyotda qo'yinki, nimaki kashfiyot qilgan bo'lsa hammasi kitobdandir. Davr va zamonning o'zgarish bilan kitobga bo'lgan munosabatlar ham o'zgardi. Ayrim tadqiqotchilar endi odamlarning kitobga bo'lgan talabi kamayapti desa, ba'zi tadqiqotchilar kitobga bo'lgan talab ortmoqda deyishadi. Aslida ikki fikrda jon bor.

Odamlar kitob o'qishdan to'xtasalar, fikrlashdan ham to'xtaydilar, degan edi, Deni Didro. Ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizdagi 11 mingdan ortiq axborot-kutubxona muassasalarida 83,6 million nusxa kitob jamg'armasi bor. Ushbu axborot-kutubxonalar tizimiga Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi yetakchilik qiladi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi hozirda mintaqamizdagi eng qadimiy va yirik kutubxonalardan biridir. Kutubxona zamonaviy shart-sharoitlarga ega va talab darajasida jihozlangan. Binoda o'quv va anjumanlar zallari, kitobxonlar

uchun ko'rgazma zali, kitob muzeyi, bolalar xonasi, kitob do'koni, kinomarkaz, internet va mediamarkaz, kafe, dam olish joylari tashkil etilgan.

Kutubxona 25 ta chet mamlakat bilan kitob ayriboshlash bo'yicha hamkorlik qiladi. Kutubxonadan har yili o'rtacha 500 mingdan ziyod kitobxon foydalanadi. Ularga ikki million nusxa kitob va axborot manbalari taqdim qilinadi. Kutubxonaning umumiy fondiga har yili 15-20 ming nusxa adabiyotlar qo'shiladi.

Kutubxonaga a'zo bo'lishni xohlovchilar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan kelishsa bas.

Kitobxon buyurtmasini tezkor bajarish va kafedralarga yetkazib berish uchun kitob omboridan o'quv xonalariga asarlarni avtomatik yetkazib beruvchi "teleafit" tizimi ishlaydi. Axborot-kutubxona resurslarini, shu jumladan, noyob asarlarni saqlash va asarlar yetkazib berish tizimidan tashqari, kutubxonachilarning kunlik mehnatini yengillashtirish uchun bir qancha qulayliklar bor.

Shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun ham barcha qulayliklar yaratilgan. Ularning kutubxonaga kirishlari uchun maxsus yo'laklar mavjud. Ko'zi ojizlar uchun esa maxsus o'quv zali brayl audikitoblar bilan jihozlangan.

Biz kitob haqida bahslashganimizda ko'pincha yoshlar kitob o'qimay qo'ydi, degan fikrlarni eshitib qolamiz. Bu fikrga ko'p ham qo'shib bo'lmaydi. Tan olib aytish kerakki, bugungi kunda yurtimiz qaysi bir kutubxonasiga kirmaylik yoshlarni uchratamiz.

Tan olib aytish kerakki, bugungi kunda odamlarning qanday kitoblarni mutolaa qilishi muhim ahamiyatga ega. Sababi kitob insonning ma'naviyatiga katta ta'sir qiladigan kuch. Taniqli adabiyotshunos taniqli adabiyotshunos Umarali Normatov "Turkiston press" muxbiri savollariga javob berganda kitob, kitobxonlik haqida o'z fikrini quyidagicha bildiradi.

— Oddiy kitobxonni qo'yib turing, bevosita adabiyotga, adabiyotshunoslikka, adabiy ta'limga daxldor shaxslar xususida ba'zi raqamlarni keltirib o'tsam. Respublikamizda 10 mingga yaqin umumta'lim maktablari bor, ularning har birida o'rta hisobda 3-5 tadan ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi ish ko'radi, bularning yoniga akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari adabiyot muallimlari, talabalari, tadqiqotchilarni, shuningdek, turli ilm dargohlarida, nashriyotlarda xizmat qiladigan adabiy xodimlarni, mening hisob-kitobimga ko'ra, Yozuvchilar uyushmasi a'zolaridan tashqari yozib-chizib kitob chiqarib yuradigan 3 mingdan ortiq ijodkorlarni ham qo'shadigan bo'lsak, mamlakatimizda 70-80 mingdan ortiq "adabiyotning nonini yeydigan" kishilar bor. Nashriyotlarda chiqib turgan, gazeta va jurnallarda e'lon qilinayotgan son-sanoqsiz yangi adabiy asarlar, adabiy-tanqidiy maqolalar, bahs-munozaralardan ularning barchasi, ayniqsa, adabiyot muallimlari xabardormi?

Afsuski, mavjud hisob-kitobim, o'jar raqamlar kishida noxush taassurotlar qoldiradi. O'zingiz o'ylab ko'ring: bevosita "adabiyotning nonini yeydigan" har

bir xonadonga o'qishli nashrlar, qolaversa, taniqli ijodkorlarning yangi asarlari kirib borsa, ularning nashri adadi 70-80 mingdan kam bo'lmaydi-ku, axir. Adabiyot muallimi, mutaxassisi shaxsiy kutubxonasi kundalik adabiyot yangiliklari bilan peshma-pesh to'lib borsa, qanday yaxshi! Loaqal har bir o'quv dargohiga ular 1 donadan yetib borgudek bo'lsa ham, ularning adadi 15 mingdan oshadi...

Qisqasi, adabiy nashrlar adadining kamayib, kitobxonlik doirasi torayib ketishining sababini boshqa ko'plab omillar, chunonchi, adabiyot bilan zamonaviy axborot vositalari, internet, televidenie o'rtasidagi raqobatlaridagina qidirish o'rinsiz, bu borada "adabiyot odamlari"ning ham aybi bor. Buni mardona tan olishimiz darkor. Har qancha keskin, jiddiy bo'lmasin, bu hal etilishi lozim bo'lgan muammo.

Kitob — insonning qalb gavhari bo'lmog'i zarur.

Biz XXI asrda yashayapmiz. Uncha-muncha ixtirolar insonlarni hayratga sololmaydi. Joyingizda o'tirib dunyoning narigi burchidagi odam bilan to'g'ridan-to'g'ri suhbatlasha olasiz. Bir paytlar bu gaplar mo'jizadek tuyulardi. Endi esa oddiy hol. Bugungi kunda yangi asrning yangi muammolari paydo bo'lmoqda. Bu inson ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviyatni esa yaxshi asarlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu muammo nafaqat bizda balki dunyoda global muammo aylanib ulgurdi.

Oldi sotdi-shartnomasi huquqiy tartibga solinishi- islohotlar talabidir

*N. Jaylanov
Advokat*

Kishilik jamiyati taraqqiyoti va siyosiy institut sifatida davlat vujudga kelishi omillaridan biri ayirboshlashning vujudga kelishi hisoblanib, keyinchalik savdo bilan shug'ullanuvchilar toifasi savdogarlar tabaqasini vujudga keltirdi. Jamiyatda davlat paydo bo'lishi omillaridan biri ijtimoiy mehnat taqsimotining vujudga kelishi bo'lib, idtimoiy mehnat taqsimoti turlaridan biri savdogarlik, ya'ni oldi-sotdi munosabatlari hisoblanadi. Savdogarlik vujudga kelishi muayyan ma'noda davlatchilik taraqqiyoti uchun asos hisoblandi.

Oldi-sotdi munosabatlarini tartibga solish insonlar o'rtasida, jamiyatdagi turli guruxlar o'rtasida, hatto davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'rta asrlarda mug'ullar imperiyasi tashkil topishi va mug'ullarni Xorazmdak buyuk davlatni va yevropa xududiga qadar bostirib borishiga sabab Xorazmshoxning mug'ullar savdogarlariga nisbatan salbiy muomalada bo'lishi edi.

Oldi-sotdi munosabatlari juda murakkab jarayon hisoblanib, ilmiy jihatdan sistemali taxlil etilishi lozim. Oldi-sotdi shartnomasi turli jihatlari bilan turlarga ajratiladi. Oldi-sotdi munosabatlaridagi predmet xajmiga ko'ra chakana oldi-sotdi va ulgurji oldi-sotdi turlari mavjud bo'lib, ular o'z navbatida turli qonunlar asosida tartibga solinadi. Masalan, Chakana savdo; kim oshdi savdosi; nasiyaga

tovarlarni sotish va hakozolarga bo'linadi. Chakana oldi –sotdi munosabatlarida asosan kundalik extiyojimiz uchun zarur bo'lgan narsalarni olamiz. Bu shartnomadan kelib chiqadigan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi. Oldi-sotdi shartnomasida ulgurji savdo turi murakkab jarayon hisoblanadi. ulgurji oldi-sotdi shartnomasi mulkchilik munosabatlari bilan ko'proq bog'liq hisoblanadi.

Jamiyatning iqtisodiy negizi - mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanadi. Shu sababli mulk nafaqat yuridik mazmunga, balki iqtisodiy ma'noga ham ega. Kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga o'ziga xos tarzda “taqdim etilgan” boyliklar har doim mulk bo'lib kelgan. Mulq egasi bo'lish yoki bo'lmasligiga qarab, kishilarning jamiyatdagi mavqei, aniqrog'i ijtimoiy-iqtisodiy maqomi vujudga keladi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilik munosabatlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan mamlakatimiz iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi⁶, deb mustahkamlab qo'yildi.

Olim X. Ramonqulov ta'rifiga ko'ra, -“Mulq huquqi mazmuni uch element-mulka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishdan iborat”.⁷

Mulqni tasarruf etish huquqi -mulqning yuridik taqdirini belgilash, ya'ni mulk yuzasidan boshqa shaxslar bilan bo'ladigan huquqiy munosabatni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan huquqdir.

Mulq egasi tasarruf etish huquqiga binoan mulq yuzasidan xilma-xil bitimlar, shartnomalar, chunonchi, ashyoni sotish, hadya qilish, ijaraga qo'yish to'g'risida shartnomalar tuza oladi.

Tasarruf etish, mulq taqdirini belgilash, jumladan olish-sotish munosabatlarida ifodalanadi.

Oldi-sotdi shartnomasi tarixning barcha davrlarida qonunchilik bilan tartibga solingan. Hozirda ham oldi-sotdi munosabatlari qonunchilik bilan tartibga solinadi.

“Qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining sifati va asoslanishi tubdan yaxshilandi. Umumdavlat va mintaqaviy manfaatlar o'rtasidagi mutanosiblik va uyg'unlik yanada samarali taminlanmoqda”⁸-deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2009 yil.

⁷ Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoyillari. -T.: TDYuI. 2003 -42 b.

⁸ Karimov I. A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. O'z.R. Oliy Majlisi qo'shma yig'ilishidagi ma'ruza. Xalq so'zi. 2010 yil. 28 yanvar soni

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini barpo etuvchi bir qancha qonunlarni qabul qildi. Ulardan asosiylari mulkchilik, tadbirkorlik, davlat mulkini xususiyashtirish, korxonalar, kooperativlar, banklar, soliqlar, investitsiyalar, tashqi iqtisodiy aloqalarga doir qonunlar va boshqa qonun hujjatlaridan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, «Mustaqillik yillarida respublikada xalqaro amaliyotda qabul qilingan, inson xuquq va erkinliklari ustuvorligidan kelib chiqadigan xuquqiy qoidalar va normalarga asoslangan keng xuquqiy makon vujudga keltirildi. Biz totalitar tuzum hukmronligidan voz kechdik. Odamning davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan, shuningdek, mulkchilikning hamma shakllaridaga ma'muriy xo'jalik tuzilmalari bilan xilma-xil munosabatlarini tartibga solishning huquqiy normalari sari dadil qadam tashladik⁹.

Bozor munosabatlarini tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar ichida O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 1 mart kundan boshlab kuchga kirgan Fuqarolik kodeksi alohida o'rin tutadi. Ushbu Kodeksning yuridik adabiyotda «bozor munosabatlarining konstitutsiyasi» deb tan olinishi bejiz emas, chunki u bozor iqtisodiyotiga xos tovar-pul shaklidan iborat va haq evaziga amalga oshiriladigan, ishtirok etuvchilari teng huquqqa ega bo'lgan erkin mulkiy munosabatlarning asosiy qoidalaridan tashkil topadi.

Oldi-sotdi shartnomasi fuqarolik huquqining asosiy institutlaridan hisoblanadi. O'tmishda oldi-sotdi shartnomasining qo'llanish doirasi uncha keng bo'lmagan. Chunki sotsialistik xo'jalik tizimi davrida iqtisodiy munosabatlar erkin emas edi, mahsulotlar davlat belgilagan qat'iy reja asosida ishlab chiqarilar va taqsimlanardi. Oldi sotdi shartnomasining mavzui (predmeti) asosan moddiy-maishiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlardan iborat bo'lib, sotuvchi sifatida davlat va kooperativ tashkilotlar, sotib oluvchi sifatida esa faqat fuqarolar ishtirok etishlari mumkin edi. Davlat tashkilotlari, muassasalari idoralarida ish yuritish uchun zarur bo'lgan yordamchi vositalar (qog'oz, qalam, siyoh, ruchka kabi kantselyariya tovarlari)ningana sotib olish huquqiga ega edilar. Oldi sotdi shartnomasi, shuningdek, jamoa xo'jaligidagi xonadon tomorqasida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozorga chiqarishda ham qo'llanilardi. Sotib olingan tovar, mahsulotga nisbatan shaxsiy egalik huquqi yuzaga kelar, shaxsiy mol-mulk esa fuqarolar o'rtasidagi oldi sotdi muomalasidan deyarli chetlatilgan edi.

Endilikda oldi-sotdi shartnomasining mavzui mulkchilikning turli shakliga mansub bo'lgan mol-mulkdan, ashyolardan (masalan, ishlab chiqarish vositalari, chunonchi, korxonalar, ko'char va ko'chmas mol-mulklar, iste'mol xususiyatiga ega bo'lgan va bo'lmagan ashyolardan va h. k.)

⁹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. -201-6.

hamda uni tuzishda qatnashuvchi taraflar, ya'ni fuqarolardan ham, yuridik shaxslardan ham iborat bo'lishi mumkin.

O'zbekistonning amaldagi Fuqarolik kodeksida oldi-sotdi shartnomasiga 50 ta modda (386-436-m. m.) bag'ishlangan. Ushbu moddalarda bozor munosabatlari sharoitida qo'llanishi zarur bo'lgan va iqtisodiyotni boshqarishning demokratik printsiplariga asoslangan qoidalar o'z aksini topdi. Moddalarning mazmunini tashkil etuvchi qoidalar asosan dispozitiv xususiyatga ega bo'lib, ularda shartnoma taraflariga qonunda nazarda tutilgan yoki tutilmagan, ya'ni fuqarolik huquqining mohiyatidan yoxud ish muomalasi odatlaridan kelib chiqib, u yoki bu qoidani tanlash va qo'llash uchun keng erkinlik beriladi.

FKning 386-moddasiga ko'ra, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni to'lash majburiyatini oladi.

Mazkur moddaning mazmuniga ko'ra, bir taraf tovarni sotuvchi, ikkinchi taraf esa ushbu tovarni sotib oluvchi hisoblanadi. Asosiy maqsad tovarga bo'lgan egalik huquqini sotuvchidan xaridorga o'tkazishga qaratilgan bo'ladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun ular o'zaro majburiyat oladilar. Sotuvchining majburiyati tovarni sotib oluvchiga topshirishdan iborat bo'lsa, sotib oluvchining majburiyati tovarni qabul qilib olish hamda uning uchun belgilangan va kelishilgan pul summasini (bahosini) to'lashdan iborat.

Demak, oldi-sotdi shartnomasi quyidagi belgilari bilan ifodalanadi:

1. Oldi-sotdi shartnomasi ikki tomonlama shartnomalar turkumiga kiradi. Shartnoma yuzasidan taraflarning har qaysisida muayyan huquq va tegishli majburiyat paydo bo'ladi. Sotuvchi tovarni topshirish majburiyatini oladi va buning uchun haq olish huquqiga ega bo'ladi. Sotib oluvchi esa tovarning qiymatini to'lash majburiyatiga va sotilgan tovarning o'ziga topshirilishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

2. Oldi-sotdi shartnomasi konsensual xususiyatga ega, chunki tuzilgan shartnoma bilan uni ijro etish muddatlari har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlar, uning qachon bajarilishidan qat'i nazar, u tuzilgan paytdan boshlab yuzaga keladi.

3. Oldi-sotdi shartnomasi haq evaziga tuziladigan shartnomalardandir, ya'ni sotib oluvchi qabul qilib olingan tovar uchun belgilangan va kelishilgan pul summasini (bahosini) to'lashi kerak.

4. Oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad-tovarga bo'lgan egalik huquqini sotuvchidan sotib oluvchiga o'tkazish.

5. Oldi-sotdi shartnomasi og'zaki yoki yozma tarzda tuzilishini belgilagan. Quyidagi oldi-sotdi shartnomalari davlat ro'yxatidan o'tkazilishi orqali rasmiylashtiriladi:

- ko'chmas mulk oldi-sotdisi shartnomasi;

- korxonada oldi-sotdisi mulkiy kompleks sifatida;
- turar-joy, uy, kvartiralarga yoki boshqa binolar oldi-sotdisi.

Umumiy qoidaga asosan mulkdor tomonidan boshqa shaxslar uchun mulkni begonalashtirish ular uchun mulk huquqining bekor bo'lishiga olib keladi.

Oldi-sotdi shartnomasi mustaqil shartnoma sifatida ayrim toifadosh, turdosh (chakana oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, tovarlar yetkazib berish to'g'risidagi davlat kontrakti, kontraktatsiya, energiya ta'minoti, ko'chmas mulkni sotish, korxonani sotish) shartnomalardan tashkil topadi.

Turdosh shartnomalar o'z iqtisodiy mazmuniga ko'ra oldi-sotdi shartnomasidan iborat. Ularning iqtisodiy mazmuni tovar-pul shaklida haq evaziga amalga oshiriladigan munosabatlarning ma'lum bir doirasida maxsus maqsadda foydalanishga qaratilgan bo'lishi, ularda ishtirok etuvchi taraflarning huquq va burchlari tufayli bir-biridan yuridik mazmun jihatidan farqlanishi mumkin.

Ayrim turdagi tovarlarni sotish va sotib olishning o'ziga xos jihatlari FK va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasining chakana olish-sotish, mahsulot yetkazib berish, davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish davlat kontrakti, kontraktatsiya shartnomalari kabi turlarining xususiyatlari alohida tarzda bo'lib, ular oldi sotdi shartnomasiga o'xshash hisoblanadi. Shu bilan birga, ular yuzasidan alohida qonun hujjatlari ham qabul qilingan. Masalan, kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 avgustda qabul qilgan qarori bilan «Qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha kontraktatsiya shartnomasini tuzish va ijro etish tartibi to'g'risidagi nizom» tasdiqlandi.

Shartnoma predmeti bo'yicha esa u turar-joylarning, korxonaning, ko'chmas mulkning, qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi shartnomalari, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, energiya ta'minoti va sh. k. shartnomalarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqidagi tushunchalarda ushbu tartib kengroq tushuntirilishi maqsadga muvofiq deb bilaman.

Shundan kelib chiqib, ilmiy tuqtai nazardan turar-joylarning, korxonaning, ko'chmas mulkning, qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi shartnomalari, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, energiya ta'minoti va shu kabi shartnomalar oldi-sotdi shartnomasi ichki tartibi sifatida kengroq tushuntirilishi maqsadga muvofiq;

Mamlakatimizda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish davlatimiz iqtisodiyotini yuksalishiga olib keladi. Naqd pulsiz hisob –kitoblarni amalga oshirishda plastik kartochkalarni o'zni katta ahamiyat kasb etmoqda. "mamlakatimiz hayotiga plastik kartochkalar kirib kelganiga hech qancha vaqt bo'lgani yo'q. Shunga qaramay, 2010 yilning boshiga kelib savdo va xizmat

ko'rsatish shaxobchalariga o'rnatilgan terminallar soni 60 mingtaga yetdi¹⁰». Respublikamiz Prezidentining 2006 yil 3 avgustdagi "Plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va Vazirlar Maxkamasi qarori, Markaziy bank va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan 2009 yil 6 avgustdagi "To'lov terminallari bilan jihozlash va axoli bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshirishda ularni qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida oldi-sotdi munosabatlari amalga oshirilmoqda.

Lekin plastik kartochkalarga savdo qilishda savdo shahobchalari tomonidan terminallar to'lganligini bahona qilish holatlari juda ko'p uchramoqda. Oldi-sotdi shartnomalarini tkaomillashtirishda, terminallar tizimini takomillashtirish bo'lib oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha fuqarolik munosabatlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subekti

*P. Jalilov
Advokat*

O'zbek milliy davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda uni yanada rivojlantirish va takomillashtirib borish haqidagi milliy davlatchiligimizning konstitutsiyaviy huquqiy jihatlarini rivojlantirib, takomillashtirib borayotganligimizdan faxrlanish, qoniqish hosil qilamiz.

Har qanday davlatning boshqa davlatlar bilan o'zaro teng xalqaro munosabatda bo'lishini ta'minlovchi huquqiy asos talab etiladi. Hozirgi vaqtda dunyoda 230ga yaqin mustaqil suveren davlatlar mavjud. Bu davlatlar o'z asosiy qonunlarida, ya'ni konstitutsiyalarida o'z mutaqilligi va xalqaro munosabatlarning teng huquqli subekti ekanligini mustahkamlab qo'ygan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 23 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov, -"1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan mamlakatimizning Asosiy qonuni – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bugungi kunda hayotimizda qanday ulkan, hal qiluvchi o'rin tutayotgani haqida ortiqcha gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman... Konstitutsiyamiz bugungi kunda yurtimizda mustaqil, suveren demokratik davlat barpo etish, ko'p ukladli bozor iqtisodiyoti tarkibida xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlash va uning himoyasini kafolatlash, shuningdek, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblangan fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy huquqiy va qonunchilik poydevoriga aylandi¹¹-deb ta'kidlab o'tdi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin xalqaro huquq teng huquqli subekti sifatida o'z modeliga ega bo'ldi. Bu borada Prezidentimizning

¹⁰ WWW/huquqburch.uz

¹¹ Karimov I. A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat.

taraqqiyotning besh tamoyilini belgilab bergani mustaqillik jarayonida mamlakatimiz taraqqiyo etishi muhim omili bo'ldi.

Prezident o'z ma'ruzalarida "o'zbek modeli" davlat mustaqillishi va tsivilizatsiyaga erishgan yetuk davlatlar qatoridan joy olishimizda muhim shart ekanligini qayta va qayta ta'kidlaydi. Har bir konstitutsiya qabul qilingan kun tantanasida bu masalaga alohida e'tibor qaratadi. Konstitutsiya va uning asosida yaratilgan qonunchilik bazasi, shuningdek, 2010-yilda qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, 2011 va 2014-yillarda Bosh qomusimizga kiritilgan tuzatishlar jamiyatimizni isloh etish, demokratlashtirish va liberal-lashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha puxta o'ylangan, uzoq muddatga mo'ljallangan, dunyoda taraqqiyotning "o'zbek modeli" deb tan olingan dastur asosini tashkil etdi. Ayni shu model zamonaviy, jadal va barqaror rivojlanib borayotgan davlatning shakllanishida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi, desak, hech qanday mublag'a bo'lmaydi¹².

Konstitutsiya 17 moddasi davlatimizning xalqaro munosabatlardagi siyosatini belgilab beruvchi mezon hisoblanib, unda mamlakatimizning xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti ekanligi belgilangan. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin¹³.

Har bir davlat o'z funktsiyasini amalga oshirishda tashqi funktsiyasi yetakchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat tashqi siyosatiga alohida bir bobni bag'ishlash bilan mamlakat xalqaro xuquqning umume'tirof etilgan printsiplari va normalariga tarafdor ekanligini butun jaxonga ma'lum qildi. «Biz tashqi siyosatimizni shakllantirishda konstitutsiyaviy tamoyillarga amal qilgan holda, avvalo, o'z kuch — qudratimizga, ma'naviyatimizga, ko'p avlodlar mexnati bilan yaratilgan xalqimiz salohiyatiga tayanyapmiz, — deb ta'kidlagandi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov. Bu — tashqi munosabatlarda ochiq, teng xuquqli va o'zaro foydali xamkorlik qilish, xalqaro xuquqning umume'tirof etgan qoidalariga rioya etish demakdir».¹⁴

¹² Karimov I. A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., O'zbekiston. –B.3

¹⁴ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. — T.; 1993.-25 b

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud majlisi bayonnomasining mazmuni

J. Umarov

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

Sudning har bir sud majlisi to'g'risida, shuningdek sud majlisidan tashqarida qilingan har bir alohida protsessual harakat to'g'risida sud majlisining bayonnomasi tuziladi (FPKning 20-moddasi). Sud majlisining bayonnomasida ishni ko'rishning yoki alohida protsessual harakatlarni amalga oshirishning barcha muhim jihatlari aks ettirilishi lozim.

Sud majlisining bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) sud majlisi bo'lib o'tgan yil, oy, kun va joy;
- 2) sud majlisi boshlangan va tamomlangan vaqt;
- 3) ishni ko'rayotgan sudning nomi, sud tarkibi va sud majlisining kotibi;
- 4) ishning nomi;
- 5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va odil sudlovga ko'maklashayotgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 6) sudning taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilariga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirganligi;
- 7) FPKning ushbu modda 5-bandida ko'rsatilgan shaxslarga chaqiruv qog'ozi topshirilganligi to'g'risidagi va ular sud majlisiga kelmaganligining sabablari haqidagi ma'lumotlar;
- 8) raislik qiluvchi barcha farmoyishlari va sudning alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqmasdan chiqargan ajrimlari;
- 9) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizalari;
- 10) sudga taqdim etilgan hamma yozuv va ashyoviy dalillar, ekspertlarning yozma xulosalari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 11) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertlarning o'z xulosalarini og'zaki tushuntirishlari, mutaxassislarning fikrlari, ashyoviy va yozma dalillarni ko'zdan kechirishga taalluqli ma'lumotlar;
- 12) sud muzokaralarining mazmuni va prokurorning fikri;
- 13) sudning hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori o'qib eshittirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Sud majlisining bayonnomasi – protsessual hujjatdir. Shu sababli protsessual hujjatlarga qo'yilgan talablarga to'la javob berishi lozim. Sud majlisining bayonnomasi quyidagi qismlardan iborat:

- 1) sud majlisi sud majlisining bayonnomasining kirish qismi;
- 2) sud majlisi sud majlisining bayonnomasining bayon qilish – tafsivlash qismi.

Sud majlisi sud majlisining bayonnomasining kirish qismida sud majlisi bo'lib o'tgan yil, oy, kun va joy; sud majlisi boshlangan va tamomlangan vaqt; ishni ko'rayotgan sudning nomi, sud tarkibi va sud majlisining kotibi; ko'rilayotgan ishning nomi ko'rsatiladi.

Sud majlisi sud majlisining bayonomasining bayon qilish – tafsivlash qismida sud majlisida amalga oshirilgan barcha protsessual harakatlar – ishtirokchilarning tushuntirishlari, guvohlar ko'rsatuvlari, ekspertlarning xulosalari va boshqa yozma dalillarni tekshirish, sud muzokaralari kabi harakatlar o'z aksini topadi.

Sud majlisining bayonnomasi boshqa protsessual aktlardan farq qilib, unda asoslantirish va xulosa qismi mavjud bo'lmaydi.

Shunday qilib, sud majlisining bayonnomasida quyidagi protsessual harakatlar o'z ifodasini topishi lozim: 1) raislik qiluvchi sud majlisini ochib, qanday ish ko'rilishini e'lon qilganligi; 2) sud majlisining kotibi ish bo'yicha chaqirilganlardan kimlar kelganligi-kelmaganligi, chaqiruv qog'ozi topshirilgan-topshirilmaganligi, kelmaganlik sabablari to'g'risida ma'ruzasi; 3) kelmaganlarni shaxsini tekshirish, guvohlarni sud majlisi zalidan chiqarish; 4) sud tarkibini e'lon qilish va rad qilish huquqini tushuntirish; 5) ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini tushuntirish; 6) ishtirokchilarning iltimosnomalarni hal qilish; 7) raislik qiluvchini ish bo'yicha ma'ruzasi (da'vo arizani o'qib berish); 8) da'vogardan o'z talablarini quvvatlash-quvvatlamasligini, javobgardan da'vogarning talablarini tan olish-olmasligini va ularga kelishuv bitimi tuzishni taklif etish; 9) da'vogarning tushuntirishlari; 10) javobgarning tushuntirishlari; 11) uchinchi shaxslarning tushuntirishlari; 12) ularning o'zaro savol-javoblari; 13) dalillarni tekshirish tartibini belgilash; 14) guvohlarni so'roq qilish (bunda ular ogohlantirilganligi va qasamyod qildirib, tilxat olinganligi ko'rsatilishi kerak); 15) sudga kelmagan guvohlarni ko'rsatuvlarini o'qib eshittirish; 16) yozma dalillarni tekshirish; 17) ashyoviy dalillarni tekshirish; 18) ba'zi ishlarda ekspertni so'roq qilish; 19) ishni mazmunan ko'rishni tamomlash haqida ishtirokchilar fikrini tinglab, ishni mazmunan ko'rishni tamom bo'lganligini e'lon qilish; 20) sud muzokaralari tartibi va bir-biriga luqmalar ifodalanish; 21) prokuror ishtirok etsa, uning fikri; 22) sudning maslahatxonaga kirganligini raislik qiluvchi tomonidan e'lon qilinishi; 23) sudning hal qiluv qarorini o'qib eshittirish va raislik qiluvchi tomonidan sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish va hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish tartibi va muddatini tushuntirish, so'ngra, sud majlisini yopiq deb e'lon qilinganligi o'z aksini topishi kerak.

Sud majlisining bayonnomalari hajmi va o'ziga xos xususiyatlari ko'rilayotgan fuqarolik ishining toifasiga, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning doirasiga, so'roq qilingan shaxslar va tekshirilgan yozma va ashyoviy dalillarning soniga bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun sud majlisining bayonnomasiga nisbatan oldindan biror andoza belgilab qo'yish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Demak, sud majlisi bayonnomasi yozishda yuqoridagi ko'rsatilgan holatlardan kelib chiqish kerak.

Sud majlisining bayonnomasi orqali aniqlanadigan holatlar va ularning oqibatlari. Yuqori turuvchi sudlar tomonidan quyi sudlarning qarorlari va amalga oshirgan protsessual harakatlari sud majlisining

bayonnomasi orqali tekshiriladi. Sud majlisining bayonnomasi orqali yo'qo'yilgan moddiy va protsessual qonun buzishlar aniqlanadi. Jiddiy protsessual huquq normalarining buzilishi sud qarorlarining bekor bo'lishiga olib keladi.

Moddiy huquq normalari va protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri tatbiq qilinganligi hal qiluv qarorini bekor qilish va ishni yangidan ko'rish uchun birinchi instantsiya sudiga yuborishga asos bo'ladi.

FPK ning 312-moddasida ko'rsatilishicha, sudning qarorini apellyatsiya va nazorat tartibida bekor qilishga quyidagilar asos bo'ladi:

- 1) ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'liq aniqlanmaganligi;
- 2) sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning asoslanmaganligini;
- 3) sudning hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligi;
- 4) moddiy huquq normalari yoki protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qilinganligi.

Sudning mazmunan to'g'ri bo'lgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori faqat rasmiy asoslarga ko'ra bekor qilinishi mumkin emas.

FPK ning 313-moddasida ta'kidlanishicha, quyidagi hollarda moddiy huquq normalari buzilgan yoki noto'g'ri qo'llangan hisoblanadi:

- 1) sud tatbiq qilinishi lozim bo'lgan qonunni qo'llamagan bo'lsa;
- 2) sud tatbiq qilinmasligi lozim bo'lgan qonunni qo'llagan bo'lsa;
- 3) qonun noto'g'ri talqin qilingan bo'lsa.

FPK ning 314-moddasida mustahkamlanishicha, protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanganligi ishning noto'g'ri hal etilishiga sabab bo'lgan yoki sabab bo'lishi mumkin bo'lgan taqdirdagina hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorning bekor qilinishiga asos bo'ladi.

Ular quyidagilar:

- 1) ish sud tomonidan g'ayriqonuniy tarkibda qurilgan bo'lsa;
- 2) ish sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabar berilmagan shaxslardan birontasining yo'qligida ko'rilgan bo'lsa;
- 3) ish ko'rilayotganida ish yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilgan bo'lsa;
- 4) sud ishda qatnashishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlariga doir masalani hal qilgan bo'lsa;
- 5) hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo'lsa;
- 6) hal qiluv qarori, ajrim, qaror sudbyalardan birortasi (sudbya) tomonidan imzolanmagan yoki hal qiluv qarori, ajrim, qaror, ularda ko'rsatilmagan sudbyalar (sudbya) tomonidan imzolangan bo'lsa;
- 7) hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko'rmagan sudbyalar tomonidan chiqarilgan bo'lsa;

8) ishda sud majlisining bayonnomasi mavjud bo'lsa yoki u imzolanmagan bo'lsa, hal qiluv qarori, ajrim, qaror majburiy tartibda bekor qilinishi shart.

Yuqorida sanab o'tilgan protsessual xato va kamchiliklar sud majlisining bayonnomasi bilan hal qiluv qarorlarini taqqoslash orqali yuqori turuvchi sudlar tomonidan aniqlanadi. Mana shundan ham sud majlisi bayonnomasining ahamiyati katta ekanligi ko'rinib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, sud majlisining bayonnomasi sud majlisida bajarilgan barcha protsessual harakatlarni aks ettiruvchi muhim hujjat hisoblanadi. Uning tuzilishiga alohida e'tibor berish zarur. Chunki, fuqarolik ishining ko'rilishida uning to'g'ri yuritilganligi, protsessual me'yorga amal qilinganlikni yuqori sudlar shu bayonnoma orqali bilishlari mumkin¹⁵.

Afsuski, sud amaliyotida ba'zan sud majlisi bayonnomasiga e'tibor bermaslik hollari uchray turadi. Bayonnomalarning noto'g'ri tuzilishi sud hal qiluv qarorining bekor qilinishiga va ishning qaytadan ko'rib chiqilishi uchun yuborilishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'zbekiston respublikasi Oliy sudining Plenumining «Fuqarolik ishlarini ko'rishda sudlarning protsessual qonunlarni tadbiq etish amaliyoti haqida»gi qarorida ayrim fuqarolik ishlari bo'yicha tuzilgan bayonnomalarining sifatsizligi, bayonnomalarda, taraflar o'zlarining talablari qanday holatlar bilan asoslashlari va bu borada bergan arizalari va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sudni sud majlisida bajargan harakatlari haqidagi ma'lumotlar to'liq berilmaganligi tufayli bunday harakatlarni aniqlash imkoniyati bo'lmasligi, bu noaniqliklar tufayli ishlarning apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rilishida sud tekshirishiga yetarli baho berishga qiyinlik tug'dirish qayd etilgan va shunga ko'ra birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorining bekor bo'lishiga olib kelish hollari ko'rsatilgan. Nikohdan ajratish haqidagi ishlar bo'yicha sud majlisi bayonlari Fuqarolik protsessual kodeksining 21-moddasi talablariga mos kelmaslik holatlari ham, Plenum qarorida ko'rsatilgan¹⁶.

Davlat mexanizmini isloh qilish nazariy muammolari.

Eshmatova Xusnida

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Jamiyat taraqqiyotiga nazar tashlasak, dastlabki insoniyat ibtidoiy davrda davlatga extiyoj sezmagandligini kuzatamiz. Lekin jamiyatdagi kishilar kayfiyatidagi o'zgarish davlat tashkilotini vujudga kelishi uchun omil bo'ldi. Ya'ni, ijtimoiy mehnat taqsimotining vujudga kelishi; xususiy mulkning paydo bo'lishi, tabaqalarning paydo bo'lishi hisoblanadi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. 1999, 3-4-sonlari, 18-bet.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. 1998, 3-soni, 29-bet.

Davlat ibtidoiy jamiyatdan o'ziga xos belgilari bilan ajralib turadi,

Hozirgi vaqtda davlatning umumiy e'tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin¹⁷:

* davlat o'z davlat chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo'yicha birlashgan butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;

* davlat - suveren hokimiyatning yagona sohibidir;

* davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qiladi;

* davlat o'z vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat murakkab mexanizm (mahkama)dir;

* davlat - qonuniylik va huquq-tartibot posboni bo'lishga maxsus da'vat etilgan huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari (sud, prokuratura, militsiya, politsiya va hokazo)ga ega bo'lgan yagona tashkilot;

* faqat davlatgina o'z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo'la oladi.

Davlatning belgilaridan biri yuqorida ta'kidlanganidek, davlat o'z vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat murakkab mexanizm (mahkama)larning mavjudligi hisoblanib, u o'z faoliyati va vazifalarini aynan mexanizمنى tarkibiy qismlari, ya'ni, soddaroq tushuntirsak, davlat organlari orqali amalga oshiradi.

Davlat va huquq nazariyasi darsligi mualliflari tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra,- davlatning yagona va yaxlit mexanizmi tarkibiy qismlarga - organlar, yordamchi tuzilmalarga ajraladi. Ular o'rtasida o'ziga xos ierarxiya mavjud: davlat mexanizmidagi turli organlar va yordamchi tizimlar turlicha o'rin egallaydi, ular o'zaro subordinatsiya va muvofiklashtirishning murakkab munosabatlariga kirishadi.

Davlat mexanizmi tarkibi o'zgaruvchan va turlicha, lekin barcha sharoitda uning tarkibiga boshqaruv va majburlash organlari kiradi. Buni davlat mexanizmining bir qismi faqat boshqarish bilan, ikkinchisi faqat majburlash bilan shug'ullanadi, deb tushunmaslik kerak. Amalda boshqaruv va majburlash vazifalari bir-biriga qo'shilib ketadi¹⁸.

Ko'p asrlar va ming yilliklar davomida davlat mexanizmi yaxshi taraqqiy etmagan, uning organlari tarkibi va vazifalariga ko'ra ajratilmagan edi. Kuldorlik, feodalizm davrlarida, kapitalistik davlatning boshlangach davrlarida ham davlat mexanizmining asosini harbiy muassasa, ichki ishlar, moliya va tashqi ishlar muassasalari tashkil etar edi.

¹⁷ Saidov A. Davlat va huquq nazariyasi, Toshkent. 2002 yil.

¹⁸ Odilqoriyev X. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent, IIA. 2009 yil

Zamonaviy davlat mexanizmi o'ta murakkabligi, organlari va muassasalarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi, yirik qo'shimcha tizimlarga bo'linadi. Masalan, davlatning oliy organlari: hokimiyat, davlat rahbari, hukumat uning bir qismini tashkil etadi. Ular odatda jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari diqqat markazida bo'lib, jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Ikkinchi qo'shimcha tizim - huquqni muhofaza etish, sud, prokuratura organlari, shuningdek, harbiy kuchlar (armiya, politsiya, razvedka)dir. Ular davlat oliy organlari qarorlarini bajaradilar. Bunda davlat majburlash usullari (harbiy tazyiq, politsiya choralari) qo'llanilishi mumkin.

Davlat organlari tarkibiga hokimiyat vakolatlariga ega bo'lmagan, iqtisodiyot, ta'lim, sogliqni saqlash va boshqa sohalarida umumijtimoiy vazifalarni bajaradigan davlat muassasalari ham kiradi.

Zamonaviy davlatlarning ko'pchiligida aholi yoki parlament tomonidan saylanadigan yoxud alohida saylov jarayoni orqali saylanadigan prezident davlat boshlig'i hisoblanadi.

Hokimiyatlar esa vakolatlari bo'yicha bo'linishga ega bo'lib, yagona davlat hokimiyatini amalga oshiradi. Ular qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlaridir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin rivojlangan davlatlar tajribasiga hamda davlatchilik taraqqiyoti tarixiy tajribalari asosida o'z davlat mexanizmini shakllantirdi. O'zbekistonda 1990 yil 24 martda Prezident boshqaruvi joriy etildi. O'zbekistonning birinchi prezidenti I. A. Karimov endigina mustaqillikka erishayotgan davlat yo'l boshchisi etib saylandi. Davlatimiz rahbari mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq fuqarolik jamiyati va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish uchun yo'l boshchilik qildilar.

Davlat mexanizmini shakllantirishda Prezidentimizning xizmatlari cheksizdir. U kishining tashabbusi bilan 1993 yil davlat boshqaruvini amalga oshirishning besh tamoyili e'lon chiqildi. U kishi Iqtisodiy islohot: ilk samaralar mavzusidagi 1993 yil 27 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yig'ilishidagi ma'ruzasida shunday deb ta'kidlagan edilar: - "Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi, iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur. Jahon tajribasi iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solib turish zarurligidan dalolat bermoqda. Tom ma'noda o'zini o'zi tartibga solib turadigan bozor bo'lmaydi. Davlat o'zining alohida mavqeiga ko'ra hamma davrlarda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir o'tkazib kelgan... Bozor tomon harakat qilingan sari xo'jalik faoliyatini boshqarishda davlatning ahamiyati sezilarli darajada o'zgaradi. Davlat, uning hokimiyat tuzilmalari xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashmasligi kerak. Davlat iqtisodiy vositalar va rag'batlantirishlar yordamida iqtisodiyotni bilvosita boshqarish, umummilliy muammolarni hal etish bilan shug'ullanishi lozim"¹⁹.

¹⁹ Karimov I. A. Iqtisodiy islohot: ilk samaralar .1993 yil 27 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yig'ilishidagi ma'ruza

Prezidentimiz davlat boshqaruv mexanizmini isloh qilish uchun tinimsiz xizmat qilib har yilgi mustaqillik arafasidagi yoki Vazirlar Maxkamasidagi ma'ruzalarida yangi –yangi rejalar ishlab chiqish uchun yo'llanmalar berib bordilar.

Hozirda davlat mexanizmidagi barcha xokimiyat va hokimiyat organlari jahonning rivojlangan davlatlari ilg'or tajribalari asosida shakllanmoqda. Masalan, mustaqillikning dastlabki kunlarida Oliy qonunchilik organimiz bir palatali tarzda shakllantirilgan bo'lsa, hozirgi kunda ikki palatali tarzda isloh qilindi, sud hokimiyati islohotlar natijasida ixtisoslashtirildi. Boshqa davlat mexanizmi tarkibi ham jamiyat manfaatlariga mos tarzda isloh etilmoqda.

Bu barcha o'zgarishlar davlatimizning asosiy qomusida o'z aksini topib, qonuniy mustahkamlanmoqda.

Hozirga kunda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan davlat mexanizmidagi, xususan, prezident boshqaruvi va ijro etuvchi va farmoiysh beruvchi hokimiyat tarkibida o'zgarishlar amalga oshirilishi uchun takliflar berildi.

2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi» mavzuida ma'ruza qildi. Ushbu ma'ruzada islohotlarning navbatdagi kontseptsiyasi taklif etildi. Davlat hokimiyati va boshqaruvinii demokratlashtirish kontseptsiyasida prezident vakolatlarini muayyan qismi ijroiya xokimiyat rahbari, bosh vazirga o'tkazilishi o'tkazildi

Demak davlatimiz ravnaqi yuksalgan sari davlat mexanizmi ham isloh etilmoqda. Bu islohotlar fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat qurishning asosiy mezonidir.

O'zbekiston badiiy kulolchiligining tarixiy rivojlanish tasnifi

Azizbek Soliyev,

NamDU "Tasviriy san'at va amaliy-bezak san'ati" mutaxassisligi I-bosqich magistranti,

Ilmiy rahbar: dots. O'. Abdullayev

Kulolchilik Amaliy san'atning eng qadimiy va boshqa turlarini shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'lgan sohasidir. Agar san'at ibtidosiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng avvalo sopol buyumlarning yaratilganligi, so'ngra ularni bezash uchun bo'yoqlar va naqshlar yaratilganligini ko'ramiz. O'zbekiston kulolchiligi ham ana shunday uzoq tarixiy yo'liga ega bo'lishi bilan birga, ayni paytda o'zining jahon Amaliy san'ati doirasida ham katta o'rniga egadir. Biroq kulolchilik san'atini yanada-yangi pog'anaga ko'tarish va rivojlantirish ayni paytda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu mas'uliyatli vazifani sidqidildan bajarish uchun bugun juda katta imkoniyat eshiklari

ochilmoqdaki, bu ijod qilish uchun kerakli shart-sharoitlarni ham kengayishiga turtki bo'ladi.

Kulochilik san'ati xalq hunarmandchiligining bir bo'lagi bo'lib, u amaliy san'atning tarkibiy qismi o'laroq tarixan uzoq yo'lni bosib o'tgan. O'rta Osiyoning kulochilik buyumlari eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklardan paydo bo'lganligi haqida arxeolog olimlar ilmiy-ashyoviy dalillar asosida ma'lumot va xulosalarini beradilar. Chunki, O'rta Osiyoning Enalit davri tadqiqotchilari ma'lumotlariga ko'ra eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklarda O'rta Osiyoda kulochilik buyumlarini pishiriladigan xumdonlar va rangdor sopol buyumlarini ishlanish jarayonini ifoda etadigan ashyoviy dalillarni ko'plab topilgan. "Qadimgi Xorazm arxeologik tadqiqoti ekspeditsiya boshlig'i arxeolog-olim S. Tolostovning ilmiy xulosalari «Kaltaminor madaniyati»ning «Tozabog'yob», «Suvyorg'on», «Amirobod» topilmalari eramizdan avvalgi III ming yillikka oid bo'lib, ular orasida bo'yalmagan va bo'yalgan Kulochilik buyumlari borligini asoslaydi."²⁰ "S. Tolostov yana tadqiqotlari davomida eramizdan avvalgi I- ming yillikda qadimgi Xorazmda kulochilik charxidan foydalanilganligi va bu yerdan sirti qizil-angop va lak qoplangan sopol buyumlarning shakli ming yilliklar osha o'zgarmaganligi yoki juda kam o'zgarganligini bayon etadi." "Shuningdek Qadimgi o'zbek kulochiligi haqida «Konguy madaniyati»ga oid «Jonbozqalo», «Teshiqqalo», «Jettison» kabi qadimgi Xorazm arxeologik manzilgohlaridan topilgan sopolbuyumlar kulochilik san'atini bu o'lkada ancha yuksak darajada rivojlanganligini asoslab beradi."²¹ Qadimgi Surxonning «Bolalik tepa», «Fayz tepa», «Ayritom», «Sopolli tepa», «Jarquton», «Mirshodi» arxeologiya manzilgohlaridan topilgan sopol buyumlari ham eradan avvalgi ming yilliklarda O'zbekiston hududida kulochilik san'atining yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Arxeolog-olimlar A. Okladnikov, A. Asqarovlar bu o'lkadan loydan ishlangan sopol idish-tovoqlar, budda haykalchalari, keramik buyumlar topganlarkim, ular ham qadimgi o'zbek kulochiligi tarixi geografiyasini kengaytirib beradi.

Qadimgi Farg'ona arxeologik jihatdan to'la o'rganib chiqilmagan bolsada, bir qator izlanishlar bu o'lka san'ati va madaniyatiga oid tarixiy arxeologik ma'lumotlar o'zbek kulochiligi san'ati tarixini o'rganishga anchagina ilmiy manbaolar beradi. Mustaqillik yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimgi Farg'ona tarixini, uning san'ati va madaniyatiga oid bir qator tarixiy-yangiliklarni ishlab chiqdilar. Bu tadqiqotlar qadimgi Farg'onaning Axsikent, Chust, Koson, Shaxrixaybar kabi shaharlari tarixini, san'ati va madaniyati rivojlanishi yo'llarini asoslab berdi. Farg'ona arxeologik tadqiqotlari natijalariga ko'ra «Buonamozor», «Dalvarzin», «Ashqoltepa», «Bo'ztepa», «Mug'tepa», «Balandtepa», «Sopollitepa» kabi manzilgohlardan topilgan sopol buyumlar bu o'lkada ham eradan avvalgi ming yilliklarda kulochilik san'atiga e'tibor ancha yaxshi bo'lganligi va bu san'at bilan jiddiy shug'ullanganligiga ishonch hosil

²⁰ Tolstov S. Xorazm madaniyatini izlab. T.1964.(85 bet)

²¹ Tolstov S. Xorazm madaniyatini izlab. T.1964.(101 bet)

qilinadi. Chunki, bu o'lkada sopol buyumlar avvallari qo'lda va keyinchalik kulolchilik charxida yasaliib, ularni avvallari tuproq rangida bo'yalgani, keyinchalik tabiiy ranglarda bo'yalgani va yana keyinchalik buyumlarga sodda ko'rinishda bezaklar berilgani arxeolog-olimlarni xisobotlarini va nashrli qo'llanmalarida bayon etilgan. "Zarafshon vohasining shahar va qishloqlarida jumladan, kulolchilik juda yaxshi rivojlanganligi ko'rsatiladi-ki, bular arxeolog-olimlar bergan ma'lumotlarida ham o'z aksini topadi. Chunki Buxoro, Samarqand, Varaxsha, Afrosiyob kabi qadimiy shaharlarni arxeolog jixatidan o'rganish jarayonida kulolchilik san'ati bu shaharlar taraqqiyotida muhim rol o'ynagani ko'rsatib o'tiladi. IX-XIII asrlarda Afrosiyobda g'oyat bejirim, nafis jilolanuvchi va jaranglovchi, Naqshinkor, sirlangan idish-tovoqlar, chiroqlar, siyoxdon kabi sopol buyumlar ishlab chiqarilgani va O'rta Osiyo Eron va Afg'oniston bozorlarida sotilgani haqida ma'lumotlar bor."²² Afrosiyob kulolchiligi buyumlarida naqshlar, qush va hayvonlar tasviri, manzaralar va arab alifbosida she'rlar, maqollar, duolar yozilgan bo'lib, ular odamlarni ilm-maorifatga, yaxshilikka, sahiylikka, bohodirlikka chaqirgan. "O'zbekistonni yana bir shahri Varaxsha bo'lib, bu shahar arxeologik izlanishlarini boshqargan arxeolog-olim V. Shishkin, bu shaharni I-II asrlarda gullab yashnagan, hunarmandalar shahri bo'lganligini asoslab berdi.

Buxoro, Samarqand kulolchilik maktablarini o'ziga xos tomonlarini G'ijdivon kulolchiligi o'zida to'la ifoda etadi. G'ijdivon kulolchiligi maktabi buyumlarining shakli, tuzilishi va bezatilishi jihatidan Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Urganch, Denov kulolchilik maktablariga o'z tasirini o'tkazib keladi. Lekin buyumlarni bezatishda G'ijdivon va Shahrisabz kulollari mo'yqalam (qalami) uslubida ishlasalar, Urgut va Denov kulollari «chizma» uslubda, yaoni chizma naqshlar uslubida ijod qiladilar. G'ijdivon buyumlarida uzluksiz-islimli naqshdan ko'proq foydalanadilar. Bu kompozitsiyalarda jiyda guli, bodom, no'xot mevasi, bodom bargidan ko'proq foydalanadilar. G'ijdivon bezaklarida rang uyg'unligiga alohida e'tibor beradilar. Shahrisabz kulolchiligi ham Zarafshon kulolchiligi an'analari asosida ishlasa ham, buyumlarning texnik qurilishi, shakl tuzulishi va ularni bezatishiga ko'ra o'ziga hols yaxlitlik yaratadi. Shahrisabz kulolchiligida ilonizi, zanjira va qushmarak kabi grix uslubiga yaqin bezaklar ham uchrab turadi. Xorazm, XIV asr kulolchiligi maktablarida sopol buyumlarini shakli, tuzilishi va texnologik holatlariga ko'ra boshqa maktablardan o'ziga xos talablarda farqlanadi. Xorazm kulolchiligida ko'proq chuqur tovoq, likop, tarelkalar ishlashda o'ziga xos alohida talablar qo'yiladi. Buyumlarni bezatilishida ham grix, ham grix, ham islimidan va ham aralash turlaridan o'ziga hos maqomda ijodiy foydalanadilar. Buyumlar bezagida geometrik shakllar, o'simlik barglari, shuningdek ayrim kompozitsiyalarda qush va hayvonlar tasviridan ham unumli foydalanadilar. Bugungi kunda Xorazm kulolchiligini asosan «Modar» va «Kattabog'» kulolchilik

²² Nozimov D. O'rta Osiyo dizayn tarixidan. T.,1998(69-bet)

markazlari yuksak eotiqod bilan ijodiy kamoloti yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda. XIV asr kulolchiligi Xorazm kulolchiligi san'ati an'analarini o'zida mujassam etgan holda rivojlanib keladi. O'rta asrlarda XIV asr shahri qurilishi avj oladi. XVII-XIX asrlarda bunyod etilgan Ichanqal'a qurilishida kulolchilik va keramika asosiy bezak vositasi bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekiston kulolchiligi tobora takomillashib kelgan holda o'zining yangidan-yangi kermika, fayansli, chinni birikmalarigacha rivojlanib, keng xalq ommasiga, meomorchilik qurilishlarga, sanoatga va xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga zaruriy buyumlarni mukammal holatda yetkazib bermoqdalar.

Inglizcha matnlarni o'qishni o'rgatishning samarali vositalari

N. A. Mamadjanova

NamDU o'qituvchisi

O'qish bu faqat inglizcha so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish emas, balki berilgan matnni o'quvchilardan tushunishni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. O'qituvchi o'qish jarayonini tez-tez tashkillashtirib turishi va darslikdan tashqari qo'shimcha matnlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Matnlarni tanlashda o'qituvchi nihoyatda e'tiborli bo'lishi talab qilinadi, aks holda o'quvchilarda inglizcha matnlarni o'qishga nisbatdan qiziqish susayadi. Dars jarayoni uchun tanlanadigan matnlar o'quvchilar yoshiga hamda qiziqishiga va ularning bilim darajasiga mos bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Matnlarni o'z ona tilida o'qishdan ko'ra chet tillarida o'qish o'quvchilarda albatta qiyinchilik tug'dirmay qolmaydi. Bunda albatta o'quvchilarning so'z boyligining kamligi va grammatik bilimning sustligi sabab bo'ladi. Ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun ko'proq matnlarni o'quvchilarga o'qitib borish yaxshi natija beradi. Shunda ularning so'z boyligi oshib borishi kuzatiladi, hamda grammatik strukturalarning hususiyatlarini o'rganib borishadi.

Bizga ma'lumki, ingliz tili darslarida o'qish jarayonini tashkil qilish uchun asosiy bosqichdan iborat. Ushbu bosqichlarga rioya qilgan holda matnni o'quvchilarning bilim darajasiga mos tarzda dars rejasini loyixalash zarur bo'ladi.

Birinchi bosqich matnni o'qishdan avval ularni tayyorlab olish kerak bo'ladi. Ushbu bosqichda o'quvchilarni motivatsiyasini kuchaytirish keyingi bosqichga oson va tez o'tishning imkonini yaratadi. Bu bosqichda asosan o'qituvchi o'quvchilarga matn nima haqida bo'lishi mumkinligini bilish uchun tezda ko'z yugurtirib chiqishlikni aytadi. O'qituvchi o'quvchilarning avvalgi orttirgan tajribalari, bilim, malaka va ko'nikmalaridan samarali foydalanib, ularning matnni tushunishi va chet tilida o'z bilimini ifodalash qobiliyatlarini aniqlash uchun ularga matn nima haqida bo'lishi mumkinligi to'g'risida bir nechta savollar bilan murojaat qiladi. Yana bir muhim jihati shundaki, o'qituvchi matnni o'quvchilarga o'qish uchun berishidan avval, ular uchun tushunarsiz bo'lgan so'zlar yoki so'z birikmalarini berishi kerak bo'ladi. Ushbu

bosqichda o'qituvchi darsni to'g'ri tashkil qilishi, o'quvchilarning oldingi bilimlari va matnni umumiy tarzda tushunishni aniqlashga, o'quvchilarga esa matnni anglab yetishga, o'zlarini qiziqtirgan savollarni so'rashga va yangi so'zlarni o'rganish orqali so'z boyligini kengaytirishga imkon beradi.

Ikkinchi bosqich asosiy bosqich bo'lib, bunda oquvchilar matnni o'qishlari kerak bo'ladi. Ushbu bosqichda, o'quvchilarning qiziqishi saqlangan holda matnning mazmunini tahlil qilib borishadi. Ular matnning asosiy mazmuniga va tayanch tushunchalarga e'tiborlarini qaratishadi. Hajmi jihatdan kengroq matn bo'lsa o'quvchilar oldindan voqealar rivojini tahmin qilib borishadi. Matndagi asosiy qahramonlarga nisbatdan o'z qarashlarini ifodalashlari va tahlil qilishlari mumkin. Matndagi faktlar va fikrlarni tekshirib boradilar. O'quvchilar o'zlari uchun notanish bo'lgan so'zlarni kontekstdan topishga harakat qilishadi.

Ushbu bosqichga yana qo'shimcha ravishda ushbu usulni joriy qilish yaxshi natija beradi:

-o'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga bo'ladi va deydik biror-bir hikoyani har-xil qismlarga bo'lib chiqadi va uni aralashtiradi.

- Betartib qismlarga ajratilgan hikoyani o'quvchilarga tarqatib beradi, ular esa hikoyaning har-bir qismini o'qib ularni to'g'ri tartibda joylashtiradi.

-hikoya o'z asli tartibga kelganidan so'ng o'quvchilar o'qiydilar.

-hikoyaning qay darajada to'g'ri tartibga keltirilganini o'qituvchi o'quvchilar bilan muhokama qiladi, noto'g'ri bajarilgan bo'lsa hatolar to'g'irlanadi.

-qo'shimcha ravishda o'quvchilar sabab va natija diagrammalarni ham to'ldirishlari mumkin. Bunda ular bir ustunga hikoyada nima sodir bo'lgani (natija) va nima uchun sodir bo'lgani (sabab)ni yozadilar.

Ushbu bosqich eng asosiy bosqich bo'lib, unda o'qituvchi o'quvchining tasvirlash, fikrlash va o'qish qobiliyatini aniqlaydi, o'quvchilar esa hikoyadagi voqealar jarayonini to'g'ri baholay olish va uni tushinish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Uchinchi bosqich so'ngi bosqich bo'lib, unda o'quvchilar matndagi g'oyani sintez qilishadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar kengroq fikrlashga imkon beradi. O'qituvchi o'quvchilardan hikoyani tasvirlashni va voqealar rivoji haqida savollar beradi. Shuningdek, o'qituvchi ulardan hikoyaga bog'liq bo'lgan tushunchalar, fikrlar, hikmatlar va undan kelib chiqadigan hulosalar haqida so'raydi. O'quvchilar o'z fikrlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashadilar va muhokama qiladilar. Fikr va xulosalar orasidan hikoyaning asosiy mazmuniga yaqin variant tanlab olinadi. Yana muhimi shundaki, o'quvchilar hikoyani qayta o'qishlari, qahramonlarga nisbatdan tanqidiy fikrlarini bildirishlari juda yaxshi natija beradi. O'qituvchi o'quvchilardan hikoyani qisqacha aytib berishlarini so'rashi, ularning og'zaki nutqining o'sishiga imkon beradi. O'quvchilar hikoya qahramonlaridan biriga hat yozishlari ham mumkin. Agar ularning xatida javob berilishi talab qilinsa, boshqa bir o'quvchi o'sha qahramon ro'lini o'ynagan holda javob yozishi mumkin. Bu ularda yozma nutqining rivojlanishiga yordam

beradi va o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish kuchayadi. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarga hikoya yuzasidan "ha/yo'q/berilmagan", "to'g'ri yoki noto'g'ri" va shu kabi savolli topshiriqlarni berishi ularning qanchalik matni yaxshi tushunganligini tekshirishga imkon yaratiladi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, inglizcha matnlarni o'qish o'quvchilarda qiziqishini o'stirishga, o'g'zaki nutqining rivojlanishiga, so'z boyligining kengayishiga, chet tilida o'qish va tanqidiy fikrlay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J. David Cooper. Using Different Types of Texts for Effective Reading Instruction. Current Research. Copyright 2001 by Houghton Mifflin Company. p3-4.

2. Day, R. (1972). New Ways in Teaching Reading. Adapted with permission of Warner Books from Bank Shot by Donald E. Westlake. London: Simon & Schuster, Inc. Adapted from Ap State English Lecturers' Retraining Program, Trainer's handbook. P 235.

Toza atrof muhitga ega bo'laylik

Nasrullayev Avaz

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Toza atrof tabiiy muhitga ega bo'lish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish insoniyatning birinchi navbatdagi huquqi hisoblanadi va shu bilan birga ularni asrab avaylash burchi hamdir. Lekin tarixning muayyan davrlarida ushbu soha deyarli e'tibordan chetda qoldirildi. Davlatimiz rahbari tomonidan bu masalaga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq e'tibor berildi. Prezidentimiz:- Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir. Ochiq e'tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug'ullanilmagan. Aniqrog'i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o'z mamlakatlarining kelajagiga, tabiiy boyliklari saqlanib qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa "qalb nidosi" bo'lib kelgan. Biroq ularning vijdonga, fuqarolik burchiga, nihoyat, aql-idrokka da'vatlari to'ralashib ketgan sovet-partiya amaldorlarining sovuq, hatto aytish mumkinki, surbetlarcha loqaydligiga duch kelavergan. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Tabiiy va mineral-xom ashyo zahiralardan vahshiylarcha, ekstensiv usulda, juda katta xarajatlar va isrofgarchiliklar bilan foydalanishga asoslangan sotsialistik xo'jalik yuritish tizimining butun mohiyatiga mamlakat ixtiyoridagi beqiyos boyliklarga avaylab munosabatda bo'lish g'oyasi butunlay yot edi. Aksincha, boyliklardan bunday foydalanish ikki tuzumning iqtisodiy musobaqasida mamlakatning asosiy dastagi, eksport

imkoniyatlarining negizi bo'lib keldi²³- deb ta'kidlaganlari barcha uchun saboq bo'lmog'i kerak.

Xalqaro miqyosda ham, inson huquqlarining ajralmas qismi ekologiya masalasi hozirgi kunda ham deyarli muammoli masala bo'lib qolmoqda. Ekologiya muammolari xalqaro miqyosda, mintaqa miqyosida va milliy miqyosda o'rganilib, yechimlari bo'yicha me'yorlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda davlatning asosiy qonuni O'zbekiston Konstitutsiyasi bilan bir paytda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Uning ijrosi ta'minlash bo'yicha bir qancha davlat organlari tomonidan me'riy hujjatlar ishlab chiqildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ekologik harakat tashkil etilganligi maqsadlarni amalga oshirishdagi ulkan faoliyatdir. O'zbekiston Oliy Majlisiga saylov o'tkazish jarayonida **ekologik harakat**dan 15 nafat deputat a'zo bo'lishi davlatimizning fuqarolarni ekologiya sohasidagi huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun zamin yaratadi.

Endilikda ekologik targ'ibotni amalga oshirishda biz yanada faolroq bo'lishimiz lozim. Dunyo miqyosidagi katta muammolarning kichik ko'rinishlari mahallalarimizda, ko'chalarimizda, jamoat joylarimizda ham ko'zga tashlanadi.

O'zbek xalqi bilimli, sabrli, va farzandlari baxt saodati uchun fidoyi halq hisoblanadi. Xalqimiz o'z farzanlarini tarbiyalashda jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib tarbiya beradi.

Lekin hozirgi kunda tarbiyamizda ayrim nuqsonlar vujudga kelmoqdaki, ular uchun aybdorgandan ko'ra, o'sha nuqsonlarni tugatish choralarini ko'rmoq maqsadga muvofiqroqdir. Ertalabda ko'chaga chiqsangiz, ko'chalar supurilgan, suvlar sepilgan bahri dilingiz ochilib ishga borasiz. Lekin ayrim xududlarda ko'chalardagi axlat uyumlari bu go'zallikka dog' bo'lib tushadi. Bundan tashqari ko'chalarda yurishda ayrim shaxslar tarbiyasizligi tufayli ko'chalardagi ko'rinishlar buzilishi ham atrof tabiiy muhitni buzilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, ko'chalar chetidagi ariqchalarga tashlangan sigareta qog'ozlari, saqichlarning va boshqa turli buyumlarning qog'ozlari, odamlarning tupuklari, ayniqsa jamoat joyini ko'rinishini buzadigan holatlardir.

Bu axvolni oldini olish uchun hokimiyat tomonidan nazoratni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuningdek, shahar va qishloq mahalla fuqarolar yig'ini faollari bu holatlarni bartaraf etishda katta kuchdirlar. Chunki, mahalla har bir oila uchun tarbiya maskanidir. Oila har bir inson uchun tarbiyaning birinchi o'chog'idir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Agar oiladagi tarbiya yaxshi bo'lsa u xonadon farzandi hech qachon bunday holatlarga yo'l qo'ymaydi. Agar tarbiyali oilalar bor mahallar ko'paysa ko'chalar obod, xonadonlar barakotli bo'ladi. Bu masalani mahalla faollari yig'ilishi kun tartibiga kiritilib, doimiy nazorat amalga oshirilishi lozim. Ko'chalarda mahalla faollari

²³ Karimov I. A. XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari Toshkent, O'zbekiston, 1997 yil-5 bet

qaysi xonadon farzandi nima bilan shug'ullanadi, fe'li qanday juda yaxshi bilishadi. Ayrim xonadonlardagi ko'chalarga axlat tashlab ketadigan farzanlar borligini ham bilishadi. Ana shunday xonadonlar bilan suxbatlar amalga oshirilishi va tazalik tadbirlarida ularni jalb etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu kichik haraktalar kelajakda o'zining kattagina natijasini ko'rsatadi.

Adolat ustuvorligi tamoyillari

*O. Chuboyeva - Huquqshunos,
Kenjayev B.- Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

Barcha davrlarda insoniyat adolatlilik, haqqoniylik uchun kurashgan. Diniy va dunyoviy ta'limotlarda, mutafakkirlar qarashlarida adolat ustuvorligi masalasi asosiy maqsad qilib belgilangan.

Odamlar o'zaro munosabatlarda adolatni ta'minlash uchun davlat tashkilotini shakllantirgan. Qonunlar qabul qilish orqali adolatni ta'minlashni mezon deb bilgan.

Kishilik jamiyatining dastlabki davrlaridayoq, "Ovesto", "XII jadval qonunlari", "Xammurapi qonunlari", vedalarda, Konfutsiylik ta'limotlarida, Xalq yig'inlari tomonidan qabul qilingan qonunlarda, barcha uchun muqaddas Quo'oni Karimda, sharq-g'arbdagi uyg'onish davrlari mutafakkirlari ta'limotlarida adolatni ta'minlash asosiy masala deb belgilangan.

Mustaqillika erishgandan keyingi davrda fuqarolik jamiyati, insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish uchun kurash boshlandi. Barcha qonunlarimiz tarixiy tajribamiz va xalqaro e'tirof etilgan adolat tamoyillari asosida qabul qilindi. O'zbekiston jadal rivojlanishining asosiy mezoni ham insonparvarlik tamoyillariga amal qilinayotganlikda deb belgilansa mubolag'a bo'lmaydi. Davlatimiz yo'lboshchisi tashabbusi bilan barcha sohalarda, jumladan sud – huquq sohasida ham kuchli islohotlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Lekin adolat hamisha ham tantana qilaverolmaydi. Chunki, insonlar hammasi ham pok niyat bilan yashay olmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov 2001 yil Oliy Majlis sessiyasidagi "Adolat – qonun ustuvorligida" nomli ma'ruzasida shunday ta'kidlaganlar, - "Bugun bizning huquqiy doktrinamiz mutlaqo yangicha, demokratik tamoyillarga asoslangan. U, eng avvalo, O'zbekiston Konstitutsiyasi talablariga ko'ra, inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlaydi. Inson himoyaning bosh sub'ekti bo'lib, uning hayoti va sog'lig'iga suiqasd qilish og'ir jinoyat hisoblanadi.

Lekin shuni afsuslanib tan olishimiz kerakki, hali-beri qonunchiligimizda ham, qonunni qo'llash faoliyatimizda ham o'tmish zamonning illatlaridan hamon qutila olmayapmiz. Sud-tergov tajribasida ba'zan umuman toqat qilib

bo'lmaydigan mantiqsizliklarga yo'l qo'yilmoqda²⁴”. Haqiqatdan ham davlatimiz yo'l boshchisi o'z vaqtida bu masalaga e'tibor qaratgan. Inson huquqlarini ta'minlash borasida xatoliklarga yo'l qo'yish orqali insonlar taqdiriga salbiy ta'sir qilinish holatlari anchagina uchrab turadi.

Prezidentimiz bu boradagi fikrlari quyidagicha, - “Tergovni zo'rvonlik bilan olib borish, ya'ni oldin hibsga olib, jamiyatdan ajratib, keyin uning aybini isbotlashga kirishishdek o'tgan zamondan qolgan yaramas tajribaga hali-hanuz barham berilmagan.

Huquq-tartibot idoralarining ayrim nopok xodimlari uchun fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish birinchi navbatdagi vazifa bo'lmay, balki qo'rqitish, o'z vakolati va hukmdorligini ko'rsatib qo'yishga intilish, o'zini go'yo jinoyatchilikka qarshi kurashayotgandek qilib ko'rsatish kabi noxush odat hamon yashab kelmoqda.

Shundaylar ham borki, ular qonunchiligimizdagi ayrim nomukammalliklar, odamlarning xato va baxtsizliklari hisobiga o'zlarining g'arazli, ta'magiriklik maqsadlariga erishishga urinadi. Bunday xodimlar xalq haqida, davlatning obro'si va farovonligi haqida mutlaqo o'ylamaydi.

Eng xavfli shundaki, odamlar taqdiriga beparvolik, nomaqbul ish usullari oqibatida biz oddiy, umuman olganda, qonunga itoat etuvchi, lekin qonundan bir oz chekingan fuqarolarni noto'g'ri jazolab, ulardan hokimiyatga ham, qonunga ham ishonmaydigan norozi odamlar toifasini o'z qo'limiz bilan yaratamiz²⁵”. Bu albatta tashvishli bo'lib, chunki ana shu xodimlar o'zimizning xalqimiz orasidagi nopok kimsalar ekanligi achinarli holdir.

Ushbu ma'ruzadan keyingi davrdagi sud-huquq sohasidagi isloxtlar insonparvarlik tamoyiliga asoslanadi. Jinoyi jazolarni liberallashtirilishi, o'lim jazosini bekor qilinishi, advokatura institutini isloh etilishi va boshqa islohotlar jamiyatda yangilanishni vujudga keltirmoqda. Lekin hozir ham islohotlardan tegishli xulosa chiqarmagan ayrim huquq tartibot organlari xodimlari davlatimiz vonunlari va xalq manfaatlarini mensimay harakat qilmoqdalar. Ular qonunlarimizda belgilangan tamoyillarga amal qilmaydilar. Bunday holatlar ayrim holatlarda uchrasada xalq taqdiriga salbiy ta'sir etadi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi, jinoyat protsessual kodeksi va boshqa moddiy va protsessual harakatlarni belgilovchi huquq normalarida belgilangan tamoyillar protsessual harakatlar uchun asosiy mezon bo'lmog'i darkor. Ammo, bu tamoyillarga amal qilmaslik holatlari ham uchrab qolmoqda, masalan, Jinoyat ishlari bo'yicha sudda bir necha shaxslarning noqonuniy narkotik savdosi bo'yicha aybli, deb topilib sud majlisiga kirishiladi. Sudning tayyorlov qismida ayblanuvchilardan biri, ayol kishi ehtiyot chorasini qo'llash bo'yicha munosib xulq-atvorda bo'lish xususidagi “tilxat”i bilan ochiqlikda bo'lgani, tergovga atigi bir-ikki marta chaqirtirilib, ish bilan tanishtirilmasdan shoshma –shosharlik bilan tergov hujjatlariga imzo qo'ydirilgani, qo'liga ayblov xulosasi berilmagan ekani ayon bo'lib qoldi. Sud'ya sudlarning mustaqilligi, faqatgina qonunlarga

²⁴ Karimov I. A. Adolat – qonun ustuvorligida, Xalq so'zi. 2001 yil. 30 avgust.

²⁵ Karimov I. A. Adolat – qonun ustuvorligida, Xalq so'zi. 2001 yil. 30 avgust.

tayanishi tamoyilidan foydalanib, sud majlisini boshqa kunga qoldirib, sudlanuvchiga “Ayblov xulosa”si taqdim etiladi va uning huquqlarini atroflicha tushuntiradi. Himoyachisi bilan birgalikda ish hujjatlari bilan tanishib chiqqan ayol o'zining O'zR JKning 131-moddasi 1-qismi, ayblanayotganini bilib e'tiroz bildiradi. Himoyachi uning e'tirozlarini eshitib, huquqlarini tushuntiradi.

Sudlanuvchi O'. L. sudga taqdim etgan o'zining “Ayblov xulosasi”ga nisbatan iltimos-e'tiroznomasida fohishaxona ochish yoki saqlash, ta'magirlik yoki boshqa niyati pastlik bilan qo'shmachilik qilmaganligini qonuniy, ishonarli asoslab bera olgan. Avvalo bunday qasdning bo'lmagani, bunga shart-sharoit bo'lmagani va muntazam bunday mashg'ullik o'z isbotini topmasligi shular jumlasidandir. Jinoyat huquqi talabiga ko'ra, fohishaxona ochish va saqlash deganda, xona tanlanishi, uning mahsus jihozlanishi, faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi, uzoq vaqt xizmat qilishi uchun fohishaxonaning saqlanishi, mijozlar muntazam jalb qilinishi, uning reklamasi va hokazolarni tushunish kerak. Ana shu muntazamlilik, mahsus jihozlanganlik va reklamasi mavjud bo'lmas ekan, xonani ishqiy harakatlar bilan shug'ullanish uchun berib qo'yilishi, shaxsning ta'magirlik maqsadi yoki boshqa past niyatlari bo'lmasa, jinoyat qonuni bilan jazolanmaydi. Gap shundaki, huquq – tartibot idoralariga qishloqlarga qatnab narkotik savdosi bilan shug'ullanayotgan shaxslar haqida xabar kelib tushadi. MXX va IIB xodimlari birgalikda tadbir ishlab chiqadilar. Una ko'ra, “narkokur'er” deb tusmol qilinayotgan B. F. dugonasi O'. L. ning uyida tunash uchun qolganligidan foydalanib, uning oldiga tadbirda ishtirok etish uchun jalb etilgan, prokurorning maxsus sanktsiyasi oligan fuqaro M. M. “xaridor” siftida kiritiladi. Tadbir muvaffaqiyatli o'tkaziladi va noqonuniy narkotik savdosi bilan shug'ullangan ikki shaxs aniqlanib qo'lga olinadi.

Ular O'. L. o'z uyida bizni ushlab berishni maqsad qilgan ekan, degan alamzadalikda o'ch olish uchun uy egasiga g'arazli maqsadda tinimsiz tuhmatlar uyushtirib, go'yoki fohishaxona ochganlikda ayblashadi. Chamasi, tergov jarayonida haqiqatni aniqlashdan ko'ra, tergovchi O'. L. ning o'zini ham ayblab qo'ya qolishni afzal ko'rgan va adolatsizlik yuzaga kelgan. Ish bilan tanishish va iltimoslar qilish imkoniyatining berilishi O'. L. himoya huquqi ta'minlanishi, haqiqat aniqlanishi va adolatsizlik barham topishiga yordam bergan.

Masalan, sudlanuvchi F. B. o'z “Tushuntirish xati”da “O'. L. bilan 1995 yildan buyon tanishman. Uni yashash uyida men begona erkaklar bilan jinsiy aloqada bo'lib turar edim. Mening mijozlarimdan uy haqi, deb 5 000 so'm olar edi” deb soxta ko'rsatma bergan. Bu ko'rsatmani O'. L. amalda tergov surishtiruv xodimlarining g'ayriqonuniy ta'sir o'tkazishi bois yuzaga kelgan, deya bayonot beradi va iltimosnomasida asoslaydi. Chunki aynan shu sudlanuvchi, ya'ni F. B. “Gumon qilinuvchining so'roq qilish bayonnomasi”da yuqoridagi fikrini mutlaqo rad etib, “Shu bilan uning uyida boshqa hech kim bilan jinsiy aloqada bo'lmadim. Shuningdek, uning uyida mendan boshqa biron-bir ayol yoki qiz kelib begona erkaklar bilan jinsiy aloqada bo'lib ketishini bilmayman. Uning o'zi fohishalik bilan shug'ullanganligini ham bilmayman”, deb ko'rsatma bergan.

Iltimos qilish tartibida sudda himoyalaniş huquqi ta'minlangach, tergov jarayonidagi yo'l qo'yilgan kamchilik bartaraf etildi. Ayblanayotgan ayol asossiz jinoiy javobgarlikka tortilib ketishi oldi olinib, bir yillik sinov muddati belgilanishi bilan ishning unga taaluqli qismi harakatdan to'xtatildi.

Ish bilan tanishib chiqish va iltimoslar qilish huquqining ta'minlanganligi qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini bundan boshqa ko'plab misollar orqali ifodalashimiz mumkin. Amalda bu protsessual jarayon ham shaxsning himoya huquqini ta'minlashdagi asosiy omildir.

Afsuski, bunday befarqlikka yo'l qo'yilishi kishilarda huquqiy madaniyatning yetishmasligi uchun talab qilmasliklari natijasidagina emas, balki huquq organlarining ba'zi bir xodimlarining yoki sudyalarning e'tiborsizligi, erinchoqligi va boshqalar oqibatida ham yuzaga keladi.

2010 yil 12 noyabrdagi mamlakatimiz rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik Palatasi qo'shma yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsivasi» mavzusida ma'ruza qilib, davlatimizni turli sohalardagi rivojlanish kontseptsiyalarini belgilab berdi. Jumladan sud –huquq sohasini isloh etish borasida sakkiz yo'nalishdagi takliflar katta ahamiyatga ega. Ana shu sakkizinchi yo'nalish ayniqsa ahamiyatli bo'lib, huquqiy davlat qurish asosiy mezonlaridan hisoblanadi. Prezidentimiz takliflarini shunday izohlaganlar,–“ Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat — demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir.

Shu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishini ta'minlaydi, deb o'ylayman²⁶”.

Davlatimiz rahbarining o'z vaqtida sud-huquq sohasiga e'tibor qilishlari jamiyatimizdagi nopok huquq-tartibot xodimlari tomonidan o'rganilishi ayni muddao. Men taklif etardimki, huquq-tartibot organlari xodimlari muayyan muddatda, masalan, har 3 yilda, alohida tarzda insonparvarlik tamoyiliga mos ish olib borayotganligi, va davlatimiz rahbari ko'rsatmalarini bilish darajasini imtihon qilinishi ularni o'zidagi huquqsqiy ong va madaniyatlarini takomillashtirgan bo'lar edi.

²⁶ Karimov I. A. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsivasi» mavzusida ma'ruza. Htt://www.parlament.gov.uz/uz/events/chamber/2550#spich

Axborot xavfsizligini ta'minlash barqaror taraqqiyot omili

*Xurshid Mirzaxmedov
Namangan davlat universiteti
katta o'qituvchisi*

Ma'lumki axborot xar bir inson ongida ma'lumot sifatida saqlanib qolishi va u bundan boshqa bir masala yuzasidan qarorlar qabul qilishda solishtiruvchi manbaa sifatida foydalanish mumkin. Axborot fikr yoki g'oya sifatida inson qalbini egallashi, ma'naviy ruxiy holatining uzviy qismiga aylanishi xamda bu uning amaliy faoliyati asosini tashkil qiluvchi omil bo'lib qolishi mumkin. Axborot insonni harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchli to'la namoyon etadi. Ko'plab davlatlarning oldida axborot va kompyuter tizimlarida ishonchli axborot xavfsizligi ta'minlash masalasi turibdi. Dunyoda kim axborot bozorining egallasa, o'sha hukmronlik tizginini tutadi. Chunki ayni paytda dunyoning inson emas, aynan axborot boshqarmoqda. Kishilik jamiyatining paydo bo'lgandan beri inson axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga extiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko'rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi o'rni yanada oshadi. Xatto, davrimiz xam «axborot asri» deb olgani bejiz emas.

Mutaxassislarining xulosalariga karaganda, raxbarlar boshqaruv xodimlari axborot bilan ishlashga o'z vaqtlarining 30%dan 80-91% gachasini sarflashar ekan. Chunki o'z vaqtida va ishonchli axborotlarga ega bo'lishi xamda ularni o'z vaqtida yetkazish va amaliyotda unumli foydalanish samarali boshqarishni ta'minlashni sharti xisoblanadi. Bugungi yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilishadi. Lekin ularda axborot immuniteti shakllanmagan mish-mishlar dunyosi bo'lmish «internet» orqali manaviyatiga salbiy ta'sir vujudga kelishi mumkin. Bugungi kunda yoshlarimiz turli xil g'arb seriallari ta'sirida, milliy qaxramonlarimiz jasoratidan bexabar o'sayotganligi sababli ma'naviyatga qaytadan chuqur e'tibor qaratmas ekanmiz, ularning zexni o'tkir, dunyo bilimlarini egallashga qaramasdan vatan manfaati yo'lida xizmat qilishlariga, begona g'oyalarga berilmasiligiga kafolat xam berolmaymiz. Ularni eng avvalo vatanga e'tiqodni, urf-odat va qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalasakgina, istalgan buzgunchi axborotlarga nisbatan o'z axborot immunitetlari shakllanadi. Axborot xavfsizligi ta'minlash bo'yicha Aloqa, axborotlashtirish texnologiyalari davlat qo'mitasi tomonidan quyidagicha chora tadbirlar amalga oshirilishini bilamiz:

1. Ma'lumotlar kuzatish, xamda axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlashni takominlashtirish va rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini yuritish;

2. Axborot xavfsizligiga oid qonunchilik va meyyoriy-xuquqiy hujjatlarni yaratilishini tashkil qilish va bunda ishtirok etish;

3. Qonun buzuvchilarni taxlil qilish, axborotlar makonida ruxsatsiz yoxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalanadigan metodlar va

vositalarni taxlil qilishda xuquqni muxofaza qilish organlari bilan xamkorlik qilish:

4. Internet tarqog'i milliy segmentida axborot xafvsizligi xodisalarining oldini olish bo'yicha o'zaro amaliy ishlarni tashkil etish maqsadida axborot xafvsizligi soxasidagi xalqaro xamkorlikni rivojlantirish.

Prezidentimiz I. A. Karimov aytganlaridek axborot omili yadroviiy poligonlardan xam daxshatli omilga aylanib bormoqda. Agar bu omilga alohida e'tibor berilmas ekan u borgan sari kuchayib boradi. Natijada ayrim kuchlar ko'lida asosiy «qiroлга» aylanadi. Bu esa nafakat davlatlar yoki mintaqalarda keskin vaziyat vujudga kelishiga sabab bo'ladi, balki xalqaro miqyosida xam o'z ta'sirini ko'rsatadi".²⁷

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng axborot oqimiga keng yo'l ochildi. Tabiiyki, xali axborotga «och bo'lgan» axoli kirib kelayotgan axborotni saralamay turib «iste'mol» qila boshlaydi. Ular xali yaxshi va yomon, kerakli va keraksiz axborotning farqiga bormasdilar.

Hozirgi yoshlarimiz shunga e'tibor qaratishi lozimki, an'analarimizga, urf-odatlarimizga zid bo'lgan axborotlar orqali kirib kelayotgan yoshlarni ongini zaxarlab ularni manaviyatini egallashga qaratilgan turli xil g'oyalardan foydalanmasligi lozim. Shuning uchun axborot xafvsizligini ta'minlash maqsadida bizning qomusimiz bo'lgan konstituttsiyamizning 67-moddasida quyidagicha yozilgan. Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydilar. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Shunday ekan biz yoshlar vatanimiz oldidagi burchimizni bajarib shu yo'lga hissamizni qo'shadigan kadr bo'lishimiz lozim.

Axborot va jamiyat taraqqiyoti

*Abdullayeva Umida - Nam DU O'zbek tili
yo'nalishi 303-guruh talabasi,
Ilmiy rahbar: A. Qambarov*

Insoniyat hayotda ro'y berayotgan har qanday o'zgarish va yangiliklarni texnologiyalar orqali o'zlashtiradi. Texnologiyalar rivojlangani sayin, axborotlar xajmi ham kengayib bormoqda. Zarur axborotlarga ega bo'lishga intilish – davr talabidir. Axborot – lotincha “informatio” tushuntirmoq, bayon etmoq ma'nolarini bildiradi²⁸. OAVlari va hozirgi kunda yoshlarning, hatto kattalarning “bilim manbai”ga aylanib borayotgan internet – axborot tarqatish va qabul qilishning qulay vositalari hisoblanadi. Ular orqali har qanday axborotni eshitishimiz, ko'rishimiz va o'qishimiz mumkin. Biroq bugungi kunda, kishilarning ko'pchiligi olayotgan ma'lumotlarining to'g'ri yoki noto'g'ri, ijobiy yoki salbiyligini farqlay va anglay olmayapti. Masalan,

²⁷ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – T.: 1998.

²⁸ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild.-T., Davlat. 2000. – B. 528

internetdan foydalanishni o'laylik. U orqali biz istagan ma'lumotni olishimiz, shuningdek, kishilarimiz, yoshlarimiz ongiga ta'sir etuvchi ko'plab salbiy axborotlar yoki reklamalar uzatilayotganini ham ko'rishimiz mumkin. Hozirda yoshlarni tobora o'ziga tortayotgan "Ommaviy madaniyat", o'zlarining g'araz manfaatlarini amalga oshirayotgan guruhlar o'z axborotlarini, rasm va reklamaroliklarini ayrim internet saytlariga joylamoqda. Bundan maqsad foydalanuvchilarni qiziqtirish va u orqali saflarini kengaytirgan holda o'zlarining qora niyatlarini amalga oshirishdir. Bu kabi axborotlar, nafaqat, yashash tarzimizga, hattoki mentalitetimizga, mafkuramizga zid hisoblanadi. Bularni tushuntirishda kishilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish hamda u orqali har qanday salbiy oqibatlarining oldini olish lozim. Axborot iste'moli madaniyati har qanday olingan axborot yoki ma'lumotni to'g'ri va mushohada bilan ang'ay olishi hamda uni baholashidir. Ushbu tushuncha ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Kommunikativ, regulativ (tartibga solish), aksiologik (baholash) kabi funksiyalar shular jumlasidandir. Yuqorida tahlil etilayotgan muammo, axborot iste'moli madaniyatining aksiologik(baholash) funksiyasi hisoblanadi. E'tibor berish kerakki, internetdan foydalanuvchilarning ko'pgina qismini yoshlar tashkil qilyapti. Yoshlarga, umuman, foydalanuvchilarga bularning xavfli ekanligini hayotiy misollar orqali tushuntirib berish yoki internetda yurtimiz tarixiga oid, qolaversa, mumtoz va o'zbek adabiyotimizning namoyondalari, ularning ijodiy merosi to'g'risida ma'lumot kiritish orqali bunday axborotlarning ta'siriga tushib qolishlarining oldini olishga erishish mumkin. Shundagina ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin etishning oldini olgan va salbiy oqibatlarining ta'sirini sezilarli darajada kamaytirgan bo'lamiz. Shu o'rinda yurtboshimizning quyidagi ta'sirli so'zlarini eslash maqsadga muvofiq: *«bu borada ishni to'g'ri tashkil etish uchun Internet tizimidan samarali va oqilona foydalanish, uni o'zimizning ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak... bizning zaif tomonimiz shundaki, Internetda O'zbekiston bilan bog'liq ma'lumotlar juda kam. Nega deganda, bizda bu jarayonning texnikasi va texnologiyasi talab darajasida emas. Milliy qadriyatlarimiz, tarix va merosimiz, bugungi fan, san'at va adabiyotimizning eng yaxshi namunalari ni Internetga kiritish dasturi ishlab chiqilmagan»*²⁹.

Axborot iste'moli madaniyatiga ega har qanday insonda, jamiyatda, millatda, xalq va davlatda yuksak ma'naviyat shakllangan bo'ladi. Ular hech qachon g'araz niyatlar bilan amalga oshirilayotgan geoaxborotlar ta'siri doirasiga tushib qolmaydi. Kishilarda axborot iste'moli madaniyatini yuksak darajada rivojlantirish orqaligina bunday ta'sirlarni oldini olgan bo'lamiz. Shuningdek, Prezidentimizning: *«biz ba'zan G'arb madaniyati to'xtovsiz kirib kelayotgani haqida taassuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqish juda mushkul. Buning faqat bitta yo'li bor. U ham bo'lsa,*

²⁹ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild.-T., O'zbekiston. 2005. – B. 301-302

*Internetga o'zimizga kerakli, milliy g'oyamiz, milliy manfaatlarimizga mos bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritishdan iborat»³⁰ - deya aytilgan ta'sirli so'zlaridan anglab olishimiz mumkin. To'g'ri, Internetni yopib qo'yish, undan foydalanishni taqiqlash – ahmoqona ishligi hammamizga ma'lum, biroq undan olayotgan ma'lumotlarimiz o'zimiz uchun foydali va ma'naviyatimizga mos keladigan tarzda tanlanishi lozimligini idrok qilmog'imiz darkor. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, internet bu – do'kon, do'konda har kim o'zi xohlagan narsasini sotib oladi. Biroq, bolalarni shunday tarbiyalashimiz kerakki, ular internet bozoriga kirganda, faqat o'zi uchun zarur narsani olsin. *Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.*³¹ Demak, har qanday axborotni qabul qilishda, uni to'g'ri anglay bilishda har birimiz mas'uliyat bilan yondashishimiz, oilamiz, jamiyatimiz, qolaversa, ona diyorumizning xavfsizligiga zarar yetkazuvchi har qanday axborotlarning tarqalishini oldini olishimiz lozim.*

Huquqiy davlatda – qonuniylik mohiyati

Valiyeva Guljahon

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

«Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning faoliyat ko'rsatishining zaruriy shartidir» deb yurtboshimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlar.

Haqiqatdan ham huquqiy davlat bilan qonuniylik tushunchalari bir – biriga chambarchas bog'liq tushunchalar hisoblanadi. Chunki qonun ustuvorligisiz huquqiy davlatni, huquq ustuvor bo'lmagan davlatda esa qonuniylikni shakllantirib bo'lmaydi.

Huquqiy davlat albatta Konstitutsiya va qonunning ustuvorligiga asoslanadi. Mamlakatda barcha yuridik va jismoniy shaxslarning amaldagi normativ – huquqiy hujjatlarga aniq va doimo rioya etilishi bu albatta huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Huquqiy davlat barpo etish uchun ham, qonuniylikni shakllantirish uchun ham, eng avvalo aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga ahamiyat berish lozim. Qachonki aholi qabul qilingan qonunni mazmun – mohiyatini to'g'ri va yaxshi anglab yetsa va uni tafakkur qila olsagina o'sha normativ huquqiy hujjatga ixtiyoriy ravishda amal qiladi.

³⁰ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13–jild.-T., O'zbekiston. 2005. – B. 30

³¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat. 2008. – B. 115

Qabul qilingan qonunni to'g'ri anglab unga rioya etsa bu huquqiy madaniyatga turtki bo'ladi. Huquqiy madaniyat yuksak darajada bo'lgannda esa qonuniylik mustahkamlanadi.

Qonuniylik ya'ni qonun ustuvor bo'lganda esa huquqiy davlat shakllanadi.

Bu ketma -ketlik natijasida biz huquqiy davlatda - qonuniylikni mohiyatini anglab olishimiz mumkin.

O'zbekistonda huquqiy davlat qurish yo'lidagi islohotlarning o'ziga xos ahamiyati va xususiyati shundaki, bu islohotlar ham boy tarixiy merosimizga, qadriyat va an'analarimizga, ham jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari tajribalariga asoslangan holda amalga oshirilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning parlament sohasidaga tajribasini o'rgangan holda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Masalan rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qabul qilingan qonunlar chuqur o'rganib chiqilib, ijobiy jihatlari milliy qonunchiligimizga mos ravishda tatbiq etilmoqda.

Nafaqat, huquqiy davlat qurish y'olida bir qancha rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganib chiqib hayotga tatbiq etmoqdamiz balki, tarixiy merosimiz ya'ni Amir Temurning markazlashgan davlatining xususiyatlarini o'rganib chiqib ijobiy jihatlarni hayotga tatbiq etmoqdamiz. Amir Temur ta'kidlaganidek « Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi» deb ta'kidlagan.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar umummajburiy xususiyatga ega bo'lib, barchaning qonun oldida tengligi bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekistonni huquqiy davlat sifatida shakllantirish maqsadida o'z faoliyatini olib bormoqda.

Ya'ni hokimiyat vakolatlari bo'linish prinsipiga asoslangan, sud ham mustaqil hokimiyat sifatida shakllangan, Kosntitutsiyaning mavjudligi, barcha qabul qilingan qonunlar Konstitutsiyaga zid bo'lmagan tartibda qabul qilinadi qonunlar albatta barcha uchun umummajburiy xarakterga ega hisoblanadi.

Bu elementlarning barchasi huquqiy davlatning belgilari hisoblanadi.

Huquqiy demokratik davlar va fuqarolik jamoyatini qurishdek ezgu niyatlar yo'lida dadil va ilg'or harakatlanayotgan mamlakatimiz aholisining mehnat shijoatiga hech qachon ko'z tegmasin!

Advokatura instituti genezisi: tarixiy tajriba, islohotlar va amaliyot

***O. Chuboyeva - O'zbekistwaon
Respublikasi advokatlar palatasi a'zosi,
Olimjonov Murodjon - Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 1-bosqich talabasi***

Har qanday davlat taraqqiy etishi uchun o'sha davlatning huquqshunoslari yetuk va barkamol bo'lmog'i talab etiladi. Bizning davlatimiz mustaqillikka

erishganidan keyin fuqarolik jamiyati va insonparvar huquqiy demokratik davlat qurish uchun islohotlarni amalga oshira boshladi. Jumladan advokatura institutiga ham alohida e'tibor berildi.

Tarixda yuksalgan va o'z o'rniga ega ega bo'lgan davlatlar taraqqiyotiga nazar solsak, davlatchilik tarixida advokaturaning o'ziga xos o'zni mavjud bo'lganligi kuzatamiz. Tarixdagi huquqshunoslarga, ayiqsa huquq himoyachilari hisoblangan advokatlarga e'tibor qaratgan davlatlarda, taraqqiyot odilona bo'lganligini va albatta davlat buyuk davlat darajasiga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga qadimgi Afina davlati, o'rta asrlardagi Angliya davlatlari, yangi davr davlatlaridan Amerika Qo'shma Shtatlari misol bo'la oladi.

Advokatura instituti qadimgi Afinada davlatida yuksak darajaga ko'tarilgan. Ayniqsa antik sud jarayonining demokratik qoidalariga ko'ra har kim o'zining xaq-huquqlarini himoya qilishi, o'z ishini o'zi olib borishi va shuningdek, ayollarning ishi ham sudga tushishi mumkin ediki, bu toifadagi sudlanuvchi yoki da'vogarlar yetuk notiq bo'lgan raqiblarining tazyiqiga dosh berishlari qiyin edi. Shuning uchun ham, antik sud tizimining qoidalariga ko'ra bunday kishilar uchun maxsus notiqlardan yordam olishga ruxsat berilgan. Sud jarayonida boshqa bironing manfaatlarini himoya qilgan notiqlar sinegorlar deb yuritilgan. Ularning nutqi sinegoriya deb atalgan. Sekin-asta ana shu sinegorlar toifasidan sud hay'atining ajralmas qismi bo'lgan hozirgi tushunchadagi advokatlar uchun zamin yaratildi.

Sinegorlar notiqlik san'ati va yurisprudentsiyadan maxsus ta'lim olgan kishilar bo'lib, o'z himoyalardagi kishilardan xizmat haqi olganlar. Sud jarayonida o'z himoyasidagi shaxsni oqlash uchun bor bilim va tajribalarini va mahoratlarini ishga solishga majbur edilar. Sinegorlar olgan ishlarini chuqur o'rganib chiqib, uni yurisprudentsiya qoidalari asosida yozib chiqishlari va nihoyat, jonli so'z san'atiga oid bor mahoratlarini ishga solib, sud jarayonida yutib chiqishga harakat qilganlar. Shu sababdan, ham sinegorlar sud notiqligi ravnaqida tubdan o'zgarish yasadilar. Logograflar ham sinegorlardan ajralib chiqqan yurisprudentsiyadan ta'lim olgan mutaxassislardir.

Sinegorlar nutq matnlarini ham yozib, ham himoya qilgan bo'lsalar, logograflar, asosan, nutq matnlari tayyorlab berganlar. Logograflar ham o'z ixtisosliklari taqozosiga ko'ra yurisprudentsiya, notiqlik san'atini o'zlashtirib olganlar hisoblanadi.. Ular qonun himoyachisi sifatida, notiq sifatida o'z himoyalardagi kishilarni demokratik sud oldida oqlab chiqishlari kerak edi. Logografiya bilan doimiy shug'ullanib kelgan shaxslarning aksariyati yirik davlat arbobi darajasigacha ko'tarilganlar³².

Qadimgi va qudratli Rim davlatida ham himoya qilishda vakillik instituti vujudga kelgan bu haqda Rim fuqarolik huquqi darsligi muallifi dotsent O. Ernazarov quyidagicha tushuncha berib o'tgan: -"vakillik - voyaga yetmagan

³² Usmonov S. Nazarov K. Tohirov Q. Yuristning nutq madaniyati. ToshDYuI. 2005 yil-100-bet

shaxslar o'rtasidagi munosabatlar, xotin-qizlar bilan bog'liq harakatlar, davlat ishlarini bajarishlik uchun safarga ketgan shaxslarning o'rniga, kasallik asosida o'z huquqlarini himoya qila olmaslik yoki sudda qatnasha olmaslik asosida ham bu ishlarda vakilning qatnashishligiga ruxsat berilgan.

Rim fuqarolik jarayonida Prokuratura instituti — ya'ni javobgar nomidan vakillik qilishlik rasmiy ravishda, ba'zan esa norasmiy asosda ham amalga oshirilgan.

Ulardan tashqari vakil qilib olinmasdan, taraflarga yoki jarayon ishtirokchilariga og'zaki ravishda yuridik yordam beruvchi (advocati) advokatlar ham qatnashgan³³.

Biz bilamizki, o'rta va yangi asrlarda Angliya davlati kuchli davlat hisoblangan, u yer yuzidagi juda ko'p xududlarni mustamlakaga aylantirgan. U o'zining taraqqiyoti davomida advokatura institutiga alohida e'tibor qaratgan. "XIII asrdan professional huquq himoyachilari paydo bo'ldi. Ular ikki toifaga: baristerlar va solisitorlarga, yoki attoreylarga bo'lingan. Baristerlar sudda so'zga chiqqanlar: ya'ni ishni shaxsan o'zlari yuritayotgan bo'lsalar, xuddi mijozlari singari jarayonda ishtirok etganlar. Solisitorlar-ish bo'yicha iltimoschilar (advokatlar singari) asosan ishlarni sudda ko'rishga tayyorlash bilan shug'ullanganlar. Dastlab baristerlar faqat sudyaning ruxsati bilan sudda so'zga chiqish imkoniyatiga ega bo'lganlar. XV asrning oxiridan "umumiy huquq" sudlari o'z reestrlariga tomonlarning vakillari deb tan olgan shaxslarning ismi-shariflarini yozib qo'ya boshlaganlar. Shu tariqa, ularga sudda ishtirok etuvchi mansabdor shaxs maqomi berilgan edi³⁴.

Bundan ko'rinib turibdiki, qaysi davlat kuchli bo'lsa o'sha davlatda advokatlik instituti ham takomillashgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi dunyo xaritasida alohida davlat sifatida dunyo mamlakatlari tomonidan tan olingan paytdan boshlab, davlat va huquqda o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribasi va rivojlangan davlatlar tajribalari asosida isloxotlar bosqichma – bosqich amalga osha boshladi. 2008 yil may oyida davlatimiz rahbari tomonidan chiqarilgan "O'zbekiston Respublikasi advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmon mamlakatimizda advokatura sohasiga berilgan katta e'tibor bo'ldi. 2009 yil yanvarda "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni kuchga kirdi.

Advokatura sahasida faoliyat yuritayotgan huquqshunoslar 2009 yili sentyabr oyida o'zlarining birinchi ta'sis yig'ilishlarini o'tkazishdi. Advokatura O'zbekistondagi faoliyat yuritayotgan barcha advokatlik tuzilmalarini o'ziga

³³ Ernazarov O. Rim huquqi. Namangan . 2004 yil-150-bet

³⁴ Muxamedov H. Horijiy mamlakatlar davlati va huquqi. 2-qism. ToshDYul. 2003 yil,-270-bet

a'zo etgan Palataga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyatini tartibga soluvchi normalar belgilandi.

Advokatlik faoliyatini amalga oshiruvchi advokatlarni qayta imtixonon o'tkazildi.

Barcha rivojlangan davlatlardagi kabi bizni davlatimizda ham advokatura institutini takomillashtirish uchun barcha chora-tadbirlar belgilanmoqda. Chindan ham advokatlar o'z sohalarining bilimli mutaxassislari bo'lishsa jamiyat taraqqiyoti uchun katta xizmat qiladilar. Ular jamiyatda huquqiy ongni takomillashtirish yo'lida faoliyat olib boradilar. Advokatlarni faoliyatlarini takomillashtirishda amalga oshirilayotgan huquqiy va tashkiliy choralar ularni xalqqa xizmat qilishlarining garovi hisoblanmoqda.

Bolaga g'amxo'rlik-kelajakka g'amxo'rlik

*Abdug'afforova Dilafruz
BTI va STI 403-guruh talabasi,
Ilmiy rahbar: B. Tillayev*

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda qurol ko'tarib turgan bolakayning surati paydo bo'ldi. U qo'lidagi sovuq qurol insoniyat boshiga yog'dirayotgan balolardan bexabar. O'yinchoq o'ynayotgandek unga mahliyo bo'lib turibdi. Ammo bu bolaning ertasi qanday bo'ladi? Nimaga havas qilyapti? Kimning ortidan ergashyapti? Savollar shu darajada ko'p, biroq... O'zimni xotirjam tutishga harakat qilaman: bu bolakay uzoq yurtda yashaydi... Ammo ko'ngilda bezovtalik qoldi: qani endi imkoni bo'lsa, Shu bolani o'z qishlog'imga ko'chirib olib kelsam, tashvishlardan xalos etsam, xadiklardan qutqarsam, deyman. Hayolimdan ana shunday o'ylar kechadi-yu, yurtimning har bir yoshlariga berilayotgan e'tiborni ko'rib shukr qilaman. Ularning O'zbekistonday jannatmonand yurtda tug'ilgani, tinch zamonda yashayotganining o'zi katta baxt. So'zimning avvalida qurol ko'tarib turgan bolakayni bejiz eslamadim. Afsuski dunyoda ana shunday taqdirga mahkum etilgan bolalar oz emas. Masalan, Markaziy va G'arbiy Afrika mamlakatlarida istiqomat qiluvchi har o'n bolaning bittasi qandaydir qurolli guruhning a'zosi. Ugandada esa jangarilarning 70 foizi bolalar va o'smirlardan iborat. Bu mamlakatda jangarilar o'g'irlangan bolalarni askarlikka, qizlarni esa cho'rilikka beradi. Voyaga yetmaganlarni askarlikka yollashda Somali birinchi o'rinda turadi. Ya'ni Somali hukumat kuchlarining 20 foizi bolalardan tashkil topgan. Bu mamlakatda bo'lib o'tadigan turli tanlov g'oliblariga avtomat va granata sovg'a qilishlari hammasidan oshib tushadi. Bu esa bolalarni tajovuzkorlikka, zo'rovonlikka undashi shubhasiz. "Qora qit'a"ning yani ikki mamlakati Chad va Kongoda milliy armiya harbiy bo'linmalarining aksariyatini bolalar tashkil qiladi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ammo XXI asrning fojiasi-bolalarning jang maydonlarida harakat qilayotgani go'yoki hech kimning e'tiborini tortmayapti, ularning taqdiri bilan hech kim qiziqmayapti. Ularning haq-huquqlarini, manfaatlarini

muhofazalash, ta'lim-tarbiya berish, salomatligini yaxshilashga ko'maklashish jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

O'z kelajagini mustahkam poydevor ustiga qurishni, jahonda o'z o'rniga, hayot tarziga ega bo'lishni istagan xalq hamisha farzandlarining ma'naviyati yuksak, e'tiqodi butun, irodasi baquvvat bo'lishi uchun kurashadi. Yurtimiz 1991-yil mustaqillikka erishgandan so'ng eng katta e'tiborni yoshlarni ta'lim tarbiyasiga qaratdi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilishi, 12 yillik majburiy ta'limning joriy etilishi islohotlarning ilk ko'rinishidir. Bizning mamlakatimizda yoshlarning nafaqat bilimli bo'lishiga balki, ularning jismonan baquvvat bo'lishlari uchun 3 bosqichli sport o'yinlari tashkil qilingan. Bu esa vatanimizdagi yoshlarning jahon olimpiadalariga tayyorlab boradi. Avvalo bu haqida yozishimga sabab yoshlarning o'rtasida turli yomon illatlarning kelib chiqishiga, giyohvanlik, ichkilikbozlik, jinoyatchilik, turli salbiy oqimlarga kirib ketishiga ularda bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlanmaganligida deb bilaman. Chunki barcha yomon odatlar bekorchilikdan kelib chiqadi. Boisi faqatgina maqsadi yo'q insongina o'z vaqtini notog'ri o'tkazadi. Maqsadsiz insonni esa qay yo'lga boshlasang shu yo'lga kirib ketaveradi. Chunki ular o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmaydilar. Ma'lumki turli diniy ekstremistik oqim rahnamolari yoshlarni o'zlariga jalb qilish uchun ijtimoiy tarmoqdan ham keng foydalanishmoqda. Ongida g'oyaviy bo'shliq bo'lgan yoshlar esa tezda ularning to'riga ilinmoqdalar. Bunga sabab esa ularning bilimsizligidir. BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, bugungi kunda o'n millionlab bolalar ta'lim olishdan mahrumligicha qolmoqda. Mutaxassislar Afrika qit'asida o'qish, yozishni bilmaydiganlar soni Braziliya aholisi sonidan ham ko'pligini ta'kidlashmoqda. YUNESKO ma'lumotlariga qaraganda bugungi kunda 61millionga yaqin bola mutlaqo o'qish va yozishni bilmaydi. Tahlilchilarning ushbu qit'adagi qoloqlikning bosh sababi afrikalik bolalarning ta'lim olishga bo'lgan imkoniyatini cheklanganligida deb, taxmin qilishmoqda. Avvalo har bir mamlakatning rivojlanishi uchun birinchi o'rinda tinchlik va farovonlik kerak. Chunki tinch bo'lmagan yurtda hech qachon o'sish bo'lmaydi. Masalan qo'shni Afg'onistonda har doim urush holatida bo'lgani uchun ham u yer rivojlanishdan ancha ortda qolgan. Xalqaro tashkilot vakillarining aytishicha u yerda har kuni o'rta hisobda o'nlab bola ochlikdan vafot etmoqda, 1 millionga yaqin bola esa to'yib ovqatlanmaydi. Nima uchun ular shunday qismatga ega bo'lishlari kerak? Ularning aybi shu yurtda tug'ilganliklaridami? Ular ham boshqa tengdoshlari kabi o'qib izlanishga, farovon hayot kechirishga haqli. Buning uchun kim aybdor?

Menimcha avvalo bu mamlakatlarda katta insonlar ongida tinchlik, farovon kelajak tushunchalarini shakllantirish kerak. Bu dunyoda inson bir marta tug'ilgandan so'ng uni chiroyli yashab o'tishi kerak. O'zidan faqat yaxshi ishlarni esdalik qilib qoldirmog'i lozim. Shu o'rinda milliy mafkuramizning asosiy g'oyalarini aytib o'tmoqchiman: "Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq

farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik g'oyalari bizning bosh maqsadimiz hisoblanadi. Bu yurtda yashayotgan har bir yoshlarning ongida faqatgina tinchlik tushunchalari shakllangan, qalblarida esa tinchlik uchun shukronalik hissi hukmron. Qisqa qilib aytganga bizning yurtida yashayotgan har bir yosh e'tibordan chetda qolmaydi. Dunyoda davomiy tinchlik, odamlarning qalbi va ongida tinchlik yaratish uchun mamlakat prezidentlari har bir fuqorosi taqdiri uchun qayg'urishi, milliy qadryatlarni saqlab qolishga harakat qilish kerak, insonlarning bilim darajasini oshirib, jamiyatdagi oilalarning farovon yashashlarini ta'minlash, turli mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlamoq lozim. Chunki bularning barchasi ertemiz egalari bo'lgan farzandlarimizning kamoloti uchun xizmat qiladi. Yoshlar ishonchimiz va kelajagimiz, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir!

Ma'naviy yuksalish omillari

*Abdug'affor Abdulazizov - To'raqo'rg'on
xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji
buxgalteriya yo'nalishi
1-bosqich 189-guruh talabasi,
Obidxon Mamatov - Ilmiy rahbar: Nam DU
dotsenti, falsafa fanlari nomzodi*

Mustaqillik yillarida barkamol avlodni shakllantirish, jamiyatimizning o'z mafkurasini yaratish borasida talaygina ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'liga o'tdi. Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy hayotida juda katta tub o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davr ichida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiga o'tish, xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, istiqloq xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurtimiz tarixi, qadimiy madaniyatimiz tiklanmoqda va oliy qadriyat nufuziga ega bo'lmoqda.

Ahli bashar ma'naviyatsiz bo'lmaydi, chunki aslida inson mohiyati moddiyat va ma'naviyatning tutashuvidadir. Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqa xalqlarining o'ziga xos ma'naviy olami mavjud. Ushbu ma'naviy olamlar doimo bir xil saqlanmaydi, zamon va makonda o'zgarib, goh kamolot sari yuksalib, goh qashshoqlashib turadi.

Shu kungacha millat ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar biror kitobda aniq belgilab olinmaganida edi. Ayni shu vazifa O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida birinchi marta aniq va mukammal amalga oshirildi.

Milliy ma'naviyat nazariyasini yaratish uchun qaysi manbalarga tayanish, uning asoslarini qayerlardan qidirish kerakligi Prezident asarlarida

avvalboshidanoq aniq ko'rsatib va qayta-qayta ta'kidlab kelinmoqda. Bu manbalardan eng birinchi va asosiysi buyuk ajdodlarimiz merosidir. Buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan meros – milliy ma'naviyatimiz nazariyasini shakllantirish uchun butun kerakli unsur va tarkiblarni yaratib qo'yibti, faqat uni xolis nazar bilan astoydil qidirsak, kifoya. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab muntazam davom etib kelayotgan qutlug' an'ana – ulug' bobolarimiz, dunyoga dong taratgan, jahon jamoatchiligi allaqachon o'z muqaddas mulki deb tan olgan ma'naviy meros sohiblarining yubileylarini mamlakat va jahon miqyosida nishonlash haqidagi farmonlar va ularning ijrosi ayni shu masala – milliy ma'naviyatimiz sarchashmalariga butun xalqimiz va, birinchi navbatda, yosh avlod e'tiborini jalb etish maqsadini ko'zda tutadi.

Milliy ma'naviyat – har bir millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o'tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma'naviyati majmuini muayyan bir tizim sifatida anglanishi. Milliy ma'naviyatimiz ham tarixiy hodisa, ham zamonaviy voqelik bo'lib, millatning o'tmishi, buguni, hamda kelajagini o'zida mujassam etadi. U millatimizning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq va nafaqat ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy merosda, balki bugungi kun va kelajak avlodlarning hayotga munosabatida, orzu-istaklarida o'z aksini topgandir. Uning teranligi va ko'lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to'plagan yahlit tarixiy-ma'naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham u haqdagi nazariy xulosalarning manbai bo'lib xizmat qiladi.

Oqilona tarbiya- jamiyat farovonligi

Alimova Nozima - Uchqo'rg'on Pedagogika kolleji o'qituvchisi

Ma'naviyatli va ma'rifatli halqning kelajagi hamisha farzandi hisoblangan. Farzandlarni ana shu ruxda tarbiyalaganimizdagina, kelajagimiz farovon bo'ladi. Davlatimiz rahbari bu borada shunday ta'kidlaydilar, – “ Biz Sharq farzandlarimiz. Sharq mamlakatlarining qaeriga bormang, odamlar bir-birlari bilan uchrashganda, avvalambor, "Assalomu alaykum" deyishadi. Ushbu kalom arabchadan olingan bo'lib, "Sizga tinchlik yor bo'lsin" degan ma'noni anglatishini yaxshi bilasizlar. "Salom", ya'ni "tinchlik" so'zi Qur'oni karimda 40 marta uchrar ekan. Bu muqaddas kitobning oyatlaridan birida shunday deyiladi: "Mehribon Parvardigor tomonidan odamlarga olqish ma'nosida "tinchlik" so'zi aytilur".

Ko'rinib turibdiki, tinchlik, totuvlik, hamkorlik g'oyasi Allohga ham, bandalarga ham xush keladigan ezgu g'oyadir.

Davlatimiz xavfsizligini ta'min etishning asosi - mamlakatimiz yoshlari. Yoshlar - bizning tayanchimiz, ertangi kundan umidimiz, savob ishlarimizning davomchilaridir. Hammamiz ham bu dunyoda farzandlarimizni deb, ularning baxt-saodati, iqboli deb yashaymiz va mehnat qilamiz. Nafaqat xavfsizligimiz,

shu bilan birga milliy uygʻonish gʻoyasining amalga oshishi, davlatimizning kelajakda barqaror boʻlishi ham yoshlarimiz qanday shakllanishiga bevosita bogʻliq.

Farzandlarimiz bizdan afzalroq, bizdan oʻtkirroq, bizdan pokroq, savob ishlarni bizdan ham koʻproq qiladigan boʻlishlari lozim. Ular jahon umumbashariy yutuqlarini egallashi, tariximizni, madaniyatimizni, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni chuqur bilmogʻi kerak. Bizning asosiy kuch-qudratimiz va kelajagimiz ana shunda. Bugun zoʻr umidlar bilan qurayotgan yangi jamiyatimizning mazmun-mohiyati ham aslida ana shundadir³⁵.

Qadriyatlarimizni farzandlarga singdirish, jamiyat farovonligi hisoblanadi. bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti oliy minbarlarda ham maʼruza qilganlar. Jumladan, “Taraqqiyotning qudratli qanoti” deb nomlangan maʼruzalarida shunday deydilar, “Ota-bobolarimizdan bizga boy maʼnaviy meros qolgan. Endi bizning qonimizga koʻchgan, bizning nasl-nasabimizga xos oʻsha ulkan maʼnaviy salohiyatni yanada yuksaltirishimiz, uni farzandlarimizga, kelajak avlodga munosib meros qilib qoldirishimiz kerak. Qurilayotgan bu katta korxonalariga, ulkan inshootlarga, barpo etilayotgan ozod va obod vatanga har tomonlama yetuk, bardam, baquvvat avlod bizdan voris boʻlib qolsin. Ular maʼnaviy jihatdan bizdan yuksak darajalarga yetishsin. Shundagina oʻzimizning millatimizga mos munosib hayot kechirdik, tarix oldida, farzandlarimiz oldida oʻz burchimizni bajardik, deb hisoblashga haqli boʻlamiz... Mamlakatimizda inson erkinligi uchun hamma sharoitlar yaratilmoqda. Har bir fuqaro - na oʻzi, na qarindosh-urugʻlari biror xavf ostida emasligini, davlat himoyasida ekanligini yaxshi biladi. Men davlat boyligi haqida gapirib oʻtdim. Bu oʻrinda men nafaqat maʼnaviy, balki shaxs boyligini koʻzda tutyapman. Axir davlat qanchalik boy boʻlsa, u har bir fuqarosiga shu qadar koʻp yordam berish imkoniga ega boʻladi³⁶”.

Farzandlarimiz barkamol boʻlib voyaga yetishi uchun mustaqillik dastlabki kunlaridanoq yoʻlboshchimiz rahbarligida harakat boshlangan. U kishi, - “Respublikamizda yosh avlod salomatligi haqida qaygʻurish davlat siyosatiga aylandi. Bu hammamizdan va har birimizdan onalar va bolalar salomatligi haqida koʻproq oʻylashni, koʻproq ishlashni taqozo etadi. Shu boisdan ham onalar va bolalarga koʻrsatiladigan tibbiy xizmat sifatini tubdan yaxshilash, xizmat turlari sonini keskin koʻpaytirish lozim.”³⁷

³⁵ Karimov I. A. “Oʻzbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari”. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi maʼruza, 1995 yil 23 fevral TAT.3t. 21-b

³⁶ Karimov I. A. Taraqqiyotning qudratli qanoti. Oʻzbekiston televideniyesi muxbirining savollariga javoblar, 1995 yil noyabr Toshkent. Adolat. TAT. 4t.33-b

³⁷ Karimov I. A. Xalqimizning yoʻli mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yoʻlidir. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashi sessiyasida soʻzlangan nutq, 1996 yil 16 mart. Toshkent. Adolat. TAT. 4t. 102 b

Davlatimiz rahbari tomonidan oldindan ko'ra bilib aytilgan gaplar va belgilangan rejalar mustaqillikka erishiganimizdan buyon tizimli –tartibli tarzda hayotga tadbiq etilmoqda.

Bir necha yillarga nom berishda farzandlarimiz manfaatlarini ko'zlab, ularni tarbiyalash, jamiyatning bunyodkor yaratuvchilari bo'lib yetishishini ko'zlab nom berdilar.

Natijada farzandlarimiz mafkurasi ijobiy, insoniy, iloxiy tarzda shakllana boshladi. Davlatimiz yo'l boshchisi sa'i-harakatlari bilan avlodlarimizdagi tarbiya, jamiyat tinchligi barqaror bo'lishini ta'minladi.

Shu bilan birga xalqimiz donishmandligi farzandlarimizni tarbiyalashda ham ko'zga tashlandi. Chunki, mamlakatimizdagi xalq matonati, mehnatkashligi, zaxmatkashligi, va birdamligi bois farzandlar mustaqillikdan keyingi davrda davlatimizda ulkan yaratuvchanligi kuzatildi. Farzandlarimiz bunyodkorligi, oqilligi tufayli davlatimiz tizimli rivojlana boshladi va isloxotlar natijasida yanada jahondagi rivojlangan davlatlar qatoriga chiqib bormoqda.

Agar o'sha paytda 20 yoshli va endigina hayotdagi o'rmini topish uchun harakat boshlagan bo'lsa, hozir hayotiy tajriba va bilimlarini astoydil farzandlariga bera boshlagan bir davrda.

Mustaqillik dastlabki kunlarida 10 yoshli bo'lgan bolalar, hozir 35 yoshda va ular davlatimizni taraqqiy etishi uchun, xavfsizligini ta'minlash uchun ayni kuchga to'lgan.

Mustaqillikdan keyingi dunyoga kelgan farzandlarimiz esa, mustaqillik shuuri bilan tarbiyalanib, yaratuvchanlik yo'lida bilim olmoqda va hayotga yo'llanma olmoqda.

Kelajagimiz bo'lgan farzandlarni doimo yaratuvchanlik, va insoniylik ruhida tarbiyalanishi, jamiyat a'zolari farovon turmush kechirishi garovi bo'lmoqda.

Jamiyatda mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun qilingan harakatlar o'z samarasini bermoqda.

Agar, qo'shni xalqlar taqdiri, axvoli, yashash tarzi va tinchligi bilan bizni xalqlarimizning mustaqillikdan keyingi sharoitini qiyoslasak, ayniqsa, katta farqlar ko'zga tashlanadi. Tojikistondagi xalqlarning hozirgi taqdiri achinarli axvolda. Ular farzanlarini yuqori saviyada tarbiyalashlari uchun sharoit yo'qligi ommaviy axborot vositalari orqali bilinmoqda. Chunki, ulardagi iqtisodiy qiyinchilik, suv ombori qurish bahonasidagi og'ir soliqlar, yashash tarzi pastligi, axoli o'rtasidagi tinchsizlik, kasalliklar, yoshlar o'rtasida narkomaniya kuchliligi barchasi xalq taqdiridagi axvolning og'irligidan darak beradi. Shuningdek osiyo xalqlari ichidagi qirg'iz xalqi taqdiriga nazar tashlasak, Qirg'iziston davlat rahbarlarini to'xtovsiz bir-birlarini yo'qotishga harakat qilishi, xalq daromadini o'zlashtirib, o'z manfaatlari yo'lida hech narsadan tap tortmasligi xalq boshiga tushgan tashvish bo'lmoqda. Ular hozirgi xavfli vaziyatda farzandlar turbiyasi emas, tirik va sog' qolish dardi bilan yashashlari ko'rinib turibdi.

O'zbek xalqi tarixan sabrli mehnatkash xalq. Xalqimiz farzandlarini oqilona tarbiyalar ekan, jamiyatda tinchilik barqaror bo'ladi.

Jamiyat kelajagini yaratishda davlat boshqaruvida xalq donish rahbar, donishmandlar Kengashi, davlatni oqila boshqaruvchi farzandlariga tayanadi. Davlat faoliyatini belgilovchi me'yorlarda adolat bisyor. Qonunlari adolatli, xalqi sabrli, xalqi bunyodkor.

Xalqning tinchligi ko'p hollarda qo'shni tinchligiga ham bog'liq. Chunki xalqimizda, qo'shning tinch sen tinch, degan ibora bor.

Yoshlar ma'naviyatiga ta'sir etuvchi tahdidlar

*Karimov O'lmasbek - TATU Farg'ona
filiali katta o'qituvchisi,*

*Azimjonov Ulug'bek - TATU Farg'ona
filiali 612-15 guruh talabasi*

Yoshlik – bu axloqiy idealni izlash, maqsadlarni va hayotiy pozitsiyani shakllantirish, kasb tanlash, oilaviy hayotga tayyorgarlik pallasidir. Umuman, yoshlik hayotning eng go'zal, eng gullagan davri bo'lib, bu faslda inson yon-atrofga pok tuyg'ular, beg'ubor nigoh bilan qaraydi. Hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlar uchun ular faoliyati ijtimoiy foydali bo'lishigina emas, balki bu faoliyat o'z shaxsiy maqsadlariga, intilishlariga muvofiqligi, hayot rejalarining amalga oshishiga mumkin qadar to'laroq ko'maklashishi ham g'oyat muhimdir.

Yoshlarimiz tafakkurini mustaqillik talablariga hamda hozirgi axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalariga shiddat bilan kirib kelayotgan, butun dunyoda globallashuv tamoyillari kuchayib borayotgan davr chaqiriqlariga moslashtirmasdan turib, islohotlarni yuqori sur'atlarda va muvaffaqiyatli davom ettirib bo'lmaydi. Faqat erkin va mustaqil, tanqidiy fikrlay oladigan kishidagina johillikka, mutaassiblikka, har turli buzg'unchi g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet tezroq vujudga keladi. Faqat shunday tafakkur egasigina vatanparvarlik, insonparvarlik, mustahkam e'tiqod va ijtimoiy yetuklik kasb etadi. Yurtimizda qabul qilingan va qabul qilinayotgan qonunlar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar, qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarimiz o'z oldimizga qo'ygan bosh maqsadimizga, ya'ni mamlakatimizni dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishiga tobora yaqinlashtirmoqda. "Ana shunday yuksak maqsadlarga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz, - bu – hech shubhasiz, mamlakatimiz aholisining ongu tafakkuri va dunyoqarashida yuz berayotgan o'zgarishlar, uning hayotga, mehnatga bo'lgan munosabati, tobora o'sib borayotgan siyosiy va huquqiy madaniyati desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi. " ³⁸

³⁸ Karimov I.A. Inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir (Prezident I.Karimovning

Bugungi globallashuv zamonida yoshlarning qalbi va ongini egallash uchun misli ko'rimagan darajada kurash bormoqda. Bunday kurash hayotning turli sohaslarida namoyon bo'lib, avvalo axborot sohasida kuzatish mumkin. Chunki bugungi kunda axborot oqimi kirib bormagan biron-bir nuqta yoki manzilni topish qiyin. O'hatto dunyoning eng chekka va ovloq joylariga ham tele-radio to'lqinlari, telefon aloqasi yetib borgan. Qisqacha aytganda, qaerdaki energiya manbai bo'lsa, u yerda axborot bor. Axborotning esa hammasi ham foydali bo'lolmaydi.

“Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya'ni ularning butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda. Masalan, Internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengayyapti. Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir”³⁹. Aytish mumkinki, jamiyatning global axborotlashuvi ilmiy-texnik, iqtisodiy va sotsial taraqqiyotning o'zagini tashkil etadi. “Axborot asri” deb nom olgan XXI asrda axborot strategik resurs sifatida tabiiy boyliklar, energiya manbalari qatoridan joy oldi. Boshqacha aytganda, axborot taraqqiyotning bosh omiliga aylangan internet tarmog'ining imkoniyatlari naqadar keng va cheksizligi bugun barchaga ayon, u gazeta, radio va hatto televideniedan ham kuchliroq ta'sirga ega, axborot oqimi juda keng. Lekin uning o'ziga yarasha boshqa jihatlari ham mavjud, ya'ni, internetning ijtimoiy tarkibi turfa xil ekanligi qator salbiy holatlarni o'zida namoyon etib, bu o'z o'rnida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Kishilik jamiyatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy, milliy, etnik va boshqa omillarning muvozanati muayyan darajada mavjud bo'lsa hamki, internet tarmog'ida bunday tenglikni ko'rib bo'lmaydi. Bunday holat ma'naviy va milliy an'analarga to'g'ri kelmaydigan, virtual olamning o'zigagina xos bo'lgan internet “madaniyat”ni yuzaga keltirib chiqardi. Tarmoq ichida insoniyatga qarshi, yoshlarga qarshi tajovuzlarni ko'rish mumkin. Internet nazoratsizlik tufayli giyohvand moddalarini targ'ib etib, axloqsizlik, zo'rvonlik, qotillik va terrorchilikka da'vat etuvchi g'oyalar bilan sug'orilgan resurslar to'lib-toshgan tajovuzkor axborot makoniga aylanib bormoqda. Bugungi kunda bunday axborotlarning “iste'molchi”lari yoshlardir. Yoshlarning ongini zaharlaydigan, ruhiyatiga ta'sir etayotgan bunday hayosiz (pornografik), zo'rvonlik, bosqinchilik kabi internetdagi saytlar yoshlarning e'tiborini bevosita o'ziga tortmoqda.

Bugungi kunda tarmoq targ'ib qilayotgan jinoyatchilik va kiberterrorchilik jahon xalqlariga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Global tarmoqning boy imkoniyatlaridan turli ekstremistik, terrorchi tashkilotlar va guruhlar irqiy, diniy,

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi), O'ZAS, 2012 yil 8 dekabr.

³⁹ Milliy istiqlof g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., O'zbekiston, 2000, 23-bet.

milliy va boshqa turdagi murosasizlikni targ'ib qilish uchun foydalanmoqdalar, axloqsizlik, zo'rovonlik va adovatga chorlovchi ekstremistik, hamda hayosizlik kabi (pornografiya) axborot resurslari nixoyatda ko'p. Shu kabi axborotlar nafaqat alohida olingan yagona bir yoki ikki davlat uchun, balki butun jahon hamjamiyati uchun jiddiy xavf tug'diradi. Bunday saytlar terrorchilik xurujlarini amalga oshirishga undash bilan bir qatorda, ayirmachilik, diniy kelishmovchilik va millatlararo adovat kabi g'ayri insoniy tashviqotni tarqatadilar. Insoniyat tafakkurining o'sib borayotganligi, axborot texnologiyalarining shiddatli rivoji kishilarning osoyishta hayotiga tahdid solayotgan bunday saytlar mualliflarini fosh etish imkoniyatini hademay yaratadi, deb o'ylaymiz.

Milliy va ma'naviy urf - odatlarimiz, qadriyatlarimiz, mamlakatimiz mustaqilligi va xavfsizligini saqlab qolish uchun turli xil ma'naviy tahdidlardan yoshlarni himoya etish yo'lida millatimiz istiqbolini, farovonligini o'zida ifoda etuvchi milliy g'oya asosida mafkuraviy tarbiyani shakllantirish yoshlarimiz hayotini turli balo - qazolar xurujidan asrab qola oladi. Shu ma'noda, yoshlar global tarmoqdan olinayotgan axborotlarga tanqidiy yondashish va uning foydali manbalari asosida dunyoqarashini kengaytirish, g'arazli g'oyalarni inkor eta bilish idrokini shakllantirish g'oyat muhim sanaladi. Respublikamizda hozir kompyuter va axborot texnologiyalarini, telekommunikatsiya va ma'lumot uzatish tarmoqlarini, Internet xizmatlarini rivojlantirish, zamonaviylashtirish, ularni Dunyo standartlari darajasiga yetkazish hamda shu asosda axborotlashgan jamiyat sari intilish maqsadida keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilmogda.

XXI asr misli ko'rilmagan tezkor gullab-yashnash asri bo'ladi. Bunda axborotlarsiz ishlab chiqarish rivojlanishini tasavvur etib bo'lmaydi, u tugayotgan asrimizning so'nggi o'n yilligida butun kishilik jamiyati rivojlanishi resursi deb tan olingan. Bu kompyuterlar va axborot tizimlari, mahalliy va global tarmoqlar internetning umumjahon tarmog'i, multimediali texnologiyalar va hakoazolarni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyat yoshlar uchun suv va havodek zarur. Zero, ma'naviyat azal-azaldan insonni komillikka yetaklaydigan beqiyos ne'mat bo'lib kelgan. Demak, hayotga katta orzu-umidlar bilan qadam qo'yayotgan, unga faqat pok va beg'ubor nigoh bilan qarab, oldinga intilayotgan yoshlarga nisbatan olganda, bu haqiqat yanada teranroq ma'no-mazmun kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'. Shodiyev. Ma'naviyat va yoshlar. Toshkent, 2008 yil
2. R. Ubaydullaeva. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2002 yil
3. N. Usmonov, I. Rustamov. Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish. Uslubiy ko'rsatma. TATU Farg'ona filiali, 2014 yil

Tarjimada uslubiy o'rindoshlik

Dilafruz Sarimsakova
Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi,

Dilafruz Qodiraliyeva
Ingliz tili yo'nalishi 201-guruh talabasi

Badiiy tarjima ilmida *uslubiy o'rindoshlik* tushunchasi bor. Maqol, matal, turg'un birikmalar, sleng va boshqa obrazli iboralarni asliy matnga usluban mos o'girish maqsadida tarjimon xuddi shu usulga murojaat qiladi. U asliyat tili tizimidagi barqaror iboralarni tarjima tili tizimidagi turg'un birikmalar va obrazli vositalar bilan almashtiradi.

Tarjimaning bu usuli til doirasida emas, *uslub doirasida kodlarni o'zgartirish*, ya'ni tarjima qilish deyiladi. Masalan, agar biron o'zbek yozuvchisi qizning go'zalligini sigirga o'xshatsa, juda ko'pol tuyulishi turgan gap. Lekin amalda boshqacha. Ko'pchilik hind shoirlarining asarlarida sigir obrazi nafosat, mehribonlik, buyuk onalik mehr-muhabbatining timsoli sifatida talqin qilinadi. Homer asarlarida esa sigir ma'shuqa go'zalligining mash'ali sifatida ko'rinadi.

O'zbek tilida *musichaday beozor* turg'un birikmasi koreys tiliga o'zaro vazifadosh *sigirday beozor* iborasi bilan tarjima qilinadi. Ruslar *кому пироги и пышки, кому синяки и шишки* desalar, o'zbeklar *halvoni hokim yer, kaltakni - yetim* deyдилar; ruslar *коли богатый заговорит, есть кому послушать* desalar, o'zbeklar - *og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning bolasi gapirsin* deb istehzo qiladilar; ruslarning *портной без кафтана; сапожник без сапог; плотник без дверей* *plotnik bez dvereu* matallari qozoq tilidagi *уста пышакка жарымас; етикшы етикке жарымас*, o'zbeklardagi *bo'zchi belboqqa yolchimas, kulol - mundiga* iboralariga uslubiy o'rindosh bo'ladi.

Ingliz-irland yozuvchisi J. Joysning "Navqiron san'atkorning siyrati" romani tarjimasida "Saymon Munen zavyazival uzlom yego *фальшивые рукава (false sleeves)* gapidagi belgilangan ibora ruhoniylar kiyimidagi qo'shimcha bir detalni anglatadi. Agar shu izoh (*false sleeves*) bo'lmasa, urushdan qo'lidan ayrilib kelgan jangchilarni eslab, uni ruhoniyning qo'llari yo'q ekan-u, kiyimining yenglari osilib turibdi, Saymon esa halaqit bermasin deb, unga yordamlashib, bu yenglarni bog'lab qo'yibdi tarzida tushunish mumkin. Yoki paranjidagi yengga o'xshash ikkita bandak - soxta yeng esga keladi. Kitobni o'qiganingizda ana shunday tasavvur hosil bo'ladi. Bu yerda tarjimon qaltis xatoga yo'l qo'ygan: "Saymon Munen ba'zida nazoratchi Makgleydga orqa qilib, *yeng uchida ish bitiradi*", deb oddiy so'zni noo'rin va noto'g'ri turg'un birikmaga aylantirib yuborgan. Noo'rinligi shundaki, matn neytral, hech qanday konnotativ ma'nosi yo'q, jaydari so'zni talab qiladi. Noto'g'riligi shundaki, o'zbek tilida *yeng uchida* degan frazeologik birikma yo'q. Tarjimon nazarda tutgan *maxfiy, pinhona* ma'nosida esa *yeng ichida* iborasi qo'llaniladi.

Jahon adabiyotida keng qo'llaniladigan bu usulni Jeyms Joys asarining rus va o'zbek tillariga tarjimalarida quyidagi uslubiy o'rindoshlik namunalarini ko'ramiz.

1. Because they *had fesked* cash out of the rector's room

Потому что *стащили* деньги из комнаты ректора.

Ular rektorning xonasidan pul *o'marishgan*.

2. I know why they *scut*/

Я точно знаю, почему они *удрали*.

Ularning nega *quyon bo'lganini* men bilaman.

3. Fed up by God like gamecocks

Слава Богу, *кормятся как бойцовые петухи!*

Yaratganga shukr, ularning yegani oldida, yemagani ortida.

4. Veaked like a bird's

Горбатый, как птичий клюв, нос.

Qirg'iyinig tumshug'iday qayrilgan burni.

5. Vutter wouldn't melt in your mouth.

С виду *он и воды не замутит, а на самом деле хитрюга*

Sirtidan qarasang *qo'u og'zidan cho'p olmaydiganday, aslida pixini yorganlardansan.*

6. If you like

Слушаешь, *душа радуется.*

Eshitib turib *sel bo'lib ketarding.*

7. I'll give you a stuff in the kisser for yourself

А то как двину тебе *в физию.*

Hozir *basharangga* tushiraman.

8. It made him feel his head very big

Голова у него сделалась очень большой.

Boshi xumday shishib ketganday bo'ldi.

9. Free lesson.

Пустой урок.

Mustaqil dars.

“Архангел *Гавриил* сошел в обитель Девы”, – degan muqaddas oyat keltiriladi Jeyms Joysning “Navqiron san'atkorning siyrati” romanida. Injildagi Avraam, Mariya, Iisus, Moisey, Solomon, Mixail, Serafiil, Gavriil Qur'oni

karimda Ibrohim, Maryam, Iso, Muso, Sulaymon, Mikoil, Isrofil, Jabroil deb transliteratsiya qilingan. Shu bois yuqoridagi jumlada ham *Gavriil*ni uslubiy o'rindoshlik yo'li bilan *Jabroil* deyilsa, risoladagidek bo'lardi.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatrining mustaqillik yillaridagi repertuari va undagi janrlar rang-barangligi

A. Utepbergenov - O'zDSMI magistratura bo'limi "Musiqali teatr aktyorligi"

2-bosqich magistranti,

Z. Arslanbayeva - Ilmiy rahbar:

f. n. n., dotsent

"Teatr – bu ibratxonadur"

Mahmudxoja Behbudiy

Teatr aks ettiruvchi ko'zgu emas, kattalashtirib ko'rsatadigan oynadir.

Haqiqattan ham rus shoiri V. V. Mayakovskiy ta'kidlaganidek, teatr – hayot oynasi. Turmishimizda uchrashadigan voqealar, yomon illatlar, hayot yo'llarida adashgan insonlar umri, shuningdek, jamiyatdagi muayyan kasb egalarining o'z sohalarida erishayotgan yutuq va kamchiliklari teatr saxnasida aks etib, tamoshavinlarni undan o'zlariga taaluqli saboqlar olishga undaydi.

Teatr insonlar qilibga va shuuriga yo'l topa oladigan yuksak kuchga ega. Bugungi kunga kelib yer yuzining barcha davlatlarida san'atning yetakchi bo'limlaridan biri bo'lgan teatrlar faoliyat yuritib kelmoqda. Ularning har birining dunyoga kelish, tuzilish tarixi bor.

Ko'p emas, oz emas deyarli bir asr, ya'ni 86 yillik o'zining boy tarixiga ega Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatri bugungi kunda samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Teatrning yuzaga kelishi, taraqqiyot bosqichlarida qaddini bukmay, faqat olg'a qaray intilib, haqiqiy professional teatrlar safiga qo'shilib, mustaqillik yillarida oldingidan ham gullab-yashnab qizg'in faoliyat yuritishida qanshadan-qansha san'at arboblarning mehnatlari bisyor.

1926-yili «Tong nuri» truppassi, 1930-yili «Qoraqalpoq davlat teatri», 1939-yili «K. S. Stanislavskiy nomidagi komediya va drama teatri» deya turlicha nomlanib kelingan bu teatrga mamlakatimiz mustaqillikga erishgan dastlabki yili ya'ni 1991-yili o'zining teran falsafiy va insoniyatni kamolotga yetaklovchi sherlari bilan Qoraqalpoq klassik shoiri deya tan olingan Berdaq bobomizning nomi berilishi qoraqalpoq xalqini faqrlandirib, qalblarini sheksiz quvonchga limmo-lim to'ldirgan bo'lsa ajab emas.

Mustaqillik yillariga kelib teatr repertuari ancha yangilandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yangicha fikr, yangicha qarashlarga ega milliy

dramaturgiya tez sur'atlarda rivojlanib bordi. Ayniqsa shu davrda janr va shakl rang-barangligiga erishishga intilish tendentsiyasi ko'zga tashlanadi.

Bunday intilishni sahnalashtirish va ijroda ham yaqqol sezish mumkin. Bir qolipta qotib qolgan eski qoliplarni buzib, an'anaga aylanib qolgan so'z ustuvorligidan voz kechib, ko'proq plastik hatti-harakatlarga, raqs va musiqaga keng o'rin berish teatrdagi yangi dunyoning paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Mustaqillik davrida teatr repertuarini turli janr va mavzulardagi spektakllar egalladi. Ulardan M. Nizanovning «Eki dunyaniň æ'eresi» (rejissyor J. Sultabaev 1991y.), «Kylme mag'an» (rejissyor K. Xalmuratov 2004y.) komediyalari, K. Raxmanovning «Laqqilar yemleo'xanada» (rejissyor R. Tøreniyazov 1993y.), «BInjiqtıń muhabbati» (rejissyor B. Otebaev 1994y.), «Payg'ambar jasindag'i kyueo'» (rejissyor JSultabaev 2009y.) komediyalari va «Ølim jazasi» (rejissyor T. Qaypnazarova 2005y.) musiqiy dramasi, Q. Matmuratovning «Bir yde yeki ømir» (rejissyor A. Sharipov 1991y.) dramasi, «Shøriyar» (rejissyor B. Baymurzaev 1992y.) epik dramasi, K. Suyinshevning «Kempir g'arriniň yerkesi» (rejissyor Q. Abdireymov 1993y.) komediyasi, I. Yusupovning «Ajiniyaz» (rejissyor N. Aħsatbaev, O. Uzakov 1994y.) operasi, I. Sadikovning «Xojekeniň xatinlari» (rejissyor Q. Abdireymov 1995y.) komediyasi, I. Bogdasarovning «Jig'ilg'ang'a judiriq» (rejissyor B. Baymurzaev 1995y.) komediyasi, A. Oripovning «Soxibqiron» (rejissyor N. Aħsatbaev 1996y.) tarixiy dramasi, N. Muxammeddinov va T. Xojasov muallifligidagi «Ayjamal» (rejissyor T.

Xojasov 1996y.) baleti, B. Baymurzaevning «Bøddiua» (rejissyor B. Baymurzaev 1998y.) tragediyasi va «Pølektiň gørdishi» (rejissyor B. Baymurzaev 2001y.) dramasi, O. Abdiraxmanovning «Tirsekler» (rejissyor N. Ansatbaev 2005y.) komediyasi, P. Tilegenovning «Køleńke» (rejissyor J. Sultabaev 2006y.) musiqiy dramasi, S. Balgabaevning «Eñ sulio' kelinshek» (rejissyor N. Aħsatbaev 2006y.) dramasi, S. Jumagulovning «Øtirik jinli» (rejissyor J. Sultabaev 2009y.) komediyasi, A. Uteniyazovning «Qiziň – arnamisi» (rejissyor S. Uzaqbaev 2009y.) dramasi, P. Uteniyazovning «Perzent tæsho'ishi» (rejissyor S. Uzaqbaev 2011y.) tragediyasi, P. Aytmuratovning «Taløplig'a nur jao'ar» (rejissyor J. Sultabaev 2011y.) dramasi, N. Daukarayevning «Alpamis» musiqali dramasi, Q. Zaretdinov bastalagan, I. Yusupov muallifligidagi «Tumaris» operasi va shu kabi boshqa komediya, tragediya, drama va opera kabi turli janrdagi spektakllar saxna yuzini kurdi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgach, elimizda faoliyat yuritib kelayotgan turli soha vakillarining o'z izlanishlari va mehnatlari orqasida muvaffaqiyatlarga erishayotgani sir emas. Shu kabi kata yutuqlarga erishib, o'z zamondoshlariga urnak bulayotgan insonlarni «Zamon qahramoni» deya elga tanishtirish, namuna sifatida ko'rsatish ommaviy axborot vositalari va teatrlar zimmasiga kata vazifani yukladi. Albatta, Qoraqalpoq davlat musiqali teatri ham bu mavzuni saxna yuziga olib chiqa oldi. Qoraqalpog'istonga xizmat ko'rsatgan san'at urhobi P. Aytmuratov qalamiga mansub «Intilganga tole yor» dramasi rejissyor

J. Sultabaev tomonidan sahnalashtirilib, 2011-yilning aprel oyida spektakl prem'erasi bo'lib o'tdi. Spektakl syujeti o'z kasbini sevadigan fermer Turdiboyning (aktyor K. Allanazarov) hayoti va fermerlik ishi haqida. Ba'zi qishloqdoshlari ko'rsatgan qarshiliklar va yana ayrim byurokrat odamlarning nayranglari tufayli voqea rivojlanib boradi. Lekin Turdiboy bunday to'sqinliklarga qaramay o'z maqsadi yo'lida tinimsiz harakatda bo'lib, og'ir mehnatdan qochmaydi. Spektakl kulminatsiyasida nopok insonlarning qilmishlari amalga oshmay, ovul odamlari oldida masxara bo'ladi va drama epilogida zamon qahramoni ularning qilmishlarini kechirib, fermerlik ishlarida yordam ko'rsatishlariga imkon yaratadi.

Turmishimizda bundan boshqa sohalar va unda havas qilgudek yutuqlarga erishayotgan zamonamiz qahramonlari qancha deysiz. Faqat ularning hayoti va faoliyatini o'rganib, qag'ozga tushirish va sahna yuziga olib chiqish dramaturg va teatr ijodkorlaridan ijodiy faollikni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning «Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi» to'plamida shunday satrlar keltirilgan: «Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi»⁴⁰.

Bugungi kunda elimiz yoshlariga ta'lim-tarbiya berishda ta'lim muassasalaridan tashqari tarbiya o'shog'i deya ta'riflangan – teatrning ham salmoqli hissasi bor. Shu o'rinda Qoraqalpoq davlat musiqali teatrining tarbiyaviy faziylatlar ila sug'orilgan «Intilganga tole yor», «Alpomish», «Farzand tashvishi», «Tumaris» kabi spektakllari bilan yosh avlodni tarbiyalashda o'rni va ahamiyati kata.

Teatr san'atida komediya, tragediya va drama janrlaridan boshqa janrlar gultoji hisoblangan opera janri ham mavjud.

Opera- sintetik san'at. U insoniy hayotni, uni urab turgan borliqni chuqur va to'laligicha o'z ichiga oladi. Opera san'ati birinchi galda tamosha ko'rsatish uchun muljallangan san'atdir, uni faqat eshitishgina emas, tamosha ham qilish mumkin. Shuning uchun u tabiatdan ikki tamonlama ko'rinishga ega. Anna shu ikki tamonning biri bo'lmasa uyg'unlik yo'qoladi⁴¹.

«Ajiniyo» operasi va «Ayjamal» baletidan so'ng «Tumaris» operasining qo'yilishi qoraqalpoq san'atida kata yangilik bo'ldi. Mazkur opera 2015-yilning 3-sentyabrida tamoshavinlar nazariga havola etildi.

Operaning sahnaviy taqdirini avvalo syujet belgilaydi, buni esa kompozitor hal qiladi. Kompozitor O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Qurbanbay Zaretdinov «Tumaris» operasi ustida ko'p yillardan buyon mehnat qilib keldi. Sababi tarixiy shaxs Tumaris obrazini musiqa tili bilan yaratish kompozitordan katta mahorat talab etadi.

⁴⁰ Karimov I.A. «Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi». «Ma'naviyat» 2006.11-b

⁴¹ «Teatr» jurnali 2008/5 15-b.

O'zbekiston qahramoni, shoir I. Yusupov muallifligidagi «Tumaris» operasi o'zining g'oyaviy-ba'diy jihati, qahramonlik, vatanparvarlik ruhida yaratilgan tarixiy asarlarning yuksak namunasi sifatida bugungi kun tamoshavini uchun qimmatlidir. Shuningdek, musiqiy teatr saxnasida operaning qo'yilishi katta yutuq, negaki opera uchun aktyorlar jamoasi faqatgina professional ovozlari orqali tanlab olinadi. Operada muallifning g'oyasi faqatgina musiqa orqali tamoshavinlarga yetkazib beriladi. Shu sababli opera «yuki og'ir janr» hisoblanadi.

Ayni vaqtda tamoshavin teatr sahnasida zamonaviy mavzuda va turli janrlardagi yangi asarlarni ko'rishga mushtaq. Kun sayin shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika zamonida tamoshavinni bir maromda ushlab o'tirishning o'zi qiyin. Shu sababli ko'pdan buyon qalam tebratayotgan va yangi avlod dramaturglaridan tamoshavinlar qilt etmasdan o'tirib, kiprik qoqmay ko'radigan zamon va makon tanlamas, xilma-xil janrlardagi klassik asarlarni kutib qolamiz.

Vatan tuyg'usi oliy qadiryat

Ismoilov Xolmamat

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi

Inson ulg'aygani sari, milliy qadiryatni, urf-odatlarini, ulug'laydi va o'zida iftixor tuyg'usini his eta boshlaydi. Bu tushuncha albattavatan bilan bog'liq.

Vatan insoniyat tug'ilib o'sgan, kamol topgan muqaddas makon. Unda barcha madaniy meros, asirlar davomida shakillanib kelgan qadiryatlar, ajdodlar tarixi mujassam. Vatan deganda hamisha o'zimiz unib-o'sgan, talim-tarbiya olib voyaga yetgan, ajdodlarimiz yashab o'tgan, ularning aql-idroki, mehnati sarf qilingan yurt ko'z oldimizda gavdalanadi. Vatan tuyg'usi albatta faxr, iftixor, g'ururni o'zida namoyan etadi.

Bugungi kunda Vatanimizda yaratib berilayotgan cheksiz imkoniyatlarni hayotimizning har sohasida kuzatishimiz mumkin. O'zbekiston yoshlari hayotning har bir jabhalarida ulkan yutuqlarga erishmoqda. Buning tag zamirida mamlakatimizda aholini turmush farovonligini oshirish, ayniqsa yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning faoliyati davomidagi yutuqlarni har tomonlama rag'batlantirishga qaratilgan izchil siyosat yotadi. Buning amaliy isboti sifatida davlat buydjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darjada saqlanib va u umumiy xarajatlarning 59,3 foizni tashkil etgani, 2013-yilda xalqimizning real daromadlari 16 foizga oshib, o'rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8 foizga ko'payganligi buning yaqqol misolidir.

Bugun kim foydali ish qilyapti-yu, kimdur esa nomiga ishlab, buning ushuni oylik olyapti-hamasini yaxshi bilamiz. Mansabdor odamlar orasida o'z manfaatini davlat manfaatidan, xalqimiz manfaatidan ustun qo'yayotgan odamlar bor ekan, ularni mas'ul lavozimiga, vaziyfaga qoyib, biz xato

qilganmiz. Hali ham kech emas, biz bu boradagi ishlarni, albatta, tartibga olib, joyiga qo'yamiz. Kim yangicha ishlashni xohlamayotgan, kun o'tsa bo'ldi-da, deb yurgan bo'lsa, mehnatga chanqoq yoshlarimiz keladi. «Farzandlarimiz-bizning ertangi kunimiz, deb ko'p gapiramiz. Haqiqatan ham, qayerda, qaysi sohada, mana men borman, bu ishni, bu mas'uliyatni o'z zimmasiga olaman, deb maydonga otilib chiqadigan yoshlar bo'lsa, ular-ertangi kunimiz, ular-mening bolalarim. Agar shunday g'ayrat-shijoat bilan o'zingizni namoyon etmasangiz, o'ylaymanki, vaqtingiz bekor ketyapdi, aziz bolalarim. Sizlarga, mana, men Prezident sifatida aytayapman: siz mening suyanchim va tayanchim, hech qachon qo'rqmang, marrani baland olib, oldinga bosing»⁴².

Milliy mustaqillik- xalqimizda ayniqsa o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodimizni vatanparvarlik tuyg'ularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Vatanparvarlikning mohiyati amaliy ishlar faoliyatida namoyon bo'ladi. Kelajagi buyuk O'zbekistonning rivojlanishiga har daqiqada ulush qo'shmoq, vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko'rinishidir. Vatanga munosib farzand bo'lish, uning yeri, suvi, eli bilan chambarchas bog'liq ekanligimizni teran anglash, uni ardoqlash ham vatanparvarlikning bir ko'rinishidir. Bugun har birimiz uchun vatan tuyg'usidan ulug' narsa yo'q. Vatan tuyg'usi inson qalbidagi ilohiy ne'mat.

Yoshlarimiz ahloqiy tarbiya jarayonida, ya'ni o'qishda, jamoat ishlarida tirishqoq, do'stlariga sofdil munosabatda bo'lishi o'z burch va vaziyatlariga vijdonan yondashish, xalol mehnat qilish kerakligini, ba'zi tengdoshlarining ayrim salbiy odatlariga befarq bo'lmaslikni tushnib anglab boradilar. Shuningdek ular o'z manfaatlari uchungina emas, balki oilasi, sinif va maktab jamoasi shaniga dog' tushurmastlikka o'rganadilar. Insonning insonligi, birinchi navbatda uning ma'naviy-ahloqiy barkamolligi pokligi bilan belgilanadi. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya tushunchasi keng qamrovliydir. Ma'naviy-ahloqiy barkamol inson ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari xullas butun oila a'zolari, qo'ni qo'shnilari, mahalla-kuyi va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg'uradi:tevarak-atrofnii o'rab olgan insonlar unga kerak bo'lgani singari, o'zi ham ularga kerakli kishi bo'lishiga intiladi: Odob-axloq, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblaydi: ota-bobolardan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadirlaydi:Milliy qadiryatlarni e'zozlaydi va ularga sodiq bo'lib qolqdi:vatanparvarlik, xalqparvarlik, inson parvarlik tuyg'ulari barqaror bo'ladi.

«Bugungi kunda katta umid, orzu-maqсадlar bilan, Vatavimiz taraqi-yotiga hissa qo'shaman, deb belini mahkam bog'lab maydonga chiqayotgan, azm-u shijoatli yoshlarimizni har tomonlama qo'llab- quavatlash barchamizning nafaqat vaziyfamiz, balki burchimizga aylanishi kerak».⁴³

⁴² Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy sadoqatdir.-T.: O'zbekiston, 2015.- 292-bet.

⁴³ Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy sadoqatdir.-T.: O'zbekiston, 2015.- 235-bet.

Vatan-mehr muruvvat manbai. Ajdodlar va avlodlar hoki nixon topgan, kindik qoni tomgan, daryolari oqqan bog'u-rog'lari gullab yashnagan, ekin zorlari mavjlanib va boylıkları qatlanib yotgan, elu-yurtini, xalqu-miollatni birlashtirgan, daholaru, yo'lboshchilari, donishmandu-donolaari bo'lgan makon-Vatandır. Vatani anglash, tushnish his-tuyg'usi muqaddas ulug' va azizdir. Bu tuyg'uning shakillanishi inson bolasida birdaniga, bir zumda hosil bo'lmaydi, balki vatan tuyg'usi bolada ona allasi aytila boshlagandan boshlab to inson umrining so'ngi damlarigacha davom etadi.

Vatan-muqaddas, u munavvar, mukarram sajdagohdir, vatan iftihordir, soadatdir, vatan muqaddas kitobdir, o'qigan sayin o'qigin kelaveradi, qalbing quvonchga, sevinchga' shodlikka va g'ururga to'laveradi. Vatanni, onani hech nimaga almashtirish, tenglashtirish va baholash mumkin emas. Vatanni, uning yerini va suvini sotgan kishi bir umirga la'natga, nafratga mahkumdır.

So'zimiz so'ngida muhtaram Prezidentimizning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz topdik: «Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishta tug'ladi. Ya'ni, insin o'zligini anglagan, nasl-nasabini bilgani sari yuragida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tug'lib o'sgan Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi».

Shaxand toponimikasi haqida

Tohirjon Qozoqov

*Namangan davlat universiteti Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

Shaxand qishlog'i o'z nufuzi, ahamiyati, salohiyati jihatidan Respublikamizda oldingi o'rinlarda turadi. "Shaxand" qishlog'i nomining kelib chiqishi haqida ko'plab rivoyatlar mavjud.

Ulardan ayrimlarida qishloq toponimikasi u yerda yashovchi aholining mashg'ulotlari bilan bog'lanadi. Masalan, Shaxand Farg'ona vodiysining qadimiy poytaxti Axsikent yaqinida joylashgan bo'lib, qishloq aholisi asosan qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqargan va saroy ahli uchun ushbu mahsulotlarni yetkazib bergan. Shu bois, qishloq nomi "Shoh qand" deb nomlangan. Yillar o'tib fonetik o'zgarishlar tufayli "Shohand, Shahand" bo'lib qolgan, degan fikrlar ham uchraydi.

Yana ba'zi ma'lumotlarda Boborahim Mashrab hazratlari qishloqdan o'tib ketayotganlarida qishloq aholisi u kishining hurmatlari yuzasidan har bir xonadon ahli bir likopdan turli xil qandolat mahsulotlari olib chiqib in'om etganliklari rivoyat qilinadi. Shundan keyin u kishi "Bu qishloqda qandolatchilar ko'p ekan, bugundan boshlab bu qishloqning nomi Shoh qand bo'lsin", deganliklari, Shaxand nomi shundan kelib chiqqanligi hikoya qilinadi.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, bugungi kundagi Shaxand bozori o'tgan asrning 60-80 yillarida ham nafaqat shu atrofda, balki viloyat miqyosida ham katta bozorlar biri bo'lganligi ma'lum.

Keksa avlod vakillarining so'zlariga qaraganda, Shaxand bozori Axsikent shahri mavjud bo'lib turgan davrda ham faoliyat yuritgan. Poytaxt axli uchun xizmat qilgan.

Yana ayrim rivoyatlarda qishloqda poytaxtdagi saroy ahli dasturxonini uchun maxsus shirinliklar tayyorlangan, shu bois ham qishloq "Shoh qand" deb atalgan, deyiladi. Rivoyatlarning ayrimlariga ko'ra esa, qandolat mahsulotlarining eng yaxshilari shu yerda tayyorlangani uchun ham qishloq shu nom bilan atalgan, degan ma'lumotlarni olish mumkin.

Shunga o'xshash yana bir hikoyada Axsikent zilzilaga uchragach, shahar ahli atrof chekkalarda qo'nim topib o'rtnashib qoladi. U yerlarda qishloqlar qad ko'taradi. Shularning ichidagi eng kattasiga "Shohkent" deb nom qo'yishadi. Keyinchalik bu so'z "Shaxand"ga aylanib ketadi, deyiladi.

Ma'lumki, yaqin o'tmishda va hozirda ham Shaxand qishlog'i aholisi o'zining qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarishga mohirligi bilan nom taratgan. "Kunjutli holva", "Savanak holva", "Oq holva" va boshqa nomli holva qandlarni asosan shaxandliklar ishlab chiqaradilar. Boshqa qishloqlar bilan solishtirganda Shaxandning o'zida milliy qandolat-hunarmandchilik mahsulotlarining 10 dan ortiq turi ishlab chiqariladi. Shuni nazarda tutgan holda aytish mumkinki, "Shaxand" toponimikasining kelib chiqishi qandaydir ma'noda qandolatchilik mahsulotlari nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu bois Shaxand toponimikasi haqidagi ma'lumotlarning haqiqatga yaqinrog'i bizning fikrimizcha, Boborahim Mashrab bilan bog'liq bo'lganidir.

XIX asrning ikkinchi yarmida Podsho Rossiyasi tomonidan Qo'qon xonligi bosib olingach, uning hududida Farg'ona viloyati tashkil etiladi. Farg'ona viloyati 5 ta uezddan iborat bo'lib, shulardan biri Namangan uezdi edi. Uezdlar esa o'z navbatida volostlarga bo'linar edi. Namangan uezdidagi eng katta volostlardan biri bu bugungi To'raqo'rg'on tumanining deyarli yarmi hududiga to'g'ri keladigan Axi-Shaxand volosti edi.

Shaxand qishlog'i shu davrda tabiiyki ushbu volost tarkibida bo'lgan. Shaxandliklar orqali qadimgi Axsikent shahri tarixi bilan bog'liq juda ko'plab rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. Masalan, Axsikentning dushmanlar tomonidan qamal qilinishi, shahar tashqi suv havzasidan uzib qo'yilsa ham axsikentliklarning taslim bo'lmaganligi. Shundan so'ng g'anim ayg'oqchilari shaharga Kosonsoy soyidan yer osti suv yo'li orqali suv olib kelish yo'lini (er osti suv quvurini) topib, uni berkitganlaridan keyingina shahar suvsizlikdan taslim bo'lganligi hikoya qilinadi.

Shuni ham yana alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda Axsikent arxeologiyasi va tarixi bilan shug'ullangan olimlar mazkur masalani ilmiy manbalar asosida yoritib, rivoyatlar haqiqatga anchagina yaqin ekanligini isbotlab berdilar.

Bundan Shaxand aholisining kelib chiqishi va mazkur hududda joylashishi qadimgi Axsikent bilan bog'liqligi haqida xulosa kelib chiqadi.

Yana shuni ham inobatga olish kerakki, Uychi tumanida joylashgan Aysi qishlog'i aholisi bilan shaxandliklar sheva va urf-odatlaridagi o'xshashliklar, Shaxandning Axsikent zilzilasidan keyin paydo bo'lgan aholi punktlaridan biri ekanligiga dalolat qiladi.

O'ylaymizki, keyinchalik tarixchi va etnograflarimiz Shaxand toponimikasi va etnografiyasi haqida maxsus tadqiqotlar o'tkazsalar, foydadan holi bo'lmas edi.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi

*D. Qodiraliyeva - Nam DU Xorijiy
filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi,
D. Yuldasheva - Ilmiy rahbar: Nam DU Ingliz
tili kafedrasida katta o'qituvchisi*

Milliy g'oya aholining keng qamlami orasida targ'ibot va tashviqot ishlarni takomilida shubhasiz ommaviy axborot vositalari (OAV) yetakchi o'rinni egallaydi. Huquqiy demokratik jamiyat qurishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli benihoya katta.

O'zbekistonda demokratik tamoyillarni yanada rivojlantirish va kuchli fuqarolik jamiyatini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar mustaqillik yillarida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish chora-tadbirlarining izchil va qonuniy tus olganiga bevosita bog'liq. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida huquqiy demokratik davlat tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarish - davlat organlari, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan ommaviy axborot vositalari orqali jamoat nazoratini o'rnatish zarurati kuchayib bormoqda.

O'zbekiston o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida bo'lgani singari ommaviy axborot vositalari oldiga tub sifat o'zgarishlar davri boshlandi. U o'zining milliy zaminiga ega bo'ldi. Mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotida ro'y bergan tub sifat o'zgarishlari ommaviy axborot vositalari oldiga ham mutlaqo yangi talablarni qo'ydi. U ham bo'lsa, mamlakat fuqarolari o'rtasida keng qamrovli milliy g'oyalarini targ'ibot qilish asosida ularni kelajagi buyuk O'zbekistonda yaratishdek, shuningdek, uni doimo himoya qilishdek, davlat oldida fuqarolarni ma'suliyatini oshirishdek ishlarga ommaviy safarbar etishdan iborat edi. Bu ulug'vor va oliyjanob vazifalarni amalga oshirish uchun ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari yaratish talab qilinar edi. Shu bois, O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining mustaqil respublika mezonlariga javob bera oladigan yuridik maqomlarini belgilab beruvchi xujjatlar majmuasi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi bosh Qomusining 67-moddasida: "Ommaviy axborot vositalari

erkindir va to'la qonunga muvofiq ishlaydilar. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javob beradilar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. "Bugun jamiyatimizning ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy jarayonlardagi yetakchi o'rinni egallashini hisobga olgan holda, bugun OAV hatto "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda erkin faoliyatga asoslangan OAV shakllantirildi va uning faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida avvalo, huquqiy kafolatlarni yaratishga kirishildi. 1997 yilda qabul qilingan "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi (yangi tahrirda), "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonunlar yuqoridagi fikrimizning amaliy tasdig'idir. 1999 yil O'zbekiston jahon tillari universitetida Xalqaro jurnalistika fakultetining tashkil etilishi o'zbek jurnalistikasi tarixida muhim voqea hisoblanadi.

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari siyosiy-g'oyaviy, ma'naviy-ruhiy kommunikatsiyaning asosiy tayanchi sifatida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy faolligiga kuchli ta'sir etib, davlat institutlariga nisbatan jamoatchilik nazoratining kuchayishi uchun yangidan-yangi imkoniyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Demak, ommaviy axborot institutlarining jamiyat hayotidagi ma'naviy-siyosiy salohiyati qanchalik kuchli bo'lsa, jamiyatda shu darajada faollik va rag'bat, bunyodkorlik hamda g'oyaviy uyg'oqlik tuyg'ulari kuchli bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari institutlari orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish fuqarolarga konstitutsiyaviy asosda o'zaro birlashish, uyushish huquqini ro'yobga chiqarishga imkon beradi. Aholi turli guruh va qatlamlarining ijtimoiy manfaat va qiziqishlarini ifoda etadi. Qolaversa, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Islohotlar taqdiri, demokratlashtirishning samarali natijalar berishi va istiqboli ko'p jihatdan ommaviy axborot vositalarining aholi ijtimoiy-siyosiy faolligi, aql-zakovati va fidoiylik tuyg'ularini shakllantiruvchi muhim institut sifatidagi vazifalarini qay darajada bajarayotgani bilan ham bog'liq. Inson ongida demokratik qadriyatlarining chuqur ildiz otishi, uning o'z ijtimoiy burchini tushunish va xaq-huquqlarini yanada kengaytirish istagi, yuksak ma'naviy-ma'rifiy saviyaga ega bo'lish, o'z manfaatlarini ongli idrok qilish singari qadriyatlar bilan bog'liq masalalarni hal etishda ommaviy axborot vositalari ning roli katta. Ayni ommaviy axborot vositalari tuzilmalarining xalqni qarorlar qabul qilish jarayonlaridan xabardor qilib borish, hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, fuqarolarning davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok eta olishini belgilaydigan institut sifatidagi roli tobora ortmoqda.

Tarjimada aslyatning uslubiy-semantik talqini

*D. Sarimsakova - NamDU o'qituvchisi,
Dilafroz Qodiraliyeva - Ingliz tili yo'nalishi
201-guruh talabasi*

XX asr ingliz modernizm san'atining yirik namoyandasi G'arbiy Yevropa tadqidchiligida "hozirgi zamon modernizmining otasi" deb tanilgan, realizm asoslariga birinchilardan bo'lib hissa qo'shgan Jeyms Joys san'atkorlik sirlari hozirda o'zbek adabiyotshunosligida va tarjimashunosligida keng miqiyosda o'rganilmoqda. Uni dunyoga mashxur qilgan asarlaridan biri bo'lgan "Navqiron san'atkorning siyrati" (A Portrait of the Artist as a Young Man) asari o'zbek tiliga iste'dodli tarjimon Ahmad Otoboy tomonidan o'girilib, tarjimada aslyat, ya'ni uning vazifasini bajaruvchi rus tilidagi matn va tarjima tili vositalari uslubiy muvofiqlashtirishga erishilgan. Har ikki – rus va o'zbek tillari, xatto uch – ingliz tildagi timsollar tizimi doirasida uslubiy-semantik talqin amalga oshirilgan. Tasviriy vositalar tarjimon tomonidan intuitiv ravishda – ichki his bilan sezib tanlab olingan. Asardagi mungli va quvnoq, ko'tarinki va tekis, rangdor va sidirg'a, musiqiy va vazmin ruhdagi ifodalar tarjimada tasvirlangan davr, tanlangan mavzu, voqealar tiynatiga mos tarzda to'la muqobil aks etgan.

Akademik D. S. Lixachev Joys asarlarining tarjimasini haqida gapirib, uni so'zma-so'z yoki hijjaviy tarjima qilib bo'lmaydi, – deydi. "Umuman men hijjaviy tarjimaga qarshiman. Pasternakning Shekspirdan qilgan tarjimalari hijjaviy emas. Mutlaqo aniqki, ular kongenial, mukammal tarjimalar. Joys asarlarini tarjima qilish Shekspirni o'girishtan oson emas, chunki Joys nasrining o'zi murakkab, bu murakkablik ingliz tilining tiynati bilan bog'liq". Demak, rus (tarjima) tilida ham muqobil (adekvat) tafakkurga ega bo'lish zarur ("Иностранная литература", М., 1976, № 10, с. 141).

Turli yozuvchilar uslubining bir-biridan farqlanishi, har bir yozuvchining boshqalarnikidan ajralib turadigan o'z uslubiga egaligi, bir yozuvchi ijodida turli uslub qirralarining namoyon bo'lishi, ular o'zlarining har xil asarlarini bir-biridan hiyla jiddiy farq qiladigan uslubda yozishi va, aksincha, bir asarning o'zida turli uslub jilolari chirmashib ketishi – bularning barchasi tarjimondan asl nusxaga mos uslub kaliti topishni talab etadi. Tarjimada muvofiq uslub kalitini topish asarning yozilish yo'sini bilan g'oyasi hamda muallif dunyoqarashi o'rtasidagi bog'lanishni to'g'ri belgilash, marom, ohang, sintaktik tarz va obrazlar silsilasiga xos xususiyatlarni to'g'ri tayin qila bilishga bog'liq. Biron asarni tarjima qilishda maqbul uslub kaliti topilmas ekan, tarjima va asl nusxa o'zaro muqobillik holatida bo'la olmaydi. Shu jihatdan, nazarimizda, Joys "Siyrati" har ikkala tilga muvaffaqiyatli o'girilgan. Ingliz-irland xalqlarining, qolaversa, vositachi rus xalqlarining turli tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda yashashlari, ularning ongi, dunyoqarashi va axloqida turli spetsifik tushunchalar va tamoyillar ham hisobga olingan. Masalan, He kept his hands in the side pockets of his belted grey suit (А вот в драке о тех, кто победил, говорят: за пояс заткнул) jumlasida *mushtumzo'r*

ma'nosini anglatuvchi *a belt* slengi bor. Uni tarjimon asliyatga mos o'zbekcha sleng bilan o'girsar bo'lar edi-ku, lekin u *belbog'i qoruvli* obrazli turg'un birikma bilan almashtirgan. Lekin rus tilidagi *bir cho'qishda qochiradi* ma'nosidagi *за пояс заткнуть* iborasi ham muqobil. Tarjimon *пояс – belbog'* so'zlariga qarab birinchi variantni qo'llagan ko'rinadi. Keyingi o'rinlarda xuddi shu ibora ikki marta bir xil *unini o'chirmoq* deb berilgan. Vaholanki, rus tilidagi *bir cho'qishda qochiradi* ekvivalenti obrazlilik jihatidan undan ancha ustun turadi. Yana shu yerda *suit* so'zi *kurtka* deyiladi. Lekin Ahmadjon Otaboev uni hamma yerda *kamzul* deb tarjima qiladi. Kamzulning pidjak (xalqda *kostyum*) va shim bilan birga uchlik (troyka)ning bir qismi ekanligi, yengsiz bo'lishi, ko'ylak ustidan kiyilishi, qo'llarini kamzul cho'ntaklariga tiqib yurish mumkin emasligini e'tiborga olsak, u kurtkaga ekvivalent bo'la olmaydi. Shuningdek *veil – вуаль chimmat* emas, sutana – *сутана yaktak* emas, *cap – kerpka shanka* emas, *flowerbed – klumba gulxona* emas, *matting – dorozhka poyondoz* emas. Ko'p tarjimonlarimiz shuni hisobga olishmaydi.

Ijodkor Joys asarda eng mayda-chuyda, ikir-chikir, tafsilotlar – qahramonlarning nima bilan mashg'ul bo'lganliklari, nima haqida o'ylaganliklarini tasvirlaydi, ularning ongidagi o'zgarishlar, oqimlar, ularning ichki monologlarini ifodalaydi, qahramonlar faoliyatini boshqaruvchi ongdan tashqaridagi turtkilarni kuzatishga harakat qiladi, Joys hech qanday tinish belgilarini ham tan olmaydi. Vaqti kelganda, bosh harflar ham ishlatilmaydi. Nutqni jarangdor qilish vositalarini qo'llaydi. Ba'zan Blyumning fikrlaridagi chalkashlik va noaniqliklarni aks ettirar ekan, Joys jumlar va so'zlarni bo'lib-bo'lib tashlaydi. Bu bilan kitobxonni o'ylashga, o'zi hukm chiqarishga undaydi. Tarjimon Ahmad Otaboy tomonidan o'girilgan bu asarda asliyat, ya'ni uning vazifasini bajaruvchi rus tilidagi matn va tarjima tili vositalari uslubiy muvofiqlashtirilgan. Har ikki – rus va o'zbek tillari, xatto uch – ingliz tildagi timsollar tizimi doirasida uslubiy-semantik jihatdan muqobil. Tasviriy vositalar tarjimon tomonidan ichki his bilan sezib tanlab olingan. Asardagi mungli va quvnoq, ko'tarinki va tekis, rangdor va siring'a, musiqiy va vazmin ruhdagi ifodalar tarjimada tasvirlangan davr, tanlangan mavzu, voqealar tiyatiga mos tarzda to'la muqobil aks etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raev K. Modern adabiyot. Andijon, 2006.
2. James Joyce. A Portrait of the Artist as a Young Man. // Portret yunogo xudojnika. M. Bogoslovskaya-Bobrova tarjimasi M., Terra", OCR & spellcheck by Harry Fan, 24 November 2000.
3. Jeyms Joys. Navqiron san'atkorning siyrati. //Ruschadan Ahmad Otaboy tarjimasi. Jahon adabiyoti, 2007, №№ 3-4

Kelajak avlodni tarbiyalashda qonunchilik

*Б.Абдызаффаров - Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

Yoshlar kelajagimiz podevoridir. Prezidentimiz tomonidan farzand tarbiyasi, yoshlarga oid qonunchilikni takomillashtirish masalalari doim kun tartibidagi masal bʻolib hisoblanmoqda.

O'zbekiston yoshlarining ijodiy, intellektual, ijtimoiy, siyosiy zahiralari va salohiyati juda katta kuchga va boylikka ega. Bugungi kundagi bosh vazifa esa - mazkur zahiralarni taraqqiyot, rivojlanish va demokratiya uchun safarbar etishdan iboratdir⁴⁴.

Barkamol avlodni tarbiyalash va ularga mentalitetimizga xos axloqiy, huquqiy bilim berishda mahalla fuqarolar yig'inlarini xududdagi bilim maskanlari bilan xamkorligini mustahkamlash davlatimiz milliy ravnaqiga yanada kuch bag'ishlagan bo'lar edi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston qonunchiligi barkamol avlod manfaatlarini himoya qilishda quyidagi yo'nalishlarda rivojlandi:

- o'z davlatchiligi asoslarini yaratish jarayonida mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda xususiy tajriba va amaliyotdan, milliy tarixiy qadriyatlar tizimidan foydalanish;
- sobiq ittifoq va MDH tajribasidan uning ilg'or tamoyillarini buzmay saqlab qolish;
- butun jahon tajribasida, xususan BMT tomonidan ishlab chiqilgan inson huquqlarini ta'minlash borasidagi mavjud eng ilg'or g'oya va normalardan unumli foydalanish.

Bu borada xulosalarga tayangan holda birinchi taklif etishimiz lozim bo'lgan holat bolalarni qarovsiz qolishini oldini olish.

Bolalarning qarovsiz va nazoratsiz qolishining oldini olish maqsadida, avvalo, ota-onalarni va jamoatchilikning masuliyatini oshirish, buning uchun barcha fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari), ularning maslahatchilari, mahalla posbonlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, manfaatdor korxonalar, tashkilot va muassasalar ishtirokida, **“Bola huquqlari ularni kelajagi”** mavzularida, **“Bola savdosi bo'yicha dunyoda yuz berayotgan hodisalar, ularning huquqiy oqibatlar va uning oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar”** mavzusida xududiy seminarlar tashkil etish, ushbu yo'nalishni tartibga soluvchi milliy qonunchilik tizimi yuzasidan tushuntirish ishlarini izchil olib borish maqsadga muvofiq faoliyatdir.

Qonunchiligimiz bola huquqlarini himoya qilish borasida bir qancha milliy qadriyatlarimizni va xalqaro talablarni o'zida mujassamlagan. Jinoyat kodeksida ham voyaga yetmaganlarni jinoyatlari bo'yicha alohida insonparvarlik

⁴⁴ “Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida ish olib borishning samarali usul va uslublaridan foydalanish” seminar-trening materiallari. – Andijon, 2009.- 4-5 may

tamoyillarini belgilab qabul qilingan. Yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar va jinoyatlar mamlakatimizda voyaga yetmaganlar va katta yoshdagilar ishini aynan bir sud tomonidan ko'riladi. Chet davlatlarda esa voyaga yetmaganlar ishini Yuvenal sudlari tomonidan ko'rilishi e'tiborimizni tortadi. Yuvenal sudlari faqatgina voyaga yetmaganlar ishini ko'rish uchun shakllantirilgan. Yuvenal yustitsiyani shakllantirish bo'yicha BMT taraqqiyot dasturi tomonidan mamlakatimizdagi huquqshunoslik yo'nalishidagi o'quv yurtlari mavjud oliy o'quv yurtlari Toshkent davlat **yuridik universiteti tashkilotchiligida seminarlar o'tkazildi.**

Taklif etishimiz davr talabi hisoblangan navbatdagi masala voyaga yetmaganlar sudlarini shakllantirish.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlarni alohida sudlar tomonidan bola huquqlari bo'yicha mutaxassislikka ega sudylar tomonidan ko'rilishi insonparvarlikning tamoyili aks etishi va sud hokimiyati islohotlarining yana bir pog'ona yuqori bo'lishi hisoblanadi.

Navbatdagi taklifimiz, Kasb-xunar kollejlarni mutaxassisliklari bo'yicha qayta ko'rib chiqish, maishiy xizmat turlariga, qurilishga mutaxassislashtirilgan, shuningdek, yangi texnologiyalarni yaratish bilan bog'liq, yangi qishloq ho'jalik agronomlarini yetishtirish bilan bog'liq kollejlarga e'tibor berish, ularni ish bilan ta'minlashda davlat monopoliyasini amalga oshirish. Ya'ni bunda chetga ishlash uchun chiqishni davlatlararo shartnoma asosida yo'lga qo'yish, Milliy bag'rikenglik tamoyili asosida qo'shni davlatlar bilan ish bilan ta'minlash borasida shartnomalarni takomillashtirish maqsadga muvofiq. Rossiya barcha xududlarida qurilish, maishiy xizmat kabi ishlarni bajarish uchun shartnoma tuzish, u xududlarda davlat ruxsatisiz ishlash uchun borishni ta'qiqlash. Va barcha Rossiyadagi xududlarda konsullikning bandlik shahobchalarini tashkil etgan holda O'zbekistondagi kollej talabalarini bitirgach ish bilan ta'minlashda buyutmalar olish. Kollejlarni bitirganlarni bandligi bo'yicha hokimiyat qoshida alohida bo'limlar tashkil etish. Ularni mehnatidan qonunchilikka binoan foydalanish uchun xududlardagi mehnat bozorlarida nazorat o'rnatish.

- Qonunchiligimizdan ko'rinib turibdiki, bolalarni yetarlicha tarbiyalash har bir oilaning, jamiyatning oldidagi burch hisoblanadi.

Hozirgi taraqqiy etgan davrda farzandlarini g'arbga xos tarzda ham tarbiyalanmoqda. Konstitutsiyaviy huquq to'g'risida ta'lim beruvchi mutafakkirlar bu haqda o'z fikrlariga egalar. Ular,- «G'arbga xos madaniyatga ixlosmand oilalar an'anaviy oilaviy munosabatlardagi eng yaxshi ma'naviy qadriyatlarini, avvalo o'z a'zolarining fuqaroviy nuqtai nazari, jamoadagina emas, balki jamiyatdagi ishlarning axvoli uchun ham javobgarlikni unutmashliklari g'oyat muhimdir⁴⁵»-, deb ta'kidlaydilar.

⁴⁵ Saidov A. «Konstitutsiya va oila». Konstitutsiyaviy huquq. Moliya».2002.-611-b.

Shundan kelib chiqib, yoshlarni kiyinish madaniyatini shakllantirishda, ko'cha –ko'yda o'zini tutishi, madaniyatini shakllantirishda oliy o'quv yurtlarida axloq kodekslari yaratish, unda aynan yoshlarni madaniyatli va mentalitetimizdan kelib chiqib tarbiya olishlarida axloq Kodekslariga rioya etilishini nazorat qilish lozim deb bilamiz

Davlatimiz Prezidenti,-« Men Abdulla Avloniying «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushoxada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir.

Chunki ta'lim-tarbiya- ong maxsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad- ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi», - deb ta'kidlaydilar.

Ularni baxtli bolaligi uchun davlatimizda barcha narsa muxayyo. Biz istar edikki bolalar kelajakda o'z vatanlari, davlatlari uchun kuchli himoyachilar bo'lib yetishsinlar.

«Bolalarimiz bizdan kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak»- deb aytgan edilar yo'l boshchimiz I. A Karimov.

O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Zero, buning uchun mustahkam asos – millionlab yetuk va barkamol, intellektual salohiyatga ega hamda jismoniy sog'lom yoshlar shu muqaddas zaminda o'sib ulg'aymoqda.

Yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish muammolari

G. Chuboyeva

IIB xodimi

Davlatimiz rahbari tomonidan 2016 yilni “Sog'lom ona va bola yili” deb e'lon qilinganligi, yoshlarga bo'layotgan e'tiborni yanada kuchayayotganligidan dalolat beradi. Ularni ijtimoiy, huquqiy, ma'naviy himoyasi uchun yaratilayotgan ijtimoiy bazani kuchaytiradi. Ayniqsa, dasturda belgilangan huquqiy asoslar shakllantirilishi yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarni, jinoyatlarni oldini olishda asosiy mezonlarni takomillashtirishda zamin bo'ladi. Dasturda O'zbekiston Respublikasining “Alkogolli ichimliklar va tamaki tarqatilishi hamda 20 yoshga to'lmagan shaxslar tomonidan alkogol iste'mol qilish va tamaki chekishni cheklash to'g'risida”gi, «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni Qonun loyixasini tayyorlash masalasi, «Voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va huquqbuzarligi profilaktikasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqish va taqdim etish, O'zbekiston Respublikasining «Axborot-resurs

markazlari va kutubxona faoliyati to'g'risida»gi Qonuni loyihasini ishlab chiqish va taqdim etish, "2010-2015 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash dasturi to'g'risida"gi Respublika Prezidenti Qarori loyihasini tayyorlash masalalari, Respublikaning har bir tumani va shahrida ishlab turgan xalq ta'limi maktabdan tashqari muassasalari va klub madaniyat muassasalari bazasida zamonaviy va zarur uskunalar bilan jihozlangan «Barkamol avlod markazi» tashkil etish va uni rivojlantirish Dasturini ishlab chiqish kabi kun tartibiga qo'yilayotgan masalalar yoshlarni bandligi muammolarini xal etishda, ularni tarbiyalashda, ularga bilim berishni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Chunki yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar, jinoyatlarni taxlil etilganda, qilmishlarning kelib chiqish shart-sharoitlari aynan ularni band etish chora-tadbirlarini noto'g'ri tashkil etilganligi holati ko'proq e'tiborni tartmoqda.

Jinoyat huquqida voyaga yetmaganlar tushunchasi mavjud bo'lib, bu toifaga Jinoyat qonunimiz 13 yoshdan – 18 yoshgacha bo'lgan yoshdagi jinoyat sub'ektlarini kiritgan, bu yosh tsenzi turli davlatlarda turlicha belgilangan bo'lsada, mamlaktimiz xududidagi xalqlarning o'ziga xos xususiyatidan, insonning jismoniy, ruhiy, ma'naviy, tibbiy, sotsiologik ommillardan kelib chiqib belgilanganidir⁴⁶. Shunday ekan, voyaga yetmaganlar masalasi nafaqat kriminologiya va jinoyat huquqini o'rganish ob'ekti, balki falsafa, psixologiya, sotsiologiya, meditsina, politologiya fanlarini ham o'rganish ob'ektlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlar deyarli barcha davlatlarda umumiy jinoyatchilikning ozgina qismini tashkil qilganligiga bois kriminologiyada ko'pgina mualliflar tomonidan boshqa jinoyatlar bilan teng holda, umumiy asosda o'rganilgan. Lekin fikrimcha bu noto'g'ri yondashuv, chunki o'z-o'zidan ma'lumki, voyaga yetmaganlar har bir davlatning kelajagi, bugun ular qanday bo'lsa, ertangi davlatning kriminologik holati ham shunga bog'liq bo'ladi. Shu bois voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlarni kriminologiyasi alohida o'rganishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonuniga alohida bob (maxsus qismning 6-bobi) va bo'lim (umumiy qismida 6 bo'lim) bo'lib, voyaga yetmaganlarni qilmishi va jazo belgilashdagi qoidalarga alohida me'yorlar belgilangan. Lekin jinoyatlarni vujudga kelishi, shart-sharoitlar, sabablar, muhit, jamiyatdagi holatlarni e'tiborga olib, barcha sohalarida ularga alohida fanning bo'limi sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiq.

Huquqshunoslik fanlari bo'yicha mutaxassilarni fikrlarini o'rganish jarayonida ularning ayrim xulosalarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ular belgilashicha, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlarni kriminologiyaning alohida sohasi sifatida o'rganishga bir necha asoslar mavjud:

⁴⁶ "Davlat boshqaruvini yanilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni. 11.04.2007. Xalq so'zi. 2007 yil 12 aprel.

Birinchidan, davlatimizning o'sib kelayotgan avlodga bo'lgan alohida e'tibori. Ularning hayoti va sog'lig'i masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi.

Ikkinchidan, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ginezis va motivlarining alohida xususiyati. ya'ni ularning yoshlar tarbiyasi va kundalik hayoti bilan bevosita bog'liqligi.

Uchinchidan, davlat jinoyatchilik darajasi va dinamikasining voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga bevosita ta'siri

Bizga shu narsa ham ma'lumki, voyaga yetmaganlar o'smir paytida sodir qilgan huquqbuzarligi uchun jazolangandan keyin keyingi davrlarda yana jazolansa hayotga to'g'ri yo'lga tushishga ancha qiynaladi va oxir oqibatda katta va retsediv jinoyatlarning asosiy zahirasini tashkil qiladi.

Bugungi kunga kelib voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi to'g'risida yetarli darajada statistik materillar to'plangan va uning tahlil qilishning usullari ishlab chiqilgan. Bularning barchasi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ahvolini to'g'ri baholash, undagi miqdor va sifat ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarini bilish imkonini beradi⁴⁷.

Ayrim vaqtlarda alohida hududlardagi jinoyatchilikning miqdor va sifat ko'rsatkichlarida, shuningdek, jinoyat sodir etuvchi shaxslar va turli xil jinoyatlar tarkibida aniq bo'lmagan ma'lumotlar bo'lishiga karamay voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining aniq ahvoli haqida taxlillar e'tiborli.

Jumladan, O'zbekistonda 1998 yilda 50,000 jinoyatchi hukm qilingan bo'lsa, shundan 2000 dan ortig'i voyaga yetmaganlar bo'lgan. Bu 4% tashkil etadi. 1996 yil 51,602 jinoyatchi jazoga hukm qilingan bo'lsa, shundan 2,023 tasini voyaga yetmaganlar, bu esa o'z o'rnida 3,9% ni tashkil etadi. 50dan ortiq voyaga yetmaganlar Oliy sud tomonidan hukm qilingan.

Agar mahkumlar miqdorini solishtirib tahlil qilinsa, 1998 yili jinoyat sodir etgan 2,000 jinoyatchilardan 37 sini hayotga qarshi (97-103 modda) jinoyatlarda ayblanib, hukm qilingan. 1998 yili 97 modda bilan 10 kishi hukm qilingan.

Lekin keyingi paytlardagi yoshlarga nisbatan olib borilayotgan siyosatdagi ustuvorlik yoshlar o'rtasida qilmishlarni kamayishiga olib keldi, jumladan, Namangan viloyat Yangi qurg'on tumanida 2008 yilga nisbatan 2009 yilda jinoyatchilik 30 foiga kamaygan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini hudud bo'yicha tarqalishi ham kriminologik vaziyatlarga qarab, o'zgarimoqda.

Bu barchasi davlatimizni odilona siyosatidan deb bilamiz.

Bugun O'zbekistonda o'quvchilarning bepul majburiy umumiy va uch yillik maxsus kasb-hunar ta'limi bilan to'la qamrab olinishiga to'liq erishilmoqda. So'nggi o'n yil mobaynida mamlakat o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimida yuzdan ziyod yo'nalish, 265 ta ixtisoslik va 700 ta kasb bo'yicha professional ta'lim olgan bir milliondan ortiq yangi avlod mutaxassislari tayyorlandi. O'zbekistonda yoshlarning ish bilan bandligi

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. Toshkent:--Adolat. 2014

masalasiga ham eng dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Birgina 2007 yilda qo'shimcha ravishda 630 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi va ularning aksariyati yoshlar uchun mo'ljallangan⁴⁸.

Respublikada faoliyat yuritayotgan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» va «Sog'lom avlod uchun» jamg'armalari o'sib kelayotgan yosh avlod orzu-istaklari, o'y-xayollarini ro'yobga chiqarish yo'lida samarali xizmat qilmoqda. Zulfiya nomidagi va «Nihol» mukofotlari, «Yangi avlod» va «Kelajak ovozi» ko'rik tanlovlari O'zbekistonda yashayotgan har bir bolaning iste'dodi va qobiliyatini kashf etish va uni yuzaga chiqarishga imkon bermoqda⁴⁹.

Belgilangan ushbu tadbirlarni amalga oshirish yoshlarni, kelajak avlodni yetuk qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Agar mentalitetimizga ularni ijobiy, savob ishlarga yo'naltirish ko'proq singdirilsa, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar kamayishi va jamiyat gullab-yashnashiga qilingan harakat bo'ladi.

Jamiyatni insonparvarlashtirish g'oyalari tarixidan

M. Irgasheva - Namangan shahar 27-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Odamlarning madaniy merosga, bilimga, ilmga intilishlari kuchaya bordi. Endilikda odamlar inson aql-zakovatining kuchiga, olamni o'zgartirish borasidagi salohiyatiga ko'proq ishona boshladilar, og'ir musibatli turmush tashvishlaridan, zulm va adolatsizliklardan holi qiluvchi yagona qudrat - bilim, ilm ekanligini tushuna boshladilar. Bunday kayfiyatlar ma'rifatparvarlik harakatida o'z ifodasini topdi. Xullas, O'rta Osiyoda ma'rifatparvarlik harakati kishilarning ilm-fan, taraqqiyot, umuminsoniy qadriyatlarga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy qoloqlikni bartaraf etishga bo'lgan intilishning natijasi edi.

O'rta Osiyo mamlakatlarida ma'rifatparvarlik o'z taraqqiyotining dastlabki bosqichida, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmida, o'tmish avlod madaniy-ma'naviy merosini, musulmon axloqi-odobi qoidalarini targ'ibot va tashviqot qildi. Odamlarni bilim, ilm egallashga chaqirdi. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloqligini, kishilar madaniy-ma'naviy saviyasi pastligini tanqid qildi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy qoloqlikdan chiqish, jamiyatni insonparvarlashtirish yo'llarini izladi. Bunday kayfiyatni XIX asrning ikkinchi yarmida ijod etgan ma'rifatparvarlar Ahmad Donish, Berdimurod Berdah, Sattorxon Abdulg'afforov, Furqat asarlarida ko'rish mumkin.

Buxorolik ma'rifatparvar Ahmad Donish⁵⁰ butun jamiyatni inson manfaatiga bo'ysundirmoq uchun, odamlar xulq-atvorlarini tubdan o'zgartirmoq

⁴⁸ http://gzt.uz/uzbl/sivosat/voshlar_vatan_kelajagi_mamlakat_oudrati_va_tavanchi.

⁴⁹ mqr

⁴⁹ <http://uza.uz/uz/culture/10699/>

⁵⁰ Ahmad Donish 1827 yilda Buxoro shahrida tug'ilgan. Shu yerdagi maktab va madrasalarda bilim olgan. Riyosat, xandasa, falakiyot, musiqa, tarix, falsafa ilmlarini qunt bilan

lozim. Buning uchun, eng avvalo, inson o'zining kimligini, nimadan tashkil topganini bilmog'i zarur, deb hisoblardi. Uning tushuntirishicha, inson tana bilan ruh birligidan iborat. U o'z asarlarida tana bilan ruhning o'zaro aloqadorligi haqida fikr yuritib, inson tanasi bilan ruhini birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydi, deb yozadi.

Ahmad Donish jamiyatni insonparvarlashtirishning eng muhim sharti - davlatni isloh qilishdir, deb tushunadi. Davlat bir guruh kishilarning emas, balki xalq manfaatini himoya qilmog'i, davlatni boshqarib turgan hukmdor - ma'rifatli, odil va donishmand bo'lmog'i shart. Hukmdor muhim davlat ishlarini hal qilishda o'z atrofidagi amaldorlar bilan maslahatlashmog'i darkor. Mamlakatni ana shunday kishi boshqarganda jamiyatda ijtimoiy adolat normalari qaror topadi. Adolatsizlikka asoslangan, o'z fuqarolari haqida qayg'urmaydigan davlat uzoq yashay olmaydi.

Ahmad Donish fikriga ko'ra, jamiyatni insonparvarlashtirishning eng muhim shartlaridan biri - ijtimoiy adolat noramalariga tayanmoq, xususan, odamlar orasida tenglikni barqaror qilishdir. Ayniqsa jamiyatda yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni teng taqsimlamoq zarur. O'shanda odamlar orasidagi turli mojarolar, kelishmovchiliklar bartaraf etiladi.

Har qanday jamiyatda ham fuqarolarning katta qismini xotin-qizlar tashkil etadi. Shuning uchun ham Berdah, jamiyat hayotini insonparvarlashtirish - xotin-qizlar turmush tarzi, ularning madaniy-ma'naviy saviyasi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Jamiyatda ayollar bilan erkaklar teng bo'lishi lozim. Shunday bo'lsada, ayol erkakning sodiq do'sti bo'lib, erini qattiq sevishi va hurmat qilishi zarur. U ayolning katta qalin evaziga sotilishini qoralaydi. Bunday odatni aqlsizlik va axloqsizlik alomati deb baholaydi. Jamiyat hayotidagi urf-odatlar ayol izzat-nafsigaga tegadi, insoniy haq-huquqlarini paymol qiladi. Qoraqalpoq shoiri xotin-qizlarning insoniy haq-huquqlarini himoya qilishga chaqiradi.

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo ma'rifatparvarlari jamiyat hayotini insonparvarlashtirish uchun mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy qoloqlikdan olib chiqish zarur, deb hisobladilar. Buning uchun fuqarolarni bilimli, ilmi qilmoq kerak degan g'oyani ilgari suradilar. Boshqacha aytganimizda, ma'rifatli insonni shakllantirmasdan turib, jamiyatni insonparvarlashtirib bo'lmasligi, o'z navbatida, inson ruhiy-ma'naviy kamoloti bilim, ilm bilan bevosita bog'liq ekanligini tushuntirishga harakat qiladilar. Eng muhimi, inson o'zligini bilmog'i uchun bilimli, ilmi bo'lishi zarurligini qayta-qayta takrorladilar. Bunday fikr-mulohazalarni mashhur o'zbek ma'rifatparvarlari Sattorxon Abdulg'afforov va qo'qonlik shoir Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat qarashlarida ham ko'rish mumkin.

o'rgangan. Zamonasining buyuk mutafakkiri bo'lib shakllangan. Amir Nas-rulloh saroyida xizmat qilgan. Uning inson to'g'risidagi qarashlari "Navodirul va-qoe'" asarida bayon etilgan. 1897 yilda Buxoroda vafot etgan.

Inson huquqlari, bolalar va ayollar, erkak va ayollar teng huquqliligi sohasidagi hamkorlik

A. Jumaboyev

Nam DU o'qituvchisi

Barcha insonlar teng qilib yaratilgan, ular yaratuvchi tomonidan muayyan daxlsiz huquqlar va shular jumlasidan yashash, ozodlik va baxtga intilish bilan ta'minlanganligini biz asl haqiqat deb tan olamiz. Ularning bunday intilishlari va harakatlarini qo'llab-quvvatlash va himoya qilishda jahondagi eng obro'li va nufu'zli BMT, YeXHT singari xalqaro tashkilotlarning ahamiyati benihoya kattadir. Ularning ahamiyati tenglik uchun kurash, xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, davlatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch va teng huquqlili hamkorlikni rag'batlantirish, mahalliy va mintaqaviy nizo-janjallarga yo'l qo'ymaslik, harbiy harakatlarni to'xtatish va ularning oldini olish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish, insonning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik kabi insonparvarlik tamoyillari bilan belgilanadi.

Inson huquqlarini himoya qilishda BMTning roli va ahamiyati. Ikkinchi jaxon urushi dunyo ahlini ko'z ko'rib quloq eshitmagan daxshatlarga soldi. Urushni boshidan kechirgan davlatlar xalqi inson bilmagan, ular uchun yot bo'lgan qiynoq, azob uqubatlarni, taxqirlashlarni boshidan kechirdi. Ikkinchi jaxon urushiga sabab bo'lgan nemis fashizmi insoniyatni kelajakda bundan daxshatlarga qarshi birgalikda kurash olib borish kerak degan xulosa chiharishga olib keldi. Jaxonda tenglik va taraqqiyotdan manfaatdor bo'lgan kuchlar fashizmning qayta tiklanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida turli davlatlarning birgalikda harakat qilishlari zarurligini va bu borada qo'llab quvvatlashni so'rab, o'z xokimiyatlari oldiga qat'iy talablar qo'ydilar. Tinchliksevar kuchlar va davlatlarning bu yo'ldagi harakatlari BMTning faoliyatida o'zining amaliy ifodasini topdi. "Urush ofatlaridan avlodlarni xalos etish, inson huquqlariga ishonchni qaror toptirish, adolat va xalqaro huquq tamoyillarini xurmat qilishni ta'minlash va ijtimoiy taraqqiyotga hamda barchaning turmush sharoitini yaxshilashga yordam berish BMTning asosiy maqsadlaridan biri deb e'lon qilindi"⁵¹. Bu nufuzli va obro'li tashkilotning Nizomiga "Biz Birlashgan Millatlarning xalqlari, insonning asosiy huquqlari, inson shaxsining qadr-qimmatiga, hamda katta va kichik millatlar huquqi tengligiga ishonchimizni yana bir karra tasdiqlab, BMT Nizomini qabul qilishga azmi qaror qildik" degan so'zlar yozilib qo'yildi. O'shandan buyon ancha vaqt o'tishiga qaramay bu maqsadlar hozirgi kun uchun ham muxim ma'no va ahamiyat kasb etmoqdi.

BMTning asosiy maqsadlaridan biri- bu inson huquqlari Umumjaxon Deklaratsiyasida qayd qilingan barcha huquqlar va erkinliklarni samarali amalga oshirish va ularga rioya qilishni so'zsiz ta'minlashdan iborat. Buning uchun BMT barcha a'zo-davlatlarning diqqat va e'tibori va ularning sayi-harakatlarini,

⁵¹ "Inson huquqlari" o'quv qo'llanma H.B. Boboyevning umumiy taxriri ostida/-Toshkent: 1997.-B. 89.

birinchi navbatda, inson huquqlari va erkinliklarini ximoya qilishga safarbar etishlarini rag'batlantirishga qaratmoqda. BMT ixtiyoriy tashkilot bo'lsada, biroq uning Nizomida belgilangan meyorlar va talablarni bajarishda har-bir a'zo davlat mas'uldir. Mas'uliyat BMT tomonidan biron-bir davlatni uning nizomdagi talablarini bajarishga majbur qilishni emas, aksincha ularning ixtiyoriyligi asosida inson huquqlarini kamsitish yo'lidagi urinishlarga yo'l qo'ymaslik burchini chuqur anglashni ifoda qiladi.

Har bir davlat o'z mamlakatda insonning haq-huquqlari, uning sha'ni va qadr-qimmatiga nomunosib bo'lgan harakatlarni ta'qiqlash, buni huquqiy jixatdan kafolatlash yo'lida tinmay kurash olib borishi lozim. Bu zaruriyat a'zo davlatlarning mamlakatda inson huquqlarini kafolatlash soxasida olib boradigan amaliy ishlari natijalaridan kelib chiqadi.

“Inson huquqlari va erkinliklari masalasi BMTning 70 dan ortiq asosiy huquqiy xujjatlarida belgilangan va ifodalangan. Inson huquqlari Umumjaxon Deklaratsiyasi (1948 yil), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt (1966 yil), Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Pakt (1966 yil) hamda Fakul'tativ protokol (1966 yil)lar shular jumlasidandir. Bu tarixiy hujjatlarning har-biri inson huquqlari va erkinliklari hamda ularni himoya qilishning zarurligi, yo'llari, shart-sharoitlarini aloxida moddalarda huquqiy jihatdan kafolatlaydi”⁵².

BMTning inson huquqlariga doir qabul qilingan xalqaro hujjatlari mantiqan bir-birini to'ldiradi va mazmunan boyitadi. Bu moddalarda belgilangan me'yorlar inson huquqlarini ximoya qilish soxasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan talablarga aslo zid emas. Ular BMT faoliyatining ayrim davlatlarida ishlab chiqilgan bo'lsa-da, o'zining mohiyati e'tibori bilan inson huquqlari va erkinliklarini ximoya qilish maqsadlariga to'la mos keladi. BMT inson huquqlari va erkinliklariga doir faoliyatini o'zi ishlab chiqqan va qabul qilgan ana shu tarixiy hujjatlarning talablariga muvofiq ravishda olib borishga harakat qiladi. BMTning Bosh assambleyaasi, Xavfsizlik Kengashi, va uning boshqa organlari inson huquq va erkinliklariga doir masalalarni xal qilishda bu xujjatlarga asoslanaadi va ularda belgilangan me'yorlarga amal qiladi. Masalan, Bosh Assambleya o'zining ko'plab rezolyutsiya, konventsiya va deklaratsiyalarida inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilgan bo'lib, ularda, a'zo davlatlarning diqqat-e'tiborini inson to'g'risida, uning sha'ni, qadr-qimmatini va erkinligini ximoya qilishga qaratilgan. Binobarin, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1959-yilda qabul qilingan “Yosh bola huquqlari xaqidagi deklaratsiya”, 1965-yilda qabul qilingan “Irqi kamsitishning hamma shakllarini tugatish haqidagi Konventsiya”larda inson shaxsi uning huquq va erkinliklari har-bir mamlakatda huquqiy jixatdan kafolatlanishi qayd etilgan. “Yosh bola huquqlari xaqidagi deklaratsiya”da onalik va bolalarni himoya qilish, bolalar mexnati, salomatligi, tarbiyasini huquqiy jixatda muxofaza etish, ularning irqiy

⁵² “Inson huquqlari” o'quv qo'llanma HB.Boboyevning umumiy taxriri ostida Toshkent 1997 yil 91 bet.

kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik singari huquqlari har-bir mamlakatda qonun asosida ximoyalaniishi zarurligi ta'kidlanadi. Bosh Assambleya xalqaro huquq tamoyillariga taalluqli bo'lgan masalalarni ham qamrab oladi. Bundan maqsad xalqaro huquqning insonparvarlik mohiyatini rag'batlantirishdir. Shuningdek bundan asosiy maqsad iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, sog'liqni saqlash sohalarida xalqaro hamkorlikka yordamlashish va irq, jins, til va din tafovvutlaridan qat'iy-nazar, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini amalga oshirishga ko'maklashishdir.

Bosh Assambleyaning o'z vazifalarini bajarishga yordam beradigan qumitalari orasida huquqiy masalalar bilan shug'ullanadigan qumita ham faoliyat ko'rsatadi. Qumita faoliyatida xalqaro huquqqa doir masalalar bilan bir qatorda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish masalalari ham muhim o'rin egallaydi. Qumita doimiy ravishda Bosh Assambleyaga inson huquqlarini himoya qilish to'g'risida axborotlar, tavsiyalar berib turadi.

Kafolatli to'lovlari tushunchasi va uning huquqiy ahamiyati

A. Jumaboyev

Nam DU o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi har bir xodimning huquq va erkinliklarga ega ekanligini mustahkamlab qo'ygan hamda ularni ta'minlashning iqtisodiy va huquqiy vositalarini nazarda tutadi. Mazkur huquq va erkinliklarni amalga oshirishni ta'minlovchi iqtisodiy va yuridik vositalar huquqiy kafolatlar deb nomlanadi.

Inson va uning huquqi, erkinligi hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biridir. Inson huquqlari masalasi demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, u davlatning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatuvchi mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tgandan keyin amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy va pirovard maqsadi bu eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir. Fuqarolarimiz asosiy tirikchilik manbai va turmush farovonligini oshirishning yetakchi vositasi bo'lib bugungi kunda mehnat shartnomasi asosida (yollanib) ishlovchi fuqarolar - xodimlarga to'lanadigan ish haqi hisoblanadi. Daromad olishning tarkibiy qismi hisoblangan mehnatning miqdori va sifatiga munosib ish haqi olish kishilarning eng muhim iqtisodiy huquqi hisoblanadi.

Korxonalar, tashkilot, muassasalarda yollanib ishlovchi xodimlarga nisbatan turli xil to'lov shakllari amalga oshiriladi. Jumladan, biz e'tirof etmoqchi bo'lgan to'lovlardan biri bu kafolatli va kompensatsion to'lovlardir.

Kafolatli va kompensatsiya to'lovlari – aniq huquqlarni rasmiy amalga oshirishga yo'naltirilgan kafolatlarning bir turi bo'lib hisoblanadi.

Kafolatli to'lovlar - bu xodim qonunchilikda nazarda tutilgan uzrli sabablarga ko'ra, o'zining mehnat vazifalarini bajarmagan vaqt uchun beriladigan to'lovlardir. Bunday to'lovlarni joriy qilishdan ko'zlangan maqsad, asosan

xodim davlat va jamoat vazifalarini bajargan, shuningdek ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlarini hamda jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilgan davrda uning o'rtacha ish haqini saqlashdan iboratdir.⁵³ Ayni vaqtda bu kabi to'lovlar xodimning ish haqini kamayib ketishdan saqlash bilan birga ko'rsatilgan ba'zi hollarda uni to'ldirish vazifasini ham o'taydi.

O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi qator hollarda xodimning mehnat sarfi bilan o'lchanmaydigan va unga bog'liq, bo'lmagan, biroq kafolat xususiyatidagi to'lovlarni to'lashni nazarda tutadi.

Mehnat qonunchiligi mehnat munosabatlari jarayonida xodim tomonidan qilingan xarajatlarni to'liq qoplash tamoyiliga asoslanadi.

Mehnat qonunchiligi turli - tuman sharoitlar yuz berishi munosabati bilan xodimlar bevosita xizmat vazifalarini bajarmagan yoki to'liq bajarmagan hollarda, agar bu holatlar uning aybiga bog'liq bo'lmasdan turli ob'ektiv sabablar tufayli vujudga kelgan bo'lsa, ularning moddiy manfaatlarini qo'riqlanishiga kafolat beradi. O'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra mehnat burchini bajara olmagan, shu tufayli ishlab pul topish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolgan xodimlarning ish haqlari saqlanishi va to'lanishi ta'minlanadi. Bunday kafolatli to'lovlar xodim va uning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalashga qaratilgandir.

Kafolatli to'lovlar qonunda maxsus nazarda tutilgan hollarda to'lanadi va ko'pchilik hollarda xodimni ish vaqti davomida davlat, jamiyat vazifalarini bajarishlikka, korxonada ish beruvchisi manfaatlariga mos keluvchi, mehnat vazifasi jumlasiga kirmaydigan ishlarni bajarishlikka jalb etilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Kafolatli to'lovlar ish haqidan farq qilib, bajarilgan ishning miqdori va sifatiga ko'ra emas, balki qonunda ko'zda tutilgan sabablarga ko'ra to'lanadi. Kafolatli to'lovlarning ijtimoiy vazifasi xodim o'zining huquqlarini amalga oshirishi, majburiyatlarini bajarishi tufayli ishlamagan vaqtlarda ular turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Kafolatli to'lovlar fuqaro o'zining fuqarolik burchini, ijtimoiy-siyosiy huquqlari va majburiyatlarini bajarishlari tufayli belgilangan konstitutsiyaviy kafolatlardan hisoblanib, ular barcha korxonada, muassasa, tashkilotlar tomonidan so'zsiz ta'minlanishi shart.

O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga muvofiq kafolatli to'lovlarni asosan 3 ta guruhga bo'lib qarash mumkin:

- 1) ish haqi o'rniga beriladigan kafolatli to'lovlar;
- 2) xodim davlat yoki jamoat vazifalarini, shuningdek, ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarish vaqtida beriladigan kafolatli to'lovlar;
- 3) xodim jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilganda beriladigan to'lovlar.⁵⁴

⁵³ Inoyatov A.A. O'zbekiston Respublikasining mehnat huquqi. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston, 2002 y.

⁵⁴ Inoyatov A.A. O'zbekiston Respublikasining mehnat huquqi Darslik. T., "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 2002 y.; Tursunov Y. Mehnat huquqi. Darslik. T., "Moliya" 2002 y.; Tursunov Y. Trudovoe pravo Respubliki Uzbekistan. T.: TDYuI, 2005 y. –B. 171

Tadbirkorlik sohasida huquqiy islohotlar jarayoni

*B. A. Karimov - O'zbekiston Respublikasi
Advokatlar Palatasi Namangan viloyat
boshqarmasi Boshlig'i*

Fuqarolik jamiyati, insonparvar huquqiy demokratik davlat qurish yo'lidan borish jarayonining asosiy xususiyatlaridan biri tadbirkorlikka keng yo'l berish hisoblanadi. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda iqtisodiyotning g'oyat muhim sohasi bo'lmish kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishga, xususiyl tadbirkorlik xuquqlarining kafolatlari va himoyasining kuchli tizimini yaratishga juda katta e'tibor berib kelinmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash avvalo uning huquqiy asoslarini takomillashtirishdan boshlanadi.

Bu borada Prezidentimiz tashabbusi bilan bir necha qonunlar qabul qilindi. Jumladan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni, Fuqarolik kodeksi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi, «Aktivadorlik jamiyatlari va aktivadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi, «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunlar shular jumlasidandir.

Jamiyatni isloh qilish va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish darayoni jadallik bilan borayotgan bir davrda, Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida, 2011 yilni «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb e'lon qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili Davlat dasturi» qabul qilindi.

Shunga mutanosib ravishda tarmoq dasturlari ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar tadbirkorlik subektlariga yaqindan ko'mak berishda, tadbirkorlik faoliyatini ijodiy rejalashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Advokatlar Palatasining 2011-yil tarmoq dasturiga binoan «Tadbirkorlik subektlarining huquqlarini himoya qilishda advokatlar o'rni» mavzuida seminarlar o'tkazildi.

2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi» mavzuida ma'ruzalarida demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifalari belgilangan yo'nalishlardan, Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish yo'nalishida bir qancha qonunlarni ishlab chiqarish belgilanib, jumladan, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi

Qonunni yangi tahririni tayyorlash zarurligi, bu qonunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini tashkil qilish yo'llarini soddalashtirish, ularning faoliyati uchun ko'proq erkinliklar berishni ko'zda tutilgan edi. O'zbekistonda tadbirkorlik subektlarini o'rnini ko'paytirish borasida partiyalar bilan advokatlar o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Tadbirkorlarni qo'llab –quvvatlovchi Liberal demokratik partiya vakillari tadbirkorlikka keng yo'l berish uchun alohida dastur asosida ish olib borishmoqda.

Sud organlari bilan ham tadbirkorlik subektlariga yordam berish borasida xisobot – taxlil ishlari amalga oshirilmoqda.

Sudlar tomonidan ko'rib chiqilayotgan tadbirkorlik subektlari ishtirokidagi ishlarning 12 foizida advokatlar ishtirok etganligi, har bir sudya ko'rayotgan ishlarda advokatlar faolligi alohida e'tirof etilmoqda.

Viloyat advokatlari tomonidan tadbirkorlarga beriladigan maslaxatlar alohida xisoboti shakllantirilgan.

Hozirda tadbirkorlik subektlariga murojaatlar uchun alohida qayd jurnallari tashkil etilgan bo'lib, tadbirkorlarga maslaxatlar bepul qilib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi Qarori bilan tasdiqlangan Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida tusiqlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta'minlash uchun "O'zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga mulkni, tadbirkorlik subektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonun dasturning 2 ta bo'limini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, sud va prokuratura organlari tomonidan tadbirkorlik subektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi rolini oshirish, ularga berilgan imtiyoz va preferentsiyalarning amalga oshirilishini nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari ularning hujalik va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralashganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish maqsadini ko'zlaydi.

Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2015 yil 31 iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2015 yil 6 avgustda ma'qullangan. Qonun mulkni, tadbirkorlik subektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirishga qaratilgan 43 ta qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutadi.

Ushbu qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishda qonun chiqaruvchi xorijiy tajribani chuqur o'rgangan va tugishli tushuntirishlarda xorijiy davlatlardagi qonunchilik holatlarini taxlil etgan.

Mamlakatimizdagi amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitidagi qonunchilik jahon tajribasi asosida takomillashtirilmoqda. Endilikda har bir jamiyat a'zosi, har bir shaxs, har bir soha mutaxassisi huquqiy savodxonligi yuqori darajada bo'lishi, zarur bo'lsa mutaxassislar tomonidan qonunchilikdagi o'zgartishlarni tushuntirilishi shart

ekanligi qonun talabidan kelib chiqmoqda. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunda (21-modda) «Taraflar xo'jalik shartnomalarini tuzish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yuridik xizmatining yoki jalb etilgan advokatlarning yozma xulosasini olishga haqli» deb ko'rsatilganligi tadbirkorlik borasidagi huquqiy islohotlarning yorqin namunasidir.

Hozirda advokatlar tomonidan tadbirkorlik subektlariga ko'rsatilayotgan xizmatlar va huquqiy targ'ibot bo'yicha har oyda xisobotlar taqdim etib borilmoqda. Bu holat tadbirkorlik subektlari bilan olib borilayotgan ishlarimizdagi yutuqli jarayon bo'lib, tadbirkorlarning huquqiy saviyasini yanada yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Komil inson g'oyasi

“Komil inson deganda biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz”

I. Karimov

Abdullayeva D. - Namangan davlat universiteti talabasi,

B. Tillayev - Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi

Komil inson g'oyasi milliy istiqlol g'oyasining tarkibiy qismi bo'lib, uni xalqimiz ongiga singdirish hozirgi kundagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish, fuqorolarning ma'naviy kamolotga erishishni ta'minlash mamlakat mustaqilligini mustahkamlash borasidagi sa'y-xarakatlarning yanada unumliroq bo'lishiga olib keladi.„Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifalarimiz-jamiyat a'zolarining avvalo yoshlarni ya'ni yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mexr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir“-degan edi muxtaram Prezidentimiz I. Karimov. Mamlakatning taraqqiyoti faqatgina moddiy imkoniyatlar emas, balki fuqorolarning ahloqiy jihatidan rivojlanganini ham belgilaydi.

Komil insonni tarbiyalashning bosh maqsad yo'nalishi g'oyaviy tarbiya bo'lib taqaladi. Zero bu-inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Sanab o'tilgan yuqoridagi tarbiya sohalarini yosh avlod ongiga singdirib borish bu komil inson g'oyasining bosh maqsadidir. Bunda oila, bolalar bog'chasi, maxalla, maktab, kollej, litsey, oliy o'quv yurti birdamlik asosida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlerida talaba va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongiga ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan

sifatlarni kamol toptirishga yo'naltiradi.

Jamiyat ijtimoiy xayotidagi o'zgarishlar uning fuqorolari ongiga ham muhim o'zgarishlar sodir etishni talab qiladi. Yangi sharoit yetuk, komil insonni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Bunda asosiy rolni ta'lim muassasalari o'ynashi muqarrardir.

Buning uchun maktab oldiga quyidagi talablar qo'yilmoqda:

- Har bir inson Vatan oldida burchli va ma'suliyatli ekanligini anglab yetishiga erishish;
- Mustaqil fikrlash, faqat va faqat o'z kuchiga tayanishi ruhida tarbiyalash;
- Intizomliqlik mehnatsevarlikni burch deb tushunishi;
- Milliy g'ururni shakllantirish;
- Milliy istiqloq g'oyalarini yosh avlod tomonidan o'zining shaxsiy ahloqiy prinsiplari sifatida qabul qilishiga erishish.

Bu vazifani amalga oshirishda Prezidentimiz I. Karimovning quyidagi so'zlarini yodda tutmoq zarurdir.,,Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar xalokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-ma'rifatdir". I. Karimov,,Tarixiy xotirasiz kelejok yo'q".

Yosh avlod ongiga ma'rifatni singdirib borish uni komil inson safida shakllantirishning bosh omilidir.

Komil inson g'oyasi - ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyanob g'oyadir.

Mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xurmat bilan qaraydigan o'zining qat'iy xayotiy e'tiqod va qarashlariga ega bolgan, milliy mentalitimizga yot zararli ta'sirlarga qarshi turishga qodir barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasi qilib belgilanmoqda.

„Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millitning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning har bir shaxsni o'zlikni anglashga da'vat etuvchi „Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" nomli kitobida shunday fikr - mulohazalar bildirilgan.

„... Komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oliyanob fazilatlarining ma'no-mazmunini nafaqat chuqur ahqlash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash - odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon desak, hech qanday xato bo'lmaydi. O'ylaymanki, bunday xulosani insoniyat o'z ongi xayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma'naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o'rinlidir. Komil inson g'oyasi azal - azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. U islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma'no - mazmun kasb etgan. Barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar Abu Nasr Farobiy va Alisher

Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa teran ifoda topgan. Jumladan, A. Navoiy uchun komil inson - Farhod edi. U aqliy, ruhiy, jismoniy kamolotga erishgan inson.

Tarixga nazar tashlasak, buyuk shaxslarning faoliyati mohir tashkilotchilik, teran bilimdonlik bilangina emas, balki ularning ahloqi va odobi bilan ham ma'no-mazmun kasb etganligiga guvoh bo'lamiz. Bashariyat o'z ahloqiy taraqqiyoti davomida doimo uchta idealga intilib keldi. Bular - erkinlik, tenglik va qardoshlikdir. Inson fikr, ahloq va faoliyatda erkin bo'lgan taqdiridagina o'zligini anglab oladi. O'zligini anglab yetgan insongina o'zganing ham o'ziidek inson ekanligini his etadi. Bu tenglik tamoyilining qaror topishidir. Odamlarning bir - birlarini o'zaro teng, deb hisoblashlari ularning yagona maqsad yo'lida birlashib olg'a intilishlari uchun zamin yaratadi. Bu esa o'z-o'zidan qardoshlik tamoyilining namoyon bo'lishigi olib keladi.

Demak biz komil insonni tarbiyalash yo'lidagi sa'y xarakatlarimiz orqali yoshlar ongi va qalbini vayronkor buzg'unchi g'oyalardan himoya qilamiz. Bu esa demokratik, mustaqil davlatimizning asrlar osha yashab qolishining asosiy garovidir.

Mamlakatimizda xalq farovonligini shakllantirishda yoshlarning o`rni

Dilrabo Mirzaxmedova
Namangan shahar 66-DIMI o'qituvchisi,
Nigora Narzullayeva
Namangan davlat universiteti talabasi

Bugungi kunda xalq farovonligi har bir shaxs va oila farovonligi bilan bog'liq. Har bir fuqoroning farovonligi butun jamiyat farovonligidir. Bu haqiqatni anglab yetish uchun aholi barcha qatlamlarining olib borilayotgan islohotlar mohiyatini his qilishi va bunda faollik ko'rsatish muhim ahamyatga egadir. Buning uchun esa kishilarning dunyoqarashini mehnatga, hayotga, o'ziga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish kerak. Farovon turmush asosi erkinlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlikdir. Mamlakada oshiralayotgan islohotlarning oliy maqsadi xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratishdan iborat.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xalqimiz tinch va farovon hayot yo'li tomon shaxdam qadamlar bilan odimlamoqda. Mustaqillikka erishganimizga ko'p bo'lmasada, yurtimiz jahon hamjamiyatlari orasida o'z obro'si, qadr - qimmatini, o'z o'rniga ega bo'ldi. Mustaqillik biz uchun o'zligimizni anglash, buyuk ajdodlarimiz, tariximizni bilishni o'rgatadi.

⁵⁵ Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt – u iqboli buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng - oily saodatdir – T. O'zbekiston, 2015. b.249

Yurtimizning osuda farovon hayotida, dunyoning yetakchi davlatlari bilan bellasha olishda biz yoshlarning hissasi katta. Mustaqil fikrlay oladigan zamonaviy ilm – fan, kasb – hunarni puxta egallagan, o'z yurtini seva oladigan, g'ururi baland yoshlarni hech kim yenga olmaydi. Biz oldimizga qo'yan yuksak maqsadlarga yetishishda ana shunday yoshlarimizning o'rni beqiyos. Yurtimizda yoshlarimizning erkin ijod qilishi, ilm – fan cho'qqilarini mukammal egallashlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. Bunga javoban yoshlarimiz sport soxasi deysizmi, ilm – fan, adabiyot, tadbirkorlik faoliyati, san'at sohasidami o'zlariga bildirilgan yuksak ishonch xissini tuyib Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarishmoqda.

Prizedentimizning ushbu gaplari bizga yana ham madad bag'ishlaydi.,, Azmi shijoatli ko'zlari yonib turadigon zamonaviy bilim va kasb – hunarga ega, dunyo maydonida o'z tengdoshlari bilan bellashuvga qodir bo'lgan yoshlarni himoya qilishga, ularga madad berishga, ularga har qanday amaliy sharoit va imkoniyat tug'dirib berishga men doim tayyorman”.

Vatanimiz farovonligida gullab – yashnashida, O'zbekiston deb atalmish jannatmonand yurtimizda bizga berilgan ishonchni oqlab o'z hissamizni qo'shsak, Vatanimiz oldidagi o'z insoniylik burchimizni bajargan bo'lar edik.

Farovonlik - Erkinlik so'zi bilan bog'liq tushuncha. Ya'ni inson erkin bo'lmog'i uchun, avvalo, u moddiy ta'minlangan bo'lishi zarur. Bu o'rinda xalqimizning «Avval - iqtisod, so'ngra siyosat» degan naqli juda mos tushadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy shart-sharoit har qanday hayotning negizi, poydevori hisoblanadi. Jumladan, erkin hayot ham iqtisodiy taraqqiyotga asoslanadi. Evropa, Amerika va Osiyo qit'asidagi iqtisodiy jihatdan yuksak rivojlangan mamlakatlardagi hayot bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

«Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot» g'oyasi: birinchidan, otabobolarimizdan meros bo'lib qolgan, kindik qonimiz to'kilgan muqaddas zaminning daxlsizligini, xavfsizligini ta'minlaydi; ikkinchidan, ma'naviy-ruhiy jihatdan milliy o'zligimizni anglash va uning ifodasi bo'lgan qadriyatlarni saqlash, boyitish va avlodlarga meros qoldiradi; uchinchidan, erksevar xalqimizning asriy orzu-umidlari bo'lgan mustaqillikni mustahkamlashga barchani safarbar qiladi; to'rtinchidan, har bir kishining farovonligi davlat, millat farovonligi asosi ekanligini anglagan holda tashabbuskorlik, tadbirkorlik bilan fidokorona mehnat qilishga asoslanadi. Beshinchidan, bu g'oya kelajakka qaratilgan bo'lib, xalqni uyushtirish, safarbar qilish vazifasini bajaradi. Oltinchidan, bu g'oyada mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillarining pirovard maq-sadlari ifodalangan bo'lib, u kishilarni kelajakka chorlovchi ulug'vor va jozibali shior tarzida namoyon bo'ladi⁵⁶.

⁵⁶ Lafasov M. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar T.: TDPU, 2006. b. 45

Bu g'oyani xalqimiz ongiga, qalbiga chuqur singdirish mustaqillikni mustahkamlash, buyuk kelajak qurish va O'zbekistonni ilg'or davlatlar qatoriga qo'shilish jarayonining muhim omilidir.

"Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz". Prezident I. A. Karimovning ushbu asari Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-sessiyasida qilgan ma'ruzasi asosida yuzaga keldi va 8-jilddan joy oldi. Yaqin kelgusidagi faoliyatimizning bosh maqsad va mazmuni belgilab berildi. Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat.

Xorijiy sudyalarning huquqiy maqomi

Jabboraliyev Javohir

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Romano-german huquq tizimidagi va ba'zi boshqa mamlakatlarda sudyalar, prokurorlar va tergovchilar odatda magistratura tushunchasi bilan umumlashtiriladi. Boshqa mamlakatlarda bunday umumlashtirilgan atama mavjud emas, holbuki, nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda tergovchilar tergovchi sudyalar deb nomlanadi (Untersuchungsrichter).

Sudlar korpusi, odatda, tayinlanish uo'l bilan tashkil etiladi, ammo saylash holatlari ham uchraydi. Masalan, AQShning ko'pchilik shtatlarida ba'zi bir partiya vakillari kabi sudyalar ham saylab qo'yiladi "Sudyalarni bunday saylash shakli - deb yozadi amerikalik tadqiqotchi Lourens Fridmen, -" o'ta g'aroyib holat sifatida yevropaliklarni hayron qoldiradi, ya'ni sudyalarni saylash xuddi shifokor, politsiya xodimi yoki kimyogarlarni saylash bilan barobardir". Saylov tamoyilining tarixi Qo'shma Shtatlarning tarixiga borib taqaladi. Dastlab saylov sudyalarni jamoatchilik oldidagi mas'uiyatini oshiradi deb hisobiangan. Ammo saylov tizimi amalda kutilganidek natija bermagan, buning asosiy sababi shundaki, faqat ba'zi saylovlargina haqiqiy muqobillik asosida o'tkazilgan. Vaqt o'tishi bilan saylovlar o'z "qaynoq"ligini yo'qotib, "rangsiz"lanib borgan. Umuman, AQShda federal sudyalar ta'kidlanganidek, Prezident tomonidan Senatning maslahati va roziligi bilan tayinlangan (AQSh Konstitutsiyasining II modda, 2-bobi, 2-qismi).

1946 yiigi Yaponiya Konstitutsiyasining 79-moddasi 2- va 3-qismlariga muvofiq Oliy sud sudyalarning tayinlanishi, keyingi birinchi Vakillar palatasiga umumiy saylovlar paytida xalq tomonidan qayta ko'rib chiqiladi va bu holat har o'n yilda vakillar palatasiga saylovlar chog'ida qayta ko'rib chiqilaveradi. Agar saylovchilarning ko'pchiligi sudyaning o'zgartirilishini yoqlagan bo'lsa, unda sudya ishdan chetlatiladi.

Ba'zi mamlakatlarda (ko'proq romano-german huquq tizimidagi davlatlarda) sudyalarni tayinlash, boshqa ishga o'tkazish va lavozimlaridan bo'shatish sudlar hamjamiyati oliy organlari (magistratura oliy kengashi va hokazo) vakolati doirasiga kiradi, ular ba'zan o'z qarorlarini adliya vaziri bilan kelishib olishlari lozim, lekin umumiy holatda bunday organlar prezident tomonidan boshqariladi.

Sud hokimiyati vakillari mustaqilligini kafolatlovchi muhim tamoyil bo'lib, sudyalarning o'zgartirilmasligi hisoblanadi. Ular o'z roziligisiz lavozimlaridan bo'shatilmaydilar yoki boshqa ishga o'⁵⁷tkazilmaydilar, buning uchun oliy hokimiyat organining qarori kerak bo'ladi, bundan tashqari ularga alohida himoya katblatlanadi. Sudyalar "o'zlarini qancha yaxshi tutsalar", shunchalik ko'p o'z lavozimlarida qolishi mumkin, ya'ni o'zlari iste'fo bermagunlaricha, biror jinoyat sodir qilmagunlaricha yoki o'z qobiliyatsizliklarini ro'y-rost namoyon qilmagunlaricha ishdan bo'shatilmaydilar. L. Fridman ta'kidlaganidek, "jismoniy zaif, hatto ichkilikka berilgan sudya ham o'z lavozimida qolish huquqiga egadir",⁵⁸ qolaversa bu tarzda ta'minlanadigan mustaqillik, xolislik, ularning siyosat ta'siridan xoli bolishi, tasodifiy muvafqiyatsizlik; va anglashilmovchilikdan qimmatroqdir. Umuman, sudyalikka nomzodlar jiddiy yashirin tekshimvdan o'tishadi, hatto ularining xarakter (fe'l-atvor)lari o'rganiladi (AQSh sud axloqi (etikasi) qonunida belgilanishicha, "Odil sudlov ushbu vazira bilan fe'l-atvori mos bo'lmagan shaxslar tomonidan amaiga oshirilmamasligi lozim".)

Yevropa mintaqasidagi mamlakatlarda, odatda sudyalarning eng yuqori yosh chegarasi belgilangan, bu yoshga yetganda sudya yoki boshqa sud hokimiyatida ishlovchi amaldor bir qator imtiyozlarni saqlangan holda avtomatik tarzda tste'foga chiqib ketadi.

Qonunchilik, odatda, sudyalik vazifasini bajarish davlat boshqaruvi bilan birga olib borilmasligini belgilab qo'ygan, shuningdek sudya (magistrat)larga siyosiy, ba'zan esa kasaba uyushmalarida ishtirok etishni ham taqiqlaydi. Masalan, 1978 yildagi Ispaniya Konstitutsiyasining 127-moddasi, 1-qismiga muvofiq" sudyalar va magistratlar, shuningdek prokiiorlar, xizmat vazifasida turar ekan, boshqa ommaviy lavozimda ishlay olmaydilar"⁵⁹ va siyosiy partiyalar yoki kasaba uyushmalari faoliyatida qatnasha olmaydilar. Ularning kasaba birlashmalariga uyushishlari tizimi va yo'llari qonun bilan belgilab qo'yiladi (1985 yildagi sud hokimiyati haqidagi 6-raqamli organik qonun).

AQSh Konstitutsiyasining Sh moddasi, I-bobi ikkinchi moddasida sudyalarning belgilangan davrlarda o'z xizmatlari uchun haq (mukofot) olishlari lozimligi ko'zda tutilgan, bu haq miqdori ular lavozimda turganda kamaytirilishishi mumkin emas. Xuddi shunday me'yor Yaponiya Konstitutsiyasining 79-moddasi 6-qismida harn mayjud. Sotsialistik mamlakatlar uchun sudyalarning o'z vakolati muddatiga vakolatli organlar tomonidan

⁵⁸ L. Fridmen "AQShda davlatchilik

⁵⁹ Konstitutsiya zarubejnaya strana

saylanishi xosdir, bunda sudyalar vakolatli organlarga hisobot berib turadi va hatto ular oldida mas'uliyatga ham ega bo'ladi. Bunday tizim sudyalarni kommunistik partiya qo'mitalariga, ayniqsa, sudya keyingi muddatga saylanish uchun ko'rsatilishi yoki ko'rsatilmasligini hal qiluvchi partiyaning I-kotiblariga tobe qilib qo'yadi. Sudyalarni chaqirib olish harn ularga bog'liq. Sotsialistik mamlakatlarda sudyalar amalda kommunistik partiya safida bo'ladi va tegishli partiya qo'mitasi "nomenklatura"sida hisobda turadi, ya'ni ularning boshqaruv apparati tomonidan tanlab olinadi va rahbariyatning qaroriga muvofiq lavozimidan chetlatiladi.

Ba'zi postsotsialistik mamlakatlarda ushbu yondashuv to'la baitaraf etilmagan. Shu nuqtai nazardan 1992 yildagi Siovakiya Respublikasi Konstitutsiyasining moddolari diqqami tortadi. Undagi 145-moddaga muvofiq "Sudyalar Milliy Kengash tomonidan hukumat taklifiga ko'ra 4 yil muddatga saylanadi. Ushbu muddat o'tgandan keyin yana hukumat taklifiga ko'ra Milliy Kengash sudyalarni belgilanmagan muddatga saylaydi"⁶⁰. Milly Kengash Oliy sud Raisi va uning o'rinbosarini 5 yil muddatga saylaydi, lekin bu muddat 2 martadan, ya'ni 10 yildan oshmasligi kerak. 4 yil muddatga saylanadigan sudya nomuayyan muddatga saylanib olish uchun Hukumatning ishonchini tola qozonmog'i lozim.

Demokratik mamlakatlarda sud hokiraiyatini shakllantirish konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

Italiya Konstitutsiyaning 104-moddasiga muvofiq, magistratura avtonomdir va har qanday boshqa hokimiyatdan mustaqildir. 106- va 107-moddalarga muvofiq magistratlar konkurs bo'yicha tayinlanadi. Bundan tashqari, alohida holda majlis o'tkazuvchi sudyalaming vazifalarini bajarish uchun faxriy sudyalami tayinlash yoki saylashga ruxsat etiladi (ya'ni ular maoshsiz faoliyat ko'rsatadilar). Magistratura Oliy Kengash (kassatsiya) maslahatchilari lavozimiga universitetlardan huquq professorlari va 15 yil ish tajribasiga ega bo'lgan advokatlarni chaqirish mumkin. Ularning nomlari oliy sudda maxsus ro'yxatlarga kiritilgan bo'ladi. Magistratlar o'zgartirilmaydi. Ular faqat qonunda ko'zda, tutilgan holatlarda va belgilab qo'yilgan himoya kafolatlari bilan Oliy Kengash magistraturasi qaroriga muvofiq shaxsiy roziliklarisiz ishdan bo'shatilishi yoki boshqa ishga o'tkazilishlari mumkin. Magistratlar faqat bajaradigan funksiyalari bo'yicha turiarga bo'linadi. Ularga nisbatan intizomiy choralarni faqat adliya vaziri qo'llashi mumkin.

Italiya sud tuzilishi haqidagi Nizomga muvofiq shaxs quyidagi shartlar bilan sudyalik vazifasini bajarishga kirishishiga ruxsat etiladi: a) Italiya fuqaroligi; b) fuqaroning huquqiy bilimi; v) mukammal fuqarolik va axloqiy xususiyatlar, jumladan, o'tmishda hech qanday noaxloqiy xatti-harakat qilmaganlik; g) jismonan yaroqlilik; d) qonunda belgilangan professional talablarga muvofiqlik. Magistratlar qasamyod qabul qiladilar. Odatda, magistrat

⁶⁰ "Konstitutsiya zarubejnaya strana" 6-bo'lim

o'zi ishlayotgan sud organi joylashgan kommunal yashashi kerak, U harbiy xizmat va qonunda alohida ko'rsatib qo'yilgan holatlar bilan bog'liq bo'lmagan ommaviy majburiyatlardan ozod qilinadi. Sudyalar belgilangan holatlarda, politsiyaga farmoyish berish huquqiga egabo'ladilar.

Magistratlarning senator va deputat lavozimlari hamda ommaviy xayriya muassasalari boshqaruvchilari (haq to'lamaydigan) lavozimlaridan tashqari boshqa davlat yoki xususiy lavozimlarni egallashga haqlari yo⁴q. Ular sanoat, savdo yoki boshqa erkin professional faoliyat bilan snug⁴ullanishlari mumkin emas. Birinchi va ikkinchi darajali qarindoshlari advokatlarning professional kollegiyalari hisobida turgan yoki kollegiyalarning ishonchli vakili hisoblangan magistratlar sud organlarida lavozimlarni egallashlari mumkin emas. Bir sud organida, uchinchi darajagacha qarindosh-urug'chiiik munosabatida bo'lgan magistratlar bo⁴lishi mumkin emas va har qanday holatda, ular bir sud kollegiyasida sudya bo^vla olmaydilar.

Sudya yoki prokuror lavozimini egallashdan oldin shaxs sud auditori sifatida tajriba oshirishi kerak. Buning uchun uch yozma (fuqarolik va rim huquqi, jinoyat huquqi hamda ma'muriy huquq bo'yicha) va 8 ta og'zaki (rim huquqi, fuqarolik huquqi, fuqarolik jarayoni, jinoyat huquqi, jinoyat jarayoni, ma'muriy va konstitutsiyaviy huquqlar, mehnat huquqi va ijtimoiy qonunchilik, cherkov huquqi, xalqaro huquq va statistika asoslari) imtihon natijalari bo-yicha konkurs o'tkaziladi. Yozma imtihonlarning har biriga 20 ball hisobidan kamida 12 ball olish, og'zaki imtihonlardan 10 ball hisobidan kamida 6 ball olish, jami bo'lib kamida 91 ball to⁴plash kerak. Ballarning kasrga bo'inishiga ruxsat etihnaydi.

Konkursga 21 yoshdan kam bo'lmagan va 30 yoshdan katta bo'lmagan, vmiuniversitetning yuridik fakulteti diplomiga ega bo'lgan (ko'rinib turibdiki, yuridik malumot haqida - boshqa diplomlar hisobga olinmaydi) shaxslar qatnasha oladi. Agar Oliy magistratura kengashi shaxs yuksak ma'naviyat va benuqson xulq talablariga javob bermaydi, deb hisoblasa, bunday shaxs konkursga qo'yilmaydi. Bu xulosa xususida tortishishga hojat qohnaydi. Konkurs Rimda, qonun bo'yicha bir yilda bir marta o' tkaziladi

Magistratlarning yuqori lavozimlarga ko4arilishi uchun mezonlar va tartiblar belgilanadi. O"z xohishi bilan magistratura tizimidan bo'shab chiqqan magistrat o'vz joyiga qayta tiklanmaydi. Ushbu holat magistraturaning korporativlik xarakterini belgilaydi.

Davlat hokimiyati nazariy -huquqiy muammolari.

Xojiboyev Sanjar

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Davlat hokimiyati – ijtimoiy hokimiyatning muhim bir turidir. “Davlat hokimiyati” tushunchasi “siyosiy hokimiyat” tushunchasiga yaqin turadi. Bir guruh huquqshunos olimlar siyosiy hokimiyat davlat hokimiyatidan kengroq

tushuncha, deb hisoblaydilar. Chunki siyosiy hokimiyat faqat davlat tomonidangina emas, balki jamiyat siyosiy tizimining boshqa tarkibiy qismlari bo'lmish siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqalar tomonidan ham amalga oshiriladi. Ikkinchi guruh mualliflar esa "siyosiy hokimiyat" va "davlat hokimiyati" tushunchalari sinonim deb hisoblaydilar.

Hokimiyat siyosat bilan uzviy bog'liq. Biroq hokimiyatni siyosiy kurashning birdan-bir maqsadiga aylantirish to'g'ri bo'lmasa kerak. Professor Ye. Vyatr ta'kidlashicha, "hokimiyatni egallash va uni amalga oshirish uchun kurash siyosatning asosiy mazmunini tashkil etadi"⁶¹. V. N. Amelin esa haqli ravishda hokimiyatning mohiyatini kurashga, zo'rlikka olib borib taqashga qarshi chiqadi.

Ustozimiz X. Odilqoriev quyidagicha fikr bildiradi:- "Hokimiyatning yana bir jihatiga e'tibor qarataylik. O'tgan asr mobaynida Engelsga tegishli bo'lgan bir ta'rif, ya'ni "hokimiyat-hukmron irodaning itoat etuvchiga o'tkazilishi", degan fikr bir tomonlama izohlab kelindi. Chamasi, bu nemischadan noto'g'ri tarjimaning oqibati bo'lsa kerak. Aslida muallif, "hokimiyat munosabatlarida bir tomonning irodasi ustunlik qiladi", deganligi haqiqatga yaqinroq. Irodaning zo'rlik bilan o'tkazilishi shart emas (bu holda sinfiy nazariya tomoniga og'ib ketiladi), aksincha, bir irodaning ustunligi hokimiyat munosabatlarining uzviy belgisidir. Majburlash va zo'rlikdan foydalanish hokimiyatni amalga oshirishning usullaridan biridir. Hukmronlikka erishishda majburlash, kuch (zo'rlik) ishlatish, ishonitirish, rag'batlantirish kabi turli-tuman usul va vositalardan foydalaniladi"⁶².

Siyosat-muayyan sub'ektlar o'rtasidagi hokimiyatga oid munosabatlar ifodasi bo'lib, unda ular o'z manfaatlarini qondirish uchun hokimiyatga intiladilar yoki hokimiyatdan foydalanadilar. Boshqacha aytganda, siyosat hokimiyat yordamida eng muhim umumiy manfaatlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan munosabatlar majmuidir.

Siyosiy hokimiyat shunday siyosiy institutlar, tashkilotlar va siyosiy-huquqiy normalar vositasida amalga oshiriladiki, ular hokimiyatga tashkiliy shaklu shamoyil baxsh etadi.

Hokimiyatning alohida ijtimoiy siyosiy mohiyatga ega bo'lgan turi davlat hokimiyatidir. Davlat hokimiyati ommaviy siyosiy xarakterga ega bo'lib, asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatni uyushtirish va boshqarishdan iborat. U muayyan tashkiliy shakllarda namoyon bo'ladi, maxsus usullar va vositalar bilan amalga oshiriladi.

Olimlarimiz davlat hokimiyatining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatib o'tadilar, ular Hokimiyat:

- butun jamiyatga joriy etiladi;
- ommaviy siyosiy xarakterga ega ;
- davlat majburloviga tayanadi;

⁶¹ Vyatr Ye. Sotsiologiya politicheskix otnosheney. M., 1991. Str-38.

⁶² Odilqoriev X. «Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati», Toshkent. Sharq, 2002- 60 b.

-maxsus shaxslar, ya'ni mansabdorlar, davlat xizmatchilari, siyosatchilar va boshqalar tomonidan amalga oshiriladi;

-soliqlar tizimini o'rnatadi;

-aholining hududiy belgisi bo'yicha bo'ladi.

Davlat hokimiyatining oqilona legimitatsiyasi tafakkurga asoslanadi. Aholi o'z xulosasiga tayanib, davlat hokimiyati olib borayotgan faoliyatni ma'qullaydi yoki ma'qullamaydi. Davlat hokimiyatining oqilona legitimligi asosida davlat organlarining amaliy harakati, aholi farovonligini ko'zlab ish yuritishi, davlat rahbarlari va mansabdorlarning o'zlariga imtiyoz yaratishdan voz kechib, qonunlarga rioya etib faoliyat ko'rsatishi yotadi.⁶³

Davlat hokimiyatining legitimligi bo'yicha boshqacha qarashlar ham mavjud. Masalan, frantsuz olimi J. Shabo demokratik, ideologik, antalogik turlarni ajratib ko'rsatadi va h. k. Davlat hokimiyati davlat uchun yagona bo'lmog'i lozim. U o'z funtsiyasi, ijtimoiy mazmuni, maqsadi va tashkiliy tuzilmalari bo'yicha yagonadir. Davlat hokimiyati vakolatlarining taqsimlanishi uning yagonaligiga ta'sir etmaydi. Chunki jamiyatda maqsadlari mushtarak bo'lmagan ikki davlat hokimiyati mavjud bo'la olmaydi. Davlat hokimiyatining yagonaligi to'g'risidagi g'oyaning uchta jihatini mumkin:

birinchidan, bu ijtimoiy birlikdir, u jamiyatdagi ijtimoiy guruhning yagonaligidan kelib chiqadi. Ko'pgina mamlakatlarda bu birlik xalq hokimiyati sifatida, ba'zilarida, mehnatkashlarning hokimiyati sifatida, boshqasida ma'lum bir kuchlarning hokimiyati sifatida tushuniladi;

ikkinchidan, bu davlat hokimiyatining faoliyat yo'nalishlari va maqsadlarning birligini bildiradi. Bu birlik jamiyatni boshqarishda kelishuvning zarurligidan kelib chiqadi. Davlat hokimiyatining faoliyat yo'nalishi birligi bir tomondan aholi ijtimoiy qatlamining hukmronligi orqali, ikkinchi tomondan umummanfaat uchun lozim bo'lgan ishlarni bajarish orqali ta'minlanadi;

uchinchidan, bu tashkiliy huquqiy birlikdir. Demokratik davlatlarda bu birlik to'g'risida gapirilmay, hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi haqida so'z boradi.

Shunday qilib, davlat hokimiyati ijtimoiy siyosiy xarakterga ega bo'lgan eng ommaviy siyosiy tashkilotdir. Bu jamiyatda yuqori mavqega, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun maxsus apparatga ega ma'lum bir ijtimoiy jamoa siyosiy hokimiyatning asosiy shakllaridan biridir.

Davlat hokimiyatining imkoniyati, irodasi va kuchi uning eng muhim elementlari sanaladi. Har qanday hokimiyat o'zini o'zi kengayтира borib, hamma narsani bo'ysundirishga harakat qiladi. Umumiy maqsadlar uchun tuzilgan davlat hokimiyati o'zi mavjud bo'lishi uchun katta kuch va vositalarni ishga soladi.

⁶³ Saidov A.X., Tadjixanov U.T. Davlat va huquq nazariyasi..1- tom.TOSHKENT. 2001y. 111-112-betlar

Inson huquqlarini himoya qilishda Ombudsmanning o'рни

*Abdusalomova Gulmira,
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi yo'nalishi 4-bosqich talabasi,
Ilmiy rahbar: Ozoda Chuboyeva*

Mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqorolik jamiyatini barpo etish jarayonida inson manfaatlarini asosiy diqqat markazida turgan siyosiy va ijtimoiy muhit rivojlanib bormoqda. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi so'zlagan nutqida aytganlaridek, "Hozirgi vaqtda O'zbekistonning shiddat bilan o'sib, tobora rivojlanib borayotgan mamlakatga, inson, uning huquqlari, manfaat va erkinliklarini haqiqiy qadriyat deb biladigan demokratik, ijtimoiy-siyosiy va fuqarolik institutlariga ega bo'lgan mustaqil va suveren davlatga aylanishini ta'minlab bergan yana ko'plab hal qiluvchi omillarni misol qilib keltirishimiz mumkin" Inson huquqlari faqatgina hozirgi davrda emas, balki qadimda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki sharqda insonga oliy mavjudot sifatida qaralagan. Hozirgi davrga kelib inson huquqlari sohasida juda ko'p samarali ishlarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun 1995-yilda tashkil etilgan inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Oliy majlisning vakili etib shu yilda Sayyora Rashidova saylangan. Hozirda esa yurtimizda ombudsman Ulug'bek Muhammadiyevichdir. «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili to'g'risida»gi qonunning I-moddasiga binoan, inson huquqlari bo'yicha vakil mansabdor shaxs bo'lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan. Respublikamizda inson huquqlari bo'yicha vakil faoliyatining tashkil etilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga yana bir misol bo'la oladi. Dunyodagi barcha davlatlar singari yurtimizda ham vakil bir necha tamoyillar asosida faoliyatini olib boradi. Bu prinsiplar quyidagilar:

- _ qonuniylik,
- _ adolatparvarlik,
- _ demokratizm,
- _ insonparvarlik,
- _ oshkoralik,

_ har bir inson uchun ochiqlikdir. U har yili Oliy Majlisga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi va bu hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasida e'lon qilinadi. U inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro shartnomalarning bajarilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining yillik ma'ruzalarini tayyorlashda ishtirok etadi.

Jamiyatdagi huquqiy madaniyatni ta'minlashga hissa qo'shish maqsadida Vakilning faoliyati quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- 1) jamiyatni Vakilning vazifalari va funksiyalaridan xabardor qilish;
- 2) inson huquqlari sohasida huquqiy madaniyatni oshirish;
- 3) inson huquqlariga rioya qilishning xususiyatlari to'g'risida xalqaro va respublika konferensiyalarini, seminarlarini o'tkazish;
- 4) inson huquqlari bo'yicha oliy, o'rta maxsus va o'rta o'quv yurtlarida ta'lim dasturlari va kurslarini amalga oshirish;
- 5) mamlakatirnzida va xalqaro tashkilotlar tashkil etgan seminarlar, konferensiyalarda ma'ruzalar va xabarlar bilan chiqish.

O'zbekistonda «O'zbekistonning inson huquqlarini himoya qilish tizimi» seriyasida «O'zbekiston Respublikasining Ombudsmani» nomli risola chop etildi. «Adolat» nashriyatida «Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning Vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonunga sharhlar chop etildi. Shuningdek, Vakil Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasiga sharhlaniing o'zbek tiliga moslashtirilgan variantini chiqarishda katta ishlar qildi.

Mamlakatimiz mintaqalarida ham ko'p ishlar qilinmoqda. Andijon, Buxoro, Navoiy, Nukus, Zaralshon, Shahrizabzda «Demokratiya va inson huquqlari» mavzusida maxsus seminarlar o'tkazildi. Ular, shuningdek, Konrad Adenauer fondi bilan birgalikda, Olmaliq, Qarshi, Farg'onada bo'lib o'tdi. Ularda huquqni muhofaza qilish organlarining ham inson huquqlari sohasidagi, O'zbekistonda qonunlarning ustuvorligini ta'minlashdagi vazifalari muhokama qilindi.

Ombudsman instituti ish boshlagandan buyon, 100 dan ortiq xalqaro tadbirlar o'tkazildi. Vakil, shuningdek, Qizil Xoch xalqaro qo'mitasi, Notijorat huquq bo'yicha xalqaro markaz, Xyuman Rays Voch, Amnesti Interaeysnl va boshqa nodavlat xalqaro tashkilotlar bilan ham faol hamkorlik qilmoqda.

Ombudsman huzurida maslahat kengashi tuzildi. U inson huquqlari bo'yicha milliy va xalqaro tashkilotlarning vakillaridan tuzilgan. Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning vakili obro'li xalqaro tashkilot bo'lmish - Xalqaro Ombudsman institutining ovoz huquqiga ega a'zosisdir. Shuningdek, Buyuk Britaniya, Latviya, Niderlandiya, Polsha, Ukraina, Shvetsiya davlatlarining Ombudsmanlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Oila muhim axloqiy tarbiya sub'ekti

Javdat Po'latov

*O'zDJTI pedagogika-psixologiya
kafedrasi o'qituvchisi*

Hech kimga sir emas, bu dunyoda har qaysi inson voyaga yetib, kasb-hunarga ega bo'lib, hayotda o'z o'rni va kelajagini aniqlab, oila qurishni istaydi.

Ongli yashaydigan har bir odam yaxshi anglaydiki, bu yorug' olamda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, hayot abadiyligi, bebaho ne'mat bo'lmish

farzand bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha kelajagini o'ylab, ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi⁶⁴.

To'y ikkita oilaning o'rtasidagina emas, balki, jamiyatimizning, ma'naviyatimizning eng nozik masalasidir.

Nikoh oilaning vujudga kelishidan birdan-bir asos bo'lganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi ikkinchi qismida ta'kidlanganidek, nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.⁶⁵ Insoniyatning fikricha, olimlar isbotiga ko'ra hayotning birdan-bir to'g'ri yo'li oilaviy hayotdir.

Alisher Navoiy inson o'z tafakkuri bilan har qanday vazifani hal eta olishini ta'kidlagan:

*Dedi: Har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.
Ulum ichra mango to bo'ldi madhal,
Topilmas mushkule men qilmagan hal⁶⁶.*

Inson omili, shaxs manfaatlari muammosi hamma davrlarda adolatli taqsimot tamoyilini taqozo etib kelgan. G'arb mamlakatlari adolatli taqsimot holatiga bir tomondan shaxsning individual manfaatdorligini ta'minlash, ikkinchi tomondan esa, yalpi tenglikka erishish orqali erishishga intilib kelgan. G'arbdagi moddiy, real manfaatlar ustuvorligi qadriyatidan farq qilib, Sharq xalqlari uchun bosh qadriyat ma'naviy omillar, ayniqsa inson sha'ni obru-e'tibori, nafsoniyati, oriyati, vijdoni hisoblanib kelgan. Ma'naviy talablar esa o'z-o'zidan qadriyatlar qatorini mutanosiblashtirishni, birining ketidan mantiqiy ravishda ikkinchisini qo'yishni taqozo etgan. Xususan otaga ehtirom, ona e'zosi, aka va uka hurmati, qavmu-qarindoshlar totuvligi, qo'ni-qo'shnilar ahilligi qadriyatlar sifatida muayyan ketma-ketlikda, qadrlanish darajasiga ko'ra ierarxik shaklda hayotdan o'rin olib kelgan. Qadriyatlar qatoridagi tartiblarning buzilishi jamiyat so'ngroq esa davlatning nurashiga olib kelgan. Ierarxiya sharq turmush tarzining maromini belgilab turuvchi muvozanat meyyori, eng asosiy tamal toshlaridan xisoblangan.

Oilada barkamol avlod tarbiyasining asosiy maqsadi ma'naviy-axloqiy barkamol shaxsni shakllantirish bo'lib, bu axloqiy norma, tamoyil va me'yorlarni har bir kishining faoliyati, motivi hatti-harakatining mazmuni, turmush tarziga aylantirish vazifasi orqali amalga oshiriladi.

Oilada barkamol avlodni tarbiyalashda qadriyatlar beshigi deya e'tirof etilgan mahallaning o'rni alohida ahamiyatga ega. O'zini o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'alariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasixati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.

⁶⁴ Karimov I. A O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligi munosabati bilan m'ruzasi. 2011 ymo 7 dekabr

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2013 y.

⁶⁶ *Qarang*: O'zbekcha-ruscha aforizmlar lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1976. B.123.

Oilada barkamol avlodni tarbiyalash uchun avvalo mahallada sog'lom ijtimoiy muhit mavjud bo'lishi talab etiladi. Bu erda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla axlining xulq-atvori, o'zaro munosablarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahalla, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, haqiqiy demokratiya darsxonasidir.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlar kamol topishida mahallaning o'rni beqiyos. Agar biror mahallada o'sgan qiz haqida boshqa bir odam noo'rinqoq gap aytganini, o'sha qizning mahalladoshi eshitib qolsa, shu qizning sha'ni uchun kurashadi, uni oqlashga, begona odamni esa tartibga chaqirib qo'yishga harakat qiladi. Shu ma'noda mahalla hamjihatlik, or-nomus, birodarlik kabi fazilatlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalla doirasida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim va savodxonlik kurslarini tashkil etish, an'anaviy bayram va tadbirlar paytida muxtoj oilalarga yordam ko'rsatish, iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish, ayollar nufuzini oshirish, har xil adolatsizliklarning oldini olish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanish, o'zaro diniy muassasalar, machitlar bilan aloqani yaxshilash, hamkorlikda tadbirlar uyushtirish, «Oila dorilfununlari»da ota-onalar savodxonligi va turli o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda tuy-ma'rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofcharchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor. Bu urf-odat va an'analarning asosiy qismi oilada va oila a'zolarining bevosita ishtirokida o'tkaziladi. Shuning uchun ham har bir oilaviy an'ana va udum mafkuraviy tarbiyaning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Hayotimizda bo'layotgan o'zgarishlarning ildizi xalqimizning ma'naviy uyg'onishidadir.... azaliy urf odatlarimizning hayotdan o'z o'rmini olayotgani, qadriyatlarimiz o'z o'rmini topayotgani ham odamlar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.⁶⁷ Insonparvar, yuksak e'tiqodli, bag'rikeng, mehr-oqibatli odamlarni voyaga etkazishda keng ma'nodagi tolerantlik, oilaviy munosabatlardagi insoniylik tamoyillari muhim o'rin tutadi. Moddiy jihatdan ta'minlangan oilalarda ko'pincha farzandlar turli axloqsiz yo'llarga kirib ketishi mumkin. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, moddiy boylik hech qachon oilada ustuvor xarakterga ega bo'lmasligi lozim, aks holda, unday oila axloqsizlikka, tubanlikka yuz tutadi. Hadisi shariflarda: "Oila moddiy jihatdan qancha farovon bo'lsa ham, lekin er-xotin bir-birlaridan ma'naviy oziqa topolmasa, u eng qashoq oiladir", deyiladi. Chunki oilaning muhim vazifalaridan biri bu farzandlar tarbiyasidir. Bu jarayonda esa dastlab ota-ona o'z'lari go'zal xulqli, tarbiyalangan bo'lmoqliklari lozim. Bu har qanday jamiyatda nihoyatda katta jamiyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masaladir. Oilada asosan ayol ko'proq farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lsa-da, lekin Konstitutsiyamizning 14 bobi 64-moddasida ota-ona o'z farzandlarini

⁶⁷ Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. -T.: O'zbekiston. 1992. -B. 7.

voyaga yetkazishda birdek ma'suldirlar⁶⁸, deo ko'rsatilgan. Shuni yaxshi tushunib olish kerakki, oilada, farzand tarbiyasida huquqiylikdan ko'ra axloqiylik ustuvor xarakterga egadir. Boshqacha qilib aytganda ota-ona farzandlariga yuksak va oliyanob axloqiy fazilatlar bilan namuna bo'la olishlari bilan tarbiyani amalga oshiradilar. Xech bir ota-ona farzandiga yaxshi xulq va odobdan ortiq sovg'ani totiq qilolmaydi. Shunday ekan, ota-ona farzandlar tarbiyasi uchun ham huquqiy, ham axloqiy jihatdan birdek javobgardirlar. Zero, farzandlar tarbiyasi jamiyatning kelajagini belgilaydigan omildir.

Millatlararo munosabatlar-milliy taraqqiyotning asosi

Yulduzxon Hamidullayeva - NamDU

Musiqqa ta'limi yo'nalishi

1-bosqich 113-guruh talabasi,

Tohirjon Qozoqov - Ilmiy rahbar: Nam DU

dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Insoniyat ichki ziddiyatlarga boy XX asr bilan vidolashib, yangi asr va yangi ming yillikning boshlanishida turibdi. Yangi asrga qadam qo'yib, u o'z tarixi va XX asr davomida boshidan kechirganlari asosida o'ziga zarur xulosalar yasamoqda va yangi asrning tugagan asr kamchilik va xatolaridan xoli bo'lishi yo'llarini belgilamoqda.

XXI asr boshlanishida insoniyat uchun ahamiyati va istiqbollari aniqlab olinadigan muhim masalalardan biri millat va milliy munosabatlar masalasidir. Milliy Madaniy Markazlar O'zbekistonda istiqomat qilib turgan barcha millatlar, elatlarning madaniyat, ma'naviyat, milliy urf-odatlar va an'analar sohasidagi o'zlariga xos ijtimoiy-ixtiyoriy tashkilotlari ekanliklarini o'zlarining samarali va serqirra faoliyatlari bilan isbotladilar. Ular yuqoridan berilgan ko'rsatma asosida emas, balki pastdan, milliy guruhlar ommasi tomonidan ko'rsatilgan tashabbus asosida ishini tashkil etayotganliklarini inobatga olib, 1989 yilda, O'zbekiston Madaniyat ishlari vazirligi qoshida, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirish maqsadida Respublika Millatlararo Madaniyat Markazi tashkil qilingan edi. Milliy madaniy markazlar soni va faoliyat turlarining o'sib borayotganini ko'zda tutib, 1993 yil 13 yanvarida Respublika millatlararo madaniy markazi Respublika Millatlararo Baynamilal Madaniy Markazga aylantirildi. Natijada bu tashkilotlar mustaqil nodavlat muassasaga aylandi va O'zbekistonda demokratik davlat va fuqaroviy jamiyat talablari darajasida milliy siyosat yurguzishga xizmat qilmoqqa. Insonning ma'naviyatga intilishni uning insonlik mohiyatining namoyon bo'lishidir. Shunday ekan, jamiyatda millatlararo munosabatlarni takomillash-tirishning eng muhim sharti shu jamiyatda, shu davlatda yashab turgan barcha millatlar va elatlar vakillariga ularning ma'naviy hayoti rivojlanishi uchun

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston. 2010. -B. 12.

sharoit yaratib berishdir. Ma'naviyat esa madaniyat, ma'rifat va ularning turli sohalari orqali namoyon bo'ladi. Ana shu boisdan O'zbekistonda Milliy Madaniy Markazlarning tuzilishi har bir milliy guruhning eng ezgu niyat va intilishlariga monandir. Insonning ma'naviy, ruhiy hayoti birinchi navbatda Vatan tushunchasi bilan aloqador; O'zbekistonda istiqomat qiluvchi milliy guruxlar vakillari O'zbekiston bilan o'z taqdirini bog'lab, uni o'z Vatani deb biladilar, uning ravnaqi, gullab-yashnashi uchun xizmat qiladilar. Qadimiy zamonlardan beri o'zbek xalqi bilan yonma-yon yashab kelayotgan qozoqlar, tojiklar, qirg'izlar va turkmanlar mustaqillik keltirgan barcha qulayliklardan to'la foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Mustaqil O'zbekiston ularga birinchi navbatda saylash va saylanish tengligi, o'z farzandlarini o'z ona tilida yoki o'zlari xoxlagan boshqa tilda o'qitish va tarbiyalash erkinligi, o'z ona tilida Vatandan adabiyot yozdirib olish erkinligi, o'z tashabbuslari bilan qonun asosida turli gazeta, jurnallar va kitoblar chop etish erkinligi, o'z milliy tillarida faoliyat ko'rsatadigan badiiy havaskorlik to'garaklari tashkil qilish erkinligi va boshqa erkinliklarga egalar. Bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlari sharoitida O'zbekistonda biron-bir kishiga uning millati asosida imtiyozlar berilmaydi yoki shu asosda biron-bir inson kamsitilmaydi.

Sud huquq islohotlari davr talabi

*Nosirjonov Azizbek - Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi*

1-bosqich talabasi,

*Yunusova Gulchehra - Namangan viloyati
"SOLIDARTY" advokatlar hay'ati advokati*

Mustaqil O'zbekistonning siyosati – insoniylik va ezgulik tamoyillariga asoslanadi⁶⁹

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng sud – huquq tizimida keng islohotlar amalga oshirildi. Sud – huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyatli tomoni shundaki, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish nazarda tutilgan. Yurtimizda huquqiy davlat asoslarini takomillashtirish va aholini huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bu borada, 1997 yil 29 avgustda "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish" Davlat dasturi qabul qilindi.

1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq 33 ta modda bo'yicha o'lim jazosi belgilangan edi. 1998 yilgi sud – huquq tizimidagi islohotlar natijasida 8 modda bo'yicha o'lim jazosi belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 1 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida o'lim jasosini bekor qilish to'g'risida"gi Farmoni

⁶⁹ Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" T.: O'zbekiston, 2011 26-bet

shaxs daxlsizligi kafolatini ta'minlashning yangi bosqichiga poydevor qo'ydi. Prezidentimizning ushbu Farmoni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 – moddasida: “inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”, deb belgilab qo'yilgan normalariga ham mos bo'ldi. Bu Farmon 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirishi bilan uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etildi. “Mamlakatimizda o'lim jazosining bekor qilinishi xalqaro hamjamiyatning katta e'tibor va e'tirofiga sazovor bo'lgani, albatta, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik o'ta muhim voqeadir. Nufuzli xorijiy ekspertlarning ta'kidlashiga ko'ra, ushbu chora va bu sohada yuqorida ko'rsatilgan boshqa bir qator ishlarning amalga oshirilishi bilan O'zbekistonda dunyodagi eng liberal jazo turlaridan biri yaratildi. Xalqaro ekspertlarning bu boradagi qiyosiy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi Germaniya va Polshada 5 ta, Belgiya va Rossiyada 6 ta, Daniyada 9 ta, Shvetsiyada 13 ta, Fransiyada 18 ta, Gollandiyada 19 ta jinoyat turi bo'yicha tayinlanishi mumkin”⁷⁰.

Hozirgi kunda o'lim jazosi voyaga yetmaganlarga 1990 yildan buyon qo'llanib kelayotgan mamlakatlar 8 ta: AQSh, Xitoy, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Eron, Kongo, Yaman, Nigeriya.

Sud faoliyatini liberallashtirish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bu borada “Xabae korpus” institutining joriy etilishi, ya'ni 2008 yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilidi.

Oila mustahkamligi tayanchi

Kuchkarov Nodir

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Bu yil mustaqil O'zbekiston Respublikasi birinchi Konstitutsiyasi qabul qilinganligiga 24 yil to'ladi. O'tgan yillarning eng muhim natijasi xalqimizning tanlagan yo'li to'g'riligiga, o'z mamlakatining buyuk kelajagiga ishonchi ortib borayotganligidadir.

O'tgan yillar yakunlari xalqimizning to'g'ri yo'l tanlanganligini, islohotlarning asosiy tamoyillarini munosib asosda belgilab olganligimizni, yangilanish va taraqqiyotning “O'zbek modeli” o'zini to'la-to'kis oqlayotganligidan dalolat bermoqda.

Fuqarolarning mulkiy va nomulkiy xarakterga ega bo'lgan huquqlarini kundan-kunga kengayib, ularning turmushiga tadbiiq etilish mexanizmi to'liq

⁷⁰ Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” T.: O'zbekiston, 2010 21-bet

kafolatlanilmoqda. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi – Asosiy qonun sifatida barcha huquqiy sohalarning asosiy manbai hisoblanib, unga asoslangan holda mustaqillik yillarida 600 dan ziyod qonunlarni, o'n oltita Kodekslarni qabul qildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining qabul qilinishligi uchun ham asos bo'ldi. Oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solishlik uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida alohida 14-bob ajratilib, u 63-66-moddalarni o'z ichiga oladi. Davlatimiz, qolaversa, shaxsan Prezidentimiz oila mustahkamligiga juda katta e'tiborni qaratib kelmoqda.

Respublikamiz Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi uning davlat muhofazasida ekanligi, nikohning ixtiyoriy rozilik asosida tuzilishi, er va xotinning tengligi, farzandlar masalasi, onalik va bolalikning davlat himoyasida ekanligi huquqlari va voyaga yetgan farzandlarning o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilish majburiyatlari o'z ifodasini topgan.

Konstitutsiya – oila huquqining asosiy fundamenti bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni belgilab berdi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masala o'zbek davlatchiligining diqqat markazidadir. Chunki oila, oilaviy huquqiy munosabatlar mustahkam bo'lsa, ma'naviy yetuk bo'lsa, davlatning ishonchi, kuchi ishlab chiqarishining asosiy bo'g'ini hisoblangan barkamol avlod dunyoqarashi tez shakllanadi.

Prezidentimiz tomonidan oila, sog'lom avlod masalalariga berilayotgan e'tiborni yillarga berilayotgan nomlar va shu asosda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Bu yil Prezidentimiz kelajak avlod manfaatlaridan kelib chiqib “Sog'lom ona va bola” yili deb yilga nom berdilar.

Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzalarida “Ma'lumki, bu yorug' olamda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Har qaysi ongli inson jondan aziz farzandining baxtini, kamolini o'ylab, hamisha ezgu orzu-intilishlar bilan yashaydi, o'z zuriyodining har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lishini istaydi⁷¹”

Darhaqiqat, davlat oilaning barkamol rivojlanishi, o'sishi uchun, sog'lom ona - sog'lom bolani, fozil insonni yetishtirish va tarbiyalash munosabatlari asosida bir-biri bilan doimo bog'liqdir.

Bu munosabatlarning barchasi davlatimiz hamda Prezidentimiz tomonidan oilaviy huquqiy munosabatlarni rivojlantirish sohasidagi g'amxo'rliklar va kafolatlardir.

Bu boradagi yutuqlarimiz haqida juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

⁷¹Karimov I. A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizning isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2016 yil. 6 dekabr.

Jamiyatda oila mustahkamligi va farzandlar tarbiyasini takomillashtirish bo'yicha hali oldimizda qilinadigan ishlar bisyor.

Jumladan:

- bolalarni bo'sh vaqtini unumli tashkil etish borasida xali qilinadigan ishlar ancha, bu borada maktab va maktabdan keyingi tarbiya masalasi muammoli deb hisoblasak bo'ladi. Chunki, jamiyatdagi yetuk tarbiyali va ziyoli xonadonlarda hamma ish bilan band bo'lishi hisobiga shunday xonadon farzandlari umrini kompyuter o'yinxonalarida tarbiya uchun zararli o'yinlar bilan o'tkazayotganligi achinarli deb bilamiz.

Bunday vaziyatlarni bartaraf etish uchun maktablarda alohida markazlar faoliyatini shakllantirish va markazlarni shakllantiruvchilarga moliyaviy yordam borasida rejalar ishlab chiqish va tartibga solish maqsadga muvofiq.

-voyaga yetmaganlar ishlari bilan bog'liq ishlarni ko'rishda alohida yuvenal sudlar faoliyatini shakllantirish ham maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Zero Prezidentimiz, -"Sog'lom bola, sog'lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizga o'tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan azaliy intilishdir. Agar otabobolarimizning turmush va tafakkur tarziga nazar solsak, ular insonning naslnasabiga, yetti pushtining tozaligi, avlodning sog'lig'iga juda katta e'tibor berganini ko'ramiz"⁷²-deb ta'kidaydilar.

Balki har bir ko'rilayotgan ishga individual yondoshuv jamiyat kichik yacheykasi hisoblangan oilani va adollarni tarbiyasiga bo'lgan ta'sirda alohida ahamiyat kasb etar va jinotchilikni kamaytirishda muhim xisa bo'lar.

Biz har bir oila va oilada tarbiya topayotgan avlodlar sofligini ta'minlashni Prezidentimiz ta'kidlaganlari kabi doim e'tiborda tutishga burchli ekanligimizni xis etib yashashimiz kerak.

Mutafakkirlar merosi va komil inson tarbiyasi masalalari

Durdona Po'latova

Nam DU ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Yuksak madaniyatli, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash muammosi insoniyat ma'naviy-mutafakkirlar merosiining eng ko'hna mavzularidan. U shaxs kamoloti va barkamol insonning ijtimoiy, siyosiy madaniy, ruhiy hamda axloqiy sohaları bilan bog'liq bo'lgan muammolar yechimini topish uchun harakat qilib kelgan.

Bashariyat tarixiga nazar tashlasak, inson va uning hayoti, ma'naviyati, axloqi, barkamollik darajasi odamlar o'rtasidagi turli xildagi ijtimoiy

⁷² Karimov I. A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2016 yil. 6 dekabr

munosabatlar majmuasidan iborat ekan. Ijtimoiy hayot va jamiyatning barqarorligi, go'zalligi, sermazmunliligi, insonning ijodiy mehnat faoliyati, odobi, xatti-harakati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Shu jihatdan qarasa, insonni yuksak martabaga eltadigan vosita faqat mehnat va ijtimoiy faollikgina bo'lib qolmasdan, balki uning odobi, axloqi, barkamolligi, kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqoti bilan bog'liq ijtimoiy muhit hamdir.

Hozirgi bizning yangilanish jarayonini o'tayotgan jamiyatimizda ham hayotning hamma sohalarida hukm surayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy barqarorlikni ta'minlash muammosi hamda uning yechimini topish zarurati yuqorida qayd etilgan muammolar asosida vujudga kelgan.

Yangilanish davrini boshidan kechirayotgan mustaqil respublikamiz fuqarolari ongi va qalbida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik g'oyasini singdirish eng muhim vazifalardan biri. Zero, umuminsoniy qadriyatlar barkamol inson tarbiyasi uchun barcha zamonlarda ham ahamiyati cheksiz bo'lgan. U jamiyat ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun zaruriyat bo'lib kelgan. Hayotiy zaruriyat bo'lib kelgan qadriyat azal-azaldan xalq og'zaki ijodida, ertaklarida, pandnomalarida, dostonlarida asosiy mavzulardan biri hisoblangan. Shuning uchun bo'lsa kerak, uni nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga kiritib, barkamol inson axloqiy tarbiyasi uchun muhim bo'lgan vosita deb bilganlar.

Masalan, Forobiy qadriyatni odamlarning bir-biriga o'zaro yordam ko'rsatishi va insoniy burchni bajarishi kishilarni saxovatli qiladi, inson boshqalar yordamida ular bilan hamjihatlik aloqalarini rivojlantirgan taqdirdagina kamolotga erishish mumkin, deb ta'kidlar ekan, bu kishilarning birlashishi, ularning o'zaro yordami va hamkorligidadir, degan fikrni ilgari suradi.

Qadriyatlar inson ma'naviy kamolotining muhim omili, inson ma'naviy faoliyatining mahsuli, uning moddiy dunyoga bo'lgan munosabatining ifodasi bo'lish bilan bir qatorda katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. U kishilar tomonidan yaratilib, o'zlashtirilib, fuqarolar ongi, qalbi va e'tiqodiga singib, faoliyatiga asos bo'lgandagina katta ijtimoiy kuchga aylanadigan hodisa. U jamiyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining zaruriy maxsuli. Shunga ko'ra, qadriyat hamma zamonlarda ham dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Bu mavzu, ayniqsa, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o'tayotgan, ijtimoiy-siyosiy tartiblarga kishilar "ko'nikib" qolgan zamonlar o'zgarib borayotgan davrda dolzarb muammoga aylanadi. Bunday davrlarda fuqarolarning qadriyatlarga munosabati, ular bilan bog'liq maqsad va ideallari o'zgaradi. Eski qadriyatlar fuqarolar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirmay qo'yadi. Bunda yangi qadriyatlarga ehtiyoj tug'iladi va uni shakllantirish zaruriyatga aylanadi. Qadriyat - qadr-qimmat degan tushunchani anglatadi.

Ajdodlarimiz bizga qoldirgan ma'naviy, mutafakkirlar merosining o'zi bir katta xazinadir. Ana shunday xazinalardan biri bundan salkam o'ttiz asr oldin yaratilgan "Avesto" nomi bilan atalgan nodir kitob bo'lib, bunda insonga xos bo'lgan axloqiy fazilatlar "abadiy ezgulik", "ezgu tartib", "ilohiy tobelik" kabi tushunchalar, ibratli so'zlar orqali berilgan bo'lib, u insoniyatlashgan qiyofada namoyon bo'ladi. Ezgulik – hayot ramzi, ezgulik – yaxshilik, poklik va tozalik ramzi sifatida beriladi.

Ma'naviyat inson uchun juda zarur ne'matdir. Undan ozuqa olmagan inson kamol topmaydi, istiqboli xira tortadi. Shuning uchun o'tmish ajdodlarimiz doimo farzandlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va ma'naviy kamoloti to'g'risida jon fido qilganlar, ular tarbiyasida bu masalaga alohida e'tibor berganlar. Shulardan kelib chiqib, ajdodlarimiz tomonidan bizga meros bo'lib qolgan, o'zida falsafiy, axloqiy qadriyatlarni saqlab kelgan boy va muqaddas ma'naviyatimizning qadriga aylanishi lozim. Ma'naviyatni avaylab asrash davlat ahamiyatiga molik bo'lgan muhim vazifa va burchdir. Bu muqaddas vazifani bajarishda va hal qilishda yoshlar, qolaversa, butun xalq ongiga, qalbiga, ruhiga ma'naviyatni singdirish, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, uni qalbdan va vijdonan qabul qilish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Rayhon Beruniy rostgo'ylik bilan birga muruvvatga ham alohida e'tibor qaratadi. U muruvvatni insonning chinakam axloqiy xislatlaridan biri deb hisoblaydi. Mutafakkirning fikriga ko'ra, muruvvatli inson odamlarga hayrixoh bo'ladi, u halol va xaqgo'y, boylik orttirishga intilmaydi, o'z mehnati bilan dexqonchilik, savdo-sotiq, xunarmandchilik va hokazo bilan shug'ullanadimi, bari-bir o'z mehnati bilan yashaydi. Abu Rayhon Beruniy rostgo'ylik va muruvvatlik, saxiylik zaminida mehnat yotadi, deb bilgan. Mehnat hayotda iz qoldiradi, uning mevasidan avlodlar foydalanadi. "Mehnat qilmasdan oliy martabaga erishgan kishi tinch va rohatda yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo u ulug'vorlik libosidan yalang'ochdir", -deydi mutafakkir. Shunday qilib, Abu Rayhon Beruniy o'z mutafakkirlar merosiidagi asosiy yo'nalishlarni mavhum hikmatlar bilan cheklab qo'ymay, uning asosida mehnat va shaxsning kishilarga, jamiyatga, o'ziga nisbatan real amaldagi munosabatlardan kelib chiqqan xislatlar, deb biladi.

O'rta asrlar Sharq mutafakkirlari orasida o'zining tabiiy-ilmiiy, falsafiy, axloq-odobga oid asarlari bilan jahon fani va madaniyatiga benazir hissa qo'shgan olim Abu Ali ibn Sino (980-1037)dir. Ibn Sinoning axloq haqidagi qarashlari, asosan, "Axloq ilmiga doir risola", "Burch to'g'risida risola", "Nafsni pokiza tutish to'g'risida risola", "Adolat haqida kitob", "Turar joylar tadbirlari", "Donishnoma" kabi odob-axloqqa doir risolalarida o'z ifodasini topgan.

Ma'naviy–ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda yoshlarning tutgan o'rni

*U. A. Boyzaqova - NamDU Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi IV kurs talabasi,*

*Xurshid Mirzaxmedov - Namangan davlat
universiteti katta o'qituvchi*

Bugun yurtimizda qadriyatlarimizni qadrlaydigan, ezgu an'analarga o'z hayotiy mo'ljalida muhim omil sifatida munosabatda bo'ladigan yoshlar ko'p. Lekin, hayoti va istiqbolida milliy qadriyatlarining o'rnini biroz to'g'ri tushunmaydigan yoki o'zini undan holi holda ko'rib, madaniyatimizga e'tiborsizroq bo'lgan yoshlar ham uchrayotganini inkor etolmaymiz. Ijtimoiy hayotni jamiyat tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlarsiz tasavvur qilish mushkul, ularsiz yashab bo'lmaydi. Doimiy olg'a intilish, yangilanib turish abadiy qonuniyat ekanligi tufayli, inson ongu tafakkuridagi o'zgarishlar mavjud qadriyatlardan oldinda borishi ijobiy hol hisoblanadi. Haddan tashqari tez o'zgarib borayotgan dunyoni qabul qilmagan kishi zamondan orqada qolishi shubhasiz. Xuddi shuningdek, mazkur masalada muvozanat saqlanmasligi ham yanada ulkan muammolarni keltirib chiqaradi.

Yurtboshimizning strategik ahamiyatga molik “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida bu xususda shunday ogohlikka da'vat mavjud: “... ba'zi odamlar, mana, biz mustaqillikka erishdik, endi faqat ota-bobolarimizdan qolgan qadriyatlar asosida yashashimiz kerak, boshqacha qarashlarning bizga hojati yo'q, degan asossiz fikrlarni ham bildirgan edi. Tabiiyki, bunday fikrlarga aslo qo'shilib bo'lmas edi.

Bu borada to'g'ri yo'l tutish uchun avvalambor milliy qadriyatning o'zi nima ekanini aniq tushunib olish zarur. Albatta, biz tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgan sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalarni qadriyat deb bilamiz.

Har qanday ijtimoiy hodisa singari milliy qadriyatlarining ham o'ziga xos rivojlanish qonuniyati bor. Bu haqiqatni unutish, milliy qadriyatlarni biryoqlama, sun'iy ravishda ulug'lash va ideallashtirishga urinish, ulardan siyosiy maqsadlardan foydalanish salbiy oqibatlariga olib kelishi hayotda ko'p bora o'z isbotini topgan”⁷³.

Tabiiyki, yoshlarimizning faol qatlami mamlakatimiz va jahon miqyosida yuz berayotgan bugungi keskin o'zgarishlarni aniq tasavvur etadi. Ayni paytda, yana shunday qatlam ham borki, yuz berayotgan voqea, hodisa, jarayonlarni kuzatmaydi, ularga ko'pam qiziqavermaydi, oqibatda mazmun-mohiyatini ham

⁷³ Qarang: Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 82.

anglab yetavermaydi. Ayrimlarida o'qish, o'rganish, o'zi va dunyoni anglashga xohish yuqori darajada emasligi tufayli "o'yinqaroqlik" ustun keladi. Turgan gapki, bunday yoshlar ertangi kunga tayyor bo'lish, ilm-fan yoki biror kasb-hunarni chuqurroq egallashga mas'uliyat bilan qaramaydi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish jarayonida yoshlarning o'rni beqiyos. Bunda asosiy kuch yosh avlod ongi va qalbini egallash, ularni to'g'ri yo'ldan chalg'itish, yaqin-o'tmishida sodir bo'lgan voqea-hodisalar mohiyatini o'zgacha talqin etish hisobiga zehni susaytirish, xotirasini chalkashtirishga qaratiladi. Yurtboshimizning Xotira maydonida ommaviy axborot vosita xodimlari bilan bo'lgan suhbatida bunday xatti-harakatlar zamiridagi nosog'lom niyatlar g'oyat ta'sirchan misollar bilan tushuntirib berildi. Hozirgi davrda turli yurtlarda demokratiya niqobi ostida yoshlardan iborat turli jangari to'dalar tashkil topayotgani, ular ongiga davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "mutlaq erkinlik", "chegarasiz erkinlik", "erkin axloq" degan soxta, g'ayriinsoniy g'oyalar zo'r berib singdirilayotgani g'oyat taassuflidir. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Bizni suyagi qotmagan, tafakkuri endi shakllanayotgan farzandlarimizning yot g'oyalar tahdidiga tushib qolish ehtimoli ko'proq xavotirga soladi. Yoshlarimizning ayrim yolg'on g'oyalar ortidan ergashib borayotgani biz uchun eng katta xavf desak, mubolag'a bo'lmaydi". Chunki Prezident tomonidan 1990 yilning 24 martidayoq haqli ravishda ta'kidlaganidek, "... yoshlar xalq ma'naviyatining – ham mahsuli, ham kelajagi" hisoblanadi⁷⁴.

"Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, ma'naviy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2006 yilning 25 avgustida imzolangan "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qaror barcha ziyolilar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklamogda. Qarorda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi zimmasiga "fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularning ongli yashashga, o'z fikriga ega bo'lishga, turli ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar tayyorlash" vazifasi yuklanganligidan ziyolilar yaxshi boxabar.

Tarixdan ma'lumki, g'oyaviy bo'shliq, imonsizlik har qanday jamiyatga jiddiy xavf soladi. Agar g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lsa, so'zsiz uning o'rmini shu xalqning tabiatiga begona turli xil vayronkor g'oyalar egallab olishi va o'z ta'sirini o'tkazishi muqarrar. Shu bois o'z kelajagini o'ylagan har bir davlat va jamiyat g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, eskirgan aqidalar

⁷⁴ Isoqov B. R. Yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishda qadriyatlarning ahamiyati. – Namangan, 2015. – B. 4.

va begona qarashlarni inkor etish bilan birga, ilg'or fikrlar, ulug'vor orzu va maqsadlarni odamlar ongi va qalbiga singdirishga harakat qiladi.

Milliy istiqlol mafkurasi g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaydi, ma'naviy hayotni butun xalq va har bir fuqaro manfaatiga mos keladigan yuksak va jozibali g'oyalar bilan boyitadi. Bu o'z navbatida, fuqarolarda ertangi kunga ishonch va kelajakka umid hissini mustahkamlaydi.

Shu boisdan ham butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab olgan g'oyaviy-tarbiyaviy, ma'naviy-mafkuraviy ishlar majmui – mafkuraviy profilaktika doimiy e'tiborni talab qiladi. Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikning oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va yo'llaridan foydalanish, turli vositalarni qo'llash lozim bo'ladi.

Mafkuraviy profilaktika tezkor va qisqa sur'atlarda yoki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda zudlik bilan chora-tadbirlar qo'llash zarur bo'lsa, ikkinchi holda doimiy va sobitqadamlik bilan faoliyat ko'rsatish ijobiy natijalarga olib keladi.

Ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot tizimi mafkuraviy profilaktikani amalga oshirishga yordam beradi. Sog'lom mafkurani omma ongi va qalbiga singdirishga xizmat qiladigan oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari singari ijtimoiy tuzilmalar mafkuraviy profilaktika jarayonida o'ta muhim rol o'ynaydilar⁷⁵.

Shuningdek, Vatan, el manfaatlari, do'stlik va ijtimoiy hamkorlik, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni targ'ib-tashviq etuvchi ertaklaru dostonlar, qo'shiqlaru raqslar, turli ko'rinish va mazmundagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish shakllari hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, insoniy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan har bir ma'naviyatli shaxs, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbiga ta'sir qilib, ularning qarashlarini o'zlariga ma'qul yo'nalishda o'zgartirish, ekstremizm, vayronkorlik, buzg'unchilik, axloqsizlik g'oyalarini singdirish kabi g'arazli maqsadlarni amalga oshirish mumkin emas. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin. Bunday tahdidlarning oldini olishda milliy g'oyaning kuchi ma'naviy targ'ibot ishlarining samaradorligiga, shuningdek, yoshlarning kundalik hayotida duch kelayotgan muammolarni hal etish va ularning mustaqil fikrga ega bo'lishlariga, milliy g'urur va iftixor tuyg'usining baland bo'lishiga ko'p jihatdan bog'liq.

⁷⁵ Qarang: Isoqov B. R. Yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishda... – B. 7.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlarning huquqiy holati.

Sohibjonov Zohid

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-demografik ahvolning yana bir muhim xususiyati - jamiyatning asosi bo'lgan kuchli oila tizimidir. O'zbekistonda nikohdan o'tish darajasi yuqori va, eng muhimi, oilalarning buzilishi dunyo bo'yicha eng past darajada. Oila - bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir⁷⁶. Mamlakatimizda xududida yashagan xalqlar doimo oilada tarbiyalangan.

Oila muqaddas dargoh hisoblangan. Oilada otani o'rni beqiyos bo'lsa, ayolni ham o'rni o'ziga xos ulkan ahamiyatga ega. Chunki oila farzandni tarbiya etish makoni. Ushbu makonda jamiyat kelajagi shakllanadi.

Davlatimizni oliy qomusi O'zbekiston Konstitutsiyasida ham oila jamiyatni kichik yacheykasi va muqaddas dargox ekanligi, oilada ota-onalar va farzandlar huquq va majburiyatlari o'z aksini topgan.

Konstitutsiyamizda ko'rsatilgan insonparvarlikning oliy darajasidagi qoida ota-onasiz yetimlarning davlat himoyasida ekanligi qoidasining belgilanganligidir.

Bu qoida Oila kodeksining birnecha moddalarida mustahkamlangan. Jumladan, 106-modda "Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish" deb nomlanib, unda, "Ota-onasi vafot etganligi oqibatida yetim qolgan voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish davlat tomonidan to'liq amalga oshiriladi" deb belgilangan. Kodeksning VI -bo'limi ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlari himoyasiga bag'ishlangan qoidalarni mustahkamlaydi.

Qonun talabi ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va davlat tegishli muassasalariga joylashtirish qoidalarini o'z ichiga oladi.

Qonunning 148-moddada ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish muammolari quyidagicha belgilangan.

Ota-ona vafot etganda, ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqi cheklanganda, ular muomalaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo'lganda, uzoq muddat bo'lmaganda, ota-ona bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan ota-ona tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'xshash boshqa muassasalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda bolalarning

⁷⁶ Karimov I. A. TAT. T6. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 1997 yil 80, 96

huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

149-moddada ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish tartibida belgilanishicha, "Vasiylik va homiylik organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlaydi, bunday bolalarni hisobga oladi va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir holatga qarab, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, shuningdek bundan buyon ularga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish shart-sharoitlarini nazorat qilib boradi.

Vasiylik va homiylik organidan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bo'yicha faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi⁷⁷"

(Muassasalarning (maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim muassasalari, davolash muassasalari va boshqa muassasalarning), fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari va boshqa fuqarolar bolalar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganligidan xabardor bo'lgach, yetti kunlik muddat ichida bu haqda bolalar haqiqatda turgan joydagi vasiylik va homiylik organlariga xabar berishlari shart. Vasiylik va homiylik organi bunday ma'lumotlarni olgan kundan e'tiboran uch kun ichida bolaning turmush sharoitini tekshirib chiqishi va bunda bolaning ota-ona yoki qarindoshlari qaramog'idan mahrum bo'lganligi aniqlansa, uni joylashtirish masalasi hal bo'lguniga qadar bolaning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashi shart.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaganlik, shuningdek bunday bolalarni joylashtirishda qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan muassasalarning rahbarlari va organlarning mansabdor shaxslari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Oila qonunchiligi 150-moddada ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish quyidagicha tartibga solinadi, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi, bunday imkoniyat bo'lmaganda esa, yetim bolalar yoxud ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim.

Ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan oilaga yoki muassasalarga tarbiyalash uchun joylashtirish masalasi hal bo'lgunga qadar vasiylik (homiylik) majburiyatlarini bajarish vaqtincha vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

⁷⁷ O'zR 16.04.2008 y. O'RB-153-son Qonuni

Milliy ma'naviyatga qarshi tahdidlarning negizlari

*U. Boyzaqova - Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi*

4-kurs talabasi,

*O. Chuboyeva - Ilmiy rahbar:
katta o'qituvchi*

“Milliy-ma'naviy xavfsizlik” tushunchasi “Milliy xavfsizlik” tizimida umumiy tarzda o'rganilgan. Chunki, to XX asrning oxirlarigacha harbiy, siyosiy va iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanganligi mamkalakat umummilliy xavfsizligining ta'minlanganligi darajasini belgilab bergan. Bugun ham ular o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ularning ta'minlash makon va zamon nuqtai nazaridan o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q va bundan keyin ham ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi. Lekin bugungi kunga kelib milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash ushbu tizimdagi ustuvor vazifa darajasiga ko'tarildi.

“Xavfsizlikka” ehtiyoj qachon yuzaga kelgan, uning tizimdagi turli shakllarining namoyon bo'lish xususiyatlari nimalarda o'z ifodasini topadi, nima uchun bugungi kunga kelib boshqa sohalarga qraganda ham milliy ma'naviyatga nisbatan tahdidlar oshib bormoqda, ularning istiqboli qanday kechishi mumkin, degan bir qator murakkab savollarga javob izlashga harakat qilamiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, xavfsizlikni ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj ijtimoiy tabaqalar, sinflar, davlatlar, mulkiy munosabatlar yuzaga kelgan davridayoq tug'ilgan edi. Chunki ularda har birining yuzaga kelishi tomonlarning bir-biriga nisbatan ustunlikka erishishiga bo'lgan intilishini ham yuzaga keltirgan. Jumladan, quldorlik jamiyatida quldan quldor uchtun bo'lgan va qul mustqil bo'lishi, o'z xavfsizligini taminlashi uchun harakat qilgan bo'lsa, undan keyingi barcha jamiyatlarda ham bunday ustuvorlikka erishish yoki xavfsiz hayot kechirish uchun kurashlar davom etib kelgan. Faqat zamonlar o'tishi bilan ularning shakllari taraqqiyotining xususiyatlariga mos ravishda o'zgarib, takomillashib borganligini ko'rish mumkin.

Agar tarixga nazar tashlasak, xavfsizlik va erkin hayot kesirish inson uchun ham, uning tayanchlaridan biri bo'lga davlat uchun ham asosiy muammolaridan biri bo'lib kelganligini ko'rish mumkin. Suqrot (er. 469-399yy.) shunday ta'kidlagan edi: “erkinlik inson uchun ham, davlat uchun ham ajoyib va ulug'vor boylkdir”⁷⁸.

Ayni paytda, davlatning paydo bo'lishi uni boshqarish zaruriyatini keltirib chiqaradi, uning hududida adolatni qaror toptirish, xalqning farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish kabilar har doim turli tahdidlarga ro'baro' bo'lgan. Shuning uchun ham davlatlar yuzaga kelganidan to hozirgi kungacha bo'lgan davr ichida hokimiyatning xalqqa “zo'rlik” o'tkazmasligimni ta'minlash maqsadida xalqning xokimiyat boshqaruvidagi

⁷⁸ Qarang: Istoriya politicheskix i pravovyx ucheniy. Drevniy mir. – M.: «Nauka», 1985. – S. 237.

ishtirokini ta'minlash nazarda tutilib, "demokratiya" o'ylab topilgan va u "ideal" omil sifatida qabul qilingan.

"Demokratiya – inson, jamiyat, davlat degan uch sub'ekt o'zaro bir-birini to'ldiradigan, bir-birini boyitib, kerak bo'lsa, nazorat qilib turadigan tizim demakdir. Bu har qaysi insonning jamiyat bilan, jamiyatning esa davlat bilan munosabatini, ular o'rtasidagi muvozanatni anglatadi"⁷⁹.

Milliy – ma'naviy xavfsizlikning yuzaga kelishi haqida fikr yuritganda, uning zaminlari nimadan iboratligi va nimalar bilan bohliqligiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiqdir. Milliy – ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan tahdidlarning yuzaga kelish tarixini olti davrga bo'lish mumkin. Ular: 1) islom davrning O'tra Osiyoga kirib kelishigacha bo'lgan davr; 2) arablarning O'tra Osiyoni bosib olishi va islom dinining O'tra Osiyoda amla qila boshlagan davri; 3) mo'g'ullarning O'tra Osiyoni bosib olishi bilan bog'liq davr; 4) chorizmning O'rta Osiyoni bosib olishi bilan bog'liq davr; 5) bolsheviklarning Rossiya davlat tepasiga kelishi va sho'ro hukmronligining qaror topishi bilan bog'liq bo'lgan davr; 6) globallashuv jarayonining avj olishi bilan bog'liq bo'lgan hozirgi davr.

Ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, har birida hududlarni ko'lga kiritish, ulardagi mavjud moddiy boyliklarga ega bo'lish maqsad qilingan bo'lsa ham, unim amalga oshirishda avval qirg'inbarot urushlar olib borilganini va g'alabani qo'lga kiritgandan keyin esa o'z hukmronligini "abadiylashtirish" uchun xalqning ongi, qalbi, dunyoqarashini egallash va shu orqali o'z ma'naviyati hukmronligini ta'minlashga kirishilganini ko'rishimiz mumkin.

Milliy – ma'naviy xavfsizlikning xavfsizlik tizimidagi boshqa shakllardan farqli jihati ham inson ongi, qalbi, tafakkuri bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham uni ta'minlashda ana shu ong, qalb va tafakkurning o'zgaralar ta'siriga tushib qolmasligi yoki "ommaviy ma'naviyat" ummonidan himoyalaniishi uni ta'minlashning nazariy kontseptsiyasida o'z ifodasini topishi va uni amaliyotga aylantirish kutilgan samarani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T. : "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T. : "O'zbekiston", 2015.
3. Istoriya politicheskix i pravovix ucheniy. Drevniy mir. – M. : «Nauka», 1985.
4. Otamuradov S. Globallashuv va millat (siyosiy-falsafiy tahlil). – T. : "Yangi asr avlodi", 2008.
5. Otamuradov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik masalalari. – T. : "O'zbekiston", 2013.

⁷⁹ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston,, 2015. 103-b.

Bolalar baxtli kelajagimiz

Supiyeva Sayyora

Namangan shahar 7-maktab o'qituvchisi

Mamlakatimizda olib borilayotgan modernizatsiya va islohatlar asosini inson masalasi tashkil etadi.

Insonparvarlik tamoyili asosida olib borilayotgan siyosat davlatimizni rivojlantirish va taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga olib chiqishga chiqmoqda.

Yurtimizni rivojlantirish uchun uning asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlar huquqlarni himoya qiluvchi me'yoriy-huquqiy normalar tizimi izchil takomillashtirilmoqda.

Jamiyatdagi yoshlarga oid siyosatda yuksak ma'naviyatga erishish uchun huquqiy bazani yaratilgan, mamlakatimizda juda ko'plab bu sohada qonunlar qabul qilinib amaliy hayotda o'zining ijrosini topib bormoqda.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'tgan davr maboynida O'zbekistonda 100 ga yaqin yoshlarga doir qonun hujjatlari qabul qilindi. 2008 yilni esa Prezidentimiz tomonidan «Yoshlar yili», 2010 yilni «Barkamol avlod yili», «Ona va bola yili», 2016 yilni «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilindi. Farzandlarimiz huquqlariga doir halqaro huquq normalari esa milliy qonunchiligimizda o'z aksini topdi. 1992 yil 9 dekabrda O'zbekiston Respublikasi qonunlari safiga qo'shilgan ilk xalqaro huquqiy hujjatlardan biri ham – bola huquqlari to'g'risida Konventsiya bo'ldi.

Mazkur xalqaro hujjat normalari milliy qonunchiligimizga to'la implementatsiya qilingan. Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiya normalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqorolik, Oila, Mehnat, Jinoyat protsessual kodekslarida «O'zbekiston Respublikasida Davlat yoshlar siyosatining asoslari to'g'risida»gi «Ta'lim to'g'risida»gi «Fuqorolik to'g'risida»gi «Fuqarolarning sog'ligini saqlash to'g'risida»gi «Nogironlarni sog'ligini saqlash to'g'risida»gi qonunlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'plab farmon va qarorlari, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» va har bir yil uchun berilgan nomlar ijrosi bo'yicha qabul qilingan davlat Dasturlarida belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasida bola huquqlarini kafolatlashga qaratilgan amaliy ishlarning samarasi o'laroq 2008 yil 7 yanvar kuni «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning Prezidentimiz tomonidan imzolanishi bo'ldi.

Qonunda bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlariga jiddiy ahamiyat berilgan. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, hayoti va sog'lig'ini himoya qilish

masalasi davlat siyosatining ustvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek bolaning sha'ni va qadr qimmatini himoya qilish, huquqlari va imkoniyatlari tengligini ta'minlash, bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirib borish masalalariga doir huquqiy normalar alohida moddalarda o'z aksini topgan.

Bolaning hayoti, ta'lim-tarbiyasi, ma'naviy va axloqiy kamolati, ularning barkamol o'sib ulg'ayishiga daxldor barcha masalalar davlatimizning muhim vazifalaridan biri sifatida o'ziga xos huquqiy maqom kasb etadi.

Shunisi diqqatga sazovarki, qonunda bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqiy, g'ayriqonuniy ko'chirilishdan himoyalaniş huquqi, o'z fikrini ifoda etish, axborot olish, so'z vijdon va e'tiqod erkinligi huquqlari kafolatlari, shuningdek xususiy mulkka, turar joyga bo'lgan huquqi, sog'lig'ini saqlashga, bilim olishga, xullas bolalar turmushi va hayot tarzining barcha sohasiga dahldor bo'lgan huquqlari to'liq kafolatlangan.

Bu normalarni mamlakatimizda qonun bilan kafolatlangan yangi bola huquqlarining yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat desa bo'ladi.

Shu o'rinda, alohida e'tirof etish joizki, mazkur qonunlar orqali bola huquqlari kafolatlarining izchil ta'minlanishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bola huquqlari doirasidagi amaliy ishlar samarasini yuksak darajaga ko'tarishga va sohadagi munosabatlarni kafolatli asosda tartibga solishga xizmat qiladi

Qonun hujjatlari ijrosi samarasi o'laroq O'zbekistonda bolalar huquqini himoya qilish borasida o'ziga xos iinstitutsial tizim yaratildi. Respublika Bosh prokurori rahbarligida va joylarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari tuzulgan. Ichki ishlar vazirligi qoshida voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish vazirligi qoshida voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish Markazi tashkil etildi. «SOS-O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi», Bolalar jamg'armasi, «Sen yolg'iz emassan», «Sog'lom avlod uchun» jamg'armalari, «Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi» kabi jamoat tuzulmalari, Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati ham shular jumlasidandir.

O'zbekiston milliy qonunchiligidagi bola huquqlariga doir mavjud normalar bu qonun ishlab chiqilishi jarayonida jamlanib, yaxlit holga keltirildi hamda zarur jihatlar takomillashtirildi, shuningdek Yangi normalar bilan to'ldirildi.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda millatimizning kelajagini belgilab beruvchi yoshlarning barcha huquq va erkinliklari qonun yo'li bilan kafolatlangandir. Shu bois to'la ishonch bilan aytishimiz mumkinki yuksak ma'naviyatni jamiyatimizda yoyib millatni yengib bo'lmaydigan darajaga erishish imkoniyatiga egamiz.

Yoshlarga e'tiborning ortishi

B. B. Ibrahimov - NamDU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasini o'qituvchisi,

A. Usmonov - NamDU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi talabasi

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida shakllangandan so'ng, birinchi navbatda yoshlar masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, ularni muhofazasini huquqiy jihatdan mustahkamlash ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Bunga misol qilib, Respublikamiz hukumati tomonidan "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"ni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 sentyabr 360 sonli «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida»gi qarori, ushbu qaror voyaga yetmaganlar ta'lim-tarbiyasiga mas'ul vazirliklar va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda bu boradagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirilishiga asos sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Huquqbuzarlikka moyil voyaga yetmaganlar bilan ishlashda ichki ishlar idoralari, kam ta'minlangan oilalar farzandlari va noqobil oilalar bilan ishlashda mahalla faollari, bolalarning o'zini o'zi boshqarish tuzilmalarini rivojlantirishda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, o'quvchilar huquqiy ta'lim-tarbiyasi sohasida huquq tartibot muassasalari, sog'lomlashtirish masalasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlik ishlari muvofiqlashtirilgan holda olib borilmoqda. Yoshlarga e'tibor berilishini yanada kuchaytirish maqsadida Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan 2008 yil "Yoshlar yili" deb e'lon qilinishi yoshlarni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sahalarda faolligini ularni davlat va jamiyat ishlariga keng jalb etish va ularni huquqiy jihatdan yanada mustahkamlashga zamin yaratildi.

O'zbekiston jahonning rivojlangan davlatlari qatoridan joy olishi uchun birinchi navbatda fuqarolarning shu qatorda yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish va ular orasida qonunlarni targ'ibot qilishni kuchaytirish lozim. Prezidentimiz I. A. Karimov "Har bir fuqaro, har bir inson o'z haq-huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarning huquqiy bilimlar bilan qurollantirish shart. Toki, jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va o'z mas'uliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan, bizning islohotlar, yangilanish haqidagi barcha so'zlarimiz, sa'y-harakatlarimiz besamara ketaveradi"- deb aytib o'tgan edi. Demak, har bir kishining huquqiy madaniyatli bo'lmog'i jamiyat va farovon hayotimizning taqdiri bilan bog'liq masaladir. Bu esa joylarda yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishni taqozo etadi.

Jinoyatchilikning oldini olish uchun aholi ijtimoiy tafakkuri va huquqiy saviyasi yuqori bo'lishi muhim o'rin tutadi. Buning uchun joylarda jamoatchilikning faolligini oshirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish

muhim o'rin tutadi. Har bir ongli kishi bu ishga o'z hissasini qo'shmas ekan, olib borilayotgan harakatlar o'z natijasini bermaydi.

Voyaga yetmaganlar orasida qonunbuzarliklarning oldini olishda ta'lim maskanlarida yoshlar huquqiy bilimni oshirish va ular orasida qonunlar targ'ibotini kuchaytirish lozim. Chunki, huquqiy tarbiya ularning ongi, his-tuyg'ulari va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish demakdir. Shuning uchun ham keyingi yillarda milliy mafkuramizning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan aholining huquqiy madaniyatini oshirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda bolalarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, ularning ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minotiga oid huquqlarni ro'yobga chiqarish huquqiy dastaklarning samaradorligini oshirish, bu muhitda huquqbuzarliklarning oldini olish borasida e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirilayotganini xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof qilinmoqda.

Jumladan, YUNISEF tomonidan 410 million nafardan ziyod aholi istiqomat qilayotgan Markaziy va G'arbiy Yevropa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Boltiqbo'yining jami 27 ta mamlakatining rivojlanishini o'z qamroviga olgan huquqiy monitoring hujjatlarida inson taraqqiyotining tanlab olingan 20ta ko'rsatkichidan 9tasi O'zbekistonda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotganligi qayd etilgan.

Mazkur hujjatda mamlakatimizning barqaror rivojlanishi bolalar va onalar o'limi, o'smirlar orasida tug'ish holatlari, onalar hayotining uzayishi, nikohning bekor bo'lishi, o'smirlar orasida jinoyatchilik, ijtimoiy muhofaza va bandlik masalalarida ijobiy siljishlar yaqqol namoyon bo'layotganligi bayon qilingan.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, biz yangi hayot, yangi jamiyat barpo etish yo'lidagi islohotlarimizni, o'zgarishlarni kimlargadir yaxshi ko'rinish uchun emas, balki bu ishlarni avvalo xalqimiz manfaatlariga to'la javob bergani uchun amalga oshirmoqdamiz⁸⁰. Shunday ekan, voyaga yetmaganlarning huquqlarini muhofaza qilish, bu muhitda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bilan shug'ullanuvchi idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorligini mustahkamlash, mazkur yo'nalishda xorijiy davlatlar tajribasidan unumli foydalanish bu borada ilmiy-tadqiqotlar o'tkazishni davom ettirishni talab qiladi.

Qur'onda inson huquqlari

B. Chuboyeva

IIB xodimi

Qur'on butun insoniyatning ma'naviy-madaniy merosi bo'lgan huquqiy yozma yodgorlikdir. U Alloh taolo tomonidan ilohiy qonun sifatida nozil qilingan so'zlar bo'lib, musulmonlar amal qilishi lozim bo'lgan qator qoidalar to'plamidir. Qur'on 114 ta katta-kichik suralardan tashkil topgan.

⁸⁰ Xalq so'zi. -T.: 2002 yil 5 aprel. № 73.

Qur'onda inson aziz va mukarram, barcha mavjudotlarning zarrin toji va fazilatleri egasi sifatida e'zozlanadi.

Ularning insoniy haq-huquqlarini hurmat qilish g'oyasi yetakchilik qiladi. Bu haq-huquqlarni islom ulamolari o'ntaga ajratishadi. Shular jumlasiga: otanonaning haq-huquqlari, farzandlarning ota-onalardagi haq-huquqlari, qarindoshlarning haq-huquqlari, er-xotinning haq-huquqlari, hokimiyat va ra'iyatning haq-huquqlari, qo'shnilarning haq-huquqlari, musulmonlarning haq-huquqlari, musulmon bo'lmaganlarning haq-huquqlari kiradi.

Xalq va millat ichidagi tinch-totuvlikni ta'minlashda qo'shnilar, ya'ni oilalar o'rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Shu bois, Qur'oni Karimda ham qo'shnilarning haq-huquqlariga e'tibor berilgan. Qo'shnilarning o'zaro haq-huquqlari bir-birlari bilan yaxshi munosabatda bo'lishlari xoh moddiy, xoh ma'naviy tomondan bir-birlariga yordam berishlaridir. Qo'shniga ezgulik qilishdan maqsad yordam so'rasa yordam berish, kasal bo'lsa holiga yarash, xursandchilik vaqtida tabriklash, musibat yetsa hamdardlik va shu kabilardir. Bu borada payg'ambar alayhissalom o'z hadisi shariflarida «Kimki Allohga va qiyomat kuniga iymon keltirgan bo'lsa, o'z qo'shnisiga yaxshilik qilsin» dedilar. Bu hadisdan ma'lum bo'ladiki, qo'shniga yomonlik qilish Allohga va qiyomat kuniga ishonmaslik kabi o'ta og'ir gunoh hisoblanar ekan. Demak, qo'shnilarning haq-huquqlari shu darajada yuksaklikka ko'tarilgan.

Qur'oni Karimda ra'iyat va davlat rahbarlarining haq-huquqlari belgilangan. Chunki inson huquqlarining ta'minlanishi ana shularga ham bog'liqdir. Ra'iyatning rahbarlardagi haq-huquqlari adolatli, to'g'ri va odil siyosat olib borish, xalq hayoti uchun zarur osoyishtalik va tinchlikni o'rnatishdir. O'z navbatida, rahbarlarning xalq va ra'iyatdagi haqi xalqning ehtiyoj va talablarini qanoatlantirish, jinoyatchilar tug'yonidan xalos bo'lishda xalqning istagini ado etishdir. Xalqning amaldor va hokim kishilardagi haqlari shuki, miskin fuqarolarning holini so'rashi, kishilarning moddiy va ma'naviy ta'minlanishiga yordam berishi, turmush tarzining har tomonlama manfaat topishiga yordam berishidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Qur'oni Karimda insonlarning bilim olish, mehnat va shu kabi boshqa huquqlari ham o'z ifodasini topgan. Qur'oni karimda ilm olish huquqi haqida zikr etilib: «O'qing! Sizning Parvardigoringiz (insoniyatga) qalamni (ya'ni yozishni, xatni) o'rgatgan o'ta karamli zotdir. U zot insonga uning bilmagan narsalarini o'rgatdi» deyiladi. Ushbu oyatlarda Islom dini insonlarni jaholat, xurofotga emas, balki ilm-ma'rifatga chorlashi ma'lum bo'ladi. Rasululloh sallolohu alayhi vasallam: «Beshikdalik chog'ingizdan to lahadga kirguningizcha ilm o'rganing» va yana: «Ilm istash har bir muslim va muslima uchun farzdir», dsb marhamat qilganlar. Islomda ilm insonlarni yuksak ma'naviy kamolotga yetaklovchi tayanch sifatida qadrlanadi. Shu bilan birga ilmi bo'lish insonning nafaqat o'zligini anglashda, balki hayotini yaxshi bo'lishidagi kuch qudrat maibai ekanligi yorqin ko'rsatib beriladi. Ilm olish, o'qish eng kerakli mehnatdir. Mehnatsevar bo'lish, ilm ham inson uchun oliy fazilatdir. Chunki bular kishilarning ahvolini yaxshilaydi, mamlakat obodonligi,

jaholat qorong'uligidan qutilish yo'li ham shu fazilatlar orqali amalga oshadi. Zero, kishilik jamiyatining asl tarixi ham mehnatdan boshlangan. Bu xususta Qur'onda shunday deyiladi: «Darhaqiqat, Biz insonni mehnat, mashaqqatga yaratdik». Bundan ma'no shuki, inson o'z hayotida mehnat qiladi. Ana shu mehnat qilish huquqidan halol foydalanib, nafaqat o'ziga, balki, o'zgalarga ham naf keltirishi talab etiladi. Shuning uchun ham payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi va sallam o'z hadisi shariflarining birida: «Halol mehnat qilib, bola-chaqa boqishning savobi nafl namoz o'quvchilarining savobi bilan barobardir» deb bashorat berganlar.

Qur'oni Karim va hadislarning eng muhim jihati shundaki, unda jamiyatga va incongа isnod keltiruvchi har qanday harakatga qarshi nafrat ustun turadi. Islom shariati qonunlarida: o'g'rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, zino, qon to'kish kabi o'ta yomon illatlar har bir inson hazar qiladigan dard sifatida qoralanadi. Chunki bu illatlar inson huquqlari buzilishining sababchisidir.

Qur'oni karimda, insonning haq yulidan borishi, nohaq yo'ldan tiyilishi o'ziga xos uslubda uqtiriladi: «Ey mo'minlar, mollaringizni o'rtalaringizda nohaq (ya'ni o'g'rilik, qaroqchilik, sudho'rlik, poraxo'rlik, qimor kabi) yo'llar bilan yemangiz! Balki o'zaro rizolik bilan bo'lgan savdo-sotiq orqali mol-dunyo kasb qilingiz... ». Chunki nopok yo'lga kirish, unga ruju qo'yish nafaqat kishining o'ziga, balki boshqa insonlarning ham huquqiy manfaatlariga zarar yetkazadi. Islom shariati qonunlarida insonning sog'lig'iga, aql-idrokiga putur yetkazadigan ichimliklarni iste'mol qilish ta'qiqlanadi. Janob Rasululloh hadisi shariflaridan birida: «Kayf qildiruvchi narsa - xamr. Har qanday xamr haromdir», degan dono so'zlarini o'qish mumkin. Shuning uchun qur'oni karim oyatlarida, ichkilik ichish, qimor uynash shayton amalidan bo'lgan harom ish sifatida ta'qiqlanib, bulardan uzoq bo'lishga da'vat etilgan. Chunki, bu illatlar insonni tafakkurdan ayirib adovat (o'ch olish hissini) va nafratini uyg'otadi. Buning oqibatida qotillik, o'g'rilik, zino, do'stlarning dushmanga aylanish hollari yuz beradi.

Qotillik shariat bo'yicha harom va gunoh jinoyatdir. Qur'onda «Alloh harom qilgach, birovni nohaq qatl qilmangiz» deyiladi.

Xulosa shuki, Qur'oni Karim va «Hadisi Sharif»larda hamda islom dinining qonunlari bo'lgan «Shariati Islomiya»da inson, uning huquqiy manfaati to'la himoya qilingan. Bu ulug' ta'limotlar insonlarvarlik g'oyalariga asoslanadi. Islom dini insonni imonli, axloqli, ma'rifatli bo'lishga undaydi. Inson manfaatiga putur yetkazadigan va jamiyatni tanazzulga yetaklovchi barcha yomon illatlarni qoralaydi. Insonni to'g'rilikka, halollikka, poklikka, o'zaro hurmatga chaqiradi. Zero ana shunday fazilatlar orqali insonning huquqlari hurmat qilinadi. Shuningdek, barcha yer yuzidagi xalqlar bilan hamkorlik qilish shariati islomning oliy maqsadidir. Chunki, Qur'oni karim oyatlarida: «Ezgulik va taqvo yo'lida hamkorlik qilinglar» deb buyurilgan. Bu maqsad butun insoniyatning mushtarak manfaatini ko'zlaydi.

Milliy g'oya targ'ibotida ma'naviy-axloqiy va mehnat tarbiyasining o'rni

*R. G'ulomova, N. Mamadjanova
Ingliz tili kafedrası o'qituvchilari*

Ta'lim-tarbiya tizimi jamiyat ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Hayotga kirib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, madaniyati, hayotga va odamlarga bo'lgan munosabati maktabda shakllanadi.

Jamiyat vujudga kelishida mehnat qilish eng asosiy omili bo'ldi. Jamiyat shunchaki odamlar yig'ini emas, balki ijtimoiy munosabatlar orqali tashkil topadi. Ana shu shaxs va jamiyat munosabatlari ham shakllana boradi. Bunda ijtimoiy mehnat turlaridan tashqari, odamlar o'rtasida amal qilingan, ahloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, hududiy, mafkuraviy munosabatlarga kirishadi. shaxs va jamiyat munosabatlarida tarixan tashkil topgan oila va shaxs, oila va jamiyat munosabatlari ham muayyan jamiyat qabul qilingan qonun — qoidalar doirasida rivojlanib boradi.

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishida tarixiy shart-sharoit, ayniqsa, g'oya va mafkura muhim rol o'ynaydi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida vujudga kelgan muammolar va vazifalar shaxsning yangi tipini yaratishni taqozo etdi. Ana shunday shaxsga xos bo'lgan fazilat va sifatlar Prezident I. A. Karimov asarlarida o'z ifodasini topdi. Bozor iqtisodiyoti inson ehtiyojlarini to'laroq qondirish, uning qobiliyatlari, mehnat va ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Bular quyidagilardir:

- mehnatni tashkil etish usullari va shakllarining o'zgarishi;
- mehnatga yangicha munosabatni rag'batlantirishga yordam beruvchi omillar;
- o'z qobiliyati, qiziqishlariga mos bo'lgan faoliyat turlarini tanlash imkoniyatining yaratilishi;
- shaxsning tadbirkorligi, ishbilarmonligining qo'llab-quvvatlanishi;
- mulkchilik turli shakllarining vujudga keltirilishi;
- shaxs erkinligi va huquqlarining kengayishi;
- davlat va jamoat ishlarida qatnashish imkoniyatlarining yaratilishi;
- demokratik qadriyatlarning rivojlanishi;
- ma'naviy meros va madaniyat yutuqlaridan erkin foydalanish imkoniyatining yaratilishi kabilardir.

Ana shunday imkoniyatlar shaxsning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda, uning komil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar insonning manfaatlari, ezgu maqsadlarini amalga oshirishga, uning barkamol inson sifatida rivojlanishiga qaratilgandir.

Xavfsizlikka tahdidning oddiy bo'lmasligi ham aniq. Xushyorlik boy berilsa, imkoniyatlar ishga solinmay tahdidning oldi o'z vaqtida olinmasa, millat, vatan taqdiri og'ir ko'rguliklarga duch kelishi tabiiy ekanligini qo'shni davlatlar misolida ham ko'rib turibmiz. shunday ekan, xavfsizlikka tahdidning

oldini olish uchun mavjud imkoniyatlardan samarali va oqilona foydalana bilish barqarorlikning ham, taraqqiyotning sobitqadam rivojlanishi uchun ham hayotiy zaruriyatdir. Hozirgi paytda dunyo miqyosida vaziyat va kuchlar nisbatining shiddatli o'zgarib borayotganligi xavfsizlikning yangicha modellarini yaratishga undamoqda. Ushbu ehtiyojni anglab yetgan muhtaram prezidentimiz har bir davlat rahbari o'zining vatan va xalq oldidagi burchi va mas'uliyatini "teran anglab, o'y-hayolini hamisha tinchlik, osoyishtalikni saqlash, avaylash va mustahkamlashga qaratmog'i" lozimligini ta'kidlaydi. ustiga ustak, hozirgi paytda poydevori barpo qilingan yangi uyni qurish va obod qilish uchun o'rnimizga keladigan avlod oldidagi mas'uliyatimizni bir daqiqa bo'lsin unutishga haqqimiz yo'qligini uqtiradi. Ana shu burch va mas'uliyat tufayli yo'lbo'shchimiz xavfsizlikni saqlab qolish yo'llari, barqarorlikni ta'minlash omillari hamda taraqqiyot yo'lidan sobitqadam rivojlanish kafolatlarini batafsil yoritib berdi. jahonni tashvishga solgan, o'ylantirgan muammolar – xavfsizlikni saqlash, barqarorlik va taraqqiyot yo'lidan sobitqadam rivojlanishning har bir millat, mamlakat taqdiridagi o'rni, bu muammolarning strategik yechimlari, hozirgi jo'g'rofiy – siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, tahdidlarning oldini olish yo'llari, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlarini to'g'ri baholash prezident islom karimovdagi o'z xalqi va vatani taqdiri, kelajagi uchun qayg'urish, xxi asrda ham barqaror taraqqiyotga erishish yo'lida barcha omillar va imkoniyatlarni to'la safarbar eta bilishga intilish, xalqning siyosiy dunyoqarashini o'stirish istagining juda kuchlidir. ma'naviy –ma'rifiy ishlarning asosiy vazifasi yuksak axloqiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan komil insonni tarbiyalashdan iborat. bugungi kunda bilimdon, yetuk malakali, yuksak aql-zakovat va istiqbol dunyoqarashiga ega tadbirkor kishilargina jamiyatimizning jahon sivilizatsiyasi sari taraqqiyotini tezlashtira oladi, o'zbekistonning dunyodagi rivojlangan mamlakatlar safidan munosib o'rin egallashini ta'minlay oladi. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning va yangi jamiyatni qurishimizning eng asosi bo'lgan ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish hamda uni izchillik bilan hozirgi zamon talablari, milliy ruhiyatimizning ildizlariga suyangan holda yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb va g'oyat muhim vazifasidir.

Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, odamlar ruhiyatidagi ko'tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksakligini, o'z faoliyatida tinchlikni, millatlararo hamjihatlikni barqaror rivojlantirish yo'lini aniq belgilashdagi o'z fuqarolarning orzu-umidlarini, manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yo'naltirish va unga rahbarlik qilish salohiyati hisoblanadi.

Jamiyat ma'naviyati, uning rivoji ham uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning natijasi hisoblanadi. Jamiyat asta-sekin rivojlanib borgan sari inson ma'naviyati ham tarkibiy jihatdan mukammallashib borgan. Ma'naviyatning eng qadimgi asoslarini axloqiy, diniy va badiiy qarashlar tashkil qiladi. Davlatning yuzaga kelishi bilan ma'naviyat ning siyosiy, falsafiy va ilmiy

shakllari yuzaga kelgan. Shunday qilib, ma'naviyatning tarkibiy tizimini quyidagilar tashkil qiladi:

- axloqiy qarashlar va axloqiy ta'lim;
- diniy qarashlar va diniy ta'lim;
- badiiy qarashlar va badiiy ta'lim;
- falsafiy qarashlar va falsafiy ta'lim;
- siyosiy qarashlar va siyosiy ta'lim;
- huquqiy qarashlar va huquqiy ta'lim;

Ilmий qarashlar va fan; jami tabiiy va gumanitar fanlar ham shu guruhga kiradi.

Yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo'ladi.

Компетентностный подход педагога к учебному процессу в условиях дистанционного обучения

*Худойберганава Чарос - магистрантка
государственного института искусств
и культуры Узбекистана*

Главной проблемой развития дистанционного обучения является создание новых методов и технологий обучения, отвечающих телекоммуникационной среде общения. В этой среде ярко проявляется то обстоятельство, что учащиеся не просто пассивные потребители информации, а в процессе обучения они создают собственное понимание предметного содержания обучения.

На смену прежней модели обучения приходит новая модель, основанная на следующих положениях:

- в центре технологии обучения — учащийся, понимающий значимость образовательной информации для своего саморазвития и совершенствования;
- суть технологии — развитие способности к самообучению, духовному и профессиональному самосовершенствованию;
- учащиеся играют активную роль в обучении;
- в основе учебной деятельности — сотрудничество.

Термин «дистанционное обучение» означает такую организацию учебного процесса, при которой преподаватель разрабатывает учебную программу, главным образом базирующуюся на самостоятельном обучении студента. Такая среда обучения характеризуется тем, учащийся в основном, а зачастую и совсем отделен от преподавателя в пространстве или во времени, в то же время, студенты и преподаватели имеют

возможность осуществлять диалог между собой с помощью средств телекоммуникации. Дистанционное обучение позволяет учиться жителям регионов, где нет иных возможностей для профессиональной подготовки или получения качественного высшего образования, нет университета нужного профиля или преподавателей требуемого уровня квалификации.

Известно, что наиболее полное раскрытие способностей человека возможно лишь в общественно значимой деятельности. Причём важно, чтобы осуществление этой деятельности детерминировалось не только извне (обществом), но и внутренней потребностью самой личности. Деятельность личности в этом случае становится самодеятельностью, а реализация её способностей в данной деятельности приобретает характер самореализации. Особенно это ярко проявляется в учебно-познавательной деятельности. Знания в любой области неоспоримо представляют ценность, которая всегда остается с человеком, знания – это то, что невозможно отнять или потерять. Труд, вложенный в познавательную активность, как никакой другой окупает себя.

Обучение и работа сегодня - синонимы: профессиональные знания стареют очень быстро, поэтому необходимо их постоянное совершенствование, а это требует открытого образования! По данным зарубежных экспертов минимальным уровнем образования, необходимым для выживания человечества, станет высшее образование. Обучение такой массы студентов по очной (дневной) форме вряд ли выдержат бюджеты даже самых благополучных стран. Поэтому образовательную систему XXI века соотносят с дистанционно-информативными технологиями. Мировая телекоммуникационная инфраструктура дает сегодня возможность создания систем массового непрерывного самообучения, всеобщего обмена информацией, независимо от временных и пространственных поясов.

Термин «интерактивное взаимодействие» широко используется как в отечественной, так и в зарубежной педагогической литературе. В узком смысле слова (применительно к работе пользователя с программным обеспечением вообще) интерактивное взаимодействие - это диалог пользователя с программой, т.е. обмен текстовыми командами (запросами) и ответами (приглашениями). При более развитых средствах ведения диалога (например, при наличии возможности задавать вопросы в произвольной форме, с использованием "ключевого" слова, в форме с ограниченным набором символов) обеспечивается возможность выбора вариантов содержания учебного материала и режима работы. Чем больше существует возможностей управлять программой, чем активнее пользователь участвует в диалоге, тем выше интерактивность. В широком смысле интерактивное взаимодействие предполагает диалог любых субъектов друг с другом с использованием доступных им средств и методов.

При этом предполагается активное участие в диалоге обеих сторон - обмен вопросами и ответами, управление ходом диалога, контроль за выполнением принятых решений и т.п. Телекоммуникационная среда, предназначенная для общения миллионов людей друг с другом, является априори интерактивной средой. При дистанционном обучении субъектами в интерактивном взаимодействии будут выступать преподаватели и студенты, а средствами осуществления подобного взаимодействия – электронная почта, телеконференции, диалоги в режиме реального времени.

Используемые сегодня технологии дистанционного образования включают три большие категории:

- неинтерактивные (печатные материалы, аудио-видео-носители),
- средства компьютерного обучения (электронные учебники, компьютерное тестирование и контроль знаний, новейшие средства мультимедиа),
- видеоконференции - развитые средства телекоммуникации по аудиоканалам, видеоканалам и компьютерным сетям.

Важнейшее условие повышения эффективности обучения - психологическая, теоретическая и практическая готовность студентов к самостоятельной работе. В то же время известно, что уровень довузовской подготовки студентов часто бывает невысоким. Поэтому от преподавателей высшей школы требуется доучивание их методам самостоятельной работы путем формирования культуры учебного труда, что позволит будущему специалисту не только адаптироваться к ВУЗовским условиям обучения, но и создаст предпосылки постоянного профессионального роста в течение всей трудовой деятельности. Сложность решения этой задачи требует постоянного совершенствования учебного процесса и, в частности, постановки самостоятельной работы студентов на научную основу.

Одной из актуальнейших проблем высшей школы является психологическое обоснование организации индивидуального обучения в телекоммуникационной компьютерной образовательной среде. Эта проблема связана с целым рядом частных психолого-педагогических задач. В настоящее время практически отсутствуют исследования, глубоко и всесторонне раскрывающие психологические условия организации дистанционного образования. Само понятие телекоммуникационной компьютерной образовательной среды еще не получила должного рассмотрения с психологических позиций. Пока не разработаны психологические модели и профессиограммы специалиста, которого нужно готовить в рамках этой системы. Неясно, каким специальностям можно обучать в телекоммуникационной образовательной среде, а каким – невозможно или возможно частично. Дидактические и методические вопросы дистанционного образования не имеют до настоящего момента

должного психологического обоснования, актуальной остается проблема идентификации обучаемого при проведении контрольного тестирования.

Решение всех этих проблем составляет перспективные направления современного научно-образовательного потенциала.

Использованная литература

1. Деркач А.А., Футин В.Н. Профессионализм деятельности в особых условиях/Основы общей и прикладной акмеологии. — М., 1995; Петренко А. Безопасность в коммуникации делового человека. — М., 1993; и др.
2. Общая теория безопасности (актуальные методологические и социально-политические проблемы). — М., 1994.
3. Современные технологии обучения: Тез. докл. IX междунар. конф. - СПб.: ЛЭТИ, 2003. - 631 с.
4. Смирнов С.А. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии. Изд. 4-е, исправл. — М.: Академия, 2000. — 512 с.

Odam savdosi jinoyatchiligi

N. Yadigarova - Namangan viloyati Adliya boshqarmasi xodimi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2008 yilning 27-28 mart kunlari bo'lib o'tgan o'n uchinchi yalpi majlisida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik islohotlari jarayonida muhim ahamiyat kaso etadigan o'ttizdan ortiq masalalar muhokama qilindi. 25 ta qonun ko'rib chiqildi.

Senat a'zolari tomonidan ma'qullangan qonunlar "orasida "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ham bor.

Avvalo shuni qayd etish lozimki, senatorlar tomonidan mazkur Qonunning ma'qullanishi bilan O'zbekiston odam savdosi bilan bog'liq xalqaro hujjatlardagi qoidalarning respublika qonunlariga uyg'unlashtirilishiga, odam savdosi bilan bog'liq har qanday huquqbuzarlik va jinoyatlarga chek qo'yish borasidagi milliy qonunchilikdagi huquqiy asoslarning yanada mustahkamlanishiga erishdi.

Ma'lumki, odam savdosiga qarshi kurashish masalasiga qaratilgan birinchi xalqaro hujjat 1899 yilda Londonda bo'lib o'tgan xalqaro konferentsiyada qabul qilingan Ayollardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish uchun ularni yollashga qarshi kurash to'g'risida"gi rezolyutsiya hisoblanadi. Keyinchalik mazkur masala yuzasidan xalqaro bitimlar (1904-1901 y.), odam savdosi muammolari bo'yicha xalqaro konventsiyalar (1921-1933 y.) qabul qilindi. Shu o'rinda BMT Bosh Assambleyasi tomoniddn 1950 yil 21 martda qabul qilingan "Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida"gi konventsiyani alohida ta'kidlab o'tish joiz. Boisi Mustaqil

O'zbekiston ham 2003 yil 12 dekabrda mazkur xalqaro hujjatga qo'shilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2001 yil 28 iyunda BMT Bosh Assambleyasining 2000 yil 15 noyabrda rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Trans-milliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi konventsiyaga qo'shimcha odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosi haqida ogohlantirish va chek qo'yish hamda bunday jinoyatlar uchun jazolash to'g'risidagi bayonnoma ham imzolandi.

Endi aynan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'grisida"gi Qonunga to'xtalsak. U to'rt bob va 17 ta moddani o'z ichiga olgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatda qayd etilishicha, odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari, jumladan, IIV, MXX, Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari, Sog'liqni saqlash vazirligining shu yo'nalishdagi faoliyatlari respublika va hududlardagi idoralararo komissiyalar tomonidan muvofiqlashtirib boriladi. Joylardagi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat tashkilotlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek, fuqarolar odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko'maklashadi hamda zarur yordam beradi.

Odam savdosi uyushgan jinoyatchilik, xalqaro terrorizm, narkobiznes, qurol-aslahalarning noqonuniy savdosi kabi o'ta og'ir jinoyatlar qatorida insoniyat tsivilizatsiyasiga, jamiyat taraqqiyotiga va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'dirayotgani bois unga qarshi xalqaro miqyosda kurash ketmoqda. BMT, Yevropa Ittifoqi, Yevropada xavfsizlik, hamkorlik tashkiloti doirasida inson huquqlarini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi qo'mita va komissiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasida inson sha'ni bilan bog'liq mazkur Qonunning qabul qilinishi mamlakatimiz xam jinoyatning ushbu o'ta og'ir turiga qarshi xalqaro miqyosdagi kurashda kuchlarni birlashtirishga tayyorligini yana bir karra butun dunyoga namoyish etdi.

Musiqaning ma'naviy tarbiyadagi ahamiyati

*Hamidullayeva Yulduz - Musiqa ta'limi
yo'nalishi 1-bosqich 113-guruh talabasi,
R. Qo'shinova - Ilmiy rahbar: Musiqiy
ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi*

Musiqa shunday nozik san'at turiki, u insonning ruhiy olamiga, ma'naviy dunyosiga tez ta'sir etuvchi ilohiy mo'jiza, eng nafis san'at turi desak mubolag'a bo'lmaydi. Insonning dunyoga kelishidan to bu olamni tark etguniga qadar hamroh bo'lguvchi ham ma'naviy ozuqa ham tarbiya vositasi desak adashmagan bo'lamiz. Farzand dunyoga kelar ekan, avvalo, onaning allasidan orom oladi, shu kuy qo'shiqda onaning orzu –umidi, armonlari o'z ifodasini topgan bo'ladi. O'zbek ma'rifatparvarlaridan biri Abdulla Avloniy "Sanoye

nafisa”, ya’ni, “Nafis san’atlar asarida”, “Dunyodagi eng nozik, eng inja- nafis san’at” deya musiqaga tarif berganida qanchalar haq edi. Musiqa -bu ilohiy san’at bo’lib, unda barq urib turgan yoshlik, jo’shqinlikning mavjudligi doimo to’xtab qolmaslikka o’rgatadi. Chindan ham, musiqaning ma’naviy tarbiyadagi o’rni beqiyosdir. U inson kamolotida muhim omil sanaladi.

Bilasizmi, qadimgi Gretsiyada eng ma’naviyatli kishilardan avvalo musiqasana’atini egallash talab etilgan. Musiqaning tarbiyaviy ahamiyatiga yana bir misol: ma’noli qo’shiq va musiqasana’atlarini kishi salomatligiga ta’sir o’tkazadi. Musiqasana’at hayotbaxsh, oliyanob, axloqiy hususiyatlarni rivojlantiradi. Uning ruhiy va ma’naviy qiyofasini yuksaltiradi. Musiqasana’at tafakkurning qudratli manbaidir. Musiqasana’at tarbiyasiz tom ma’nodagi aqliy kamolot egasi bo’lishi mumkin emas.

Aflotun “Musiqa insonlarni tarbiyalashda har qanday o’zga vositalardan afzaldir”,- degan edi. Darhaqiqat, musiqasana’at insonning sog’ligiga ham katta ta’sir etuvchi omillardan biri. U insonni bezovta qiluvchi, har hil fikrlardan chalg’ituvchi, tinchlantiruvchi va hatto jazolovchi kuchga egadir. Qadimda gunoh ish qilganlarga yoqimsiz, baland, ma’nosiz kuylar orqali kuchli ta’sir o’tkazishgan. Shuning uchun ham u ruhiyatga kuchli ta’sir o’tkazadi. Musiqasana’at o’zida butun bir xalqning urf - odatlari, an’analari, fe’l-atvorini, orzu-umidlarini o’zida namoyon etadi. Yurtboshimiz aytganlaridek “... Yurtning san’at va sportchilik tez tanitadigan soha bo’lmasa kerak...”

Jannatmakon yurtimizda azal-azaldan musiqaga katta e’tibor berilgan, ko’plab san’at namoyondalari yetishib chiqqan. Musiqiy savodi yuksak bo’lgan halqimiz o’zining “Shashmaqom”idaham yuksak ma’naviyatini namoyon etgan. Shuningdek, Alisher Navoiy, Bobur, Ulug’bek va yana qator insonlar bu san’atning rivojlanishi va ma’naviy kamol topishidagi ahamiyatiga katta e’tibor qaratishgan. Xiva xoni Muhammad Raximxon Feruz II 1882-yil musiqasana’atiga oid maqomlarni kimda kim buzib ijro etsa jazolanishini alohida farmon asosida belgilagan. Mustaqillik yillarida ham musiqaga va uning ta’limiga alohida e’tibor berildi. Biz yoshlarga ham ulkan imkoniyatlar eshigi ochildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 5-dekabrda “O’zbekiston – Vatanim manim” qo’shiqlar tanlovi to’g’risidagi farmoni qo’shiqchilik san’atini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatdi. Avgust oyining 3-yakshanba kuni “O’zbekiston – Vatanim manim”qo’shiqlar bayrami kuni deb belgilandi. 2006 yildan bu tanlov “Yagonasan, muqaddas Vatan!” nomi bilan o’tkazib kelinmoqda. Eng quvonchlisi ushbu tanlovda ishtirok Namangan davlat universiteti musiqasana’atlimi talabalar uch yil davomida faxrli o’rinlarni egallaganlar. “O’zbekiston – ona yurtim”, “Vatan - yagonadir”, “Mustaqillik - gullari”, “Nihol” mukofoti kabi tanlov va festivallarning o’tkazilishi ko’plab iste’dodlarning kashf etilishida katta tayanch vazifasini o’tadi. 1997-yil 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatining “Sharq taronalari” xalqaro musiqasana’at festivalini o’tkazish to’g’risidagi qarori musiqasana’atining noyob

namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturil amal bo'lib xizmat qilmoqda.

1997-yil 25-avgust -2-sentabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan "Sharq taronalari" birinchi halqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlardan ijrochilar, san'atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdilar. Festivalda yangragan o'zbek ohanglari kuy va qo'shiqlari ma'naviyati yuksak bo'lgan xalqimizning o'tmishi va buguni haqida jahonga baralla aks sado berdi...

Yurtimizda hech bir to'ylar, tadbirlar, bayramlar musiqasiz o'tmaydi. Birgina Navro'zda kuylanadigan Yor-yor, Kelin salomlar xalqimizning boy ma'naviyati yuksakligidan darak beradi. Hech nazar solganmisiz, g'olib bo'lgan sportchilarni shoxsupaga ko'tarilar chig'ri o'z davlat madhiyasini tinglaganida va kuylaganidagi yuz-ko'zidagi quvonch, hayajonda vatanparvarlik yaqqol namoyon bo'ladi. Ilohiy san'at turi bo'lgan musiqa o'zi bilan birgalikda do'stlik, vafo, sadoqat, mehnatkashlik, vatanparvarlik, muhabbat, e'tiqod kabi tushunchalarni singdiradi va shu orqali tarbiyalaydi. Insonning qanday musiqani tinglashiga qarab uning ma'naviy qiyofasini, ruhiy olamini ko'ra olamiz. Shu o'rinda, bugungi kunda eng dolzarb muommalardan biri musiqaga befarqlik, musiqiy savodsizlik, va unga xurmatsizlikning avj olishidir. Ertangi yosh avlodni ma'nan yetuk, jismonan baquvvat, ruhan tetik bo'lishida musiqiy savodning o'rni beqiyosdir. Hazrat Rumiy aytganlaridek "Ko'ngil hush ohangdan quvvat, ruh esa hush ovozdan oziq oladi." Musiqiy ohanglarda hayotning go'zal tomonlarini ko'rsatish bilan yoshlarning ongidagi ma'naviy bo'shliqni to'ldirishimiz kerak. O'tmishi boy, buguni orzu va maqsadlarga to'la, kelajagi porloq bo'lgan yurtimizning yoshlari mustaxkam poydevor sanaladi. Zero, ertangi kun biz yoshlarniki ekan, yaratilayotgan imkoniyatlarga o'zimizning istedod va qobilyatimiz bilan, bobolarimiz me'rosiga hurmat va sadoqat bilan javob qaytarishimiz kerak.

Dildan ne so'rasak, beradi xudo,

Eltadi buyuklik qoyalariga.

Yakdil hizmat qilsak, etsak jon fido,

Arziydi istiqlolning g'oyalarga.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz ma'naviy qadryatlarni tiklash, asriy ananalarni ro'yobga chiqarishni, milliy o'zlikni anglashni xalqni ma'naviy ildizlaridan qaytishdan musiqaga va uning ta'limiga katta e'tibor qaratishdan boshlashimiz kerak. Chunki, O'zbek xalqi o'zining qadimiy musiqa, qo'shiq va raqs san'atlari bilan mashhur bo'lgan. San'at ustalari, bastakorlar tomonidan yaratilgan noyob asar durdonalari xalqimizning go'zallik va ezgulik ruhida tarbiyalashda muhim omil sanaladi. *Bizning kelajagimiz - mamlakatimizning kelajagidir. Shunday ekan, bizlar yurtboshimiz ta'birlari bilan aytganda, har tomonlama kamol topishimiz dono, sog'lom va albatta baxtli bo'lishimiz shart.*

Zero, ertangi kun bizniki- marra bizniki!

Qadimgi davlatlarda ayol huquqlari

Xamidjanov Sherzod

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ayollar inson hayotini go'zallashtiruvchi mavjudlik hisoblanadi. Ularni asrab avaylash esa o'z hayotimizni asrab-avaylash hisoblanadi. Chunki, ayollar hayotimiz davomchilari bo'lmish kelajak avlod yaratuvchilari, tarbiyachilaridir.

Ayollarni avaylash borasida diniy ta'limotlarda, jumladan «Avesto»da, musulmon huquqi asosi bo'lmish «Qur'oni Karim»da, buyuk shaxslarimiz ta'limotlarida, jumladan, buyuk sarkarda va davlat boshlig'i A. Temur «Tuzuklari»da va boshqa manbalarda ko'rsatmalar mavjud.

Ayollar huquqini himoya qilish tadqiq etilishida davlatchilik tarixida ayollarga bo'lgan munosabatlarga, ayollar huquqi masalasidagi diniy va dunyoviy ta'limotga nazar tashlaylik.

Ayollar himoyasi diniy manbalarda yoritila boshlangan. Masalan, Zardo'shtiylik huquqining yirik tadqiqotchisi A. Perixanyan Avestoda «ayollar emansipatsiyasining ayrim elementlari paydo bo'lganligini»ni qayd etadi⁸¹. Ayol kishi shaxsiy mulkka ega bo'lish huquqiga ega bo'lib, undan xayriya maqsadlarida mustaqil foydalanishi mumkin bo'lgan; shuningdek, mustaqil ravishda da'vogar bo'lishi va guvoh sifatida ko'rsatmalar berishi mumkin bo'lgan.

Nikoh zardushtiylik huquqida unga kiruvchilarning ikki tomonlama xohishi natijasi bo'lib, faqat shundan keyin ota-onalar va vasiylar tomonidan tasdiqlangan⁸². Nikoh shartnomasi muayyan muddatga tuzilgan (odatda-10 yilga), ushbu muddat tamom bo'lgandan keyin, u har ikki tomonning qaroriga ko'ra yangitdan tuzilgan. Oila monogam bo'lgan. Garchi er xotinini uning roziligisiz boshqa erkak bilan vaqtincha nikoxga kirishga berishi mumkin bo'lsa ham, biroq, xotin ushbu nikoxdan orttirgan barcha bolalarni o'zining qonuniy bolalari va merosxo'rlari deb tan olishga majbur bo'lgan⁸³. Agar er sudda o'z xotinini bo'ysunmaslikda ayblagan taqdirda ham ayol kishiga o'zini himoya qilish huquqini saqlab berganlar. O'zaro qarindoshlar oila qurishi ma'n etilgan. Qavm toza bo'lishi uchun ayol mas'ul hisoblangan. Ko'p bolali ayollarga nafaqa tayinlangan, bir yo'la 2-3 ta bola tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor deb uqtiriladi⁸⁴.

Qadimgi davrda davlatlar onasi hisoblanmish Misrda dastlab matriarxat qoidalari saqlanib, davlatchilik rivojlanishi bilan ham ayollar huquqlari yuqori

⁸¹ Perixanyan A. Obshestvo i pravo v Irane V parfinyanski i sosanidskiy periody. M.1993 st. 87

⁸² Ganbarov S. G. Politicheskie i pravovie idei v Aveste: Avto-ref. Dis. Kand. Yurid. Nauk-Baku. 1992. s. 12

⁸³ Perixanyan A. Obshestvo i pravo v Irane V parfinyanski i sosanidskiy periody. M.1983 st. 88

⁸⁴ Xusanov O va boshqalar. Inson huquqlari. T., «sharq». 1997 yil 19- bet

darajada saqlangan. Ayollar «uy bekasi» deb nomlangan. Ayollar nikoh shartnomasi tuzishlariga yo'l qo'yilgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, «Xotin mulkining saqlanishini ta'minlash maqsadida uning batafsil ro'yxati tuzilgan va erining barcha mulki garovga qo'yilgan. Ba'zan er xotiniga oilaning butun boyligini o'tkazgan. Bunday shartnoma, albatta, vazirning tasdig'idan o'tishi lozim bo'lgan⁸⁵». Bu qoida ayollarga nisbatan yuqori darajada ayollar huquqini himoya qilish sanalib, hatto ayollar o'z xohishi bilan nikoxni bekor qilishi mumkin edi. Qadimgi ikki daryo oralig'ida joylashgan Mesopotamiyada esa ayollar huquqi bir muncha cheklanganligini kuzatishimiz mumkin. Ayol nikoh tuzishida ota-onasi muhim rol o'ynagan. Xotin muayyan huquqlarga ham ega bo'lib, mulkiy bitimlar tuza olgan xunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan. Ayollarga nisbatan erlar hukmronligi o'rnatilgan bo'lib, er qarzi uchun xotinini uch yilgacha kreditorga ishlab berish uchun bera olgan.

Qadimgi Xindistonda Manu qonunlariga binoan ayollar bolaligida otasining, yoshligida erining, eri o'lgandan so'ng- o'g'illarining hukmida bo'lgan, shunga ko'ra «ayollar hech qachon mustaqil bo'lishga layoqatli emaslar», ayollar-bola tug'ish va oila haqida g'amho'rlik qilish uchun yaralgan, deb hisoblangan. (Manu qonunlari, IX bob, 27-modda)

Xitoyda ayollar huquqini cheklash shu darajada bo'lganki, qizlar yoshligida oyoq barmoqlari tikib qo'yilgan va ota qaramog'ida saqlangan. Turmushga chiqqan ayol «bir xotinga bir er» tamoyili asosida yashagan. Ayollar zimmasiga juda ko'p ma'naviy majburiyatlar yuklangan bo'lib, vafot etgan qarindoshlar uchun motam libosida yurish lozim bo'lgan. Bu qoida buzilishi jinoyat hisoblangan.

Qadimgi Yunonistonda ayollar huquqlari past darajada bo'lib, ularga hech qaysi sohada huquqlar berilmagan. Davlat boshqaruvida ishtirok etish maqsadida ayollar birligi tashkil etilganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lib ular GETRALAR deb nomlangan va ular hokimiyatni qo'lga olish uchun harakat qilganlar. Hozirgi kunlardagi amazonkalar haqidagi afsonalar ham Yunonistondagi ayollar birligi haqidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Aristafon o'zining «Ayollar xalq yig'inida» nomli komediyasida Afinadagi patriarxal davlat boshqirishiga qarshi ayollarning bosh ko'ratib chiqqanligini tasvirlaydi⁸⁶. Asar bosh qahramoni Praksagora erkaklar kiyimidagi ayollar ishtirokida xalq yig'ini uyushtiradi. U shunday deydi:

Qayg'u bilan, achinish bilan
Davlat tanazzulin kuzatman men,
Shaharni yaramaslar boshqarib,
Kim ikki marta poklik ko'rsatsa,
U o'n karra aldoqchi, makkor chiqadi.
Oxirida u taklif qiladi:
Taklif bor- boshqarish tizgini endi

⁸⁵ Muhamedov. H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. T., Adolat., 1999 yil. 71- bet

⁸⁶ Mamadaliev O. Sh. «Xalq hokimiyati». T., O'z.R. IIV akademiyasi.2003 yil 22- bet.

Ayollar qo'lida bo'lsin. Axir

Pul, xo'jalik, uyni ularga ishonamiz-ku⁸⁷

Spartada ayollarga nisbatan hurmat bilan qaraganlar. Ular mulkiy huquqlardan foydalanishgan.

Qadimgi davlatchilikda ayollar ko'p hollarda siyosiy huquqlardan mahrum ekanliklarini kuzatishimiz mumkin.

Ayniqsa, Rim imperiyasida ayollarga nisbatan mulk kabi qarashlar mavjud bo'lgan davrlar ham bo'lganligini tarixiy ma'lumotlar ko'rsatib turibdi. XII jadval qonunlari erning xotin ustidan to'la hukmronligini belgilaydi. Lekin xotin, agar mustaqil oila bo'lmasa, ko'pincha uy xo'jayinining (erning otasi) hukmronligi ostida bo'lgan. Bu holatga agnatlar oilasi deb nom berilib, ayol o'z oiladoshlari (kognatlar) bilan to'la aloqani uzgan, yangi uy xo'jayinining hokimiyati ostiga tushgan va erining oila a'zolari (agnatlar) bilan qarindoshlik munosabatlarida bo'lgan. Er yoki uy xo'jayini uning ustidan cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan. Uni sotishi, qulga aylantirishi yoki o'limga maxkum etishi mumkin bo'lgan. Qadimgi davrda erning hokimligini cheklovchi yuridik me'yorlarning yo'qligi erning xotinidan o'zboshimchalik bilan, qarindoshlarning, ba'zan esa xotini kognatlarining maslahatisiz foydalanish mumkin degan emas edi⁸⁸.

Yuridik fanlar nomzodi O. Ernazarov tomonidan Rimda xotinlar «Rim davlatining dastlabki davrlarida erning hokimiyati cheksiz, xuddi mutloq monarxiyadagidek bo'lgan, lekin xo'jalik hayotining rivojlanishi va madaniy turmushning takomillashishi natijasida er hukmronligi, uning hokimiyati ancha cheklanib xotinni o'ldirish yoki ijaraga berib yuborish kabi huquqlar to'la yo'qola boshladi.

Sine mani asosida tuzilgan nikoh munosabatlarida xotin kishi o'zining haqiqiy otasi hukmronligida qolib, oldingi oilasiga mansub bo'lib, mustaqil asosda o'zining huquqiy holatini saqlab qolgan⁸⁹...»

Yahudiylarda ayollar huquqlari boshqa diniy ta'limotlardagidan farqli ravishda nasl onaga qarab belgilanadi. Lekin oilada erkak yuqori darajada turadi. Ayollarning boshqa sohadagi huquqlari din ta'limotlaridagi kabi belgilangan bo'lib, iqtisodiy huquqlar berilgan. Ayol er qaramog'ida bo'lib, u e'tiqod etgan barcha amallarga bo'ysunishi kerak hisoblangan. Hatto eri vafot etsa, erining onasi ruxsatisiz oiladan ketishi mumkin emas deb hisoblanadi. Masalan, Bibliya muayyan qismini tarjima qilgan O'zbekistondagi bibliya jamiyati tomonidan chiqarilgan «Rut, Yunus, Ester» deb nomlangan manbada Naima ismli yahudiy ikki o'g'li vafot etganda kelinlariga ketish uchun ruxsat berishi, lekin Rut ismli kelini Naima bilan Mo'ab nomli yurtga birga ketishi, Mo'ab yurtida Naima kelini Rutni shu urug'ning mas'ul himoyaga oluvchisiga

⁸⁷ Aristofen. Komediya. T.2. M.: Iskusstvo, 1983 s.333

⁸⁸ H. Muhamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. Toshkent., "Adolat", 1999 yil. 314- bet

⁸⁹ Ernazarov O. Rim huquqi. Namangan 2004 yil 80-bet

turmushga berishi ko'rsatib o'tilgan. Ana mas'ul shaxs Boz ismli kishi Naimaning eng yaqin qarindoshlarini yig'ib uning mol – mulkini sotib olishni taklif etadi. Lekin boshqa qarindoshlar Bozga ruxsat berishadi, shunda Boz oqsoqollarga qarab, «Sizlar guvossiz men elimalikdan Xilyon va Maxlo'nga qolgan hamma mulkni Naimadan sotib olyapman. Yana Maxlunning xotini mo'ablik RUTni ham o'z nikohimga olyapman, toki marhumning nomi o'z mulkida qolsin, birodarlari orasida va kindik qoni to'kilgan yurtida nomi yo'qolib ketmasin⁹⁰», - deydi. Ushbu ma'lumotlar Bibliyadan olingan bo'lib, ayollar huquqlari himoyasi masalasi ko'rsatib o'tilgan. Demak xulosa qilish mumkin-ki, ushbu diniy ta'limotda butun urug'dagi ayollar huquqlari shu urug' vakillari tomonidan himoya qilingan. Bu holatni Ester bilan bog'liq ma'lumotlarda ham kuzatish mumkin.

Milodiy asr boshlanishi Iso payg'ambar bilan bog'liq hisoblanib, miloddan avvalgi va milodiy davrdagi davlatchilikda ayollarga bo'lgan munosabat diniy ta'limotlarda ham o'z aksini topgan. Jumladan, xristianlikda yakka nikohlik munosabatlariga e'tibor berilib, ayollar er qaramog'ida bo'lishi to'g'risida ta'limotlar mavjud. Diniy ta'limotlarga binoan ayol kishining siyosiy huquqlar cheklangan. Lekin ijtimoiy mavqeiga qarab ayrim toifadagi ayollar siyosiy huquqlari ham bo'lgan. Masalan, katta yerga egalik qiluvchi shaxslar vafot etganda uning mulkini boshqarish, hatto davlatlarni boshqarish masalasi ham ayollarga berilgan.

O'rta asr davlatlarida esa ayollarga nisbatan bir muncha iqtisodiy huquqlar berilganligini kuzatishimiz mumkin. O'rta asr Yevropa markaziy va sharqiy qismi umuman Franklar, Frantsiya, Germaniya va Angliya davlatlarida ayollar huquqlari o'rganib chiqilganda, ayollarda faqat iqtisodiy huquqlar mavjud bo'lganligini, lekin siyosiy va boshqa sohalardagi huquqlar cheklanganligini kurishimiz mumkin.

Tarjimada komplementar aloqa

Dilafruz Sarimsaqova

NamDU o'qituvchisi

Tarjimachilik amalida ko'proq qiyosiy adabiyotshunoslik nazariyasida *matniy, komplementar* [<lot. *complementum* – qo'shimcha] *aloqa* degan tushuncha bo'lib, bunda prototekst – asliy matn ma'nosini to'la saqlab qolish uchun matn xususiyatidan kelib chiquvchi qo'shimchalar – qayd, izoh, muallif yoki tarjimon so'z boshisi yordamida matnlararo munosabat o'rnatiladi. Bu hodisa professor Dioniz Dyurishinning barcha ilmiy tadqiqotlarida yaxshi rivojlantirilgan. “Temur tuzuklari”ning hozirgi o'zbek va rus tillariga qilingan tarjimalari matniy qo'shimchalar bilan mo'l ravishda to'ldirilgan. Ulardagi qaydlar, matn osti izoh va so'z boshi akademik B. Ahmedov tomonidan yozilgan. Tuzuklardagi matniy qo'shimchalar XIV asr Movarounnaxr tarixiga

⁹⁰ Rut, Yunus, Ester O'zbekiston Bibliya jamiyati.T., 2001 yil. 20 bet

oid axborotlarni kitobxonga to'liqroq yetkazishga xizmat qiladi. Xuddi shuningdek holatni ingliz-irland yozuvchisi J. Joysning "Navqiron san'atkorning siyrati" romani tarjimasida ham ko'ramiz. Muqaddas kitoblardan olingan iqtiboslar, din arboblarning hayoti va faoliyatiga ishora asosiy matnga qo'shimcha tarzda o'quvchi bilim saviyasini kengaytirishga xizmat qiladi. Romanda hazrat Dolan sinfga kirib, Stiven va uning kollejdoshi Flemingni jazval bilan urib nohaq jazolaydi va *ertaga* yana, yana, yana, *har kuni* kelishini ta'kidlaydi. Bu vaziyat V. Shekspir tragediyalaridan biridagi qonxo'r Makbetning aqlan ozgan xotiniining o'lganini eshitib aytgan monologidagi so'zlarni eslatadi:

B. Pasternak tarjimasini:

Не догадалась умереть попозже,
Когда б я был свободней, чем сейчас!
Мы дни за днями шепчем: «*Завтра, завтра*».
Так тихими шагами жизнь ползет
К последней недописанной странице.

J. Kamol tarjimasini:

Bir kungina keyin o'lsa nima qilardi!
Noxush-noxush xabarlarga hushim yo'q bugun.
Hamma ish shundoq. *Ert*a, *erta*, *ertaga*...
Kunlarimiz ivirsib o'tar...

M. P. Bogoslovskaya-Bobrova Makbetning so'zlariga ishora qilib, tarjima qiladi: "*Завтра, и завтра, и еще завтра*, – сказал инспектор. – Запомните это хорошенько. Отец Долан будет приходить каждый день".

Romanning asliy matnida Makbetning quyidagi so'zlariga ishora qilinadi:
She should have died hereafter;
There would have been a time for such a word.
Tomorrow and tomorrow and tomorrow,
Creeps in this petty pace from day to day

Shekspir ham, Boris Pasternak ham, Jamol Kamol ham, Sa'dulla Ahmad ham, Bogoslovskaya-Bobrova ham – hammasi Ahmadjon Otaboevday *ertagayam*, *indingayam*, *indinigayam* (zavtra, poslezavtra, posleposlezavtra) deb yozganlarida qanday bo'lardi ekan?

Aslida muallifning shaxsiy uslubi jilolanmaydi ham, yangilanmaydi ham, tuzatilmaydi ham. Shunga zarurat bo'lsa, buni uning o'zi bajaravergan bo'lardi. Tarjimaning bu yo'sini qadimdan amalda. Tarjima bo'lish-bo'lmaslik muammosi Dante (1265-1321) va Servantes (1547-1616) ning boshini qotirgan: "nomukammal" asliyatni "qiyomiga yetkazib" ag'darish mutlaqo mumkin, deyishgan ular. A. F. Taytler esa tarjima tamoyillari haqidagi (Tytler A. F.

Essay on the Principles of translation. London, 1791) asarida asliy matnga nisbatan to'la erkinlik, hatto uni bezab o'girish mumkinligini yoqlab, zamondoshi A. Pop qalamiga mansub, mazmun va uslub jihatidan mutlaqo o'zgartirib o'girilgan "Odissey"ning tarjimasini yuksak baholagan. Endi bu 200 yil muqaddam. Ammo hozirgi o'zbek adabiyotida ham bu "kasallik" uchrab turadi. Masalan, E. Vohidov o'zgacha, A. Oripov o'zgacha shoir. Tilak Jo'ra – boshqa bir Dunyo, Oydinniso – o'zgacha olam. Ular yaxshilash, tuzatish, yangilashga muhtoj emas.

Tarjima san'ati – san'atlar san'ati. Muallif qalbidagi, o'yi-fikridagi so'zni topaman deb qanchalik azob chekasan: kechalari bedor lug'at titkilaysan, hamkasblaringga qo'ng'iroq qilasan, internetga murojaat qilasan, soha ustalariga borasan, xullas orom bilmaysan. Lekin bu naf, tama, manfaat deb emas, sidqu dildan, berilib, xatto o'zini unutib bajariladigan ijodiy ish. Azob, lekin bu farahbaxsh azob. S. Husaynning fikricha, badiiy tarjima sohasida shunga erishmoqlik kerakki, har bir yozuvchi biron badiiy asarni tarjimaga olar ekan, unga xuddi original asar yozayotganday sevib kirishsin. Badiiy tarjima – badiiy sharaflilik ish bo'lib, bilim va san'atkorlik talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raev K. Modern adabiyot. Andijon, 2006.
2. James Joyce. A Portrait of the Artist as a Young Man. // Portret yunogo xudojnika. M. Bogoslovskaya-Bobrova tarjimasi M., Terra", OCR & spellcheck by HarryFan, 24 November 2000.
3. Jeyms Joys. Navqiron san'atkorning siyrati. // Ruschadan Ahmad Otaboy tarjimasi. Jahon adabiyoti, 2007, №№ 3-4

O'zbekistonda bola huquqlarini ximoya qilish bo'yicha amalaga oshirilayotgan chora-tadbirlar

*O. Chuboyeva - NamDU katta o'qituvchisi,
To'xtaboyev A - Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarning asosini davlatimizni rivojlantirish va taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga olib chiqishga qaratilgan siyosat tashkil etadi. Yurtimizni rivojlantirish uchun uning asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlar huquqlarini himoya qiluvchi me'yoriy-huquqiy normalar tizimini ishlab chiqish lozim. Avvalo jamiyatning ma'naviyatini ko'tarish va yuksak ma'naviyatga erishish uchun huquqiy bazani yaratish va jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish kerak. Bu holatga erishish uchun mamlakatimizda juda ko'plab bu sohada qonunlar qabul qilinib amaliy hayotda o'zining tasdig'ini topib bormoqda.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'tgan davr maboytida O'zbekistonda 100 ga yaqin yoshlarga doir qonun hujjatlari qabul qilindi. 2008 yilni esa Prezidentimiz tomonidan «Yoshlar yili», 2010 yilni «Barkamol avlod yili», 2011 yil «Ona bola yili» 2016 yil «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilindi. Bola huquqlariga doir halqaro huquq normalari esa milliy qonunchiligimizda o'z aksini topdi.

1992 yil 9 dekabrda O'zbekiston Respublikasi qonunlari safiga qo'shilgan ilk xalqaro huquqiy hujjatlardan biri ham – bola huquqlari to'g'risida Konventsiya bo'ldi.

Mazkur xalqaro hujjat normalari milliy qonunchiligimizga to'la implementatsiya qilingan. Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiya normalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqorolik, Oila, Mehnat, Jinoyat protsessual kodekslarida «O'zbekiston Respublikasida Davlat yoshlar siyosatining asoslari to'g'risida»gi «Ta'lim to'g'risida»gi «Fuqorolik to'g'risida»gi «Fuqarolarning sog'ligini saqlash to'g'risida»gi «Nogironlarni sog'ligini saqlash to'g'risida»gi qonunlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'plab farmon va qarorlari, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» va «Ijtimoiy himoya yili dasturi» hamda Respublika Hukumatining bola huquqlarini kafolatlovchi qarorlarda o'z aksini topgan.

Qonun hujjatlari ijrosi samarasi o'laroq O'zbekistonda bolalar huquqini himoya qilish borasida o'ziga xos iinstitutsial tizim yaratildi. Respublika Bosh prokurori rahbarligida va joylarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari tuzuldi. Ichki ishlar vazirligi qoshida voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish vazirligi qoshida voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish Markazi tashkil etildi. «SOS-O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi», Bolalar jamg'armasi, «Sen yolg'iz emassan», «Sog'lom avlod uchun» jamg'armalari, «Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi» kabi jamoat tuzulmalari, Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati ham shular jumlasidandir.

Qolaversa mamlakatimizda bola huquqlarini kafolatlashga qaratilgan amaliy ishlarining samarasi o'laroq 2008 yil 7 yanvar kuni «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning Prezidentimiz tomonidan imzolanishi ayniqsa quvonarli bo'ldi.

O'zbekiston milliy qonunchiligidagi bola huquqlariga doir mavjud normalar bu qonun ishlab chiqilishi jarayonida jamlanib, yaxlit holga keltirildi hamda zarur jihatlari takomillashtirildi, shuningdek Yangi normalar bilan to'ldirildi.

Qonunda bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlariga jiddiy ahamiyat berilgan. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, hayoti va sog'lig'ini himoya qilish masalasi davlat siyosatining ustvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek bolaning sha'ni va qadr qimmatini himoya qilish, huquqlari va imkoniyatlari tengligini ta'minlash, bola huquqlari kafolatlarining huquqiy

asoslarini takomillashtirib borish masalalariga doir huquqiy normalar alohida moddalarda o'z aksini topgan.

Bolaning hayoti, ta'lim–tarbiyasi, ma'naviy va axloqiy kamolati, ularning barkamol o'sib ulg'ayishiga daxldor barcha masalalar davlatimizning muhim vazifalaridan biri sifatida o'ziga xos huquqiy maqom kasb etadi.

Bolalarning ramziy konstitutsiyasi, deb atash mumkin bo'lib bu qonunda bola huquqlari kafolatlariga doir normalar uning tamal toshi hisoblanishini alohida e'tirof etish joiz. Shunisi diqqatga sazovarki, qonunda bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqiy, g'ayriqonuniy ko'chirilishdan himoyalanih huquqi, o'z fikrini ifoda etish, axborot olish, so'z vijdon va e'tiqod erkinligi huquqlari kafolatlari, shuningdek xususiy mulkka, turar joyga bo'lgan huquqi, sog'lig'ini saqlashga, bilim olishga, xullas bolalar turmushi va hayot tarzining barcha sohasiga dahldor bo'lgan huquqlari to'liq kafolatlangan.

Bu normalarni mamlakatimizda qonun bilan kafolatlangan yangi bola huquqlarining yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat desa bo'ladi.

Shu o'rinda, alohida e'tirof etish joizki, mazkur qonunlar orqali bola huquqlari kafolatlarining izchil ta'minlanishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bola huquqlari doirasidagi amaliy ishlar samarasini yuksak darajaga ko'tarishga va sohadagi munosabatlarni kafolatli asosda tartibga solishga xizmat qiladi.

Yoshlarga doir davlat siyosati yo'nalishidagi qonunchilikka bu qadar jiddiy e'tibor berilayotganligi yurtimizda yoshlarga bo'layotgan e'tibordan, qolaversa mazkur yo'nalishdagi davlat siyosatining huquqiy asoslari nechog'li mustahkam bo'layotganligidan dalolatdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahriridagi loyihasini; «Bola huquqlari bo'yicha vakil to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini tayyorlashni yoshlarga doir qonun ijodkorligi sohasidagi dolzarb vazifalardan desa bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda millatimizning kelajagini belgilab beruvchi yoshlarning barcha huquq va erkinliklari qonun yo'li bilan kafolatlangandir. Shu bois to'la ishonch bilan aytishimiz mumkinki yuksak ma'naviyatni jamiyatimizda yoyib millatni yengib bo'lmaydigan darajaga erishish imkoniyatiga egamiz.

Globallashuv jarayoni milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi

Xurshid Mirzaxmedov - Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi,

Lola Mo'minova - Namangan davlat universiteti talabasi

Globallashuv XXI asr jahon taraqqiyotining ob'ektiv qonuniyatlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama

bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishi mumkin. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga mavjud milliy mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

"Globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida butun insoniyat, er yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti, ayniqsa, yosh avlod uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratib berganini hech kim inkor etolmaydi. Avvalambor, fan va texnikaning ilg'or yutuqlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet tizimi barcha chegaralarni ochib berib, o'zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga so'zsiz katta hissa qo'shayotganiga bugun barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz.

Lekin odamzot tafakkurining yuksak va yorqin namoyoni bo'lgan bunday yutuqlar ayni paytda katta kuch-quvvat va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan ayrim siyosiy kuchlarning g'araqli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlatilayotganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Odamlarning, birinchi navbatda yoshlarning ongu tafakkurini, ma'naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan bunday urinishlarning asl mohiyatini, ularning uzoq va davomli, salbiy oqibatlarini anglash va bunday xavf-xatarlarning oldini olish bugungi kunda o'ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda",- deb yozadi Muhtaram Prezidentimiz o'zining "Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish" kitobida.

Jamiyat xayoti muayyan g'oya va mafkura bilan bog'liq bo'ladi. Unda jamiyat oldida turgan maqsadlar o'z ifodasini topadi. Ikkinchidan, globallashuv jarayonlari milliy g'oyaga bo'lgan ixtiyojni oshiradi. Bu uning negizlarini asrab-avaylash va yangilab, rivojlantirib borishini taqozo etadi. Bugungi globallashuv jaroyoni ijtimoiy xayot saxolariga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. U o'ziga xos o'zga rishlarga sabab bo'ladi. Bu o'zgarishlar qaysi soxalarga, qanday darajada ta'sir ko'rsatayotganligini bilish muxim.

Globallushuv jaroyanlarida manaviy tahdid ko'rinishlari:

- yot g'oya va mafkuralar, g'oyaviy bo'shliq;
- "ommaviy madaniyat", manaviy va axloqiy tubanlik;
- axloqiy buziqlik va zo'ravonlik;
- milliy-manaviy qadriyatlarga bepisandlik;
- axloqsizlikni madaniyat deb bilish hamda asl manaviy qadriyatlarni mensimaslik;
- yoshlarda milliy-manaviy qadriyatlarga bepisandlik bilan qarash xissini uyg'otish.

Manaviy tahdidning oldini olish omillari quyidagilar:

- mustaqil fikrga ega bo'lish, mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- ona-vatanga muxabbat, boy tarixiy merosimizni xurmat qilish;
- milliy o'zlikni anglash, fan-texnika yutiqlaridan ezgu maqsad sari foydalanish;

- dunyo taraqqiyotida erishiyotgan yutuqlar va unga tayanishdan iborat.

Ana shu masalalardan eng muhimlari yoshlarda ma'naviy-g'oyaviy salohiyatni rivojlantirish, yoshlarni zararli ta'sirlardan himoya qilish, ularni milliy merosimiz, qadriyatlarimiz, ananalarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy g'urur, iftihar, millat manfaatlariga sadoqat ruhiyatini shakllantirish, mustaqillikning jonkuyar fidoiy insonlariga aylantirishdir. Globallashuv sharoitida turli millatlar va madaniyatlar o'rtasida o'zaro ta'sir va bog'liqlik kuchayadi. Ana shu sharoitda o'zligini yo'qotmasdan, milliy manfaatlar ustunligini xis qilgan xolda xarakat qila oladigan yoshlarni tarbiyalash ustuvor vazifadir. Buning uchun esa asosiy e'tibor shubhasiz ma'naviy tarbiyaga berilishi kerak. Bola rivojlanishining xar bir bosqichida uning yoshiga mos usulda ma'naviy-axloqiy tarbiya berib borilishi shart.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri xususida Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman».

Shuning uchun ham milliy istiqloq g'oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda, «dovullar»dan saqlash omili ekanligini anglash mumkin.

Milliy istiqloq g'oyasini targ'ib qilishda ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy yondashuv ma'rifiy yondashuv bo'lsa ham bu jarayon milliy istiqloq g'oyasining xususiyatlari bilan bog'liq. Jahondagi globallashuv jarayonlari ana shu g'oyaga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytiradi. Aslini olganda, globallashuv jarayoni bo'lmasa, milliy g'oyaga ham ehtiyoj oshmas edi. Chunki globallashuv bo'lmaganda har bir xalq va millatning ma'naviyati o'zicha mavjud bo'lar va imkoniyat darajasida rivoj topardi. Tashqi ta'sir va tahdidning yo'qligi esa milliy g'oyaga ehtiyojni ham dolzarblashtirmas edi.

Milliy g'oyaning mohiyati shundaki, u odamlar ongida, xotirasida g'oyaligicha qolmay, amaliyotga, hayotga aylangan taqdirdagina haqiqiy milliy va haqiqiy istiqloq g'oyasi bo'lishi mumkin. Shundagina u globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatni va ma'naviy o'zlikni tashqi nosog'lom g'oyaviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi.

Globallashuv jarayonida milliy g'oyaning eng muhim funktsiyasi, ya'ni milliy va ma'naviy o'zlikni himoyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Aslida milliy g'oyaning 1) bilish; 2) tarbiyaviy; 3) regulativ; 4) kommunikativ; 5) normativ, qadriyatli; 6) safarbar etish, yo'naltirish; 7) himoya; 8) g'oyaviy bandlik kabi funktsiyalarni bajarishi uchun yoshlar va aholi ongida faqat bilim, tasavvur sifatida emas, ishonch va e'tiqod sifatida shakllanishi lozim.

Bugungi tezkor globallashuv jarayonida ma'naviyatni saqlab qolishning yagona chorasi insonning qoniga, joniga ma'naviyatni singdirishdir. Xo'sh, bu qanday amalga oshiriladi?

Bu muhim vazifaning umumiy yo'nalishini Yurtboshimiz shunday belgilab bergan: «Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo, ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da'vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi». ¹

Tarbiyaning eng samarali usullaridan biri o'rnak bo'lish orqali ta'lim berishdir. Ya'ni, yoshlarimizga tarbiya beradigan mutaxassislar, ustoz-tarbiyachilar, avvalo, o'zlari tarbiyalangan bo'lmoqlari va yoshlarga oliy namuna maktabi vazifasini o'tamoqlari lozim. Ma'naviyat tarbiyachining yurish-turishida u furib tursa, u milliy urf-odatlariga sodiqlik, qadriyatlarga hurmat ko'rsatsa va bunga o'z hayotida amal qilsa, ko'zlangan maqsadlarga erishish samaraliroq bo'ladi.

Bu borada vatanparvarlik, ezgulik, xayr-saxovatni tarannum etuvchi badiiy asarlar, filmlarning ham o'rni beqiyos. Agar film yoki badiiy asar yuqori sifatli bo'lsa, uning ijobiy ta'siri boshqa har qanday vositadan kuchli bo'lishi shubhasiz. Yoshlarni sport ishlariga muntazam jalb etish ham yuqori samara berishi ma'lum. Do'stlik, vatanparvarlik g'oyalarini singdirishda sportdan o'tadigani yo'q. Ma'rifiy ishlar bilan birga sport musobaqalarini barobar olib borish yoshlarimizning ham jismonan, ham ma'nan sog'lom bo'lishlarini ta'minlaydi. Bu tadbirlarni erta, imkon bo'lsa, bog'cha yoshidan boshlash kerak. Chunki bu davrda murg'ak qalblarga yo'l topish oson bo'ladi. Ayni shu davrda ularda ma'naviyat immunitetini shakllantirish mumkin.

Yoshlarda bolalikdan boshlab sog'lom e'tiqod, yuksak ma'naviy dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma'rifatli, mustaqil fikirli va barkamol inson bo'lib voyaga yetadi. Chunki yoshlar jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amalyotning nomutanosibliigi holatlarini kuchliroq sezadilar. Shuning uchun yoshlarning oldida haqiqatni aytishdan cho'chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud muammolarni ochiq-oydin bayon etish lozim. Lekin ayrim ota-onalar farzandi tarbiyasini ta'lim muassasalari yoki jamiyat zimmasiga ag'darib qo'yib, o'g'il-qizi taqdiri bilan qiziqmay, "peshonasida borini ko'radi" deb loqaydlik qilishmoqda.

Xulosa qilinsa, milliy ma'naviyatimizni va ma'naviy o'zligimizni har qanday tahdidlardan himoya qilish uchun milliy g'oyadan samaraliroq va kuchliroq vosita yo'q. Shu masalada milliy g'oyaning juda muhim funksiyasi, bu milliy va ma'naviy o'zlikni himoyalashdir. Milliy g'oya ana shu funktsiyani bajarishi uchun yoshlar va aholi ongida faqat bilim, tasavvur sifatida emas, balki e'tiqod sifatida shakllanishi lozimdir.

Prizidentimiz I. Karimov takidlaganidek, "O'z milliy g'oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'z yo'lini yo'qotib qo'yishi muqarrarligini unutmangiz. Bu masalaning yana bir jihati shundaki, ongning tafovutini o'zgartirmasdan turib biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Millat o'zligini to'la anglagan taqdiridagina buyuk o'zgarishlar qilishga qodir bo'ladi".

Diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar

Meliboyev Ilhom

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ma'lumki tabiiy ofatlar asrlar davomida bashariyatga kuch-qudratini ko'rsatib, insoniyatni bu tahdidlardan doimo ogoh bo'lishga undab kelmoqda. Bu tabiiy ofatlar natijasida o'nlab, ba'zan yuzlab va minglab odamlar nobud bo'lgan. Ammo inson qo'li bilan yuzaga kelayotgan muammolarchi? Diniy ekstremizm, terrorizm, separatizm, g'iyohvand moddalarning noqununiy savdosi kabi illatlar. Bu muammolar oldida tabiiy ofatlarga qarshi kurash masalasi ham ikkinchi o'ringa o'tib qolmoqda. XX asrning 2-yarmida Sovuq urush davrida turli tuzilmalar vujudga keldi, ular nihoyasida yetakchi geososiy kuchlar uchun kerak bo'lmay qolgan. Bunday qurolli gurug'larning homiy davlatlar nazoratidan chiqishi, jangarilik tizimi vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Afg'onistonda 1980-yillardan uya qurib olgan mutaassiblar to'ldasining urchib ketishi oqibatida umumbashariy darajada tahdid tugdiruvchi kuch **Xalqaro terrorizm** shakllandi. XXI asr ibtidosida ham, jamiyat barqarorligi, xavfsizligiga tahdidlar majmuasida ma'fkuraraviy tahdidning tarkibiy qismiga aylangan diniy ekstremizm bosh omil va keng qo'llanilayotgan uslub sifatida o'zini nomoyon qilmoqda. Achinarlisi, bu hol Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonda ham bunday tahdidning yuzaga kelishi kishini havotirga soladi. Bunday tahdidlarning yuzaga kelishiga nima sabab bo'ldi? Qayta qurish davrida nafaqat siyosiy va iqtisodiy inqiroz balki, ma'fkuraviy parokandalik yuzaga keldi. Sovet imperiyasi barbod bo'lgandan so'ng esa, ma'fkuraviy bo'shliq o'zining xatarli oqibatlarini to'liq nomoy qildi. Sho'ro davrida shakllangan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari idorasi o'zgartirgan vaziyatga moslasha olmadi, unga yangicha mazmun mohiyat bag'ishlash yo'lidagi urinishlar besamar ketdi. U parchalanib, diniy idoralarda o'rtasidagi hamkorlik aloqa ulamolar o'rnini, soxta islomchilar egallay boshladi va islom asoslari buzib talqin qilina boshladi.

Diniy ekstremistik oqimlarning maqsadi: tinch osoyushda davlatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyat, inqiroz holatini keltirib chiqarish yo'li bilan hokimiyatni egallash va islomiy davlatni barpo etish. Ana shu maqsadga erishishga, har bir diniy ekstremistik tashkilot, o'ziga xos yo'l va uslublardan foydalanadi. Bunday tashkilotlarda biri ya'ni harakatlardan "Xizbut taxrir al-islomiy" 1953-yil Isrolida paydo bo'lgan

norasmiy siyosilashgan diniy partiya. Uning asoschisi “Al-ixvon al-muslimin”(musulmon birordarlari) diniy siyosiy ekstremistik tashkilot rahbarlaridan biri bo’lgan Taqiyiddin Nabbaxoniy (1909-1979) dir.

Nurchilar jamosi –XX sarning boshida Turkiyada tashkil topgan diniy-siyosiy tashkilot. Uning asoschisi shayx Sayyid Nursiy (1876-1960).

Bu partiyalarning maqsadi: hokimiyatni qanday qilib bo’lmasin qo’lga olish va mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o’ta diniy, mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat. “Hech qanday qonunga itoat qilmaydigan bu mutaassiblar, johilligi va vahshiyliги bilan inson qadri va qimmatini bir tiyanga olmasdan, maydonlarda odamlarni qiynab, ularga azob bergan bu johillar, butun dunyo xalqining nafratiga duchor bo’lmoqda” I. A. Karimov. Johillik va razolat botqog’iga bitishni hech kim istamaydi, ammo istamaslik bilan hamma ish bitmaydi. Bu botqoqqa yetaklovchi omillarga qarshi kurashmoq lozim. Kurashning eng ma’qbul yo’llaridan biri ma’rifat. Islomni chuqur anglah va bilish hamdir.

Hozir haqiqiy diniy bilim olaman deganlarga keng imkoniyatlar yaratilgan. Madrasalar, Toshkent islom mahadi va Toshkent islom universiteti kabi oliygohlar faoliyat ko’rsatib, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish borasida aniq amaliy ishlar qilinmoqda. Ko’rib turganimizdek jaholat og’ir oqibatlarini keltirib chiqaradi. Shunday ekan, odamlar qalbida va ongida ma’rifatni mutlaq ustuvor bo’lishiga erishish, kishilar tafakkurini boyitish, ularda sog’lom vas obit e’tiqotni shakllantirish uchun kurash, bu yo’ldagi nazariy va amaliy ishlarning hozirjavobligini ta’minlash, ta’sirchanligini oshirish, dolzarb vazifalardan biri bo’lib qolaveradi.

Yoshlar o’rtasida xuquqbuzarlikni oldini olish muammolari

*O. Chuboyeva - NamDU katta o’qituvchisi,
Abduvositov Mavlud - Milliy g’oya,
ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi
yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

Davlatimiz rahbari tomonidan 2016 yilni “Sog’lom ona va bola yili” deb e’lon qilinganligi, yoshlarga bo’layotgan e’tiborni yanada kuchayayotganligidan dalolat beradi. Ularni I jtimoiy, huquqiy, ma’naviy himoyasi uchun yaratilayotgan ijtimoiy bazani kuchaytiradi. Ayniqsa, dasturda belgilangan huquqiy asoslar shakllantirilishi yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklarni, jinoyatlarni oldini olishda asosiy mezonlarni takomillashtirishda zamin bo’ladi. Dasturda ko’rib chiqilgan masalalar Respublikaning har bir tumani va shahrida ishlab turgan xalq ta’limi maktabdan tashqari muassasalari va klub madaniyat muassasalari bazasida zamonaviy va zarur uskunalar bilan jihozlangan «Barkamol avlod markazi» tashkil etilganligi va yoshlarni bandligi muammolarni xal etishda, ularni tarbiyalashda, ularga bilim berishni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Chunki yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar, jinoyatlarni taxlil etilganda, qilmishlarning kelib chiqish shart-sharoitlari aynan ularni band etish chora-tadbirlarini noto'g'ri tashkil etilganligi holati ko'proq e'tiborni tartmoqda.

Jinoyat huquqida voyaga yetmaganlar tushunchasi mavjud bo'lib, bu toifaga Jinoyat qonunimiz 13 yoshdan – 18 yoshgacha bo'lgan yoshdagi jinoyat sub'ektlarini kiritgan, bu yosh tsenzi turli davlatlarda turlicha belgilangan bo'lsada, mamlakatimiz xududidagi xalqlarning o'ziga xos xususiyatidan, insonning jismoniy, ruhiy, ma'naviy, tibbiy, sotsiologik ommillardan kelib chiqib belgilanganidir⁹¹. Shunday ekan, voyaga yetmaganlar masalasi nafaqat kriminologiya va jinoyat huquqini o'rganish ob'ekti, balki falsafa, psixologiya, sotsiologiya, meditsina, politologiya fanlarini ham o'rganish ob'ektlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlar deyarli barcha davlatlarda umumiy jinoyatchilikning ozgina qismini tashkil qilganligiga bois kriminologiyada ko'pgina mualliflar tomonidan boshqa jinoyatlar bilan teng holda, umumiy asosda o'rganilgan. Lekin fikrimcha bu noto'g'ri yondashuv, chunki o'z-o'zidan ma'lumki, voyaga yetmaganlar har bir davlatning kelajagi, bugun ular qanday bo'lsa, ertangi davlatning kriminologik holati ham shunga bog'liq bo'ladi. Shu bois voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlarni kriminologiyasi alohida o'rganishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonuniga alohida bob (maxsus qismning 6-bobi) va bo'lim (umumiy qismida 6 bo'lim) bo'lib, voyaga yetmaganlarni qilmishi va jazo belgilashdagi qoidalarga alohida me'yorlar belgilangan. Lekin jinoyatlarni vujudga kelishi, shart-sharoitlar, sabablar, muhit, jamiyatdagi holatlarni e'tiborga olib, barcha sohalarida ularga alohida fanning bo'limi sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiq.

Huquqshunoslik fanlari bo'yicha mutaxassilarni fikrlarini o'rganish jarayonida ularning ayrim xulosalarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ular belgilashicha, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlarni kriminologiyaning alohida sohasi sifatida o'rganishga bir necha asoslar mavjud:

Birinchidan, davlatimizning o'sib kelayotgan avlodga bo'lgan alohida e'tibori. Ularning hayoti va sog'lig'i masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi. Ikkinchidan, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ginezis va motivlarining alohida xususiyati. Ya'ni ularning yoshlar tarbiyasi va kundalik hayoti bilan bevosita bog'liqligi.

Uchinchidan, davlat jinoyatchilik darajasi va dinamikasining voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga bevosita ta'siri bizga shu narsa ham ma'lumki, voyaga yetmaganlar o'smir paytida sodir qilgan huquqbuzarligi uchun jazolangandan keyin keyingi davrlarda yana jazolansa hayotga to'g'ri yo'lga

⁹¹ “Davlat boshqaruvini yanilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni. 11.04.2007. Xalq so'zi. 2007 yil 12 aprel.

tushishga ancha qiynaladi va oxir oqibatda katta va retsediv jinoyatlarning asosiy zahirasini tashkil qiladi.

Bugungi kunga kelib voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi to'g'risida yetarli darajada statistik materillar to'plangan va uning tahlil qilishning usullari ishlab chiqilgan. Bularning barchasi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ahvolini to'g'ri baholash, undagi miqdor va sifat ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarini bilish imkonini beradi⁹².

Ayrim vaqtlarda alohida hududlardagi jinoyatchilikning miqdor va sifat ko'rsatkichlarida, shuningdek, jinoyat sodir etuvchi shaxslar va turli xil jinoyatlar tarkibida aniq bo'lmagan ma'lumotlar bo'lishiga karamay voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining aniq ahvoli haqida taxlillar e'tiborli.

Jumladan, O'zbekistonda 1998 yilda 50,000 jinoyatchi hukm qilingan bo'lsa, shundan 2000 dan ortig'i voyaga yetmaganlar bo'lgan. Bu 4% tashkil etadi. 1996 yil 51,602 jinoyatchi jazoga hukm qilingan bo'lsa, shundan 2,023 tasini voyaga yetmaganlar, bu esa o'z o'rnida 3,9% ni tashkil etadi. 50dan ortiq voyaga yetmaganlar Oliy sud tomonidan hukm qilingan.

Agar mahkumlar miqdorini solishtirib tahlil qilinsa, 1998 yili jinoyat sodir etgan 2,000 jinoyatchilardan 37 sini hayotga qarshi (97-103 modda) jinoyatlarda ayblanib, hukm qilingan. 1998 yili 97 modda bilan 10 kishi hukm qilingan.

Lekin keyingi paytlardagi yoshlarga nisbatan olib borilayotgan siyosatdagi ustuvorlik yoshlar o'rtasida qilmishlarni kamayishiga olib keldi, jumladan, Namangan viloyat Yangiqurg'on tumanida 2014 yilga nisbatan 2015 yilda jinoyatchilik 30 foiga kamaygan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini hudud bo'yicha tarqalishi ham kriminologik vaziyatlarga qarab, o'zgarimoqda.

Bu barchasi davlatimizni odilona siyosatidan deb bilamiz.

Bugun O'zbekistonda o'quvchilarning bepul majburiy umumiy va uch yillik maxsus kasb-hunar ta'limi bilan to'la qamrab olinishiga to'liq erishilmoqda. So'nggi o'n yil mobaynida mamlakat o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimida yuzdan ziyod yo'nalish, 265 ta ixtisoslik va 700 ta kasb bo'yicha professional ta'lim olgan bir milliondan ortiq yangi avlod mutaxassislari tayyorlandi. O'zbekistonda yoshlarning ish bilan bandligi masalasiga ham eng dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. So'nggi yilda qo'shimcha ravishda 630 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi va ularning aksariyati yoshlar uchun mo'ljallangan.

Respublikada faoliyat yuritayotgan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» va «Sog'lom avlod uchun» jamg'armalari o'sib kelayotgan yosh avlod orzu-istaklari, o'y-xayollarini ro'yobga chiqarish yo'lida samarali xizmat qilmoqda. Zulfiya nomidagi va «Nihol» mukofotlari, «Yangi avlod» va «Kelajak ovozi» ko'rik tanlovlari

⁹² O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga. Toshkent.: -2004

O'zbekistonda yashayotgan har bir bolaning iste'dodi va qobiliyatini kashf etish va uni yuzaga chiqarishga imkon bermoqda⁹³.

O'zbekistonda «Sog'lom ona va bola yili» davlat dasturi belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun trillionlab so'm ajratilishi ko'zda tutilgan.

Belgilangan ushbu tadbirlarni amalga oshirish yoshlarni, kelajak avlodni yetuk qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Agar mentalitetimizga ularni ijobiy, savob ishlarga yo'naltirish ko'proq singdirilsa, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar kamayishi va jamiyat gullab –yashnashiga qilingan harakat bo'ladi.

Tinchlik va totuvlik

*Xurshid Mirzaxmedov - Namangan davlat
universiteti katta o'qituvchisi,
Asila Toshboeva - Namangan davlat
universiteti talabasi*

Yurt tichligi – bebaho ne'mat ulug' saodatdir. Insoniyat azal – azaldan avvalo, tinchlik – totuvlikka intilib kelgan. Yurt tinchligi – taraqqiyoti garovi. O'zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni orzu intilishlari maqsad – muddaolarini amalgam oshirish kafolati deb biladi. Lekin afsuski, bu ezgu tilaklarning ijobat bo'lishiga doimo qarshilik qiladigon kuchlar ham bor. Ular o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida insonlarni urish va qirg'inlar domiga tortib keladi. Bunday kuchlar ta'siriga tushmaslik uchun inson eng avvalo yuksak salohiyat egasi bo'lishi darkor.

Bu borada prezidentimiz I. A Karimov "G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat" deya bildirib o'tganalar. Bu bilan prezidentimiz xalqimizni yuksak fikrlashga, yurtimiz, jamiyatimiz, qolaversa oilamiz tinchligi uchun rahna soluvchi har qanday voqelikni tinch yo'l bilan hal etishga chorlaydi. Vaholanki, insoniyat faqat tinchlik osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oily maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy yuksaklikka ko'tariladi. Masalan tarixga nazar tashlasak, Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek Movoraunnahrga hukmronlik qilgann davr mobaynida mamlakatda tinchlik – barqarorlik ustuvor bo'lgani sababli ilm – fan madaniyati yuksak darajada rivojlangan, ko'hna zaminimiz gullab yashnagan.

Aksincha urish va nizolar insonni odamiyli qiyofasidan ayiradi, xalqni jamiyatni butkul tanazzul botqog'iga botiradi.

Bugungi kunda din niqobi ostida faoliyat ko'rsatayotgan mutaasib kuchlar har bir davlatning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini izdan chiqarishga harakat qiladilar. Qayerda g'oyaviy bo'shliq, loqaydlik va beparvolik mavjud bo'lsa, o'sha yerda paydo bo'ladilar.

⁹³ <http://uza.uz/uz/culture/10699/>

⁹⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 16 b.

Prizidentimiz Islom Karimov: “O‘zbekistonimizda tinchlik – osoyishtalik xavfsizlikni fuqorolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko‘z qorachiqdek saqlash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo‘lib qolishi darkor” deya alohida takidlashlari bejiz emas. Darhaqiqat, yurt tinchligi va osoyishtaligi ta‘minlash mamlakatimiz fuqorisining har birini eng muhim vazifalaridan biridir.

Bugungi mustaqil diyorumiz tinchligi yo‘lida minglab ajdodlarimiz qurbon bo‘lganlar va biz mana shunday imkoniyatlarga ega yurtda yashamoqdamiz.

Bu imkoniyatlardan unimli foydalanish biz yoshlarning ma‘suliyatli burchimizdir. Va bizdan kiyingi avlodlarimiz uchun ham bundanda farovon hayot kechishini ta‘minlash har birimizning muqaddas burchimizdir. Zero Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek “Yoshlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, don ova albatta baxtli bo‘lishlari shartdir”.

Millatlararo totuvlik - milliy istiqolol mafkurasining aso-siy g‘oyalaridan biri bo‘lib, u muayyan hudud, davlatda turli millat vakil-larining hamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha. Yoki boshqacha aytganda, millatlararo totuvlik g‘oyasi umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir.

Milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik, umummilliy tamoyillarga biroz e‘tiborsizlik ham tinchlik va barqaror-likka salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. I. A. Karimov o‘z fikrini davom ettirib, shunday yozadi: «Ayni chog‘da insoniyat tarixida buning aksini, ya‘ni ko‘p elatli davlatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg‘unlikning yo‘q-ligi, butun-butun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiy-siyosiy falokatlarga olib borganini ko‘rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko‘p elatlilik nafaqat ayrim mamlakatlarning, balki butun-butun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsiz-ligiga putur etkazuvchi bosh omilga aylangan».

Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor millatchilik va shovinizmning halokatli g‘oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy istiqolol g‘oyasining amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar etkazadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, holisona hal qilinmoqda. Millatlar o‘rtasida mojarolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun etnik siyosatda shaxs huquqlari himoya qilinishining ustuvor bo‘lishini, mamlakatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanishi bosh yo‘limiz ekanligiga, bozor munosabatlarini iqtisodiy taraqqiyotda barcha millatlarga mansub aholining manfaatlariga mos kelishiga, har bir millat madaniyati, tili, urf-odat va an‘analari, madaniy merosini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda⁹⁵.

⁹⁵ Lafasov M. Milliy istiqolol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar T.: TDPU, 2006. b. 66

Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish masalalari

*O. Chuboyeva - Nam DU katta o'qituvchisi,
Sh. Qo'chqorova - Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
4-bosqich talabasi*

Ertangi kuning kelajagi bo'lgan yoshlarsiz O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy madaniy rivojlanishi kelgusi taraqqiyotni vatanimiz kelajagini tasavvur qilish qiyin. Jamiyatimiz va davlatimiz oldida turgan asosiy vazifa – bugungi kunda yuqori bilimli, yuksak malakali, madaniyatli va marifatli barkamol avlodni tarbiyalashdir.

Zero respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek” o'z haq-huquqini taniygan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea, hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak”.

Bugun mustaqil O'zbekistonimizga qanday yoshlar kerak. Albatta ruhan pok dunyoviy bilimga ega va milliy qadriyatlarimiz ruhi singdirilgan, har tomonlama sog'lom yoshlar kerak. Binobarin, davr bilan hamnafas, milliy o'zligini yaxshi anglaydigan farzandlar oilasiga va vataniga mehr-oqibatli, sadoqatli inson bo'lib yetishadi. Shu tushunchalar yoshlarda shakllansa giyohvandlik, aqidaparastlik, nosog'lom e'tiqod, axloqsizlik, “ommaviy ma'daniyat” o'z ta'sirini o'tkazolmaydi.

Bularga qarshi kurashda yoshlarimizda huquqiy madaniyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois yurtimizda huquqiy ta'lim va marifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini yaxshilash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimizning

1997-yil 25-iyunda “huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish jamoatchilik fikrini o'rganishni yaxshilash haqida”gi farmoni, Oliy Majlisning 1997-yil 29-avgustdagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi to'grisida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 29-maydagi “jamiyatda huquqiy ma'daniyatni yuksaltirish Milliy dasturini amalga oshirish chora tadbirlari tog'risida”gi qarori, davlatimiz rahbarining 2001-yil 4-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida”gi farmayishi qabul qilindi.

Bugungi yoshlarimiz zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari bilan jihozlanishi o'quv dargohlarida bilim olmoqdalar. Shuningdek, nafaqat ta'lim tarbiya muassasalarida, balki radio- televideniya, matbuot, internet kabi jahon axborot maydonidan turli ma'lumot olib, dunyoviy bilimlarni oshirmoqdalar. Sir emaski, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda- ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkinligini hayotning o'zi ko'rsati turibdi. Bu esa har birimizdan yoshlarimiz taqdiriga yanada ogoh

bo'lishni talab qiladi. shu sababli, davr talabidan kelib chiqib huquqiy axborotni internet tarmog'I orqali yetkazib berish amalyoti ham keng yo'lga qo'yildi.

Ingliz va o'zbek tillarida semantik lakunlarning ishlatilishi

M. Abduraxmanov,

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Lakun termini – *bo'sh joy, tashlab ketish, kemtik* kabi ma'nolarni anglatadi. Semantik lakunlar haqida gapirganda tarjima tilida asliyat tilidagi leksik birlikning mavjud bo'lmasligini tushuniladi. Bu yerda gap asliyatdagi so'zning tarjima tilida aynan shunday ma'no anglatadigan tushunchaga ega bo'lmagan muqobili bo'lmasligi haqida boradi. Umuman olib qaraganda tarjima nazariyasiga ko'ra bir tildagi har qanday narsani ikkinchi tilga o'girsa bo'ladi. Ammo muammo o'sha asliyatdagi so'zni tarjima tilida ham aynan ana shunday so'z bilan berib bo'lmasligidadir. Masalan, asliyat tilida bir so'z bilan ifodalangan tushuncha tarjima tilida bir necha so'z bilan berilishi ham mumkin. Bu ob'ektiv borliqni turli xalqlar o'z tillari orqali turli talqin qilishlari sababali bo'ladi. Semantik lakunlarni bir tilda ikkinchi tilga aynan tarjima qilib bo'lmasligining asosiy sababi ham ana shunda. Biz dunyodagi bir narsani har bir tilda turlicha talqin qilamiz. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi quyidagi lakunlar talqinini ko'rib chiqsak:

Inglizcha	Русча	O'zbekcha
bouncer	Человек или вещь крупных размеров	Bahaybat odam yoki narsa
glimpse	Быстрый взгляд, брошенный мельком	Ko'z tashlash, nazar solish
barber	Пар над водой в морозный день	Sovuq kunlardagi suv ustidagi bug'
inferiority	Более низкое положение, достоинство, качество	Past darajadagi holat, sifat
beauty sleep	Ранний сон до полуночи	Yarim tungacha bo'lgan erta uyqu

Buni rus tilidagi *ровесник, именины, сутки, кпяток, погорелец, однолюб* kabi so'zlarni ingliz va o'zbek tillariga tarjima qilganimizda ham ko'rishimiz mumkin.

Lakuna terminini biz bu o'rinda asliyatdagi so'zni tarjima tilidagi biror bir tushuncha bilan berish imkoniyati bo'lmay qolgan holatni tushunamiz. Ammo buni lakunlar butun muqobilsiz so'zlardan iborat deb, barcha muqobilsiz so'zlarni lakunlashtirishdan iborat qilib qo'ymaslik lozim. Chunki MSL (BEL) muqobilsiz leksikaning hammasi ham lakun bo'lavermaydi. Ikkiknchidan,

neologizmlarda bo'lganligi singari muqobilsiz leksikani tarjima tilida bir nechta xil variant bilan berish mumkin. Lakunlarga eng yaqini bu realiyalardir. Chunki ular ham asliyat tilida bo'lib tarjima tilida aynan muqobili bo'lmagan so'zlar turkumiga kiradilar. Ammo shuni e'tiborga olish kerakki, realiyalar faqat asliyat tilining milliy xususiyatlarini ifodalashi bilan boshqa xil muqobilsiz leksikalardan farqlanib turadi. Lakunlar esa faqat realiyalar kabi xos narsalardan tashqari milliy tafakkur bilan bog'liqlik jihatlari bor. Tasavvur qiling – *брошенный мелком или ранний сон до полуночи* ni faqat ruscha fikrlaydiganlarga tushuna oladilar. Faqatgina ular ingliz tilida ozroq so'zlar bilan ifodalanadi. Ammo bu ruslar shunday so'zlardan foydalana olmasliklarini bildirmaydi. L. V. Sherbaning aytishicha, “borliq - har bir ijtimoiy tuzum yoki har bir til muhitdagi mavjud bo'lgan an'analarga ko'ra turlicha talqin qilinadi.”⁹⁶ Ammo bu asliyatdagi ana shunday o'ziga xosliklarni o'zga tillarga tarjima qilib bo'lmasligini anglatmaydi. Ikki misol keltiramiz:

I however remained censorious and subsequent glimpses of Sebastian, driving in a hansom cab and dining at the George's... (*Waugh E. Brideshead Revisited*)

Ruschasi:

Я, однако, отнесся к молодому лорду неодобрительно и в дальнейшем, видя его мельком на извозчике или за столиком у «Джорджа»...

Tarjima ma'nosi tushunarli. Lug'atlardan ham to'liq ma'lumot olish mumkin: *glimpse* haqida “Lingvo” elektron lug'ati quyidagi izohni beradi: *быстрый взгляд, беглый взгляд, беглое знакомство*; a brief, fleeting glimpse – *mimoletniy vzglyad*; to have/ catch a glimpse of – *uvidet melkom*. Ammo *glimpses of Sebastiani* tarjima qilish uchun butun jumlani o'girish lozim. Agar so'z fe'ldan iborat bo'ladigan bo'lsa, uni tarjima qilish yanada murakkablashadi:

Inglizchasi:

He looked at Hester – “I'll leave you to God?” he repeated – and she smiled. The change it wrought in her was remarkable. Her eyes shone, the hardness in her face softened – and for the first time he briefly glimpsed the reason why she and Claire might have been friends. (*Harris R. Enigma.*)

Ruschasi:

Эстер улыбнулась. Улыбка поразительно изменила ее. Сияющие глаза, смягчившиеся черты лица – до него впервые дошло, почему они с Клэр были так дружны.

Ko'rinib turibdiki, tarjimada asliyatdagi *glimpsed (mimoletniy) bir lahza* lakunasi tushirib qoldirilgan. Ammo buni tarjimon xatosiga yo'ysa bo'ladimi? Bizningcha yo'q. Tarjima asliyatga monand. Chunki “*И у него впервые мелькнуло в голове понимание того, почему...*” jumlasini unchalik ruscha jaranglamaydi. Ruschasiga kallada tushuncha emas, balki fikr aylanishi mumkin. Shunga oid yana bir misol:

⁹⁶ Sherba L.V. Izbrannyye raboty po yazykoznaniyu i fonetika. L., 1958. S.7.

The Austin was unfamiliar (and he was discovering) idiosyncratic
(Harris R. Enigma)

Ruschasi:

Машина была ему незнакома (и как он все больше обнаруживал) вела себя странно.

Inglizcha-ruscha lug'atlarda bu haqda qanday ma'lumotlar tavsiya etilayotganligiga e'tibor beraylik:

Idiosyncratic 1) o'ziga xos, xarakterli, ajoyib. 2) idiosinkretik.

Xulosa qilib aytganda semantik lakunalarni tarjima qilishning eng maqbul yo'li ularni tarjimada izohlash, tavsiflashdir.

Ayrim hollarda semantik lakunalarni antonomik yo'l bilan o'g'irish holatlari ham bo'ladi:

Collins made notes for a little thesis pointing out the inferiority of the original mosaics to their photographs. (Waugh E. Brideshead Revisited)

Ruschasi:

Зато Коллинз делал заметки для своей будущей работы о преимуществах фотографических снимков со знаменитых мозаик над оригиналами.

Nutq o'stirishda didaktik o'yinlarning roli

D. Pulatova - Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchi,

N. Ismailova - Ingliz tili

207- guruh talabasi

Bolalarni ijod qilishga o'rgatish va ijodiy qobiliyatini oshirish hozirgi zamon o'qitish pedagogikasining muhim muammolaridan biri sanaladi. Bogcha va maktab yoshidagi o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda o'yinlar muhim rol o'ynaydi. Ijodiy qobiliyatlar yosh o'quvchilarga ular uchun yangilik bo'lgan bilimlarni tez o'zlashtirishga yordam beradi. Bu hoh an'anaviy dars jarayonida bo'lsin, hoh noan'anaviy dars jarayonida bo'lsin, baribir o'yinlar orqali darsni olib borishni ifodalaydi.

Buyuk Sharq olimi Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048) pedagogik qarashlarida o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalash jarayonida, aynan yangi mavzu ustida mulohaza yuritishni, shuningdek, o'quvchilarning zerikmasligini, xotirasiga malol kelmasligini ta'kidlab, "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir, doimo bir narsani o'qib berish zerikarli bo'ladi va organuvchini zeriktirib qoyadi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog' o'tar o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Inson ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi, har bir yangi voqea kishiga rohat bag'ishlaydi " degan edi. Bu ibora bilan bobokalonimiz o'qitish metodlarini maqsad va vazifalari xilma xil ekanligini uqtiradi. ("Pedagogika", Namangan, 2002)

Keyingi yillarda ilg'or o'qituvchilar tajribasida didaktik o'yinlardan ta'lim metodlari sifatida foydalanish odat tusini olib bormoqda. Didaktik o'yinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasidagi o'quv tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarini og'zaki bayon etish, ko'rgazmali, amaliy metodlarning elementlari qo'llanadi. ("Pedagogika" Toshkent, 2008)

Ta'lim poydevori – ilk sinflarda bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, o'qituvchidan barcha fidoiyligni, yosh psixologiyasiga doir chuqur bilimga ega bo'lish orqali o'quvchilar ruhiyatini mahorat bilan boshqarishni taqozo etadi. Hali nimani o'rganayotganini bilmagan va bu orqali qanday natijalarga erishish mumkinligini anglamagan bolakaylar bilan mashg'ulotlar qiziqarli qilib olib borilishi kerak. Buning uchun dastur albatta qiziqarli mavzulardan tuzilishi, undan keyin ustoz mavzuning bolalar e'tiborini jalb etadigan qirralatini topa bilishi, darsni o'tishda noan'anaviy dars olib borish metodlari – turli tarqatma, ko'rsatmali materiallardan, ma'rifiy o'yinlardan, texnika vositalaridan samarali foydalanishi kerak.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining o'yin orqali ijodiy qobiliyatlarini o'stirish samaradorligini oshirishda ularning yoshlik hususiyatlarini hisobga olish kerak. O'yin orqali yuzaga keltirilgan ijodiy izlanish vaziyati hamda mustaqil fikrlashga bo'lgan harakati o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi va nutqini o'stirishga xizmat qiladi. ("Pedagogika" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010)

Quyida har qanday maktab o'quvchilari uchun ijodiy qobiliyatlarni o'stirishda foydalaniladigan o'yinlarni keltirib o'tmoqchiman.

ESHITGAN TOVUSHIMNI QANDAY QILIB ESLAB QOLAMAN o'yini. Bunda o'quvchilar uchun nomi va holati tanish bo'lgan jihozlar, mevalar hamda hayvonot olamidani har bir unli tovushlardan boshlanuvchi rasmlardan foydalanish orqali o'tkaziladi.

1. O'yinni o'qituvchi stol ustiga 'a' harfini qo'yadi, o'quvchilar 'a' harfidan boshlanuvchi rasmlarni topib uni birgalikda baland ovozda talaffuz qilishlari kerak. O'yinni har bir unli tovushlarni ketma ket qo'yish bilan davom ettirish mumkin.

2. O'qituvchi rasmlarni o'quvchilarga ko'rsatadi, o'quvchilar esa shu rasmning nomi qaysi harf bilan boshlanganini ko'rsatib talaffuz qiladilar. Buning uchun har bir o'quvchida harflar bo'lishi kerak.

3. O'qituvchi bolalarga tanish bo'lgan harflarni ko'rsatadi. Kimning nomi shu harf bilan boshlanadigan bo'lsa, o'quvchi o'rnidan turishi kerak bo'ladi.

Bu o'yinda hamma o'quvchilar diqqati faqat va faqat o'tilayotgan darsga jalb etilib, unli va undosh tovushlarni o'qish va ularni qay holda talaffuz qilish jarayonlarini o'qituvchi bilan birgalikda o'rganish jarayonida hosil qilingan bilimlar mustahkamlanadi.

O'ZGARISHNI SEZDINGIZMI o'yini. Bu o'yinda o'qituvchi qirqilgan harflardan foydalanib doskaga so'zlar yozadi, o'quvchilar shu so'zlarni ovoz

chiqarib o'qiydilar. O'qib bo'lganlaridan keyin o'qituvchi o'quvchilarga ko'zlarini yumishlarini aytadi. O'qituvchi shu vaqtda harflarning joyini o'zgartirishi kerak, o'quvchilar ko'zlarini ochib bu so'zlarni tez o'qishlari va qaysi harflar o'rni o'zgarganini aytib berishlari kerak bo'ladi. Masalan, 'aka' so'zi yozilgan bo'lsa, o'qituvchi 'a' harfi o'rniga 'u' harfmi qo'yib qo'yadi. Natijada 'aka' so'zi 'uka' deb o'qiladi. O'quvchilardan kim tez fikrlab, to'g'ri topib o'qib bersa, o'sha o'quvchi g'olib hisoblanadi.

ESLAB QOL VA GAPIRIB BER o'yini. Bolalarga kichik syujetli va rasmi kitoblar beriladi. Bolalar uning rasmlarini ko'rib chiqadilar va asosiy mazmuni eslab qolishga harakat qiladilar. So'ngra kitobcha yig'ishtirib olinadi. O'quvchilar eslab qolganlarini gapirib beradilar. O'qituvchi shu o'quvchiga rasmlarni ko'rsatadi va rasm bilan o'quvchi gapirgan narsalar taqqoslanadi hamda o'quvchining esda saqlab qolish qobiliyati nutqi baholanadi.

OLMACHALAR o'yini. Doskaga olma daraxti maketi ishlanib osib qo'yiladi. Olma daraxtining shoxchalarida, olmalar osilib turishi kerak. Shu olmalar orqasiga har xil so'zlar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar ketma ket chiqib, olmani oladi va orqasidagi yozuvlarni o'qishlari va so'zlardan gaplar tuzishlari kerak bo'ladi. Masalan, fasl, olma, kuz, pishadi. Qaysi o'quvchi shunday so'zlarni o'z o'rnida to'g'ri gap tuza olsa, o'sha o'quvchi yutgan bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bunday didaktiv o'yinlar o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini mustahkamlaydi, nutqlarini o'stiradi, o'zlashtirish sifatlarini oshirish bilan birga topqirlik, ziyraklik va qiziquvchanligini ham oshiradi hamda darslarni mazmunli chiqishini ta'minlaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A. Qosimov, F. Holiqov "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar", Toshkent, 2004
2. M. Hayitboyev "Pedagogika", Namangan, 2002
3. O'. Asqarov, M. Hyitboyev, M. Nishonov "Pedagogika" Toshkent, "Talqin", 2008
4. M. To'xtaxo'jayeva, S. Nishonova "Pedagogika" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010

Teaching vocabulary

*N. A. Mamadjanova
NamDU o'qituvchisi*

To know a language means to master its structure and words. Thus, vocabulary is one of the aspects of the language to be taught at school. It is one element that links the four skills of speaking, listening, reading and writing all together. Before speaking about vocabulary teaching let me consider a few differences the teaching of vocabulary of the first and

the foreign languages. This would enable us to discuss vocabulary teaching in a proper perspective.

First language teaching

1. Generally involves teaching written representation for the spoken vocabulary.

2. In some languages teaching the terms in written language corresponding to the items in spoken language.

3. Involves the extension of the vocabulary knowledge that a learner has

4. Involves teaching those items with the help of which a learner can acquire additional items.

5. The learner knows the derivational processes of word formation.

6. The learner has to acquire the mastery of vocabulary usage for effective communication, stylistic purpose, etc.

7. More of synonyms, idioms and set phrases.

Foreign language teaching

1. Generally involves teaching spoken as well as written forms of vocabulary.

2. This teaching is done usually at a later level of learning.

3. Involves teaching vocabulary items appropriate for the concepts for which learner already has vocabulary items in his mother tongue.

4. Involves teaching the with the help of learner can acquire additional items.

5. The learners do not know the derivational processes of word formation.

6. He has to acquire vocabulary for general and basic communication purposes.

There are certain strategies adopted by the teachers to teach vocabulary. These strategies include both formal strategies of having vocabulary item before the teacher and attempting to teach it directly to them, informal strategies of asking the learners to learn the vocabulary item when he comes across it while listening or reading something or the other in that language. These two strategies are not mutually exclusive; rather they complement each other.

We can not suggest specific steps that could be strictly followed in teaching vocabulary items. At the applications level, strategies vary not only from teacher to teacher, and context to context; but also from language to language. The structure of the vocabulary item including its derivational history from other items, its connotation and denotation, and the function it performs in a lesson are some other variables.

In a formal approach to teaching vocabulary.

1. We concentrate only the vocabulary skill, not only other related skills.

2. The learners is conscious of the learning that is taking place because of teaching.

3. The teacher performs the act of teaching.

4. The activities are pre-planned and programmed. Results are specified in advanced.

5. Teaching emphasizes direct learning.

In case of informal strategies.

1. The focus is not only on the vocabulary skill but also on other related skills.

2. The learners are not conscious of the learners that is taking place because of teaching.

3. The learners are not conscious about the vocabulary that he is learning.

4. The teacher may not perform the act teaching and there may not be any formal role for teacher here. The learning process is unplanned and accidental.

5. The teaching emphasizes contextual learning.

Vocabulary acquisition is increasingly viewed as crucial to language acquisition. So vocabulary is one of the aspects of the language to be taught at school.

Teaching vocabulary of the first and foreign language have a few differences. Methodologists worked out various approach, methods and techniques to help both first and foreign language learners.

Approach includes a set of correlative assumptions dealing with the nature of language and with nature of language teaching and learning. Method can be considered as a overall plan for the orderly presentation of language material. And implementation that actually takes places in the classroom accepted as "technique".

All the three are inter-related

Teachers should know what aspects of vocabulary need to be taught in order to make the learner learn vocabulary better and faster. Pronunciation, spelling, meaning and usage of a word should be taken into account, particularly.

The teachers role in the process is

To furnish explanation, i.. e.. to present the word, to get his pupils to identify the concept correctly.

To get them recall or reorganize the word by means of different exercises.

To stimulate pupils to use the words I speech.

A word is considered to be learned when:

- It is spontaneously recognized while auditing and reading.
- It is correctly used in speech, i.e. the right word in the right place.

But learning the words of a foreign language is not an easy business. The process requires great effort from students.

Recently, using games has become a popular technique exercised by many educators in the classrooms and recommended by methodologists. Games have been shown to have advantages and effectiveness in learning vocabulary in various ways. The first, games bring in relaxation and fun for students, thus help them to learn and retain new words more easily. The second, games usually involve friendly competition and they keep learners interested. This creates the motivation for the learners of English to get involved and participate actively in the learning activities. The third, vocabulary games bring real word context in the classroom and enhance students' use of English in a flexible, communicative way.

Therefore, the role of games in teaching and learning vocabulary can not be denied. However, in order to achieve the most vocabulary games it is essential that suitable games are chosen. Whenever a game is to be conducted, the number of students, timing, level, learning and classroom setting are factors that should be taken into account.

The main objectives of the games may be to acquaint students with new words or phrases and to help them consolidate lexical items.

In conclusion, learning vocabulary through games is one of effective and interesting ways that can be applied in any classrooms.

Qonuniylik va huquqiy tartibot

*Miliboyev Sobitxon - Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi I-bosqich 108-guruh talabasi*

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikning datslabki yillaridayoq jamiyatning barcha negizlarini mustahkamlash maqsadida islohotlar o'tkazildi. Ular orasida qonuniylik va huquqiy tartibot alohida va muhim islohot bo'ldi. Bunday islohot o'tkazishdan maqsad yurtimizda huquqiy demokratik davlat tuzish va fuqarolik jamiyatining rivojlantirishidir. Bilamizki, huquqiy davlatda qonun ustuvor bo'ladi va jamiyatning barcha a'zolari ushu qonunga amal qilishlari lozim bo'ladi. Mazkur xaqiqatni O'zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimovning ushbu so'zlarida ko'rish mumkin: **“Qonunning ustuvorligi-huquqiy davlat faoliyat ko'rsatishining zaruriy shartidir”⁹⁷**.

⁹⁷ Karimov I.A. O'zbekiston: bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'li. T., O'zbekiston 1993 yil, 63-b

Bizda qonunning birlamchi manbasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Yurtimizda qabul qilinayotgan qonun va qonun osti hujjatlari Konstitutsiyamizga zid bo'lmasligi kerak. Agarda zid bo'lsa ushbu qonun tugatilishi, amalda tadbir etilmasligi lozim. Qonuniylik huquqning mavjudligi, jamiyatda chinakam demokratik muhit va huquqiy rejimning o'rnatilganidan dalolat beradi. Zero, bobomiz Amir Temur takidlaganidek: **“Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi”**⁹⁸. Jamiyatda qonuniylikni ta'minlanishiga erishish qabul qilinayotgan barcha normativ-huquqiy hujjatlarni mavjud qonunlarga muvofiq bo'lishi va ularga zid bo'lmasligi ham huquqiy normalarni qonunlarga muvofiq qabul qilinishini taqazo etadi. Agar qonunlar qanchalik takomillashsa ijtimoiy hayot talablari qanchalik to'la aks ettirilsa ular kishilar ongiga shunchalik chuqur tasir etadi hamda fuqarolarning bu huquqiy normalarni o'z ihtiyorlari bilan amalga oshirishlariga erishiladi. Shu maqsadlarda yurtimizdagi barcha sohalardan qonun amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiy sohadagi islohotlar. Bunda xususiy mulkchilikni rivojlantirish shu jumladan davlat mulkini hususiy lashtirishni taqazo etadi. Keyingi yillarda hususiy lashtirish va tadbirkorlarga keng imkoniyatlar berilmoqda. Mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyati va bozor munosabatlari infrotuzilmasini qonuniy shakillantirish uchun tur yillarda turli qonunlar yaratildi. Xususan **“O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida”** **“Tadbirkorlik to'g'risida”** **“Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”** **“Banklar va bank faoliyati to'g'risida”** **“Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida”** qonunlar ishlab chiqildi. Bu sohada islohotlar to'g'risida misollar keltirish mumkin. Iqtisodni rivojlantirish uchun turli yillarda kodekslarga o'zgartirishlar kiritildi va qabul qilinmagan qonunlar qabul qilindi. Yoki bo'lmasam har yili budjet to'g'risidagi yangi dasturlar yaratishimiz ham iqtisodiyotni qonuniy rivojlantirishga misol bo'la oladi. Bu sohalarda gapirsa gap ko'p. Ammo bilishimiz kerak bo'lgan yana bir masala bor. U qonuniylikning bevosita aholining huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqligidir. Jamiyatda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa qonunlarga rioya qilish ularning bajarilishi shunchalik yuqori darajada bo'ladi. Agarda aholing huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi shakillanmas ekan bunda qonuniylikga erishish amri maholdir. Negaki fuqarolar qonun chiqaruvchining qonunlarda mustahkamlangan erki, unda qo'yilgan talablarni bilmas ekan bunday hollarda ijobiy natija kutib bo'lmaydi. Aholing huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda hamda qonuniylikni samarasini oshirish maqsadida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yil 29 avgustda **“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy datsuri”** qabul qilingan bo'lib bu huquqiy ong va huquqiy

⁹⁸ Amir Temur. “Temur tuzuklari”. T., Fan. 1992, 9-b

madaniyatni shakillantirishdagi dasuril amal hujjat bo'lib xizmat qildi. Qonuniylikda huquqiy ongni yuksakligini prezidentimizning asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. **“Biz,-deydi I. A. Karimov,- odamlarning eskicha psixologiyasini o'zgartirib, ularda yangi huquqiy ongni shakillantirimo-g'imiz lozim. Shunday bo'lsinki, har bir kishi erkinliklari-ayni vaqtda muayyan majburiyat va mas'uliyat ekanligini chuqur his etib tursin.”**⁹⁹

Huquqni amalga oshirish va huquqiy normani bajarish qonuniylikni asosiy talabidir. Bu talabning amalga oshishi erkin ijtimoiy munosabatlarda shunday tartibni o'rnatishga olib kelishi kerakki bunda subektiv huquq qarshiliksiz amalga oshirilishi huquqiy burch esa og'ishmay bajarilishi lozim bo'ladi. Demak huquqiy tartibot – huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabat tartiblarini o'zida ifodalaydi. Mamlakat hududida yagona huquqiy tartibot o'rnatiladi va jamiyatda o'rnatilgan huquqiy tartibot davlat majburlov kuchi bilan ta'minlanadi. Bilamizki, huquqiy tartibotni ta'minlashda yetakchi o'rinni huquqni muhofaza qiluvchi organlar turadi. Bunda ayniqsa, sud, prokraturava ichki ishlar idoralari muhim o'rin tutadi. Bu boradagi fikrlarni prezidentimizning ma'ruzalarida ham ko'rishimiz mumkin **“Ma'lumotlarga ko'ra, 2015-yilning 9 oyida Bosh prokraturaga fuqarolardan prokratura xodimlari ustidan 426 ta shikoyat kelib tushgan. Mazkur shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha 45 nafar xodim intizomiy javobgarlikka tortilgan, 22 nafar xodim egallab turgan lavozimidan ozod etilgan, 33 nafar xodim prokratura organlaridan bo'shatilgan.**

O'z-o'zidan ravshanki, ana shu raqamlar va prokratura tizimidagi ahvol bizni qoniqtirmaydi, albatta. Shu munosabat bilan Oliy Majlis Senati qisqa muddatda prokratura faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish va uning faoliyati qonuniyligini masalasini ko'rib chiqishi zarur”¹⁰⁰ Bundan ko'rish mumkinki, huquqiy tartibot masalasiga yurtimizda jiddiy e'tabor qaratilmoqda. Bunga prezidentimizning quyidagi ma'ruzalarini misol qilishimiz nunkin **“Bugungi kunda ichki ishlar va huquq-tartibot organlari faoliyatini tartibga soladigan qonunning yoqligi ham normal holat, deb bo'lmaydi. Shuning uchun mazkur organlarning, birinchi navbatda, qonunning ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish borasidagi maqomi, faoliyat shakli va usullari aniqlashtirish hamda ularga tuzatishlar kiritish zarur”¹⁰¹. Prezidentimizning yuqoridagi ma'ruzalaridan shuni bilishimiz kerakki, qonuniylik va huquqiy tartibot yurtimizdagi barcha sohalarda amlaga oshirilishi lozimdir.**

⁹⁹ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T., O'zbekiston 1997-yil 120-b

¹⁰⁰ Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruzasi.

¹⁰¹ Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruzasi

Milliy o`zlikni anglash - ma`naviy taraqqiyot omili

*Xurshid Mirzaxmedov - Namangan Davlat
Universiteti katta o`qituvchisi,
Doston Ubaydullayev - Milliy g'oya,
ma`naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo`nalishi 3-kurs talabasi*

Milliy o`zlikni anglash real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy-ma`rifiy asoslarda shaxs ongida qaror topadi va u iroda bilan bog`lanib, amaliy harakat tusiga kiradi. Chunonchi, milliy o`zligini anglagan shaxslar hozirgi tarixiy sharoitda mamlakat xayotining barcha sohalaridagi salohiyatini ko`tarish zaruriyatini anglab, yetadi.

Yoshlar qalbi va ongiga milliy o`zlikni anglash tuyg`ularini chuqur singdirish, milliy g`ururni tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifadir. Ushbu vazifa bilan uzviy bog`liq bo`lgan muammo - yoshlarda faol grajdanlik pozitsiyasini shakllantirish, hayotga ongli munosabat, doimo ogoh va hushyor bo`lib yashash tuyg`usini oshirishdir.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta`kidlaganidek, «Erkin fuqaro ma`naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardandir. Boshqacha qilib aytganda, biz o`z xaq-huquqlarini taniydigan, o`z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo`layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uyg`un holda ko`radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak». ¹⁰²

Yoshlarni imon-e`tiqodli, milliy g`oyaga sadoqat, bir-birlariga mehr oqibatni, o`z Vataniga, millati, dini, tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi kun talabi ekan, zero, fuqarolarni yangicha tafakkur asosida tarbiyalash orqali ularda insonparvarlik tomoyillari, umumbashariy qadriyatlarga mos keladigan xulq-atvorni shakllantirish va kamolga etkazish, ya`ni jamiyatda mehr-muruvvat madaniyatini qaror toptirish mumkin. Yoshlarni o`z millati, dini, tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash eng avvalo ularda milliy o`zlikni anglash tuyg`usini shakllantirishdan boshlanadi. Milliy o`zlikni anglash istiqloq sari hamjihatlik, komil ishonch bilan borishdir.

Milliy o`zlikni anglashga intilish zaruriyati biror millat uzoq vaqt davomida boshqa xalqlarning taraqqiyot darajasidan iqtisodiy, siyosiy sabablar taqozosi bilan orqada qolganda, mafkuraviy zo`ravonlik asosida qurilgan siyosiy e`tiqodlar jamiyat hayotida chuqur tomir otganda, mamlakatlar, xalqlar mustamlakachilik asoratiga tushib qolgan sharoitlarda yuzaga keladi.

¹⁰² Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. J-7. -T., O`zbekiston, 1999. 194 b.

Milliy o'zlikni anglash - millatning o'zini chuqurroq anglash imkoniyatlariga ega bo'lish, tarixi, madaniyati, an'analari, qadriyatlarini tiklashga, rivojlantirishga xarakter qilishdir. Milliy o'zlikni anglash -

- 1) Milliy birlikni va boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib yetish;
- 2) Milliy qadriyatlar: til, tug'ilib o'sgan joy, madaniyatga (keng ma'noda) sodiqlik;
- 3) Milliy manfaatlarni tushunish;
- 4) Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish;
- 5) Vatanparvarlik kabi fazilatlarni sharllantirishdir.

Milliy o'zlikni anglash barcha davrlarda xam jamiyat tarixining asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan va u millat manfaatlari va qadr-qimmatini anglashdan, ularni himoya qilish uchun kurashdan boshlanadi.

Sharq va G'arbda, Osiyo va Yevropa xalqlari hayotida ham milliy o'zlikni anglash tuyg'usining uyg'onishi, pirovard natijada, ularning yuksalishiga, birlashishiga, boshqa xalqlar bilan ijobiy, o'zaro manfaatli hamkorlikka kirishuviga turtki bo'lgan. Zero, ma'naviy qadriyatlarga, hayotni e'zozlashga undaydigan yuksak tamoyilarga e'tibor susayganda, jamiyat, davlat taraqqiyotdan to'xtaydi, inqiroz tomon yuz tutadi. Bu haqida Alisher Navoiy shunday yozgan edi:

To hirsu xavas xirmoni barbod o'lmas,
To nafsu havo qasri baraftod o'lmas,
To zulmu sitam jonga bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.

Demak mamlakatimiz obod bo'lishi, ravnaq topishi, xalqimiz farovonligi uchun ma'naviyat va ma'rifat sohasida, xususan, shaxsni kamol toptirish borasida izchil ish olib borish kerak. Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak.

Insonning ma'naviy yuksaklik darajasi uning jamiyatdagi o'z o'rini qanchalik bilgani, o'zini jamiyatning ajralmas qismi ekanligini qanchalik his etishi bilan belgilanadi. Shundagina inson o'zining qadr-qimmatini xalqning, millatning qadr-qimmatini bilan nechog'lik bog'liq ekanligini, jamiyatda, yurtida sodir bo'layotgan voqealarga daxldorligini anglaydi.

Xalq milliy ma'naviy merosidan ozuqa oladi, milliy o'ziga xosligini saqlab turishga, milliy manfaatlarni amalga oshirishga va milliy taraqqiyot yo'llarini belgilashga xizmat qiladi. Bunyodkor g'oyalar madaniy meros va tarixiy xotiraga tayanadi.

Hozirgi zamonda milliy o'zlikni anglash O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning muhim sharti sifatida millat, fuqarolarning chinakam ozodlikni totli mevasi ta'mini bilish, uning qadriga yetish, milliy tiklanish va o'zlikni anglashning ahamiyatini anglatadi. Millat manfaatlariga, mustaqil

davlat istiqbollariga loyqadlik bilan qarash, unga befarq bo'lish siyosiy kaltabinlik va manqurtlikdir. Milliy o'zlikni anglash zaruratini anglamagan xalq o'z Vatanini taqdiriga ham befarq bo'ladi.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «Mamlakatimiz erishgan yutuqlarning tub mohiyatiga yetib borish uchun bugungi hayotni kechagi hayot bilan solishtirib ko'rish kerak. Shundan keyin odam bugungi hayotining qadriga yetadi. Yurtimizdagi mislsiz o'zgarishlarni o'z hayoti, oilasi, qishlog'i, maktabi, ishxonasi misolida ko'rgan kishiga o'tgan kunlar bilan bugungi kunning farqi hamda afzalliklari to'g'risida tashviqot yurgizishga hojat qolmaydi. O'ylaymanki, «Yashasin sovet davlati, yashasin komunistik partiya» degan gaplar quruq safsata bo'ganini ongli yashaydigan xalqimiz bugun yaxshi biladi. Sovet davrida bizga xuddiki ikkinchi sort odamlar sifatida qaragani bu zalda o'tirganlarning esidan chiqmagan bo'lsa kerek. Markazdan bir guruh «desantch»lar yuborilib, adolatsiz tuzum tufayli o'zi shundoq ham nochor yashayotgan xalqimiz poraxo'rga, «piripiskachi»ga chiqarilganini unutilib ham, kechirib ham bo'lmaydi.»¹⁰³

Yoshlar ongida milliy o'zlikni shakllantirishda milliy ong, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy his, milliy xarakter kabi tushunchalar ham muhim o'rin tutadi.

O'z millatining haqiqiy tarixini anglagan, tarixiy xotiraga ega bo'lgan kishilarda milliy o'zlikni anglash va millat sha'nini himoya qilish mayli kuchli bo'ladi. Millatlar mavjud ekan milliy ong ham mavjud bo'laveradi. Milliy ongni yuksaltirishga e'tibor bermagan millatning o'zi yo'q. Milliy ong millat bilan chambarchas bog'liqligi uchun ham u millat ravnaqi bilan barobar taraqqiy etib boraveradi.

Milliy o'zlikni tarbiyalash, qadrlash, saqlab qolish omili milliy g'oyani mustahkam hayotiy zaminga, xalqimizning chuqur tarixiy ildizlariga tayanishi "Kim edik?" degan savolga javobni tinimsiz izlashga da'vat etib, milliy o'zligimizni teran idrok etishga yordam beradi.

Shuning uchun ham, milliy-ma'naviy tiklanish zamirida fuqarolarimiz ongu-tafakkurini o'stirish zarur. Milliy o'zlik tuyg'usini, uni qadrlashni tarbiyalash lozim. Abdulla Avloniyning aytgan "tarbiya bizlar uchun yo xayot yo mamot, yo najot -yo falokat masalasi dur", -degan so'zlari bugungi kunda yangi mazmun kasb etib, o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Milliy o'zlikni anglashdagi tavofutlar, milliy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni milliy davlat, jamiyatdagi siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, jamoat va nodavlat tashkilotlari, ma'naviyat va ma'rifat muassasalari, butun jamoatchilik kuchi bilan qadam-baqadam hal etib

¹⁰³ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kejadi yo'lida xizmat qilish – eng oily saodatdir. Toshkent – O'zbekiston, – 2015. 77 b

borish o'z-o'zini va milliy o'zlikni anglayotgan, uni chuqurlashtirayotgan individual va ijtimoiy ongning to'g'ri ijtimoiy yo'nalish olishi uchun kafolatdir.

Xulosa qiladigan bo'lsak,

-milliy o'zlikni anglash, milliy ongni yuksaltirish yagona millat ma'naviy dunyosining qanotidir. Qush baland-balandlarga uchgani kabi inson o'z milliy sha'nini o'z sha'nidek his etadi va uni himoya qiladi. Mabodo milliy o'zlikni anglash bo'lmasa, millat sha'ni tushib ketadi;

-milliy o'z-o'zini anglash real hayot vaziyatlariga muvofiq tarzda muayyan harakat va faoliyat yo'nalishini tanlash asosida boradi;

-milliy o'zini chuqurroq anglash imkoniyatlariga ega bo'lish, tarixi, madaniyati, an'analari, qadriyatlarini tiklashga, rivojlanti-rishga xarakat qilishdir;

- millat o'zini xalq sifatida, el sifatida anglamasa, u o'zining sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusi haqida qayg'urib, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini to'la xis eta olmaydi.

Inson ma'naviy hayotining asosiy me'zonlari

Xurshid Mirzaxmedov - Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi,

Shahnoza Mamatobilova - Namangan davlat universiteti talabasi

Huquqiy davlat asosi mamlakat mustaqilligi hozirgi davrda oldimizda eng buyuk maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, barcha sohalarda chuqur sifat o'zgarishlarini amalga oshirish, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotni modernizatsiya hamda isloh etishdan iborat ekanligini ongli ravishda fuqarolarimiz anglay bormoqda. Mazkur maqsadni ro'yobga chiqarish o'sib kelayotgan yosh avlod tafakkur o'zgarishlarini amalga oshirish, ularning ijtimoiy faolligini ko'tarish, ma'naviy-madaniyatini yuksaltirish, pirovard natijada kishilarda jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mas'ullik xissini shakllantirish asosida yuz bermoqda.

Respublikamizda ma'naviy-madaniy sohani rivojlantirish borasida Respublika hukumati tomonidan talaygina ishlar amalga oshirildi. Bu borada ko'plab qaror va farmonlar qabul qilindi¹⁰⁴.

Ma'nayiyat masalalari har doim millat muammolari, uning tarixi, buguni va kelajagi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Zero, ma'nayiyat - inson ijodiy faoliyatining usullari, shakllari va yo'llari majmui bo'lib, u avloddan avlodga

¹⁰⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 dekabrda «Respublikada musiqiy ta'lim, madaniyat va san'at o'quv yurtlarining faoliyatini yaxshilash to'g'risida»gi Farmoni.; 1998 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni va boshqalar.

vorislik asosida uzatiladigan moddiy va ma'naviy boyliklarda jamlanadi, gavdalanadi.

Istiqlol xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Milliy iftixordek ulug'vor va teran tuyg'uning paydo bo'lishi esa, ajdodlarimizdan meros qolgan bebaho madaniyatni bilish, qadrlash va yanada boyitish bilan bog'liqdir. Mana shunday ezgu tuyg'u va bunyodkor g'oyalar ongimiz va qalbimizdan joy olishi uchun halqimiz yaratgan betakror madaniyat va ma'naviyatni egallashimiz juda muhimdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov bu borada o'zining fikr mulohazalarini bildirib o'tdi. Chunonchi, bizning vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon e'tirof etadi. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan¹⁰⁵.

Vatanimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodning ma'naviy olamini boy, har sohada barkamol qilib tarbiyalash uchun butun insoniyat necha ming yillar davomida yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat xazinalaridan bahramand etish, unda barcha xalqlarga hurmat, milliy iftixor, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otish va shakllantirishdan iborat. Prezidentimiz ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rniga baho berib shunday degan edi: "... Ma'naviy va axloqiy-ruhiy ko'tarilish bo'lgan vaziyatdagina olg'a tomon siljish mumkin"¹⁰⁶.

Tadqiqotda asosan ma'naviy hayotning tuzilishi bilan bog'liq masalalarni yoritib berishga harakat qildi. Avvalo ma'nau yetuk shaxsgina barkamol hisoblanadi. Buyuk kelajak, Ozod va Obod Vatanni esa faqatgina barkamol avlodlar qura oladilar. Demak, Vatan ravnaqi, oliy maqsadlarga erishishimiz uchun, birinchi galdagi ma'naviy meros masalasiga asosiy e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Umuman olganda ma'naviy yuksak jamiyatgina hayotning boshqa jabhalarida ham yutuqlarga erisha olishi mumkin. Bu borada mamlakatimizda o'tgan davrlar mobaynida ko'plab ishlar amalga oshirildi, va oshirlmoqda.

Ma'naviy xayot juda keng va ko'p qirrali jarayon, u kishilarning tafakkuri, xulq-atvori, yurish-turishi, orzu-umidlarini ham o'z chiga qamrab oladi. Shuning uchun mustaqillik natijasida milliy ma'naviyatga e'tibor kuchaydi. U xayotning o'zi kabi murakkab jarayon. Buning mohiyati shundaki ma'naviyat inson faoliyatining: iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, axloqiy soxalarning barchasida ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ma'naviyatni inson xayotining universal soxasi deb aytsak bo'ladi. Shu nuqtai nazardan inson xayotini ma'naviy xayot deb aytsak bo'ladi.

¹⁰⁵ Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, 1998.- B.3.

¹⁰⁶ Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-Toshkent: O'zbekiston, 2011.-B.270

Har qanday jamiyat hayotida ma'naviyat, ma'naviy ishlab chiqarish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kishilar ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida olamni, atrof-muhitni to'laroq biladilar, ijtimoiy hayot qoidalarini o'zlashtiradilar, birlari bilan insonlarcha munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida ilg'or g'oya, nazariya va ta'limotlar yaratiladi. Bu esa ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, totuvlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, Ilm-fan va texnika taraqqiyoti jamiyatning moddiy farovonligini yanada yaxshilash uchun zamin yaratadi. Jamiyatning jamiyatligi, insonning insonligi uning ma'naviyatidir. Jahondagi jami baxtsizliklar, inqirozlar, xattoki tabiiy ofatlar ham insoniyatning ma'naviyatdan yiroqlashib borayotganligidir. Ushbu maqolamda men ma'naviy xayotning tuzilishini ikki nuqtai nazardan o'rganib chiqdim:

Birinchidan, ma'naviy xayot insonning borlig'i sifatida; ya'ni u ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy ishlab chiqarish, ma'naviy faoliyat, ma'naviy munosabat, ma'naviy ta'sir kabi elementlardan iborat.

Ikkinchi nuqtai nazar ijtimoiy hayot soxasi sifatida. Ma'naviyatning murakkabligi Prezidentimiz ta'riflaridan ham ko'rinib turibdi. Yoshlar ongiga milliy g'oya mafkurani singdirish va ularga millatimiz tarixi, madaniyati haqida mukammal va puxta bilim berishda maktablar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari alohida e'tibor qaratishlari lozim. Olimlarimiz maktab o'quvchilari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, oliy o'quv yurtlari talablariga mo'ljallangan o'quv dasturlari yaratib, barcha ta'lim-tarbiya ishlarini milliy g'oya asosida qayta ko'rib chiqib, mazmunan yangilash va boyitish ustida ish olib bormoqdalar. Lekin, shuningdek, barcha ta'lim muassasalarida mustaqillik, madaniyat va ma'naviyat, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarni yoshlar qalbiga singdirishning samarali usullarini izlab topish zarur.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin. Biz ma'naviyatimizni yanada yuksaltirishimiz uchun ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish va ma'naviy meroslarimizni asrash yoshlarimiz ongida vatanga bo'lgan ma'suliyat tuyg'ularimizni yanada yoshlar ongiga singdirib borishimiz kerak.

Qonun ustivorligi...

Mustaqillik tog'dek tayanchimiz,
qudratli zaminimizdir...
Islom Karimov

Toshpo'latova Nilufar
Nam DU talabasi,
Ilmiy rahbar: B. Tillayev

1991 yil... O'zbeklar hayotida bu muhim sana o'zgacha voqea kashf etib, tarix zarvaraqlariga zarxal xarflar ila bitildi. O'zbekiston Respublikasi birinchilardan bo'lib ittifoq davlatlar orasidan ajralib chiqib, o'zining siyosiy mustaqilligini rasman qabul qildi. Shu kundan e'tiboran, istiqloлга yuz tutgan O'zbekiston hayotida tub burilishlar yuzaga kela boshladi. Qisqa vaqt oralig'ida davlat ramzlari, Konstitutsiyaning qabul qilinishi Prezidentimiz ta'birleri bilan aytganda *"Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati bo'ldi"...*

Taraqqiyotga yuz tutmoqchi bo'lgan har qanday mamlakat albatta shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarni qonun yo'li bilan tartibga solishi muqarrar. Chunki, qonun ustivor bo'lgan jamiyatgina yuksalishi, rivojlanishi ayni haqiqat. Qolaversa, fuqarolik jamiyatining negizida ham inson va uning manfaatlari yotadi. Istiqloлга erishgan kundanoq O'zbekiston o'z oldiga *"Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot"* barpo etish g'oyasini qo'yib, bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish maqsadini amalga oshirishga kirishdi. Bu yo'lda ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilingan taraqqiyotning o'zbek modeli ham biz o'zbeklarning qadimiy urf odatlarimiz, milliy mentalitetimiz, dinimiz, qadriyatlarimizga hamohang holda bo'ldi.

XXI asrda jadallik bilan kechayotgan globallashuv jarayoni bugun har bir mustaqil davlatni sergak turishga undaydi. Fan-texnika rivoji ma'lum bir ma'noda tinch xayotimizga xavf kirib kelishini yanada osonlashtirdi. Har daqiqada rivojlanishda davom etayotgan OAV, turli xildagi ijtimoiy tarmoqlar, qudrati keng uyali aloqa vositalari bugunning kishisini ongini chetlab o'tmasdan iloji yo'q. Ish, o'qish, madaniy hordiqmi, albatta zamonga hamohang rivojlangan texnikadan foydalanmaslik, insonlarni qaysidir ma'noda jamiyatdan orqada qolib ketishiga sabab bo'lishi tabiiy. Bugun nazari bilan qaraydigan bo'lsak, jahonda kechayotgan notinchliklar, urush va to's to'polonlar qonun buzilish holatlarini yaqqol aks ettirib bermoqda. Globallashuv jarayonida bo'layotgan bu voqealarning salbiy ko'rinishi O'zbekiston ahlini ham tahlikaga solmasdan qo'ymaydi.

Rivojlanishga yuz tutmoqchi bo'lgan har qanday mamlakat albatta tashqi siyosatni amalga oshiradi. Hoh u ijtimoiy, hoh u iqtisodiy sohadagi notinchlik bo'lmasin, hamkor davlatga salbiy ta'siri bo'ladi albatta. O'zbekiston tashqi siyosatining ahmiyatli jihatlaridan biri har qanday munosabatlarni, muammolarni tinch yo'l bilan hal etishidir. Bu bilan davlatimiz yana bir bora

tolerant, inson va uning manfaatlarini qadrlovchi, hamisha tinchlik tarafdori ekanligini isbotlab berdi. Buni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tashqi siyosatiga oid IV bobida tasdiqlab qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaroga ham barcha huquq va imtiyozlarni teng berdi. 18 – moddada ***“O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar.***

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo'lishi shart” deya ta'kidlangan. Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston nafaqat o'z fuqarolariga, o'zgalarga ham, yoshu-qariga, erkak va ayolga ham teng qarab, bir xil huquq va imtiyoz bergan bag'rikeng davlatdir.

Ma'lumki, O'zbekistonda demografik jihatdan olib qaraganda aholining 60% dan ziyodini yoshlar tashkil etadi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq yoshlarga bo'lgan munosabat davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. 1991 yil 20 noyabrda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida qonun qabul qilindi. Hozirda ilm-fan, madaniyat, texnika, sport kabi sohalarda ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotgan yoshlarni ana shu berilgan imkoniyat va imtiyozlar, oqilona siyosatning natijasi deb bilamiz. Faol yoshlar va ularning iqtidorlarini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish maqsadida turli xildagi atama stipendiyalar, Davlat mukofotlarining ta'xis etilishi ham bunga yorqin misoldir. 2008 yilni ***“Yoshlar yili”*** deb e'lon qilinishi ham yana bir isbotdir. Shuningdek, xotin-qizlar manfaatlarini ham qo'llab-quvvatlab, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy-tibbiy madaniyatini yuksaltirish, ***“Gender tengligi”***ga amal qilib ayollar uchun ham imkoniyatlar berildi. Nafaqat oilada, balki jamiyatda ham mustaxkam o'z o'ringa ega xotin-qizlarimiz talaygina. Ayol-rahbar, ayol-siyosat arbobi, ayol-olima, ayol-tadbirkor, xullas bunga ko'plab misollar keltirib o'tish mumkin. Ta'kidlaganimizdek yoshu-qariga, erkak va ayolga ham birdek munosabatdagi jamiyatimizni ko'rsatayotgan e'tiborini yillar misolida ham ko'rish mumkin. ***“Inson manfaatlarini yili” “Ayollar yili”, “Qariyalarni qadrlash yili”, “Sog'lom bola yili”, “Keksalarni e'zozlash yili”***... Albatta ushbu yillarning tub zamirida inson va uning manfaatlarini, ularning qonuniy asosi mujassam. Har bir yilning nomlanishidan kelib chiqib, ishlab chiqilgan Davlat dasturlarida ham keng imtiyozlar berildi va bu davom etmoqda.

“O'zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida 5 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda yurtboshimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamalakatimizda suveren demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlarini, huquq va erkinliklarini ta'minlash, iqtisodiyotimiz rivoji va turmushimiz farovonligini yuksaltirishning asosiy huquqiy kafolati bo'lib kelayotganining ta'kidladilar hamda kirib kelayotgan 2016 yilni ***“Sog'lom ona va bola yili”*** deb e'lon qildilar. Demak bundan ko'rinib turibdiki, inson manfaatlariga qaratilgan islohotlar yana izchil davom etmoqda. Istiqbolli rejalar

tuzilib, amaliyotga joriy qilinib borilmoqda. Albatta bularning barchasi, qonun ustivor bo'lgan jamiyatimiz, mustaqillik tuxfa etgan istoqlol sababdir.

Internet – axborot tarqatishning eng qulay vositasi

N. Bo'riboeva- NamDU filologiya fakulteti

O'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi,

Ilmiy rahbar: A. Qambarov

Bugun biz axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yashayapmiz. Dunyo yaralgandan beri necha-necha asrlar o'tdi, insoniyat hamisha olg'a intilib, qancha-qancha ixtirolar, qancha-qancha kashfiyotlar qildi. Bu o'tgan davr mobaynida INTERNET deb atalmish muhim bir vosita vujudga keldiki, bu kashfiyotlar ichida qulayligi, juda tez sur'atlarda o'zining muxlislariga ega bo'lib, ommalashib borishi bilan ajralib turdi. Buning natijasi o'laroq, hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan deyarli barcha yangiliklardan voqif bo'lmoqdamiz. Xo'sh, INTERNET nima? Qanday ehtiyoj tug'ildiki, insoniyat uni kashf qildi? Internet deganda kim undan qaysi maqsadda foydalansa, shu narsa xayoliga keladi. Kimlardir uni turli yangi filmlar, o'yinlar, rasmlar tomosha qilish manbai, kimdir uchun yangi kitoblarni, kerakli ma'lumotlarni tezlik bilan topish, olish va yana kimlardir esa notanish insonlar bilan tanishish manbai deb hisoblaydi.

INTERNET – dunyo bo'ylab joylashgan va yagona tarmoqqa birlashtirilgan minglab kompyuter tarmoqlarining majmuyidir. Internetda axborot almashish standart qoidalar asosida amalga oshiriladi.

INTERNET „sovuq urush“ mahsuli hisoblanadi. Uning yaratilishiga yadro zarbalaridan qisman zararlenganda ham ishlay olishga mo'ljallangan tajribaviy aloqa sistemasi sifatida XX asrning 70- yillari boshlarida AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan AKPANET aloqa tarmog'i asos bo'lgan. ARPANET — buzilgan aloqa bo'g'inlarini avtomatik ravishda aylanib o'tishga va tarmoqdagi kompyuterlarga ma'lumot almashinishiga imkon yaratuvchi kommunikatsiyalar paketidir.

Hozirgi kunda Internet dunyo bozorini o'rganishda va savdo-sotiq ishlarini tashkil etishda zamonaviy biznesning eng muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Internet o'zaro aloqa bog'lash yoki ma'lumotlar almashish tarmog'i bo'libgina qolmasdan, unda mavjud bo'lgan ma'lumotlar ombori majmuyi dunyo bilimlar omborini tashkil etadi. Internetning kompyuterlar bilan bog'liq bo'lgan narsalardan muhim farqi shundaki, u o'zi haqidagi ma'lumotlarni ham o'zida saqlay olishidir.

Internet – bepoyon axborot ummoni. Axborotlar Internetda millionlab web-sahifalarda saqlanadi. Bizga kerakli axborot saqlanadigan web-sahifani topish uchun uning Internetdagi adresini bilish zarur. Ammo, Internet soat sayin yangi-yangi axborotlar bilan boyib boradi.

Internetning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- Ma'lumotni nomiga qarab tezda topish.
- Ma'lumot nusxasini ko'chirib olish.
- Xat almashish.
- Telekonferensiyalarda ishtirok etish.
- Muzokaralar olib boorish.
- Muloqat qilish.

Yuqoridagi imkoniyatlarga egaligi uchun ham internetni haqiqiy axborot tarqatishning eng qulay vositasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugun biz internet orqali o'zimiz uchun muhim bo'lgan deyarli barcha ma'lumotlarni topa olamiz. U xoh kino, xoh dunyo yangiliklari deysizmi, qo'yingki, hatto televediniyadagi hamma ko'rsatuvlarni tomosha qila olish imkoniyatimiz bor.

Kinoteatr va televideniya orqali namoyishlar belgilangan vaqtga bog'liq bo'lsa, WWW dan xohlagan kishi istalgan vaqtda yangi filmlar haqida to'liq ma'lumot olishi mumkin.

Axborot uzatishning yana bir usuli bu xatlar orqali ma'lumot almashinish edi. Buni qarangi, bugungi kunda Internet tizimining ajralmas qismi bo'lgan *elektron pochta* jadallik bilan oddiy pochta o'rnini egallab bormoqda. Chunki elektron pochta orqali yuborilgan xabar dunyoning istagan yeriga sanoqli daqiqalarda yetib boradi. Hozirgi kunda millionlab odamlar elektron pochta xizmatidan samarali foydalanmoqda. Ularning soni kun sayin ortib bormoqda. Elektron pochta oddiy pochta asosiy farqi – tezlik muammosini hal qilibgina qolmay, matn, turli chizmalar bilan bir qatorda, tovushli va video xabarlar yuborish imkonini ham beradi.

Internet mana shunday axborot uzatishning qulay ko'rinishi bo'libgina qolmasdan, turli kamchiliklarga ham egadir.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Internet – bu katta bir do'kon. Do'konga borganda odam xohlagan molini sotib oladi. Internetni ham shunday bir bozor, axborot bozori deb tushunish kerak.

Sir emas, Internetdagi bizning milliy qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar, masalan, be'hayo tasvirlar bor. Taajjubki, hozir dunyo bozorida yalang'och ayolning tanasi ko'rsatilmasa, bu reklama hisobiga o'tmaydi. Nafaqat Internet, balki televizorda ham shunday".¹⁰⁷

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, har qanday axborotni qabul qilishdan yoki hayotga tadbiiq etishdan avval uni yaxshilab tahlil qilib, o'rganib chiqishimiz zarur. Biz olayotgan ma'lumot bugungi va ertangi kunimiz, umuman, hayotimiz uchun qanchalik ahamiyatga ega, biz uchun qanday nafi bor, yoki aksincha, tarqatayotgan axborotimiz jamiyat hayotiga qanday ma'naviy, moddiy, ijobiy foyda keltiradi deya chuqur mulohaza qilishimiz

¹⁰⁷ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. – 300 b.

kerak. Aks holda nafaqat biz, biz orqali dunyo aholisini ma'naviy hayotiga tajovuz qilgan bo'lamiz.

Demakki, axborot bozoridan samarali foyadalanish madaniyatini o'zimizda shakllantirmas ekanmiz, biz dunyo yangiliklar do'koni bo'lmish Internet olamida turli salbiy ma'lumotlar iskanjasidan, xuddi o'rgimchak to'riga o'ralib qolgandayin chiqib keta olamay qolamiz.

Ibn Sino ta'limotida inson kamolotining falsafiy ahamiyati

*Rustamov Iloxomiddin Abduqodirovich
TATU Farg'ona filiali katta o'qituvchisi*

Ushbu maqolada Ibn Sinoning barkamol avlodni tarbiyalashdagi inson kamoloti, madaniyati va falsafiy mulohazasini yuksaltirish nazariy jixatdan yoritib berilgan.

Mustaqillik sharofati bilan Uyg'onish davri va umuman o'tmish zamon mutafakkirlari ijodini har tomonlama chuqur o'rganishga kirishilayotgani milliy ma'naviy qadriyatlarimiz salmog'ini oshirmoqda. Jumladan, Abu Ali ibn Sino falsafiy merosi ko'pqirrali bo'lib, ularni o'zaro qiyosiy o'rganish fuqarolik jamiyati asoslari yaratilayotgan hozirgi tarixiy bosqichlarda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov qayd qiladiki "Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri" degan unvonga sazovor bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarda alohida g'urur va ehtirom tuyg'ularini uyg'otadi. Ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug' zot o'z umri davomida 450 dan ortiq asar yaratdi. Ularning aksariyati avvalo tibbiyot va falsafa, shuningdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga bag'ishlangan. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frensis Bekon va boshqa ko'plab olimlar avlodi uning asarlarini o'qib, hayratga tushganlar".

Sharq uyg'onish davri faylasuf olimlari ijodida ular tomonidan yaratilgan ilmiy ta'limotda inson muammosi, shu jumlada uning kamoloti, tarbiyasi, jamiyatdagi ijtimoiy o'rni masalalari chuqur tahlil qilingan.

Abu Ali Ibn Sino qalamiga mansub falsafiy asarlarning aksaryati inson ma'naviy, axloqiy dunyosi, uning jamiyatdagi odobi muamolari ilmiy tahliliga bag'ishlangan. Ta'kidlash lozimki, allomaning falsafiy ta'limotida inson faoliyatining ijtimoiy ideal masalalariga ham muhim o'rin berilgan.

Mutafakirning inson ruxi xaqidagi, tangri taolo to'g'risidagi qarashlari umumbashariy axamiyat kasb etadi. Alloma ijodiga, uning yaratgan benazir falsafiy mazmundagi asarlarining tadqiqi mamlakatimizda, bevosita milliy g'oya targ'iboti, yoshlarda vatanparvarlik, yurtparvarlik, yaratuvchanlik kayfiyati, tarbiyasi, umuminsoniy xarakterdagi madaniyatini, falsafiy mulohazasini yuksaltirishda muxim nazariy va amaliy axamiyat kasb etmoqda.

Ibn Sinoning ijtimoiy ideal xaqidagi borliqqa nisbatan va tasavvuriy qarashlari uning "Ishq risolasi", "Ishroq" ("Azhaviya", Yorig'lashuv), "Tayr qissasi", "Ruhnoma" asarlarida, "At-tanbeh val-ishorat" asarining "Tasavvur darajalari" va "Mo'jizalarning sirlari haqida" deb nomlangan boblarida bayon qilinadi Biz asosan mutafakkirning "Tayr qissasi"ning mazmuni, falsafiy mohiyati haqida fikr yuritamiz. Ibn Sinoning falsafiy qissalaridan biri bo'lgan bu asar ilmiy mukammalligi va bayon qilgan fikrlar teranligi bilan ajralib turadi. Bu asarning botiniy manolarini yaxshi tushunish uchun allomaning "At-tanbeh val-ishorat" asarida aytilgan ayrim mulohazalar bilan yaqindan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir. Alloma asarining yettinchi bobi "Ruhning tanadan ajralishi" deb ataladi. Ushbu bobda Ibn Sino takidlaydiki, ya'ni "Jahonda turli jonli mavjudotlarning holatlarida ko'rilgan (va ko'riladigan) meyordan oshiq hovliqish, ehtiros va g'azabga berilish sababli insoning oxiratdagi xayoti haqida noto'g'ri tasavvurlar paydo bo'ladi. Lekin, bunday holatdagi odamlar jamiyatda ozchilikni tashkil etadi. Tangri taolo shunday sabablarga ko'ra yomonlik qilib yashovchilarni, bularning taqdiriga shular yozilganligini yaxshi biladi va xamda ularni vaqtincha tinch qo'yadi. Allomaning qayd qilishicha, inson o'zining ongi hayotida buni yaxshi tushinishi dorkor. Asarda ta'kidlanadiki.

-Extimol, senda bunday savol tug'iladi. Ko'pchilik odamlar jaholatga, extirosarga va g'azabga berilgandir. Nega bunday odamlarni kamchilik deb o'ylaydilar?

Mutafakkir bunga javoban inson tanasi, uch hil holatda bo'lishini bildiradi. Birinchisi, o'z go'zalligi va sog'lomligi jihatidan eng yaxshi holat. Ikkinchisi, go'zalligi va sog'lomligi yetishmagan holat. Uchinchisi, xunuklik va bemorlik holati. Birinchi va ikkinchi turdagi odamlar bu dunyoda to'liq yoki qisman baxtiyorlikka va sog'lomlikka erishadilar".⁸⁴

Shundan so'ng Ibn Sino bu odamlarning ruhi ham uch turli mazmunda ekanligini takidlaydi:

Birinchidan, aqliy, manaviy fazilatlar sohibi bo'lganlar insonlar bo'lib ular oliy baxt-saodatga erishadilar.

Ikkinchidan, aqli, manaviy fazilatlarga ega emas, lekin bilimsizligi uning oxiratiga zarar keltirmaydigan odamlar. Bular (boshqalarga yomonlik qilmagani uchun) oxiratda sog'-salomat bo'ladilar.

Uchinchidan, ruhi sog'lom emasligi, hastaligi, illatlari mavjud bo'lganligi sababli oxiratda qiyin azoblarga uchraydigan odamlar.⁸⁵

Bulardan o'rtadagilar ya'ni ikkinchi gurux tarkibiga kiradiganlar yaxshilik, sahiylik qilmaydigan, yomonlik ham qilmaydiganlar jamiyatda ko'pchilikni tashkil etadi. Ibn Sinoning zamondoshi alloma Muhammad G'azzoliyning bu sohada masalaga oid falsafiy fikrlari butunlay boshqachadir. Muallif "Kimiyo saodat" asarida oltin, dur, gavhar kam uchrab, qum-shag'al ko'p uchraganiday,

⁸⁴ Qarang: Ibn Sino. Tabiiyot. Danishname. Dushanbe. 1980, str.186.

⁸⁵ Qarang: Ibn Sino. Tabiiyot. Danishname. Dushanbe. 1980, str.186.

nodir insonlar kam, jo'n, sayoz, yomon odamlar esa ko'pchilikdir deb takidlaydi.⁸⁶

Ibn Sino falsafiy qarashlarda tushintiradiki, "Inson degani" yeb to'ymasligi, ochko'zligi sababli turli kasalliklar bilan jazolangani kabi, inson ruhi ham gunohlari, nuqsonlari uchun (har ikki dunyoda) jazolanadi.

Jumladan Ibn Sinoning "At-Tanbeh val-ishorat" asarida aytgan quyidagi fikrlari juda qiziqarlidir. "Avom, ilmsiz odamlardan biriga nasihat qilib aytamizki, siz ayollar bilan qo'shilishni (shahvatini), shirin taomlarini eng yaxshi lazzat deb o'ylaysiz lekin, shuni bilinki, oddiy shahmat o'yinida yutib chiqqan odam uchun bu g'alaba ayollarga qo'shilishdan va shirin ovqatdan ham huzurliroqdir. Alloma takidlaydiki, boshqa bir odam xalol yashashni va mansab, hokimiyatini shahvat va shirin taomdan lazzatliroq deb biladi. Sahiy odamlar ham birovga bir narsa sovg'a qilsalar hayvoniy mayl-istakni qondirishdan ko'ra ko'proq lazzatlanadilar. Mard, olijanob inson halollik, or-nomusni saqlash oldida ochlik va tashnalikni arzimas narsa deb biladi."⁸⁷

Takidlash lozimki, Ibn Sinoning O'ZFA Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan "Salamon va Ibsol" qissasi bilan B. Shidfar taxlil qilgan, sharxlagan "Salamon va Absol" qissasi axloqiy – falsafiy g'oyasi jixatidan o'xshash bo'lsada syujeti va qaxramonlari bir birdan jiddiy farq qiladi. Toshkentdagi sharqshunoslik instituti nusxasida Ibsol va Salamon aka-ukalar sifatida tasvirlanganlar. Malikaning ismi aytilmagan. Uning axloqsizligi, jinoiy qilmishlari, shaxvatparastligi har ikki variantda ham qat'iy qoralanadi. Lekin ideal ijobiy obraz – siymo Ibsol nima uchundir Germaniyalik sharqshunos B. Shidfar topgan nusxada malikaning ismi Absolga aylangan. Salamon o'rnida B. Shidfar variantida Rum podshohi Germanus bo'lib, bular endi aka-uka emas, ota-o'g'il sifatida tasvirlangan.⁸⁸

Atoqli sharqshunos olim Abdusodiq Irisov asarning Toshkent shaxridagi nusxasi haqida bunday yozgan edi: "Bu asar so'nggi yillargacha G'arbu Sharqning faylasuf olimlariga ma'lum bo'lmay keldi. Faylasuflar asarni yo'qolib ketgan deb o'yildilar. Ba'zi manbashunos olimlar esa Ibn Sino bu asar syujetini o'zidan oldinroq o'tgan Xunayin ibn Ishoqning yunonchadan tarjima qilgan "Salamon va Ibsol" qissasidan olgan deb xisoblaganlar.

O'zbek xalqi madaniy merosining tarixiy ildizlari

*N. Imomberdiyeva,
Namangan shahar 27-umumta'lim
makatabi o'qituvchisi*

O'zbek xalqining madaniy merosi o'zining teran ildizlariga ega. Xalqimiz necha ming yillar davomida o'zining milliy davlatchiligiga ega bo'lgan. Yurtimiz insoniyat sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri hisoblanadi. Xalqimiz

⁸⁶ Abu Hamid G'azzoliy. Kimiyoi saodat. T. Adolat. 2004, B.

⁸⁷ Qarang: Ibn Sino. Tabiiyot. Danishname. Dushanbe. 1980, str.186.

⁸⁸ Qarang: Shidfar. B.Ya Ibn Sina. M.Nauka. 1981, str. 135-137

orasidan etishib chiqqan allomalar, buyuk shaxslar yaratgan ilmiy-ma'naviy meros jahon jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilgan.

Masalan, bundan 2700 yil muqaddam aynan shu zaminda Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ning yaratilganligi ham fikrimizning dalilidir.

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati haqidagi bilimlarning bebaho manbasi «Avesto» hisoblangan. «Avesto» so'zining mazmuni umumiy izohga ega emas, ko'pincha «Asosiy matn» sifatida tarjima qilinadi. «Avesto» dunyodagi eng qadimgi dinlardan bo'lgan Zardo'shtiylik tarafdorlari uchun muqaddas kalima hisoblanib, payg'ambar Zardo'sht to'planganlarga undan va'z o'qigan. Uning hayoti davri mil. av. IX-VI asrlar atrofida deyiladi. «Avesto» va uning boshqa matnlarining to'planishi ko'p asrlar davomida amalga oshirilgan.

Markaziy Osiyo madaniyati taraqqiyoti mobaynida o'ziga xos an'ana va yutuqlarni saqlabgina qolmasdan, ulkan mintaqada umumiy qadriyatlarni vujudga kelishi, Yaqin va o'rta Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqa munosabatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratib madaniy yuksalishni yangi sifat bosqichiga ko'tardi. Qadimgi Markaziy Osiyo madaniyatining rivoj nuqtasi bo'lgan Kushonlar madaniyati hududiy va mazmun jihatidan ayro olingan madaniyat emas edi. U o'zida Sharq, Markaziy Osiyo, Antik dunyo va hind madaniyatlari yutuqlarini o'zida mujassam etib, Sharq va Jahon xalqlari madaniyatini yana ravnaq topishiga asos bo'ldi.

Qadimgi davrlarda ham Markaziy Osiyo xalqlari o'zlarining yuksak ma'naviy qadriyatlariga ega bo'lganlar. Bu holat Islom dini kirib kelgach, yanada rivojlandi. VIII-IX asrlardan boshlab yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar jahon ilm-fani, madaniyati, ma'naviy taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'sha boshladilar.

Xalqimiz madaniy-ma'naviy boyliklarga jahon xalqlari ham zo'r hurmat va e'tibor bilan qaray boshladilar.

Bu borada Hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy, Termiziy larni, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg'inoniy larni, Ibn Sino, Beruniy, Mahmud Zamahshariylarni misold qilib keltirish mumkin. Aynan shu davrda etishib chiqqan vatandoshlarimiz jahon ilm fanida yorqin yulduzga aylandilar.

IX-X asrlarda O'rta Osiyoda fan ilmiy asoslarga ega edi. IX-XII asrlarda arab tilida asarlar yozgan eng mashhur olimlar Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abusax Masihiy, Abulhayr Xammor, Abunosir Arron va boshqalar edi.

Abu Rayxon Beruniyning zamondoshi va safdoshi Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ham o'z davrining yetuk allomasi fan fidoyisi sifatida mashhurdir.

Buxoro sharifning Afshona qishlog'ida tug'ilib voyaga yetgan ibn Sino 18 yoshlik chog'idanoq el orasida yetuk tabib, olim sifatida tan olingan, uning dovrug'i Somoniylar saroyida ham ma'lum va mashhur bo'lgan. Ibn Sino asarlari umumiy sonining 450 dan oshishi ham bunga guvohdir. Biroq bulardan 160 ga yaqini bizgacha yetib kelgan, xolos. Alloma nomini dunyoga tanitgan narsa, bu uning tibbiyot sohasidagi mislsiz kashfiyotidir. Ibn Sinoning arab tilida

yaratgan 5 jildli «Tib qonunlari» asari tibbiyotga oid benazir dasturul amaldir. Besh mustaqil kitobdan iborat bu majmuani ko'zdan kechirar ekanmiz, allomaning yuksak tabiblik salohiyatiga, kasalliklarni aniqlash, ularni davolash borasida mahoratiga, bilimdonligiga tan beramiz. Jumladan, «Tib qonunlari» ning ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dorining xususiyatlari bayon etilganligi buning ayni isbotidir.

Bugun musulmon olamida «Hadis ilmida amir al-mo'miniyn» degan sharafli nomga sazovor bo'lgan Imom Ismoil al-Buxoriy (810-870) nomi yorqin ko'zga tashlanib turadi. Yuksak aql zakovat sohibi Al Buxoriy Sharqning yirik ilmiy va ma'rifiy markazlaridan biri-Buxoro sharifida tug'ilib juda erta yoshligidan diniy bilimlarni chuqur egallaydi. 16 yoshlik davridan boshlab u musulmon dunyosining ko'plab shaharlarini kezib, hadis ilmining siri asrorlarini bilish, ularni to'plash va tadqiq qilish uchun tinimsiz sa'y harakatlarda bo'ladi.

Imom Buxoriy o'z safarlari davomida turli shaharlardagi 90 ga yaqin ustozlardan ta'lim olgan. Ayni chog'da uning o'zi ham son-sanoqsiz shogirdlarga ustozlik qilgan. Imom Buxoriy shogirdlari orasida Isxoq ibn-Muhammad ar-Ramodiy, Muhammad al-Masnadiy, Xalaf ibn Qutayba, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marg'oziy, Imom Ahmad ibn Xambal singari zukko olimlar nomi alohida ajralib turadi.

Imom al-Buxoriyning zamondoshi va shogirdi, o'z davrining mashhur allomasi-Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892) ham hadishshunoslik ilmini yuksak bosqichga ko'targan yorqin siymolardandir.

XV asrda Samarqand va Hirot da me'morchilik, naqqoshlik, tasviriy san'at, adabiyot yuksak darajada taraqqiy etadi. Kamoliddin Behzod zamondoshlari tomonidan Moniyi Soniy (Ikkinchi Moniy) deb ulug'langan.

XV asrda Behzod asos solgan Hirot musavvirlik maktabi ulkan yutuqlarga erishdi. Kamoliddin Behzod XV asr tasviriy sarfatining ulug' namoyandasidir. U musavvirlikda "Hirot maktabi" deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo'ldi. Behzod ustoz san'atkor sifatida o'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalar tasviriy san'atining taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi.

Konstitutsiya -Oliy qomus

*Zokirov Navruz - Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

O'zbek milliy davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda uni yanada rivojlantirish va takomillashtirib borish haqidagi milliy davlatchiligimizning konstitutsiyaviy huquqiy jihatlarini rivojlantirib, takomillashtirib borayotganligimizdan faxrlanish, qoniqish hosil qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish butun O'zbekiston xalqining o'z ravnaqi uchun oldiga qo'yilgan muqaddas burchidir. Bizga tarixdan ma'lumki, qadim zamonlardan beri insoniyat adolat va huquqiy kafolat

uchun kurashib kelgan. Hozirgi davrimizda ham bu muammoni hal etish yo'llarini belgilash va hayotga tatbiq etish dolzarbligicha qolmoqda. Mamlakatimizning asosiy Qonuni bo'lmish O'zbekiston Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmuni va mohiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirish, shuningdek, Konstitutsiyani bilish, uning mazmuni targ'ib va tashviq qilish jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish dolzarb, ustuvor voqealidir.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatni qurish ko'p jihatdan huquqiy ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishga bog'liqdir. Huquqiy bilimlarni keng targ'ib qilish va siyosiy-huquqiy madaniyatni uyg'unlashtirish, inson huquqlari ustuvor bo'lgan jamiyatni barpo etishda hamda fuqarolarining huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimizning asosiy Qonunida Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining deyarli barcha printsiplial qoidalari o'z aksini topgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlanganidek, yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizimning yetukligining ifodasidir.

Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir shaxs, hech bir fuqaro o'z ijtimoiy-shaxsiy hayotini, o'zining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaydi. Chunki, har bir shaxs kundalik hayotida Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklariga bevosita murojaat qiladi, hamda ushbu Asosiy qonunga o'zining huquq va erkinliklarini kafolatlab beruvchi oliy yuridik hujjat sifatida qaraydi. Shuning uchun ham demokratik jamiyatda yashayotgan har bir shaxs Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi hamda shaxsiy hayotida uchrab turadigan muammolarning yechimini aynan Konstitutsiyadan topa bilishi zarur.

Ma'lumki, demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidagi eng dastlabki va eng muhim qadam Konstitutsiyani o'rganish hamda uni hayotga tatbiq etishdan boshlanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvarda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishi ham demokratiya yo'lida ulkan bir qadam qo'yish uchun katta turtki bo'ldi. Darhaqiqat, ko'p narsa mamlakatda Konstitutsiyani ommaviy ravishda o'rganish hamda uni hayotga tatbiq etishga bog'liq. Mana shu maqsadda davlatimiz rahbari O'zbekiston Konstitutsiyasini bolalar bog'chasidan boshlab o'rgatish, maktablarda darslik tariqasida o'qitish hamda oliy o'quv yurtlarida esa maxsus dars sifatida o'rganishni¹⁰⁸ vazifa qilib qo'ydi. Hozirda mamlakatimizdagi barcha muassasalarda konstitutsiyani targ'ibotini amalga oshirish muhim vazifa hisoblanmoqda, chunki mamlakatimizdagi tinch hayotning huquqiy kafoloti, manbasini bilish har bir fuqaroning faxrli burchidir.

¹⁰⁸ Karimov I. A. "Konstitutsiya to'g'risida" Toshkent, 2001, 153 – bet.

Shundan kelib chiqib, farmoyish asosida 2001 yil 1 sentyabrdan mamlakatimizda uzluksiz huquqiy ta'limning asosi hisoblanmish Konstitutsiyani o'rganish bog'chadan boshlab to oliy ta'limning yuqori bosqichi hisoblanadigan magistratura va umuman barcha axoli o'rtasida o'rganishgacha tashkil etildi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish butun O'zbekiston xalqining yuksak va mas'uliyatli burchidir.

Konstitutsiya - Asosiy qonun sifatida barcha qonunchilik sohalarining bosh manbai hisoblanadi, chunki Konstitutsiyada xalqning oliy irodasi o'zining qonuniy ifodasi hamda muxtasar bayonini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hokimiyat bilan shaxsning o'zaro munosabatlarini, davlat idoralari tizimining faoliyat yuritishini tartibga soluvchi, fuqarolarning huquqiy maqomini, shuningdek, jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari holatini belgilovchi huquqiy normalar yig'indisi o'z ifodasini topgan

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish - bu konstitutsiyaviy institutlar haqida tasavvurlar va bilimlar, konstitutsiyaviy normalar va ular orqali tartibga solinadigan munosabatlar tizimini o'rganish, hayotimiz kafolatini o'rganishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish o'ziga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, ularning kafolatlari va burchlarini, ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishini, saylov tizimini, hokimiyat tizimi va davlat organlari tizimini tashkil etish hamda faoliyatining asosiy printsiplarini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish asoslarini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish konstitutsiyaviy institutlar va normalarni haqida bilim va tasavvurlar va ularning rivojlanishlarini o'rganadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishdan maqsad axolida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining - Asosiy Qonun sifatida jamiyat va davlat hayotida tutgan o'rnini, fuqarolarning xuquq va erkinliklari va burchlarini, Konstitutsiyaviy qonunlar va xuquq manbalarining xususiyati to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishning vazifalari quyidagilardan iborat: fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini, fuqarolarning xuquqiy ongini yuksaltirishni, davlat mustaqilligining xuquqiy asoslarini, fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalarini, davlat xokimiyati tashkil etish tamoyillarini, oliy va maxalliy davlat organlari faoliyatini va ularning tizimini, demokratik institutlardan biri hisoblangan saylov tizimini va uning mazmunini, davlat xokimiyati va sud-xuquq tizimidagi o'zgarishlarni yaqindan tanishtirish.

Ma'lumki, o'tgan davr maboynida, xususan 2002-2016 yillar orasida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishi sohasida juda ko'p islohotlar amalga oshirildi hamda bir qancha yangi qonunlar qabul qilindi. Shundan kelib chiqqan holda aytish lozimki, jamiyatda quyidagi yangi huquqiy islohotlar hamda o'zgarishlar o'z aksini topdi:

- O'zbekiston tarixida birinchi marta davlat xokimiyati tizimida ikki palatali parlament tizimi qaror topdi hamda Prezidentning ayrim vakolatlari parlamentga o'tdi;

- Prezidentning vakolat muddati islohotlari amalga oshirildi;

- ijro xokimiyati tarkibi yangidan tashkil etilib, uning vazifalari aniq yo'naltirildi;

- davlat hokimiyatining shakllanishida muhim institut hisoblangan saylov tizimida ayrim o'zgarishlar ro'y berdi;

- sud-xuquq tizimi tubdan liberallashtirildi.

Demak konstitutsiya targ'iboti orqali biz jamiyat va davlat hayotidagi modernizatsiya va isloxtlar bilan ham tanishib boramiz.

Konstitutsiyani targ'ib qilish konstitutsiyaviy-huquqiy ongi yuksalishi hamda huquqiy madaniyatning shakllanishida baholi qudrat xizmat qiladi.

Jamiyatdagi har bir shaxs oldiga vazifalar belgilaydi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, Konstitutsiyaning asosiy mohiyati, ...shundaki, u jamiyat va uning a'zolari oldiga maqsad qo'yadi. Ana shu ezgu maqsadga erishishning yo'llarini o'zida mujassam etadi. Shu o'rinda davlat, oila va jamiyat manfaatlari, soddaroq qilib aytsak, davlat va inson manfaatlari uyg'unlashib ketmas ekan, rivojlanish sari olg'a siljish bo'lmaydi.

109

Modernizatsiya jarayonida fuqarolar siyosiy faolligi asosi

1. Shovolatov - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi ***1-bosqich talabasi***

Siyosat-muayyan sub'ektlar o'rtasidagi hokimiyatga oid munosabatlar ifodasi bo'lib, unda ular o'z manfaatlarini qondirish uchun hokimiyatga intiladilar yoki hokimiyatdan foydalaniladilar. Boshqacha aytganda, siyosat hokimiyat yordamida eng muhim umumiy manfaatlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan munosabatlar majmuidir.

Siyosiy hokimiyat shunday siyosiy institutlar, tashkilotlar va siyosiy-huquqiy normalar vositasida amalga oshiriladiki, ular hokimiyatga tashkiliy shaklu shamoyil baxsh etadi.

Hokimiyatning alohida ijtimoiy siyosiy mohiyatga ega bo'lgan turi davlat hokimiyatidir. Davlat hokimiyati ommaviy siyosiy xarakterga ega bo'lib, asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatni uyushtirish va boshqarishdan iborat. U muayyan tashkiliy tashkiliy shakllarda namoyon bo'ladi, maxsus usullar va vositalar bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon demokratik jamiyatlarida davlat hokimiyati huquq vositasida, Konstitutsiya tarzidagi qonunlarni institutsional ko'rinishda rasmiylashtiriladi. Shu bois Konstitutsiya davlat hokimiyatining mohiyatini aks

¹⁰⁹ Karimov I.A "Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi". T., O'zbekiston, 1997. 258-bet.

ettiruvchi, uning faoliyat printsiplarini rasman ifodalovchi asosiy hujjatdir. Ayni vaqtda bu Shoh qonun ijtimoiy siyosiy hayot ko'zgusi, mamlakat huquqiy tizimining, butun qonunchilik majmuining o'zagi sifatida maydonga chiqadi. Davlat hokimiyatining siyosiy tizimga, fuqarolik jamiyatiga nisbatan tutadigan mavqei, maqomi davlat bilan fuqaro o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mazmuni va ko'lamlari Konstitutsiyada belgilab beriladi.

Bugungi kunda demokratik tarzda konstitutsiyaviy me'yorlangan davlat hokimiyati jamiyat umumiy manfaatlari va farovonligiga xizmat qiluvchi institutga aylandi, deyish o'rinli bo'ladi. U jamiyatning yalpi farog'atini ta'minlash maqsadida fuqarolar hamda ular uyushmalarining turli extiyoj va manfatlarini muvofiqlashtirish mexanizmi bo'lib xizmat qilmoqda.

"Demokratiya sharoitlarida esa, -deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov, -davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'rifi bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi"¹¹⁰.

Xuddi shu maqsadda jamiyatdagi turli-tuman ijtimoiy manfaatlarni aniqlash, ularni o'zaro muvofiqlashtirish, uyg'unlashtirish va pirovardida, konsensus (kelishuv) asosida yagona irodaga aylantiruvchi davlat hokimiyat mexanizmi vujudga keltiriladi. Ushbu mexanizm Konstitutsiyada o'zining qonuniy tasdig'ini topadi. Boshqacha aytganda, Konstitutsiya davlat hokimiyatini tizginlovchi, me'yorlovchi, uni moddiylashtiruvchi, shuningdek, ta'bir joiz bo'lsa, cheklovchi siyosiy-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Fuqarolarning hokimiyatni amalga oshirishdagi ishtiroki konstitutsiyada mustahkamlanadi.

Siyosiy huquq va erkinliklar fuqarolar konstitutsiyaviy huquqlarining alohida toifasini tashkil etadi. Ular shaxsning davlat fuqarosi sifatidagi yuridik maqomini mustahkamlaydi, fuqaroning davlat hayotida ishtirok etish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda tartibotlarini belgilaydi. Siyosiy huquq va erkinliklar shaxsiy huquq va erkinliklardan farqli o'laroq shaxs avtonomiyasi (mustaqilligi)ni emas, balki uning mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotiga faol kirishish shart-sharoitlarini belgilaydi. Siyosiy huquqlar har kimga emas, balki faqat fuqarolarga beriladi. Fuqarolarning davlat bilan munosabatini konstitutsiya va konunlar tartibga soladi, bu munosabatlarning printsiplarini o'rnatadi. Siyosiy huquq va erkinliklarning ahamiyati shundaki, ularning holati va mazmuniga qarab konstitutsiyaviy tuzum asoslari mustaxkamligiga, uning demokratikligiga, axoli siyosiy madaniyati yuksakligiga baho beriladi.

Siyosiy huquq va erkinlar doirasiga, avvalo, saylov huquqlari kiradi. Zero, saylovlar yo'li bilan O'zbekistonda davlat hokimiyati idoralari shakllantiriladi. Saylov huquqi bilan uzviy holda Konstitutsiya axolining referendumda (umumxalq ovoz berishida) ishtirok etishini ham nazarda tutadi.

¹¹⁰ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.T., O'zbekiston, 1996. 20-bet

O'zbekiston respublikasining fuqarolari davlat va jamoat ishlarini boshqarishda bevosita hamda vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi (Konstitutsiyaning 37- moddasi).

Har qanday hamjamiyat, uyushma a'zosining shu jumladan davlat fuqarosining, umumiy ishlarni boshqarishda ishtirok etishi- demokratiyaning bevosita ifodasidir. Fuqaroning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishi prinsipi O'zbekiston siyosiy tizimining markaziy qoidasi hisoblanadi. Bu printsin xalq suvereniteti va xalq hokimiyatchiligi printsiplarining uzviy davomidir. Xalq-davlat hokimiyati manbai bo'lsa, fuqaro-davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonining ishtirokchisi. Respublika siyosiy tuzumi subektlari (davlat, siyosiy partiya, jamoat birlashmalari)ning faoliyatida fuqarolarning ishtirok etishi bu bo'g'inlarning bosh maqsadidir, zero, siyosiy tashkilot o'z faoliyatiga fuqarolarni qanchalik ko'p jalb eta olsa, uning siyosiy nufuzi shunchalik yuqori bo'ladi.

Davlat ishlarini boshqarishda fuqarolar ishtiroki bir necha shakllarda ro'y beradi. Avvalo, Konstitutsiyaga muvofiq, bu ishtirok bevosita hamda vakillar orqali amalga oshishi mumkin. Bevosita shakllarga, saylovlar, referendum, qonun loyixalarini muxokama etishda qatnashish, shuningdek, maxalliy hokimiyat idoralari va o'zini-o'zi boshqarish organlari (mahalla) yig'inlarida ishtirok etish kabilar kiradi¹¹¹.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining siyosiy huquqlari va demokratik erkinliklari shaxsning erkinligi, to'la huquqliligi, jamiyat va davlat vazifalarini faol bajarishga qatnashishida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimiz fuqarolariga keng siyosiy huquqlar va demokratik erkinliklar berilishi O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ajralmas qismidir. Fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklari mehnatkashlar va ularning tashkilotlariga bosmaxonalar, qog'oz zahiralari, jamoat binolari, maydonlar va aloqa vositalaridan foydalanish huquqini berish va bu huquqlarini kamalga oshirishlari uchun boshqa zaruriy moddiy shart-sharoit yaratish yo'li bilan ta'minlanadi. Fuqarolarning bu huquq va erkinliklari mamlakat siyosiy faoliyatida faol qatnashishi imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasida xalq manfaatlarini nazarda tutib mustaqillik va istiqloolni mustaxkamlash va rivojlantirish maqsadida fuqarolarning so'z erkinligi, matbuot erkinligi, mitinglar, yig'ilish va namoyishlar o'tkazish erkinliklari ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolar o'zlarining siyosiy huquqlarini jamiyat ishlarini boshqarish, davlatni idora etishda qatnashish orqali amalga oshiradilar.

¹¹¹ Odilqoriev.X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.,Sharq 2002 148-149 b

O'zbek xalqining siyosiy faolligi va tashabbusini oshirmasdan turib demokratik, insonparvar fuqarolik jamiyatini muvoffaqiyatli qurish mumkin emas. Mustaqillik va istiqloq sharoitida O'zbekistonda xalq ommasining siyosiy faolligi kundan kunga ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya va qonunlari tomonidan fuqarolarga o'z davlatini idora etish huquqi berilishi respublikamizda mustaqillik tufayli qaror topgan haqiqiy demokratiya talablaridan kelib chiqadi.

O'zbekistonda demokratik, insonparvar, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish sharoitida jamoat uyushmalari, o'zini-o'zi boshqarish tashkilotlarining ahamiyatini kuchaytirish, haqiqiy demokratiyani rivojlanti-rish, demokratiyaning oliy maqsadi bo'lgan jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga barcha fuqarolarni jalb qilishni eng muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Davlat amalga oshiradigan ko'plab vazifalarning jamoat uyushmalari, o'zini-o'zi boshqarish idoralari ixtiyoriga o'tishi hozirning o'zidayoq O'zbekiston jamiyati va davlatining xalqchilligi va xalq manfaatini ifoda etishidan dalolat bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov,- "Yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik institutlari rolini yanada kuchaytirish fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bo'yicha o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizni ro'yobga chiqarishda hech bir mubolag'asiz hal qiluvchi omil ekanini, o'ylaymanki, kimgadir uqtirib o'tirishga zarurat bo'lmasa kerak¹¹²-deb ta'kidlaganlar.

Davlat o'z faoliyatida fuqarolarni ishontirish, tabiyalash, ularni ongini oshirish usullariga tayangan holda, barcha fuqarolarning ahloq qoidalariga ixtiyoriy ravishda rioya qilishlariga intilmoqda va bu ishda faollarga, ularning sadoqati va ongilligiga tayanmoqda.

O'zbekiston "respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga" intiluvchi insonparvar davlat bo'lib, uning asosiy vazifasi butun jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolarning keng qatlamini jalb qilishdan iborat bo'lgani uchun o'z oldida turgan asosiy masala-bozor iqtisodini qaror toptirish vazifasini davlat organlari bilan jamoat uyushmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarisiz bajara olmaydi. Mamlakatimizda demokratik, insonparvar fuqarolik jamiyatini rivojlanishi O'zbekiston davlatining ma'muriy majburlov faoliyatini cheklash hisobiga uning tarbiyaviy faoliyatini kengaytirish, mustaqil davlat tizimining, haqiqiy demokratizmning tobora rivojlanishi va takomillashishiga sharoit tug'dirmoqda.

¹¹² Karimov I. A. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsivasi» mavzuida 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis ma'ruza. Htt://www.parlament.gov.uz/uz/events/chamber/2550#spich

Parlament –fuqorolik jamiyati asosi

*Xoliqov Lochin - Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi*

1-bosqich talabasi

O'zbekiston davlatchiligi tarixiga nazar solinsa vaqoldirilgan tarixiy manbalarga e'tibor berilsa, mamlakatimiz joylashgan xududlarda mavjud bo'lgan davlatlarda adolatli davlat boshqaruvi va hokimiyat vakolatlari bo'linish tamoyillariga ko'ra ish olib borgan davlatlarni faoliyatini o'rganish mumkinligini ko'ramiz.

O'zbekiston xududidagi ilk davrda yashagan xalqlar jamiyatni boshqarishda birgalikda xarakat qilganlar. Xatto davlatgacha bo'lgan davrdagi xalq jamiyatni boshqarishda muayyan tashkiliy asosga va diniy-aqloqiy manbaga ega bo'lgan. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi manba "Ovesto" mavjud bo'lgan. Bu manbada "nmana", "vis", "zantu", "dax'yu" kabi birliklar to'qrisida ham ma'lumot berilib, ulardagi boshqaruv o'zaro kelishuvga asoslanganligi aytilgan. Bu kabi barcha birliklar jamoa manfaatlarini qimoya qilib, halqning boshqaruvdagi ishtiroki o'ziga xos shakldaligi bayon etilgan.

"Oilalarning birlashmasi- "nmana", uy, oila jamoasi-"dmana", katta oila jamoasi oqsoqoli-"nma"- "napati", uruq jamoasi boshliqi- "vis", katta qishloq oqsoqoli-"vispati", qabila boshliqi-"zantupati", viloyat qokimi-"daxiyupati", bir necha viloyatlarning hukmdori va qabilalarning qarbiy boshliqi-"daxiyu sastar"lardan tashkil topgan qonun chiqaruvchi Oliy organ- Oqsoqollar Kengashi (qabilalar Ittifoqi)- "varzanapati" yoki "Xanjamona" va "Xalq Majlisi"- "v'yaxa" deb yuritilgan. Davlat boshqaruvi siyosiy- ququqiy tamoyillar asosida amalga oshirilgan. ¹¹³»,- deb fikr bildiradilar olimlarimiz X. B. Boboev va S. Xasanov.

Demokratiyaning o'ziga xos ravnaqi to'qrisida berilgan nazariyalarga tayangan sharq xalqlari shoqlari, jumladan, davlatimiz xududida ulkan davlatlar bunyod etgan Amir Temur, Uluqbek, Bobur kabi davlat namoyondalari amaliyotda xalqqa tayanib faoliyat olib borganlar. Amir Temur o'zining "Temur tuzuklarida" o'z faoliyatini xalqqa tayanib olib borganligini yozib qoldirgan. U- "davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat(maslaqat) qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim¹¹⁴»,- deb yozadi.

O'zbek davlatchiligi tarixida xalqning boshqaruvda ishtirok shakllari mavjud bo'lgan. Lekin o'zbek davlatchiligi ayrim davrlarida, mustamlakachilik vaziyati xalq hokimiyatchiligini inqirozga uchratgan.

¹¹³ Boboev X. Xasanov. S. «Avesto»-ma'naviyatimiz sarchashmasi». Toshkent. «Adolat». 2001- 51 b.

¹¹⁴ Temur tuzuklari. T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 1991- 15b.

Tarixga bir nazar tashlasak. O'zbekiston mustaqillikdan oldingi 130 yil davomida siyosiy qaramlik, mustamlakachilik zulmini boshidan kechirdi. Xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan maxrum etilgan, oz taraqqiyot yo'lini o'zi belgilay olmas edi. Milliy davlatchiligimiz inkor etilib, mamlakatimiz xalqning xoxish irodasiga qarshi o'laroq sobiq Ittifoqning ma'muriy-xududiy qismiga aylantirilgan edi. Respublika raxbarlari, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar boshliqlari, xatto, viloyat raxbarlari ham markaz tomonidan tayinlanardi. Mustaqillik xalqimizga o'z taqdirini o'z qo'liga olish, taraqqiyot yo'lini mustaqil ravishda belgilash, milliy davlatchilikni tiklash, demokratik – huquqiy davlat barpo etish, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish imkonini yaratdi. Davlat boshlig'ini, hokimiyatning vakillik organlarini xalq tomonidan demokratik yo'l bilan erkin saylab qo'yishni ta'minladi.

Hozirgi kun rivojlangan davlatlarda parlament xalqning davlat hokimiyatida ishtirokini ta'minlashda, demokratiyani amalga oshirishda muxim o'rin tutadi. Inson huquqiy tafakkurining maxsuli xisoblangan, hamda jamiyatning umummilliy vakillik muassasasi sifatida dunyoga kelgan parlament uzoq yillar davomida xalq hokimiyatchiligini ifoda etib kelgan. Jahon xalqlari o'zlarining ruxiy kechinmalari, orzu-istaklarini namoyon etish va davlat boshqaruvida o'z o'rniga ega bo'lish uchun uzoq vaqt kurashilib keldilar. Natijada, u yoki busoxada huquqlarini shakillantirdilar, o'zlarining vakillik organini yaratdilar. Huquqiy demokratik davlatda parlamentning mavjudligi qonun ustivorligini ta'minlaydi.

Parlament frantsuzcha "Parler" - gapirmoq so'zidan kelib chiqqan bo'lib rasmiy so'zlash joyi ma'nosini anglatadi.

Parlament davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Parlament qonun bo'yicha belgilangan sondagi deputatdan iborat bo'lib hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to'lgan fuqarolar saylanadi. Jahon tajribasidan foydalangan holda O'zbekiston o'zining qonun chiqarish hokimiyatini – PARLAMENTni shakillantirdi. Bu borada birqancha huquqiy normalar va xujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston parlamenti jamiyatimizda qonun ustivorligini ta'minlash, iqtisodiy va siyosiy soxalarda isloxotlarni chuqurlashtirishga doir huquqiy asoslarni yanada rivojlantirish, fuqorolarning huquq va manfaatlarini ximoya qilish, Mustaqil O'zbekistonning jahon miqyosidagi nufuzini oshirish kabi ko'plab muhim masalalarni xal qildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning siyosiy mustaqilligini mustaxkamlashda demokratik davlat va fuqorolik jamiyatini qurishga yo'naltirgan chuqur siyosiy isloxotlar o'tkazildi.

Fuqorolarning siyosiy faolligini yanada oshirish maqsadida 2001-yil 6-7-dekabr kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisining VII sessiyasida ikki palatali parlament faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omil – yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllanib yetilganligi, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasining ortganligini inobatga olindi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga kelindi.

Ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi xayotning o'zidan, xokimiyat tarmoqlarini aniq ajratish asosida milliy davlatchilik institutlarini yanada mustaxkamlash zaruratidan kelib chiqadi. Ma'lumki, demokratik mamlakatlarning aksariyatida parlament ikki palatalidir. XX asrning so'ngi o'nyilliklarida ikki palatali tizim parlamentarizm taraqqiyotining asosiy tengensiyasiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini qarorlaridan kelib chiqib, O'zbekiston xokimiyati tuzimida Oliy Majlisning huquqiy maqomini yanada takomillashtirish prinsiplari belgilandi, Oliy Majlisning VIII sessiyasida qabul qilingan "Referendum yakunlari hamda davlat xokimiyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq Oliy Majlis ikki palatadan Oliy Majlisning qonunchilik palatasi va Oliy majlis Senatidan iborat bo'ldi. 2004-yil dekabr – 2005-yil yanvar oylarida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi.

Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng dolzarb vazifa

*G'aniev Abduxakim - Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Dunyodagi har bir davlat katta-kichikligidan qat'iy nazar o'zining taraqqiyoti jarayonida ma'naviyatga ehtiyoj sezgan va sezadi. Bu tarixiy zaruriyatdir. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi roli va ahamiyati ayniqsa, tarixning burilishi, yangilanish davrlarida beqiyos bo'ladi. Shuning uchun ham ma'naviyat va ma'rifat, milliy g'oya va mafkurani yaratish va shakllantirish hamda ma'naviy barkamol inson tarbiyasi masalalari ijtimoiy hayotimizning dolzarb muammolari hisoblanadi, chunki istiqlolimiz sharofati tufayli vatanimizda shakllanayotgan nazariya va amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ma'naviyat, ajdodlarimiz qoldirgan madaniy-ma'naviy meros – jamiyatimiz taraqqiyotining kafolatlaridan biri, uning belgilovchi omilidir.

«Ma'lumki, bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda».¹¹⁵

¹¹⁵ Karimov I.A. Bunyodkorligimiz huquqiy asosi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi. 2009- 6 dekabr.

Prezidentimiz I. A. Karimovning har bir asari va ma'ruzalarida, nutqlarida yuksak ma'naviyat kelajak poydevori ekanligi ta'kidlangan. Xalqimizning kelajagi eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liqdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi barkamol avlodni moyaga yetkazish davrimizning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

«Jamiyat taraqqiyoti va inson, insof, diyonat, or-nomus, mehr-muhabbat, insonparvarlik, vatanparvarlik, o'z-o'zini anglash, bilimdonlik singari chinakam insoniy fazilatlar odamlarga o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi». ¹¹⁶

Hammasining zamirida sidqidildan belgilangan keng qamrovli ta'lim-tarbiya yotadi. Tarbiya – inson ongini muayyan jamiyatning maqsad manfaatlarini sari rivojlantirish jarayoni, yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy faol ishtirok etishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmuidir. U ta'lim bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiyaning muhim vazifasidir.

Tarbiya ijtimoiy hayotning o'ta murakkab shakllaridan biridir. Chunki u ajdodlarni amlodlarga, o'tmishni bugunga, bugunni esa kelajakka bog'lovchi vazifani bajarsa, ikkinchi bir holatda ota-bobolarimiz to'plagan jamiki yaxshi fazilatlar va hislatlar, qadriyatlar va an'analarning to'plami, ular to'plagan tarixiy-ijtimoiy tajriba, barcha bilimlar va ilmlarni bilish manbai bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan, ta'lim-tarbiya beruvchi ustoz va murabbiylarning professional mahorati ifodalaydi. Shuningdek, tarbiya insonning mustaqil shaxs bo'lib kamol topishida hal qiluvchi omil, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari, mafkuraviy muassasalari amalga oshirgan tarbiyaviy ishlarning natijasi, hosilasi ham hisoblanadi.

Hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyotining belgilovchi omili bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash haqidagi niyatimiz uchun g'oyaviy asos mavjud. U ham bo'lsa ajdodlarimizning sermazmun ma'naviy merosi, urf-odatlarimizga mos ma'rifatga, yuksak bilimga va kasb-hunarga, axloqiy yetuklikka intilish kabi hislatlari bo'lib, ular yillar davomida shakllangan, sayqal topgan.

Komil inson tarbiyasi borasidagi ishlarning debochasini, eng avvalo, sog'lom avlodni yaratish va uni voyaga yetkazish vazifalari tashkil etadi. Sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga keladi, sog'lom va jismonan baquvvat farzandlarimizdan esa ma'naviy barkamol inson shakllanadi. Barkamol insonni voyaga yetkazish va komil inson tarbiyasi uchun esa oila, mahalla, maktab, jamiyat va davlatning uzviy hamkorligini yuqori pog'onaga ko'tarish lozim.

Yurtimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining talablarini ta'minlashga, milliy genefondimizni asrashga, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, yoshlarni jismoniy tarbiyalash samaradorligini oshirishga o'z hissarini qo'shish maqsadida yoshlarni jismonan tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tarafdin ishlarni jadallashtirib yuboradi.

¹¹⁶ Yaxshibekov J. Barkamol avlod tarbiyasi: //Muloqot 2001.№5B- 13-14.

Yoshlarga oid maqsadli davlat siyosati olib borilayotgani bois O'zbekistonda yoshlarning turli qatlamlari, jumladan, o'quvchilar, talabalar, ishchi-xizmatchilar, yosh olimlar va ijodkorlar, mutaxassislar va tadbirkorlar uchun qulay huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratmoqda. Mamakatimizda bu yo'nalishda qouniy va huquqiy baza yaratilgani yosh avlodning porloq kelajagini ta'minlash uchun ular bilan ishlash borasida boy amaliy tajriba to'plangan. Tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, yangiliklar davrida yoshlarning o'z hayotlari va kelajaklariga ta'sir etadigan qarorlarni qabul qilishda bevosita ishtirok etishlari o'ziga xos ahamiyatga va mazmunga ega.

Shu munosabat bilan Prezident Islom Karimovning «Farzandlarimiz bizdan ko'ra yaxshiroq, aqlli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart!» - degan so'zlarini esga olib o'tish o'rinli bo'lardi. Yurtboshimizning bu fikri yoshlarning manfaatlari olib borilayotgan siyosatda o'z o'z aksini topayotgani yana bir bor isbotlaydi. Shunday ekan, O'zbekiston yoshlari o'z kuch va intilishlarini mamlakatning ertangi kun qanday bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan bugungi muhim ijtimoiy-iqtisodiy muamm va masalalarni hal etishga yo'naltirish lozim. Shuningdek, ular davlat boshqaruvining barcha tizimlari uchun zahira kadrlar ekanliklarini ham unutmash kerak.

Avestoda davlat hokimiyati masalalari

Eng mutabar, qadimgi qulyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdoddarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi.

Islom KARIMOV

Tursunov Zavqiddin

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi I-bosqich talabasi

Turon zaminida azaldan el bo'lib yashab kelayotgan turkiylar, forsiylar, amyurgiya saklari, derbiklar, osiylar, toxarlar, daxlar, massagetlar, baqgriyaliklar, parkanaliklar, xorazmliklar, chochliklar va boshqa xalqlarning aksariyati ko'chmanchiliqdan o'troq hayotga, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka o'ta boshlagan edi. Bu esa qadimga Xorazm, Sug'd, Marv, Balx, Nisoya, Hirot, Parfiya va boshqa o'lkalarda markazlashgan davlat tizimi asoslarining yaratilishiga sharoit tug'dirgandi. Jumladan, "Avesto"ning

"Vandidod" kitobida Oliy tangri yaratgan o'n oltita davlat (o'lka)ga oid ma'lumotlar uchraydi.

"Men har bir sarzaminni, garchi ular rohatbaxsh bo'lmasalar-da, xalqlari nazdida xushqilib yaratdim.

Agar har bir sarzaminni, garchi ular rohatbaxsh bo'lmasa-da, xalqlari nazdida xush qilib yaratmaganimda, butun-butun ellar "Iyron Vij"¹¹⁷ ga tomon yuz burgan bo'lurdilar.

Men Ahura-Mazda yaratgan ilk sarzamin va birlamchi yurt bu - "Doitio"¹¹⁸ daryosi sohilidagi xushmanzara Iyron Vij edi.

Men Ahura-Mazda - yaratgan ikkinchi sarzamin va go'zal yurt So'g'd diyori edi.

Men Ahura-Mazda yaratgan uchinchi sarzamin va go'zal yurt qudratli va goj Marv diyori bo'ldi.

Men Ahura-Mazda yaratgan to'rtinchi sarzamin va go'zal yurt zebo va orasta Balx diyori edi.

Men Ahura-Mazda yaratgan beshinchi sarzamin va go'zal yurt Balx va Marv oralishdaga Nisoyadir.

Men Axura-Mazda yaratgan oltinchi sarzamin va go'zal yurt Hirot va uning daryochasidir¹¹⁹.

Men-Ahura-Mazda yaratgan yetganchi sarzamin va go'zal yurt badsoyali Vaiha Girta¹²⁰ edi.

Men-Ahura-Mazda-yaratgan sakkizinchi sarzamin va go'zal yurt keng yaylovli Avravadir¹²¹.

Men-Ahura-Mazda yaratgan to'qqizinchi sarzamin va go'zal yurt Go'rgondagi Xnintadir¹²².

Men-Axura-Mazda yaratgan o'ninchi sarzamin va go'zal yurt dilkash Xaravayatadir¹²³.

Men-Ahura-Mazda yaratgan o'n birinchi sarzamin va go'zal yurt serhosil Hiyrmandsir¹²⁴.

¹¹⁷Iyron-Vij ko'plab avestoshunoslarning yakdillik bilan qilgan etirofiga kura, hozirgi (Xorazmning Xiva shahri o'rnida bo'lgan). "Vandidod" kitobining 1-fargard 3-bandiga ko'ra, "Iyron Vij" Ahura-Mazda yaratgan o'n oltinchi sarzaminning birlamchisi va eng go'zalidir

¹¹⁸"Doite yoki Doitio" - bazi avestoshunoslar uni Amudaryo (Ars) yoxud Zarafshon daryolariga nisbat berganlar.

¹¹⁹Bu o'rinda suz hozirgi Afg'oniston hududidagi Hirot va uning Hirirud daryosi haqida borayotir.

¹²⁰Vaiha Girta-bu avesto istiloh qadimiy pahlaviy tiliga "badsoyali Kobuli" tarzida tarjima qilingan. Bu Ahura-Mazda yaratgan go'zal yurtning nomi. Boshqa manbalarda bu istiloh "Qobul"ga nisbat berilishi "Avesto"ning pahlaviy matnlarida ko'zga tashlanadi.

¹²¹"Vanidod"da Avrava "bulig' yaylovlar yurti" sifatida qullanadi. Ayrim avestoshunoslar Avravani Tus viloyatida deydilar.

¹²²"3and Vandidod"da ("Vandidod sharhi")kelishicha "Gurgonda daryolardan iborat Xninta nomli makon bor"

¹²³Ayrim tadqiqotchilar "Harut" yoxud "Hirot" deb talqin qilganlar

¹²⁴Xiyrmand-Siyistondagi Hiyrmand daryosi sohilidagi serhosil va go'zal Hiyrmand.

Men-Ahura-Mazda-yaratgan un ikkinchi sarzamin va go'zal yurt uch bahodir hukmron bo'lgan Raydir.

Men-Ahura-Mazda-yaratgan o'n uchinchi sarzamin va go'zal yurt qudratli va pok Chapradir¹²⁵.

Men-Ahura-Mazda-yaratgan o'n to'rtinchi sarzamin va go'zal yurt Ajdahoni mag'lub etgan Faridun¹²⁶ dunyoga kelgan to'rt go'shali Varinadir¹²⁷.

Men-Ahura-Mazda-yaratgan o'n beshinchi sarzamin va go'zal yurt "Hafrud"dir¹²⁸.

Men-Ahura-Mazda — bunyod etgan o'n oltinchi sarzamin va go'zal yurt, Rangha daryosi sarchashmasi atrofidagi besar xalqlar yashovchi makondir¹²⁹.

Darhaqiqat, "Avesto"da bayon etshshshicha, bu qadimgi 16 mamlakatning hududiy - ma'muriy va siyosiy-huquqiy boshqaruv tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

- davlatni shoh — "kavi" idora qilgan. "Kavi" muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy masalalarni o'zida mujassamlashtirgan. Milliy ma'naviyatimizning jonkuyar tadqiqotchisi professor Muhammadjon Imomnazarovning yozishicha, "kavi"ning hukmdorlik huquqi belgilanishida "Farr" ("Avesto" tilida "xvarno") printsipi qonuniy asos sifatida qabul qilingan. Uning ma'nosi shuki, oliy dunyoviy hokimiyat sulolaning bir vakilidan ikkinchisiga o'tishida muayyan ilohiy belga sodir bo'ladi, ya'ni mo'ayyan bir jonivor, qush bqi yog'du shu'las hukmdorlikka tanlangan kishini ajratib ko'rsatadi. Xalqimiz orasida tarqalgan "falonchining boshiga baxt qushi qo'nibdi" iborasi ushbu qadimiy an'ananing izlariga ishora etadi¹³⁰.

Oilalarning birlashmasi - "nmana", uy, oila jamoasi - "dmana", katta oila jamoasi oqsoqoli - "nma" - "napati", urug' jamoasi boshlig'i - "vis", katta qishloq oqsoqoli - "vispati", qabila boshlig'i - "zantupati", viloyat hokimi - "daxiyupati", bir necha viloyatlarning hukmdori va qabilalarning xarbiy boshlig'i - "daxiyu sastar"lardan tashkil topgan qonun chiqaruvchi Oliy organ - Oqsoqollar Kengashi (Qabilalar Ittifoqi) - "varzanapti" yoki "xanjamona"va "Xalq Majlisi" - "v'yaxa" deb yuritilgan. Davlat boshqaruvchi siyosiy-huquqiy tamoyillar asosida amalga oshirilgan, Oqsoqollar Kengashining mo'tabar ulamosi -kohin esa Oliy sudya vazifasini bajargan, uni "Zaratushtroema" deb atashgan, uning hukmi mutlaq bo'lgan va unga hech kimning e'tiroz bildirishga haqi bo'lmagan.

¹²⁵Ba'zi tadqiqotchilar Xurrson hududida shunday yurt mavjud bo'lganini qayd etadilar.

¹²⁶Faridun "Avesto" va boshqa diniy manbalardaga eng qadimgi asotiriy siymolardan biri.

¹²⁷Varina-Faridun dunyoga kelgan afsonaviy yurt.

¹²⁸Indus daryosi. Hozirgi Panjob, balki yana to'g'rirog'i Yettisuvdir.

¹²⁹Ushbu ishni yozish jarayonida uzbek xalqining iste'dodli shoiri Asqar Mahkam tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, "Guliston" jurnalida chop etilgan "Avesto" matnlariidan foydalanilgan.

¹³⁰Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizg'ilar. T., 1998, 123-124 -betlar

Oqsoqollar Kengashining mu'tabar ulamosi - Oliy kohin, Oliy sudya vazifasini ham bajargan

Oqsoqollar kengashi - "varzanapati" qo'lida diniy mafkura va hokimiyat birlashgan. Ular jamoa faoliyatidagi ijtimoiy-huquqiy va xo'jalik masalalarini hal etganlar. Katta oila jamoasi oqsoqoli - "nmanapati" oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq hisoblangan. Urug' jamoasi boshlig'i "vis" muhim ijtimoiy siyosiy va huquqiy vazifalarni bajargan. U katta oila jamoasi oqsoqollari-"nmapati"lar ichidan saylanib, urug'-jamoasi boshlig'i, qozi, diniy kohin, rahnamo hisoblangan. "Dahiyu sastar"lar bir necha qabilalar yashaydigan ma'muriy hududni, viloyatlar va yirik o'lkani hamda harbiy qo'mondonlik boshqaruvi vazifasini bajargan. Ular tomonidan chiqarilgan har qavday nizomlar va buyro'qlar jamoa a'zolari uchun muqadtsas qonun vazifasini bajargan.

Shuningdek, "Avesto"da tasvirlangan jamiyat ahli to'rt toifaga: qohinlar, jangchi askarlar, chorvadorlar va hunarmandlarga bo'lingan ("Yasna", 19-bob). Shu bilan birgalikda qullar - "vaysa", katta oila xizmatkorlari-"viranmaja", insoniy huquqlari cheklangan cho'pon -"payshautar"lar ham bo'lgan. Asosiy boyliklar jamoa boshliqlari-oqsoqollar, harbiy sarkardalar va mo'tabar shaxslar qo'lida to'planib qolgan. "Avesto"da tilga olingan "gayta" atamasi boylik va xususiy mulk ma'nosini anglatgan. Erkin jamoa a'zolarining asosiy boyliga chorva hisoblangan. Shu boisdan boylik haqida gap ketganda birinchi navbatda chorva, so'ngra shaxsiy mulk-uy, hovli-joy, qal'a-qo'rg'onlar, yaylov, ekinzorlar, kanallar va boshqa boyliklar nazarda tutilgan.

Sipiytmon Zardushtning siyosiy-huquqiy ta'limotida Markaziy Osiyo xududida davlatning shakllanishi uch davrga bo'linadi ("Gohlar"45):

Birinchi davr eng qadimgi davr bo'lib, bunda adolat va insoniy saodat hukmron bo'lgan ("Yasna",32).

Ikkinchi davrda ezgulik ruhlari bilan yovuzlik ruhlari o'rtasida adolat uchun kurash davom etadi.

Uchinchi davrda aql-idrok va adolat tantana qiladi va bu davrda dehqonlarning badavlat, davlat tizimining mustahkam bo'lishi uchun,"Yaxshilik ta'limini va sadoqatni amalga oshirib... yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar, adolatli qonunlarni amalga oshirsinlar..." ("Yasna",48), deyiladi.

Bizning davlatchiligimiz moziysi ham kelajagi ham buyuk. Davlatchiligimizni taraqqiy ettirishda biz ham o'z xissamizni qo'shamiz.

Qadriyatlarning demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyati

S. Ismoilova - Namangan shahar

27-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Demokratik jamiyat barpo etishda bevosita ma'naviyatni yuksaltirish zarur. Shu bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarsiz demokratik jamiyatni barpo etish mumkin emas. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan - asrlarga meros bo'lib kelayotgan ma'naviyati va milliy qadriyatlari uzoq tarixiy

jarayonda shakllangan, rivojlangan va ko'plab og'ir sinovlarni boshdan kechirgan. Darhaqiqat mintaqamizda xalqlari 3000 yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtirgan Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasini yaratdi.

Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviyati va milliy qadriyatlariga xos xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom;
- Avlodlar xotirasiga sadoqat;
- Kattalarga hurmat, yoshlarga izzat;
- Insoniy muomalada mulozamat;
- Hayo, andisha, vazminlik, sabr- toqat, samimiyat, kamtarlik kabilarning ustivorligi;
- Islom diniga sadoqat;
- Ota-onani, oilani e'zozlash;
- Mehnatsevarlik, mehmondo'stlik va boshqalar.

Xalqimizning ma'naviyati va milliy qadriyatlarida jahonning boshqa xalqlariga o'xshamaydigan urf- odatlari, rasm- rusumlari, marosimlari va an'analarida o'ziga xos xususiyatlar ham xos.

Ma'naviyat va milliy qadriyatlarimiz qandaydir o'zgarmas hodisalar emas. Millat, xalq taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotining takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlarining o'zgarishi bilan ma'naviyat va milliy qadriyatlarining rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Chunki, ma'naviyat va qadriyatlarining shakllanishi va rivojlanishi muayyan sharoitlarga bog'liq. Ma'naviyat va qadriyatlar ma'lum aniq davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, uning ko'zgusi hamdir. Shu nuqtai nazardan ma'naviyatga va qadriyatlarga baho berishdan oldin ulardan foydalanishda ikki omilga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Birinchisi- ma'naviyat va qadriyatlarining namoyon bo'lishidagi aniq tarixiy sharoitlar, ikkinchisi, o'sha davrlarga xos bo'lgan imkoniyatlar va ehtiyojlar. Shuningdek, umuminsoniy demokratik qadriyatlarni hamda mintaqaviy qadriyatlarining qaysi zamin ehtiyoji asosida vujudga kelganligi, ular o'rtasida qanday uyg'unlik mavjud bo'lganligi masalalarini o'rganish zarur. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishda milliy qadriyatlar bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarining ahamiyati katta.

Umuminsoniy qadriyatlar deganda eng avvalo jamiyat va odomzot nasli uchun eng qadrliligi va uning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qiladigan umumijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi narsalar, hodisalar, faoliyat tushuniladi. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, umuminsoniy qadriyatlar mahalliy shart-sharoitlar, imkoniyatlar, tarixiy an'analar bilan bog'langandagina kerakli samara beradi.

Mehmondo'stlik, bolajonlik, qo'ni- qo'shnichilik, kattalarni xurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, qarindosh- urug'lar, do'stlar bilan yaqin aloqada bo'lish, sahiylik, mehnatsevarlik Markaziy Osiyo xalqlarining barchasiga xos bo'lgan ma'naviy qadriyatlardir.

Ma'lumki, ota-onaga bo'lgan xurmat dunyodagi barcha xalqlarda uchraydi. Lekin, bizning mintaqamizda bu qadriyatning e'zozlanishi boshqa hamma joylardagiga nisbatan ustunroq turadi.

Ma'naviyat milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyati mavzusi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijalarining tahlili asosida quyidagi xulosalarni tavsiya etamiz:

1. Ma'naviyat va qadriyatlar inson va jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan o'tmishida va hozirgi davrda hamda kelajakda ijtimoiy taraqqiyotga ijtimoiy ta'sir etadigan kishilar ongiga singib, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma'naviy ne'matlardir. Tarixiy tajriba an'alarining ma'naviy meros bo'lib o'tishi yangi avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

2. Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari o'z milliy qadriyatlarini e'zozlash, avaylab-asrash va yanada rivojlantirishga e'tiborni yanada kuchaytirishlari zarur.

3. Ma'naviyat va qadriyatlar o'tmishi bilan bugungi kunni va kelajakni bog'lab turuvchi muxim vositadir. Faqat bilimli, har tomonlama kamol topgan yoshlar xalq ma'naviyatini, milliy qadriyatlarini yanada rivojlantirishlari mumkin.

4. Ma'naviyat va milliy qadriyatlar yoshlarni ma'naviy yetuk, barkamol avlod qilib tarbiyalashda qudratli kuch hisoblanadi.

5. Ma'naviyat va qadriyatlar masalalari insoniyat tarixida eng qadimiy masalalardan bo'lishi bilan birga, hozirgi davrda dolzarbligi, ijtimoiy ahamiyati o'ta yuksakligi har tomonlama namoyon bo'lmoqda.

Yana shu narsani alohida ta'kidlash joizki, ma'naviyat va milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilgandagina jamiyatning rivojlanishida hamda yangi demokratik jamiyat barpo etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bolani dasturxon atrofida o'tirish odobi

S. Norqo'ziev

Nam DU dotsenti, f. f. n.

Bu ham axloqiy meyorlardan biri. Oilaning tarbiyaviy vazifasi hamma joyda, xususan dasturxon ustida ham amalga oshiriladi. Oila a'zolari o'tirib ovqatlanayotganlarida yoki mehmondorchilik dasturxonini atrofida o'tirganlarida bolaning hatti-harakatlari kuzatib turiladi va xatolari qunt bilan tuzatib boriladi. Mehmonga olib borilgan bola ochko'zlik, suqlik qilsa, shirinliklarga chang sorsa, goh uni, goh buni yeyman deb xarxasha qilsa, noqulay vaziyat vujudga keladi.

Shunday qilib, bolaning odobsizligi mehmondorchilik dasturxonini ustida ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Mezbon buni bildirmaslikka, pinak buzmaslikka intilsa ham baribir asabiga tegadi. Shuning uchun bolani mehmonga olib borganda u o'zini qanday tutishini qayta-qayta uqtirish zarur va kundalik oila a'zolari ovqatlanayotgan dasturxon ustida unga eng oddiy qoidalargacha

o'rgatib borish kerak bo'ladi. Mehmonda bolalar ham kattalar bilan birga o'tirishga taklif etiladi. Bunda shu narsaga erishish zarurki, u yugurib borib hammadan oldin to'rga chiqib olmasin. Ovqat yeyishga taklif etilmasdan dasturxonaga qo'l cho'zmasin. Kattalar olgandan so'ng bir-ikki taklifdan keyin olsin. Olganda ham och qolgan kishidek apil-tapil emas, balki bosiqlik bilan odob saqlab ovqatlansin.

Buning uchun mehmonga bola qornini to'ydirib olib borish kerak va u joyda o'zini qanday tutishni yo'l-yo'lakay esga solib qo'yish zarur.

Siz uyda bolaga qoshiq bilan vilkadan foydalanishni o'rgatib boring. O'rgatilmagan bola qoshiqni ham, vilkani ham mushtumida changallab ushlaydi. Bu hol juda xunuk ko'rinishi bilan birga xo'rak asboblaridan to'g'ri foydalanish imkonini bermaydi. To'g'ri ushlash avval o'ng qo'lda ado etilishini va bosh barmoq qoshiq sopining tepa qismida, ko'rsatkich, o'rta va ismsiz barmoqlar ostki qismida bo'lishini qunt bilan o'rgatib boriladi. Vilka (sanchiq) ushlaganda bosh barmoq uning sopi ostki qismida, ko'rsatkich o'rta, ismsiz va jimjiloq ustki qismida bo'lmog'i darkor. Ba'zi bolalar buni bir-ikki ko'rsatilganda o'rganib olishadi, ba'zilar ko'p marta o'rganishga muxtoj bo'ladilar.

Ahamiyat berganmisiz: bola suyuq ovqatni qoshiqning uchida ichadi. Bu hol qoshiq uning og'ziga to'g'ri kelmaganidan dalolat beradi. Shuning uchun uni o'ziga yarasha, choy qoshig'i yoki desert qoshig'ida ovqatlantirib o'rgating, sanchiqlarning ham bolalarga loyiqqlari bo'ladi.

Ovqatni bolaga me'yorida, tobini chiqarib (juda, o'ta issiq holda emas) berish kerak. Shunda u go'zal ovqatlanishga tez o'rganadi, aks holda ovqatni puflab sovutaman deb dasturxonaga va ust boshiga sachratib to'kib yuborishi mumkin. Yosh bola, choy qoshig'ida ovqatlanayotganida og'ziga butunlay tiqishi ham mumkin. Shuning uchun qoshiqni og'izga uchi bilan emas, yonlama qilib olib borishni o'rgating.

Bola 1,5 – 2 yoshidan boshlab o'zi mustaqil ovqatlana oladigan bo'lishi kerak, shu yoshdan boshlab "xo'rillatib" ichmaslikni, "chapillatib" chaynamaslikni uqtirib turish yaxshi natija beradi. "Chapillatib yema!" desangiz, chapillatib yemaslikka sira o'rgana olmaydi. Ko'rsatib, o'mak bo'lib o'rgatish kerak. Ya'ni ovqat yeganda og'zini yumib, jag'ni qimirlatib chaynash kerakligini amalda ko'rsating. Albatta, buni mehmonga borganda emas, balki uyda o'rgatish kerak.

Ba'zi bolalar ko'proq non yeydilar, ayrimlari sira non yemaydi. Har ikkalasi ham meyoriy hol emas. O'z vaqtida e'tibor bermasa, bu odatga aylanib qoladi. So'ngra bola nonning sirti bilan yumshoq qismini ajratib yeydi. Ba'zi bola u yog'ini, ba'zi bola bu yog'ini xush ko'radi. Bu xam e'tibordan chetda qolmasligi kerak. So'ngra nonning katta bo'lagini olib yoki butun nonni tishlab yeyish yaramaydi. Tandiriy non sindirib, bo'lka non esa nafis kesib yeyiladi. Ovqatlanganda o'ng qo'lda qoshiq chap qo'lda non ushlashni o'rgatish kerak. Tishlangan non yeb tugatilishi kerak. Nonni tishlab-tishlab, nishxo'rdaga chiqarish noto'g'ri ekanini bolaga yoshligidanoq uqtirib borilsa, isrof kamayadi.

Bola tishlagan nonni yeb tugatmay, qoldiraversa, katta bo'lganda bu odatga aylanadi.

Boladan ovqatlanayotganda gapirmay jim o'tirishni talab qilib bo'lmaydi, chunki kattalar ovqat paytida suxbatlashib o'tiradilar. Bola ham gaplashadi, uning juda mahmadonalik qilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Negaki, ovqat paytida ortiqcha vaysaqilik qilish natijasida me'da shirasi yaxshi ajralmasligini hamda xazm qilish buzilishini fiziolog olimlar isbotlashgan. Ruslarda shunday maqol bor: "Kogda ya yem, glux i nem" buning ma'nosi shuki "Men ovqatlanayotgan paytda karman, soqovman". Bu degani men ovqatlanayotganda gapirishni ham, eshitishni ham xohlamayman.

Bolani ovqatni yutgandan keyin gapirishga o'rgatish kerak, aks holda taom bo'laklari nafas yo'llariga ketib qolib, qo'rqitib yuborishi mumkin. So'ng ovqat chaynab turib gapirish tovush va so'zlarni buzadi, bu esa boshqalarning g'ashiga tegadi. Bola o'zi o'tirgan stuliga yalpayib olmasligining ham katta ahamiyati bor va stolga tirsaklarini qo'yib olmasligiga ham e'tibor qilishi zarur.

Stulga o'tqazilgan maktab yoshigacha bo'lgan bolalarning oyoqlari yerga tegmaydi, shu sababli aksariyat hollarda bola ovqatlanayotib oyoqlarini likillatib o'tiradi. Bu ham e'tibordan holi qolmasin, negaki bola ro'parada o'tirgan kishining tizzasiga tepib yuborishi mumkin. Bu xunuk odat o'z vaqtida barham toptirilmasa, bola katta bo'lganida ham oyog'ini likillatib ovqatlanadigan bo'lib qoladi. Buni siz oshxonalarga kirganda ba'zi odamlarni kuzatib, bilib olishingiz mumkin.

Dasturxon atrofida bolalar qanday o'tirishi zarurligi to'g'risida so'zlar ekanmiz, gap juz'iy yeyish bilan bog'liq odob ustidagina bormasdan, balki odob yuksak madaniyatli zamonaviy kishi qatoriga qo'shiladigan avlodni yoshlik chog'idan boshlab tarbiyalash ustida boradi. Chunki qator mashhur pedagoglar aytganlaridek, "Tarbiyaviy ishning ikir-chikirlari sira bo'lmaydi". Dasturxon ustida odob saqlashni bilmagan bola odatda erka, arzanda, anqov, suq, ochko'z bo'lib o'sadi. Ma'lum vaqt o'tgach, ota-ona o'z bolasida ana shu yaramas xislatlarni ko'rib, "biz unga bunday tarbiya bermagan edik-ku", deb hayron bo'lishadi. Aslida bolaga taom tanovvuli to'g'risida tarbiya berganda: "buni shunday qilishing shart!" deb turib olmay, balki namuna bo'lish orqali – avvalo o'zingiz, so'ng bolaga ko'rsatib, tarbiyalang. Chunki har qanday bola "qil!" deganni qilmaydi, namuna bo'lib ko'rsatilgan ishni qiladi.

Bilamizmi, bolaning uyushqoq va tarbiyali bo'lishi uni har kuni ma'lum vaqtda ovqatlanishga odatlantirishga bog'liq. Bola va bu hol bir necha bor takrorlansa, uni tartibga chaqirish qiyin bo'ladi, chunki ovqatlanishning tartibi buzilgan bo'lib, endi u bog'chaga borishga tixirlik qiladi, maktabga ham kechikadi. Bog'cha va maktabda tartib bor, har bir tadbir vaqt-soati bilan olib boriladi. Uyda tartib yo'q bo'lsa, bola sho'xlik qilaveradi.

Binobarin, bolani tartib-intizomga o'rgatishning asosiy holatlarini tartibga solishdir; bunga dastavval ovqatnishni aniq belgilab ko'yish orqali erishiladi. Bolaning ko'zi och, suq bo'lishi ota-onani quvontirmaydi albatta. Lekin bola

nega shunday bo'lib qolganligini bilish kerak. Gap yana o'sha tartibsiz ovqatlantirilgani uchun uning a'zolarida kerakli moddalar yetishmay qolishida. Natijada bola qanday ovqatni ko'rsa, o'shanga talpinaveradi.

Bolaning nazarini to'q qilish uchun uni erta baxordan kech kuzgacha barcha meva va sabzavotlarga atigi bir marta to'ydirish zarur. Masalan, qulupnay mevasidan bir dona, ikki donadan emas, balki bir marta to'ygunicha, yeganicha qo'yib berish kerak.

Shuningdek uni rediska, pomidor, xandalak, gilos, uzum, qovun-tarvuz, shaftoli, olma, anor, behi va xokazolarga bir marta to'ydiring. Natijada bolaning a'zolari zarar bo'lgan g'animatlar A₁, B₁, B₂, P₁, D, C kabi vitaminlar, kaliy, kaltsiy, manganets, temir, fosfor tuzlari, saxaroza, fruktoza, glyukoza singari shakar moddalari va organik kislotalar bilan ta'minlanadi.

Mana ko'rasiz, o'sha yili bolangiz o'zini yaxshi xis qiladigan, uncha – muncha kasalliklarga chalinmaydigan bo'lib qoladi. Eng muhimi nazari to'q bo'lib o'sadi! Bunga yana ovqatlanishni tartibga solish va muayyan reja bilan tuzilgan taomnoma asosida ovqatlantirish bilan ham erishiladi.

Bolani to'g'ri ovqatlantirish tarbiya berishning moddiy asosini tashkil qiladi. Masalan, ruscha “pitanie” – ovqatlanish hamda vospitanie – tarbiya so'zlarining o'zagi bir ekanligiga ahamiyat bersak masala aniq bo'lib, qoladi.

Tarbiyani tartib hamda rejali ovqatlantirish bilan birga qo'shib olib borish shu qadar muhimki, masalan, sport tarbiyasi olayotgan bola o'z a'zolarini baquvvat qiladigan ovqat yeb turmasa, chaqilib, jismoniy mayip bo'lib qilishi hech gap emas.

Yana bir misol. Bolani chaqqon va saranjom qilib tarbiyalash ham avvalo ovqatlanishi odobi bilan dasturxon atrofiga o'tirganda va ovqatdan so'ng zarur bo'lsa, qo'l yuvish hamda og'iz chayqashga o'rgatilgan bola hayotida doim ozoda bola bo'lib yetishadi.

Olimlardan Ruf'at ibn Ismoil aytadi:

– Bolalaringizni begona kishilar yonida urishib, ta'zirini bermang, mehmondorchilikka chaqirsalar, bolalaringizni birga olib bormang. Uyingizga mehmonlar kelsa, yosh bolalaringizni ular yoniga o'tkazib, dasturxonga qo'l uzattirmang, begona kishilar yoniga oilangizdan shikoyat qilmang. Munofiqona ravishda boshqalarni kamsitib, sizning aql va harakatingizni maqtagan riyokor munofiqalarning so'zlariga uchmang. Bolalaringizga biror xizmat buyurar ekansiz, yaxshi so'zlar aytib muloyimlik bilan buyuring. Mag'rur mutakabbir va achchiq so'zli bo'lmang. Oilangiz va do'stlaringizga o'zingizni sevdiring.

DONOLAR DEYDILAR:

Mehmonlarning oldida o'z yaqinlaringizni urishmang, tabassum qilib o'tiring, ochiq yuzlilik kishi uchun katta ne'matdir.

“Favoqix al-julaso”

Bir yosh bola kattalar bilan mehmondan bir tovoqdan ovqat yer edi. Ovqat issiq bo'lib, bolaning qo'li kuyib to'yib yeya olmadi. So'ng yig'lashga tushdi.

– Nega yig'layapsan? – deb so'rashdi undan.

– Ovqat issiq ekan, yeya olmayapman, dedi bola.

– Bo'lmasa biroz sabr qil, soviydi, – deyishibdi unga.

– Sabr qilishga-ku qilaman-a, ammo sizlar to'xtab, meni kutib turmaysizlarda! – dedi bola. (“Favoqix al-julaso”)

Qadimgi turkiy obidalar – o'zbek tadqiqotchilari nigohida

*Q. Sidiqov - filologiya fanlari nomzodi,
Sh. Abdullaeva, M. Obilov - NamDU
magistrantlari*

“Qutadg'u bilig” umumturkiy obida sifatida jahon turkiyshunoslarining e'tiborini juda jiddiy tarzda tortib kelayotgani bejiz emas.

O'zbekistonda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarini o'rganish va tadqiq etish ishlari xorij olimlarining bu borada amalga oshirgan ishlaridan kam emas. Avvalo, o'zbek qutadg'u biligshunoslik maktabiga asos solgan olimlar sifatida A. Fitrat, N. Mallaev, Q. Karimov, B. To'xlijev, Q. Sodiqov va boshqa bir qator olimlarning nomlarini keltirish o'rinli. Bu olimlarning sa'y-harakatlari tufayli “Qutadg'u bilig”ning umumfilologik, poetik jihatlarini o'rganish hamda asarning jahoniy mavqeini aniqlashga bo'lgan qiziqish yanada ortdi.

Ta'kidlash kerakki, yirik adabiyotshunos Abdurauf Fitrat yurtimizda “Qutadg'u bilig”ni tadqiq qilishni boshlagan ilk olimlardandir. U “Maorif va o'qitg'uchi” jurnalining 1925 yil 2-sonida e'lon qilgan maqolasida Namangan nusxasining topilishi, asosiy mazmuni va qolgan ikkita nusxasining tarixi hamda ularning o'rganilishi yuzasidan mulohazalarni bildirgan.

“Qutadg'u bilig” ustida jiddiy tadqiqot olib borgan taniqli olim Natan Mallaev o'z izlanishlarida asar muallifining hayoti va ijodi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy qarashlari, asarning o'z davridagi shuhrati, syujet va kompozitsiyasi, badiiy qimmat va tili hamda asardagi obrazlar kabi masalalarni keng va atroflicha tahlil etdi. Olim asarning badiiy qimmatiga baho berib, “Qutadg'u bilig” turkiy tildagi yozma adabiyot hali u qadar boy tajribaga ega bo'lmagan bir davrda vujudga keldi. Shoir fors-tojik tilida ijod etish traditsiyasi izidan bormadi, balki katta jur'at bilan o'z ona tilida yirik badiiy asar yaratishga kirishdi va uni muvaffaqiyat bilan tugatdi” – deya alohida ko'rsatib o'tadi. Bunday fikrni keyinroq R. Denkoff ham ta'kidlagan edi.

Asarning til xususiyatlarini o'rganishda akademik G'. Abdurahmonovning ancha jiddiy ishlarni amalga oshirganligi yaxshi ma'lum. Biz uchun olimning asarning rus tiliga tarjimalari borasidagi fikr-mulohazalari hamda amaliy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda “Qutadg'u bilig” ustida birinchilardan bo'lib monografik darajada tadqiqotlar olib borgan olim Qayum Karimovdir. Tadqiqotchi asardagi kelishik kategoriyalari yuzasidan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va

“Qutadg’u bilig”ning jahon olimlari e’tirofiga sazovor bo’lgan nisbatan mukammal transkripsiyasi, hozirgi o’zbek tilidagi tabdilini nashr ettirdi. Olim tomonidan asarning filologik hamda poetik jihatlariga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar e’lon qilindi. Asar to’rtliklarining yaxlit holdagi nashri ham bevosita shu olim nomi bilan bog’liq. Olim asarni turli tizimlarda o’rganish bilan birga uning xorijiy tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga o’z tanqidiy munosabatlarini ham bildirgan. Jumladan, ularning birida qirg’iz olimlari U. Asanaliyev va K. Ashiraliyevlarning asar tili bo’yicha bildirgan fikr-mulohazalari va tahlillaridagi bir qator xato va kamchiliklar aniq dalillar asosida ochib berilgan.

Turkiyshunoslik, jumladan, “Qutadg’u bilig”ning til va yozuv xususiyatlari ustida jiddiy tadqiqotlar olib borayotgan yana bir yirik olim Qosimjon Sodiqovdir. Uning izlanishlari natijasida asar qo’lyozmalarining grafik xususiyatlari ancha batafsil tekshirildi, shular asosida turkiyshunoslik bir qator ilmiy xulosalarga ega bo’ldi.

“Qutadg’u bilig”ning R. Denkoff qalamiga mansub birinchi inglizcha tarjimasida ilk marotaba tilshunos olim, professor A. Abduazizovning maqolasi chop qililib, unda tarjimaning o’ziga xos tomonlari, yutuqlari, kamchiliklari ko’rsatilib, mutarjim haqida fikrlar bildirilgan.

Tarjimashunos olim Zohidjon Sodiqov bir necha yillardan beri “Qutadg’u bilig”ning xorijiy tillardagi talqinlarini tarjimashunoslik tamoyillari asosida ilmiy tahlildan o’tkazib kelayotgan olimlardan yana biridir.

Asarning matniy muammolarini o’rganishda H. Ne’matov e’lon qilgan ilmiy tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga ega. Akademik Baxtiyor Nazarov asar yuzasidan Indiana universitetidagi xalqaro konferentsiyadagi o’z ma’ruzasida “Qutadg’u bilig”ning turkiy xalqlar va jahon adabiyotida tutgan o’rni, Yusuf Xos Hojib didaktikasining o’ziga xos jihatlarini to’g’risida asosli fikrlarni bildirgan. Asar muallifini Sharqning buyuk mutaffakkirlari bilan bir qatorda Aristotel va Suqrot kabi g’arb donishmandlari bilan tenglashtiradi va biz bunga to’liq qo’shilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Denkoff R. Yusuf Khass Hajib. Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes, translated, with an introduction and notes, by Robert Dankoff. University of Chicago Press, 1983. – 281 r.
2. Mallaev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. To’ldirilgan uchinchi nashr. – T. : O’qituvchi, 1976, - 426 b..
3. Orzibekov R. O’zbek lirik she’riyat janrlari. – T. : Fan, 2006. – 353 b.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Ilmiy asarlar. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboev. - T. : Ma’naviyat, 2000, – 342 b.
5. To’xlijev B. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari va ayrim janrlar takomili (masnaviy, to’rtlik, qasida). – T. : Asr-Matbuot, 2004. – 119 b.

Sovetlar davrida o'lkamizda tibbiyot ilmining rivojlanishi tarixidan

Boymirzaev X. K. -

NamDU Tarix kafedrasi o'qituvchi,

Mahkamov R. A.

NamDU Tarix yo'nalishi 1-kurs

101-guruh talabasi

Sho'rolar davridagi o'z shakillanish va rivojlanish tarixi bor. O'lkamizda zamonaviy tibbiyot tizimini tashkil etish. 1917-yil noyabr oyida tibbiyot ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilot – Sog'liqni Saqlash Xalq komissarligi ta'sis etish bilan boshlandi. Bu tashkilot 11 bo'limdan iborat edi:

1. Tibbiy ta'minot bo'limi; 2. Epidemiologiya bo'limi; 3. Sanitariya Statistika bo'limi; 4. Ilmiy – amaliy bo'limi; 5. Sanitariya – texnika bo'limi; 6. Sanitariya – maorifi bo'limi; 7. Bemorlarini davo muassasalariga joylashtirish bo'limi; 8. Sanatoriy – kurort bo'limi; 9. Tibbiy xodimlarni safarbar qilish bo'limi; 10. Veterinariya bo'limi; 11. Adliya bo'limi.

Bundan tashqari yana tibbiy xodimlar rezervi bo'limi ham bor edi. Sog'liqni Saqlash Xalq komissarligi dastlabki yillarda unchalik ko'zga ko'rinarli ish qilaolmadi. Sog'liqni Saqlash muassasalari uchun yangi tipovoy binolar yaratish o'rniga masjid va madrasalarda kasalxona va ambulatoriyalar tashkil qilindi. Shu bilan birga har xil tashkilotlarga qarashli binolar va ayrim kishilarga qarashli uy – joylarni ham musodara qilib, o'sha yerlarda ham tibbiy muassasalar tashkil etildi. Bu bilan kasallarga tibbiy yordam ko'rsatish ishi yaxshilanmadi. Tibbiy muassasalar yetarlicha jihozlanmagan edilar. Lekin shunday bo'lsa ham, birinchi qadamlar qo'yilgan edi. 1919 yil 13 martda Sog'liqni Saqlash Xalq komissariyati “Turkiston respublikasidagi davolash muassasalarini boshqarish ” haqida nizom qabul qildi. Unda tibbiy muassasalarning asosiy vazifalari belgilab qo'yilgan edi. 1919 yil 7 mayda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissarligining faoliyati haqida maxsus nizom ham tasdiqlandi. Uning birinchi bandida “Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati butun o'lkada Sog'liqni Saqlash ishlarini boshqaradi”, deyilgan edi.¹³¹

Shu nizomda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissarining bo'limlar boshliqlarining xuquq va vazifalari belgilab qo'yildi. 1920 yilda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati tarkibiga avvalgi 11 bo'limdan tashqari yana Ona va Bolalikni muxofaza qilish bo'limi, Badantarbiya bo'limi va Uy joy sanitariyasi bo'limi kiritildi. 1922 yilda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati tarkibiga Dorixonalar Bosh Boshqarmasi va Mehnatni tibbiy jihatdan muhofaza

¹³¹ Qodirov A. A. O'zbekiston Tibbiyoti O'zbekistonda tibbiyotning kelib chiqishi, shakillanishi va rivojlanishi. “Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashryoti” T.; 2004 y. 95 bet.

qilish bo'limi kiritildi. Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati 16 bo'limdan tashkil topdi.

1919 – yil iyul oyida Sog'liqni Saqlash muassasalari rahbarlarining birinchi qurultoyi chaqirildi. Unda Sog'liqni Saqlash muassasalarining ish uslubini takomillashtirish, bemorlarga ambulatoriya va kasalxonalarda tibbiy yordam ko'rsatish ishini yaxshilash, kasalxonalar ulardagi o'rinlar sonini ko'paytirish, respublikaning orombaxsh joylarida sanatoriy – kurortlar barpo etish masalalari muhokama qilindi va bu haqdagi zarur ishlar belgilab olindi.

1922 – yil oktyab oyida Turkiston vrachlarining birinchi ilmiy syzdi bo'lib o'tdi. O'lkamizda tibbiyot sohasida olib borilgan ilmiy – tadqiqot ishlariga dastlabki yakun yasaldi. Syezdda Turkiston Markazy ijroiya qo'mitasining a'zosi, respublika Xalq Xo'jaligi Oliy Kengashining raisi Abdulla Qodirov qatnashdi va nutq so'zlad. U o'z nutqida respublika hukumati olimlaridan o'lkamizda tibbiyot ilmini yuksak darajaga ko'tarishni kutadi va bunga ishonadi, dedi: Abdulla Qodirovning taklifi bilan syezd delegatlari nomidan markaziy hukumatga tabrik telegrammasi yuborildi. Turkiston vrachlarining birinchi ilmiy syezdi O'zbekistonda tibbiyot ilmi va sog'liqni saqlashni rivojlantirishda muhim masalalardan biri zamonaviy bilimga ega bo'lgan tibbiy xodimlar yetishtirishdan iborat, deb qaror qabul qildi. O'lkada vrachlar soni juda kam yerli aholidan esa bunday mutaxassislar umuman yo'q edi.

1918-yilda bir guruh O'zbek ziyolilari Turkistonda zamonaviy oliy o'quv yurti tashkil etish masalasini ko'tarib chiqdilar va bu masalani ijobiy hal qilishni so'rab Moskvaga o'z vakillarini yubordilar. O'sha vaqtda markaziy hukumatning boshlig'i bo'lgan V. I. Lenin bu masalaga ijobiy qarob, Toshkentda dorulfunun tashkil qilish haqidagi dekretga imzo chekdi. Dorulfunun 1920 yil sentyabr oyida ochildi. Uning tarkibida tibbiyot fakulteti ham bor edi. Shunday qilib, 1920 yil Turkistonda oliy tibbiy ta'limga asos solingan edi.

1918 yilda Toshkentda o'rta tibbiy hodimlar tayyorlovchi “Musulmon tibbiy maktabi” tashkil qilindi. Ukeyinroq “Respublika o'rta tibbiy hodimlar maktabi”ga aylantirildi. O'sha vaqtda bu o'quv yurtlari butun O'rta Osiyo miqyosida birinchi va yagona o'quv yurtlari edilar. Keyinroq bunday tibbiy o'quv yurtlari boshqa shaharlarda va qo'shni respublikalarda ham ochildi.

O'zbekistonda Sho'rolar davrida muhim ilmiy – tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, O'zbekiston hududida odatdagidek kasalliklardan tashqari o'lkamizga hos kasalliklar ham tarqalgan edi. Boshqa tibbiy muammolar qatorida shular ham ilmiy jihatdan o'rganildi. Xususan, bu kasalliklarning etiologiyasi, xususiyatlari, patogenezi va oqibatlari tekshirildi, Ularni tugatish choralari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Shu maqsadda respublikamizda bir qancha ilmiy – tadqiqot institutlari tashkil etildi. Birinchi shunday muassasa – Bakteriologik institut 1920 yilda Toshkentda ochildi. Bu institut har-xil ommaviy kasalliklarning etiologiyasi va

epidemiologiyasini o'rgana boshladi. Yuqumli kasalliklarga qarshi vaksinalar ishlab chiqardi.

Ikkinchi ilmiy muassasa Tropik kasalliklar instituti 1924 yilda rishta kasalligining o'chog'i bo'lgan Buxoro shahrida ochildi. Bu institut Tropik kasalliklar (rishta, bezgak, har xil gelmintozlar)ni o'rgandi, ularni tugatish choralarini ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Institut hodimlarining ilmiy va tashkiliy rahbarliklari ostida 1932 yilda o'lkamizda rishta kasalligi tugatildi. Shu institut ishtirokida 1955 yilga kelib, bezgak kasalligi ham tugatildi.

O'zbekistonda tibbiyot ilmining boshqa soxalari bilan shug'ullanuvchi maxsus institutlar ham tashkil etildi. Xususan, "Ona va Bolalikni muhofaza qilish instituti (1927), Rentgenologiya-radiologiya va onkologiya instituti (1931), Sil kasalliklari instituti (1932), Teri va tanosil kasalliklari instituti (1932), Eksperimental tibbiyot instituti (1934), Sanitariya va gigiena instituti (1934), Qon quyish instituti (1940), O'lka kasalliklari instituti (1957), Ko'krak jarroxiyasi instituti (1972), Kardiologiya instituti (1976); tashkil etildi. Bu institutlarda har-xil kasalliklarning sabablari, tarqalish yo'llari, ularni oldini olish va davolash usullari ishlab chiqilardi. Buning natijasida o'lkamizda birqancha ommaviy kasalliklar tugatildi, Ba'zilar kamaytirildi. O'zbekistonda tibbiyot ilmining rivojlanishida bu institutlar muhim ro'l o'ynadilar.

1950 yillarga kelib, O'zbekistonda tibbiyot ilmi sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari umumjahon miqyosiga ko'tarildi: xususan, o'lka (tropik) kasalliklarni o'rganish sohasida katta natijalarga erishildi. 1954 yilda Toshkentda tropik (o'lka) kasalliklariga bog'ishlangan Xalqaro ilmiy sessiya bo'lib o'tdi. Unda o'lka kasalliklarini ilmiy jihatdan o'rganish va bunday kasalliklarni tugatish yo'lida olib borilgan ishlariga birinchi yakun yasaldi: Sessiyada O'zbekistonlik olimlar faol ishtirok etdilar va o'lka kasalliklarini ilmiy jihatdan o'rganish va ularga qarshi kurashish yo'lida olib borgan ishlari haqida ma'ruzalar bilan chiqdilar. Xususan, professor L. M. Isaev "O'rta Osiyoda bezgak kasalligini ilmiy jihatdan o'rganish va uni tugatish" haqida, tibbiyot tarixchisi A. A. Qodirov "O'zbekistonda rishta kasalligini ilmiy jihatdan o'rganish va bu kasallikni tugatilishi tarixi" haqida ma'ruza qildilar. Sessiya mamlakatimizda o'lka kasalliklarini o'rganish muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega, deb topdi va bu ishni davom ettirish zarurligini takidladi: Bu ishni bir muassasada jamlashtirish maqsadida O'zbekistonda "O'lka kasalliklari instituti" ochish haqida qaror qabul qilindi: Bu institut 1957 yilda tashkil etildi.

1970 yillarda amaliy tibbiyotda yangi soha – tibbiy yordamning iqtisodiy samaradorligini o'rganish sohasi paydo bo'ldi: Bu ish bilan dastlab Bo'lg'ar va Chex hakimlari shug'ullangan ekanlar. Ular sanoat korxonalarida sog'liqni saqlash ishni yahshi yo'lga qo'yib, korxonaning ishchi va xizmatchilari sog'lomlashtirilsa korxonaning ish unimdorligi ko'tarilib, u qo'shimcha mahsulot chiqarishi mumkin ekanligini isbot etganlar.

O'zbekistonda bu ish bilan birinchi bo'lib Samarqand tibbiyot institutining ijtimoiy gigiena va sog'liqni saqlash ishini tashkil qilish kafedrasida shug'ullana

boshladi.¹³² Bu ishda eksperimental baza sifatida Samarqanddagi teri tanlab olindi. Avvalo asosiy mutaxassisliklar bo'yicha brigada tuzib, zavodning ishchi va xizmatchilari tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Sog'lom kishilar, kasallar va surunkali kasallik bilan og'riqlar aniqlandi. Qanday kasalliklar ko'proq, qandaylari kamroq uchrashishi belgilandi. Bir yilda kasallik tufayli qancha ishi kuni yo'qotilishi hisoblab chiqildi. U qancha iqtisodiy zarar keltirishi aniqlandi.

Zavodning sexlari, ularning gigienik holati tekshirildi. Salomatlikka putur ytkazuvchi omillar belgilandi. So'ng to'plangan natijalar umumlashtirilib, xulosalar chiqarildi. Natija shuni ko'rsatdiki, zavod xar yili ishchi va xizmatchilarning vaqtincha kasalligi tufayli bir necha yuz ming so'mlik mahsulotni kam chiqarar ekan. Mutaxassislarimiz zavod ishchi va xizmatchilarining sog'ligini saqlash va kasalliklarni kamaytirishga qaratilgan bir qancha gigienik va amaliy tibbiy maslahat va tavsiyalar yozib berdilar. Zavod ma'muriyati tuman sog'liqni saqlash bo'limi bilan birga ularni amalga oshirib, ijobiy natijalarga erishdilar. Ishchilarning sog'ligi yaxshilandi, kasallar soni kamaydi, ish unimdorligi oshdi, zavod ko'p miqdorda qo'shimcha mahsulotlar ishlab chiqara boshladi.

Bundan tashqari yana bir qator olimlarning takidlab o'tishimiz lozim.

O'zbekistonda bezgak kasalligi, bir qator parazitlar kasalliklari, jumladan, rishta, leyshmaniozlar, ich terlamalarga qarshi kurashdagi ulkan muvaffaqiyatlar L. M. Isaev, P. F. Borovskiy, N. I. Xodukin, I. A. Kassirskilarning nomi bilan ham bog'liqdir.

L. M. Isaev O'zbekistonda tropik kasalliklarga qarshi kurash chora-tadbirlarini taklif etdi va bu ishlarga o'z boshchilik qildi. U O'rta Osiyoda birinchi ilmiy tekshirish markazini tashkil etdi. O'rta Osiyo dorulfununi tarkibidan ajralib chiqqan Toshkent tibbiyot institutida 1935 yilda epidemiologiya kafedrasini ochildi. Bu kafedraning birinchi mudiri, professor A. V. Georgievskiy edi. Kafedra tashkil qilingunga qadar, 1930 yildan boshlab sanitariya va gigiena fakulteti talabalari uchun epidemiologiya fani mikrobiologiya fani bilan birga o'qitilardi. Bu paytda epidemiologiyadan ma'ruzalarni professor A. D. Grekov, P. F. Samsonov, M. N. Soshnikovalar o'qishgan. Hozirgi davrda yirik olimlardan I. K. Musaboev, Sh. X. Xo'jaev, T. X. Najmiddinov, Z. K. Karimov, P. M. Lerner, I. H. Mamatqulov, M. Q. Usmonov, O. M. Murtazaev va boshqalar yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda samarali ishlarni bajarish bilan birga epidemiologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelishmoqda.¹³³

¹³² O'sha kitob

¹³³ Fayziyev Y.M., Fayziyeva X.A. Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya. "ILM ZIYO" T.: 2011 y. 370 bet.

Shaxs intellektual kamoloti boskichlari

*B.B.Ibrohimov - Nam DU "Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"
kafedrası o'qituvchisi*

Shaxs kamoloti asosini u yashab turgan ijtimoiy muhit va tarbiya belgilaydi.

Muhit – shaxs hayot kechirish va yashash sharoitidagi tevarak–atrof, kishilar, oila, mahalla, mehnat faoliyatini yuritishdagi jamoa va shu kabilar.

Tarbiya – odamzodning farzandini boqib, ta'lim berib voyaga yetkazish uchun qilinadigan mehnati va g'amxo'rligidir.

Insondagi aql, ongning rivojlanib borishi natijasida tabiat va jamiyatdagi hodisa va jarayonlar kechishini o'rganishga, ularni imkon bo'lganda boshqarishga bo'lgan qiziqish, intilish hamma vaqt ham dolzarb muammo bo'lib kelgan. Eng asosiysi bular masofa ham, irq ham, millat ham tanlamaydi.

Aql – inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka bo'lgan munosabatlarini boshqarib turadigan faolyati.

Ong – kishining fikrlash qobiliyati yoki insonning ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi va unga bo'lgan shaxsiy munosabati, ya'ni tafakkur markazi bo'lib unda fikr va ma'lumotlar jamlanadi va u qalbdagi e'tiqod asosida **dunyoqarashni** shakllantiradi.

Demak, ongli inson paydo bo'libdiki, fikr, g'oya, qarash, mafkura, ta'limotlar shakllanib, ular asosida ilm, fan, texnika, texnologiya, ta'lim, tarbiya tadrijiy (evolyutsion) tarzda rivojlanib kelmoqda va takomillashib boraveradi.

Bizga ma'lumki, tarbiya masalasi bilan ulug' bobokalonlarimiz doimo shug'ullanib kelgan. Ular Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Imom Al-Buxoriy, Yusuf Xos Hojib va hokazolar. Bu borada Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», «Fazilat, baxt va kamolat haqida» va shu kabi asarlari bugungi yoshlarimiz tarbiyasida ham nihoyatda ibratlidir. Qayd etilgan asarlarning asosiy mazmunini tarbiya vositalari, shakllari va shu kabilar tashkil etadi.

Tarbiya o'zi nima, degan savolga Farobiydan quyidagicha ketma–ketlikdagi javobni topish mumkin:

- «Kamolot – bu yaratgan Allohning borligini ongli ravishda sezish va undan voqif bo'lish»;

- «Kamolatga eltuvchi yo'l – go'zal fazilatli va xayrli (yaxshi) ishlarni ichki xohish va istak bilan takrorlash, ularga muntazam amal qilish»;

- «Baxt – axloqiy fazilatlarini o'zlashtirish natijasi»;

- «Baxt belgisi – ruhning lazzat olishi va yaratganni sevish»;

- «Kamolat natijasi – abadiylikka ega bo'lish».

Turli yosh va har xil jinsdagi bola rivojlanishi, dunyoqarashi axloqiy va jismoniy kamol topishiga ijobiy ta'sir qiladigan omil hamda shart–sharoitlarini

bilish va ulardan unumli foydalanish shaxs kamolotida muhim asos bo'lib hisoblanadi. Tarbiya tizimida, ishlab chiqarishda bilimsizlik, savodsizlikni yo'qotish uchun bolalar ruhiyatidan qariyalar ma'naviyatigacha nazariy va amaliy bilimlarni egallash davrimiz talabidir. Ma'lumki, inson dunyoga kelgan davridagi oddiy sezishdan boshlab mantiqiy fikr yoritishgacha o'tadigan davr ona uchun juda uzoq va mashaqqatlidir. Yangi tug'ilgan chaqaloq dastlabki daqiqalardan boshlab sezgi organi yordamida atrof muhitni aks ettirishga kirishadi. Uning tafakkuri bir necha oylar hatto yillar davomida vujudga keladi, nutq va tafakkur birinchi mazkur rivojlanishni amalga oshiradi. Nutqning rivoji bola shaxsining rivojini tezlashtiradi. Shaxslararo munosabatlarni yuqori darajaga ko'taradi.

Bola hayotining har daqiqasi har bir oyi jismoniy va ruhiy jihatdan shakllanishdagi muhim davridir. Bolani tug'ilgandan bir yoshga yetgungacha pedagogik-psixologik faoliyat nuqtai-nazaridan unga yondashib, quyidagi yosh davrlarni bosqichlarga ajratish mumkin:

- 1) chilla davri (1 oydan - 1,5 oy)
- 2) ilk chaqaloqlik davri (1,5 oydan 6 oygacha)
- 3) chaqaloqlik davri (6 oydan 9-10 oygacha)
- 4) so'nggi chaqaloqlik davri (10 oydan 1 yoshga yetgungacha) va

h.k.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, bola kamolati va tarbiyasini ona qornidayoq o'ylash lozim ekan, chunki tarbiya tufayligina shaxs kamolati uzluksizligini va uzviyligini ta'minlash mumkin. Shuningdek, har tomonlama yetuk inson kamolatining eng muhim va zaruriy omillaridan biri ham tarbiyadir. Shaxs kamolotida tarbiyalanuvchining yosh xususiyati albatta e'tiborga olinadi. Ularni biz shartli ravishda quyidagicha uch bosqichga bo'lib ifodaladik: bolalik (chaqaloqlik davrida 11 yoshgacha); yetuklik (12 yoshdan 40 yoshgacha) va keksalik (40 yoshdan umrining oxirigacha) va buni inson umri, deb atadik.

Missionerlik – "G'amxo'rlik" soyasida nima bor!?

Insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki, vayron qiluvchi kuch, xatto, fanatizm sifatida foydalanganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Aynan fanatizm illatiga yo'liqqan odamlar yoki ularning guruxlari jamiyatida barqarorlik to'lqinini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar.

I. A. Karimov

Abdullayev Otabek

XX asr oxiri XXI asr boshlarida xalqaro hamjamiyat, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari aholisi diniy faolligining o'sishi kuzatildi. Bu jarayon an'anaviy dinlarga, shu jumladan, islom diniga bo'lgan qiziqishning ortishidagina emas, balki mazkur mintaqa uchun noan'anaviy hisoblangan diniy harakat va oqimlarning paydo bo'lishi hamda tarqalishida ham o'z ifodasini topdi. Bu kabi xogat kishilik jamiyati tarixida kam uchraydigan noyob hodisa emas.

Istiqloq yillari mamlakatimizda din sohasida chuqur o'zgarishlar sodir bo'ldi. 2009 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda 2049 ta islomiy tashkilot, jumladan, 2037 ta masjid, Toshkent Islom instituti, 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurti faoliyat olib bormokda. Bundan tashkari, mamlakatimiz xalklari diniy tarkibidan kelib chiqib 179 ta noislomiy diniy tashkilot, xususan, Provoslav va Protestant seminariyalari faoliyat olib bormokda. Lekin shunga qaramay O'zbekistan sharoitida noqonuniy diniy tashkilotlar faoliyati ham kuzatilmokda. Bu tashkilotlarning asosiy maqsadi missionerlik bilan shug'illanish va oddiy xalq orsida prozelitlarni ko'paytirishdir.

Missionerlik xaqida gan ketar ekan, avvalo ushbu tushunchaning lug'aviy ma'nosini tushinib olish muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etish lozim. Ushbu so'z lotin tilidagi «missio» fe'lidan olingan bolib, "yuborish", "vazifa topshirish", missioner esa "vazifani bajaruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal kilishga karatilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildiradi. Umuman olganda, turli lug'atlar va manbalarda bayon etilgan ta'riflar bir-biriga juda yaqin va o'xshash bo'lib, ularga tayangan holda quyidagi umumiy xulosani chikarish mumkin:

missionerlik deganda - bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshka (o'zga) bir dinni targ'ib qilish tushuniladi.

Tarix dastlabki missionerlar hech qanday mol-mulikka ega bo'lmay, qishloqma-qishlok, shaharma-shahar yurib odamlarga "xushxabar"ni yetkazishga harakat qilganliklaridan guvoxlik beradi. Lekin hozirgi zamonga kelib missionerlik o'z faoliyatida moliyaviy, psixiologik va texnik vositalardan foydalanadi. Missionerlikning asosiy uslublari quyidagilar:

- tekin tabiblik faoliyati bilan shug'ullanib, insonlarni davolash bilan bir qatorda dinni targ'ib qilish;

- xayriya yordamlari ko'rsatish orqali dinni targ'ib qilish;

- uyma-uy yurib "Hushxabar" yetkazish yo'li bilan;

- ta'lim-tarbiya sohasida islohotlar o'tkazish orqali;

- mahalliy tilda o'zga dinni targ'ib qiluvchi adabiyotlar chop qilish va tarqatishga asoslangan holda;

- gazeta va junnallarda diniy tusga era bo'lgan maqolalar chop etish orqali;

- radio va televidiniyada diniy chiqishlar uyushtirish orkali;

- badiiy va hujjatli filmlar yaratish orkali.

Olib borilgan ishlar, ko'rilayotgan choralar missionerlarning ko'plab fosh bo'lishiga olib kelmoqda. Bu o'z navbatida ularni yangidan-yangi yo'llarni qidirishga, o'z faoliyatlarini vaziyatga moslashgan holda takomillashib borishga majbur etmoqda.

Missionerlik milliy birlik va jamiyat barqarorligiga taxdidga aylangan ekan, unga qarshi kurash, oldini olishga qaratilgan ishlarni tizimli tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimizda yetarli huquqiy asoslar ham yaratilgan. Bunga misol tariqasida: Konstitutsiyamizning 13, 18, 20, 31,43, 48, 57 va 61-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun (1998 yil 1 may), ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 184, 184, 201, 202, 240 va 241-moddalari hamda jinoyat kodeksining 145, 156, 216, 217, 229 va 244-moddalari asos bo'lishi mumkmn. Lekin missionerlikning keng tarqalishining asosiy sababi bu odamlarning o'zlari e'tiqod qiladigan dinlari xaqida to'liq va aniq tushunchaga ega emasligidadir. Joylarda mazkur muammoni yanada bartaraf etishda adliya idoralari ham korxon va tashkilotlar, mahallalar, barcha ta'lim muassasalarida din va diniy e'tiqod tushunchalarini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarga uslubiy jihatdan rahbarlik qilishi maqsadga muvofikdir.

Javobgarlikdan ozod qilish xususiyatlari

Zayniddinov Qutbiddin

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvida demokratik tamoyil mohiyati, eng avvalo, uning xalq manfaatlarini himoya qilishda fuqarolarning erkin huquqlarini himoya qilishda o'z ifodasini to'la aks ettishida namoyon bo'lmoqda. Demokratik, insonparvar, adolatli fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish yo'lidagi asosiy maqsadi, vazifasi, yo'nalishi inson huquqlarini himoya qilish va ularni amalga oshirishga qaratilgandir. Inson huquq va erkinliklarini butun choralar bilan rivojlantirish va takomillashtirish respublikamiz hayotining asosiy tamoyillaridandir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq «xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir». O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlar oliy qadriyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va meyoriy qonunchiligi fuqarolarning qonuniy talab va ehtiyojlarini qondirish choralarini ko'radi, shaxsning xar tomonlama kamolotga yetishi uchun qayg'uradi.

Buning yaqqol aksini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida ko'rishimiz mumkin. "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi

aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. »¹³⁴

Yoki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga e'tibor beradigan bo'lsak, unda: "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayri qonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi"¹³⁵ deb ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi davlati tomonidan sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar asosi bu halqimizning, ya'ni Respublikamiz fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimini isloh qilishning eng muhim vazifasi jinoyat, jinoyat-protsessual qonun hujjatlari, jinoiy jazo tizimini izchillik bilan bosqichma – bosqich liberallashtirish hisoblanadi. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan bir qator qonunlarni qabul qilinib, qo'yilgan maqsadni to'g'ri ekanligini isbotlab berdi.

Jinoyatga oid siyosatda, huquqni qo'llash amaliyotidagi tub o'zgarishlar mamlakatda ijtimoiy-siyosiy, kriminogen vaziyatga ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Aynan, yuqoridagilarga asoslanib jinoyat huquqidagi jazo tushunchasi va turlariga to'xtalib o'tishni joiz deb bildim.

Jinoiy jazolar avvalo, insonlarni kamsitish vositasi emas, qilmish sodir etgan shaxslarni tarbiya etishni maqsad qiladi. Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan berilayotgan takliflar bir qancha qonunlarimizga o'zgartish kiritishda asos bo'lmoqda.

Sud huquq sohasidagi islohotlar muallifi ham davlatimiz yo'l boshchisi I. Karimov hisoblanadi.

Jamiyatda insonparvarlik tamoyilini amalga oshirishni bir ko'rinishi bu jinoyat sodir qilgan shaxslarni holatlarini to'liq o'rganib chiqiladi va qonunda belgilangan tartibda jazodan ozod qilinadilar. Hozirgi kun jinoyat qonunchiligi, jumladan jazo tizimida qachonki jazoni yengilrog'i bilan shaxsni tarbiyalashni iloji bo'lmasagina og'irroq jazo qo'llash nazarda tutilgan. Jazodan ozod qilish jinoiy javobgarlikdan ozod qilish qoidasining tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki mazkur harakat jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning bir shakli sifatida hamisha jazodan ozod qilishni taqozo qiladi. Ayni vaktida, jinoiy javobgarlik doim xam jazo bilan amalga oshavermaydi, zotan uning asosiy mazmuni hukm chiqarish bo'lib, u jazosiz xam yuz berishi mumkin.

Ayblon maxkumni jazolash maksadida belgilanmaydi va ijro etilmaydi, balki uni tarbiyalash, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish, shuningdek maxkum va boshka shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir

¹³⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasi.-T.: O'zbekiston,-2006 y.

¹³⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 44-moddasi. – T.: O'zbekiston, 2006 y

qilinishini oldini olish maksadida belgilanadi. Shu bois jazo belgilash va uni ijro etish agar muayyan holatda davlat ixtiyoridagi boshka tasir chorulari orqali ko'zlangan maksadlarga erishish imkonini bermaganda zarur deb topiladi. Agar ko'zlangan maksadlarga jinoiy jazoni qo'llamasdan xum erishilsa, boshka uslub, usul va vositalar bilan ijro qilish maksadga muvofiq bo'lmaydi, kam samara beradi.

O'zbekiston Respublikasi jinoiyat qonunchiligi jazoni moxiyatini qonuniy yo'l bilan yechishning manbaiga uning jinoiyatchilikka qarshi kurash vositalaridan biri bo'lsada, lekin bosh vosita deb emas, balki yordamchi vosita deb yondashuvida namoyon bo'ladi. Shunga asoslanadigan bo'lsak, jinoiyat qonunchiligining vazifalaridan biri fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruxida tarbiyalanadigan, jazoning maqsadlaridan biri esa maxkumni axloqan tuzatishdan iborat ekan, jinoiyat sodir qilgan, ammo hukm chiqarish yoki jazoni o'tash vaqtida shaxsning jamoat uchun xavflilik xususiyatini yo'qatgan, qilmishga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan bo'lsa bunday shaxsga nisbatan uni tarbiyalash va axloqni tuzatishning jinoiy jazo qo'llash orqali xal qilinishiga xojat qolmaydi. Bunday shaxslarga nisbatan sud jinoiyat kodeksida nazarda tutilgan jazodan ozod qilishning biror turini ish holatlariga qarab qo'llash mumkin.

Jinoiy jazodan ozod qilishni ikki turga bo'lish mumkin.

- 1) Jazodan to'la ozod qilish;
- 2) Jazodan qisman ozod qilishdir

Jazodan to'la ozod qilishda sud ayblov qarori chikaradi va jazoni belgilab, belgilangan jazoni ijro etmaslikka doir qaror qabul qiladi. Maxkum etilgan shaxs jazodan kisman ozod qilinganda u sud belgilagan jazoning faqat bir kismini o'taydi va uning o'talmagan qismidan ozod qilinadi. Yoxud maskur kism yengilrok jazo bilan almashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining XIII bobida jinoiy jazodan ozod qilish va uning turlari belgilab kuyilgan. Ushbu qonunga ko'ra jazodan ozod qilishning bir nechta turi mavjuddir. Ular kuyidagilardan iboratdir:

1. Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish;
2. Shaxsning ijtimoiy xavfli xususiyatini yo'qotish munosabati bilan uni jazodan ozod qilish;
3. Aybdorni chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish;
4. Shartli jazo belgilash.

Jazodan ozod qilish qo'yidagilar kiradi:

- 1) muddatidan ilgari shartli ozod etish;
- 2) jazoni yengilrog'i bilan almashtirish; jazoni ijro etishning ikki turiga, ya'ni klassik yoxud avf etish asosida jazodan ozod etish o'z xususiyatiga ko'ra jazodan to'la va qisman ozod qilish kabi bo'lishi mumkin

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni dastlabki yillarida jamiyatni barcha jabxalarini tartibga soluvchi qonunlar yaratildi va amalda samarali tadbir qilinmoqda. Ana shunday qonunlardan biri O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunidir. Jinoyat qonuni o'tish davridagi g'oyat murakkab sharoitda jinoyatchilikka qarshi kurash olib borishning muxim vositasi bo'lishi bilan birga jamiyatni bosqichma-bosqich islox qilib borishini ta'minlashda muxim ahamiyatga ega. «Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o'tish, afsuski korruptsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch xodisa bilan birga yuz bergan. Shu bilan birga, jinoyatchilikni o'sishi nafaqat islohotlar bo'yicha jiddiy to'siq, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga xam qarshi bevosita taxdid tug'diradi» deb yozadi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov¹³⁶

1994 yil 22sentyabrda O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat kodeksi qabul qilindi. Ammo uni amalda qo'llanishida jiddiy muammolar va ayrim normalarning nazariy qoidalarni jinoyat xuquqida ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda, Chunki yangi jinoyat kodeksi bozor iqtisodiyoti tizimiga asoslangan xuquqiy demokratik davlatning jinoyat qonuni bo'lib, 1959 yilda qabul qilinib, 1995 yil 1aprelgacha amalda bo'lgan jinoyat kodeksidan tamoman farq qiladi.

Shundan kelib chiqib, fikr-mulohazalarni bayon qilishni joiz deb bilaman:

Birinchidan; «Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o'tish, afsuski korruptsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch xodisa bilan birga yuz bergan. Shu bilan birga, jinoyatchilikni o'sishi nafaqat islohotlar bo'yicha jiddiy to'siq, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga xam qarshi bevosita taxdid tug'diradi» deb yozadi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov¹³⁷. Shundan kelib chiqib xulosalasaq,

Birinchidan, jazolarni yengillashtirish, jazodan to'la yoki qisman ozod etish tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, jinoyat uchun jazo choralari qo'llash to'g'risidagi qonunlarga og'ishmay amal qilish sudlarning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, faqat asosli va odilona jazo tayinlash orqaligina jamiyatni jinoyiy xurujlardan samarali himoya etish, sudlanganlarni tuzatish va qayta tarbiyalashga erishish, sudlanganlar hamda boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishni ta'minlash mumkin.

To'rtinchidan, sud amaliyoti tahlili jazo tayinlash to'g'risidagi masala Oliy sudning Plenumida muxokama qilinishi va ko'rilgan boshqa choralar natijasida Respublikada jinoyat uchun jazo choralari qo'llashda, asosan to'g'ri yondashuv ta'minlanganligini ko'rsatadi.

¹³⁶ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Toshkent., «O'zbekiston» 1997 y. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Jinoyat Kodeksi. Toshkent-1959y.

¹³⁷ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Toshkent., «O'zbekiston» 1997 y.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar

Rayhon Mirzaazimova

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Sobiq ittifoq respublikalari orasida O'zbekiston birinchi bo'lib, davlat boshqaruvining Prezidentlik shaklini joriy kildi. Prezidentlik instituti O'zbekistonda 1990 yilmartida "O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni) ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan joriy etildi. Oliy Sovetning 12-chakirik, birinchi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti etib Islom Abdug'anievich Karimov saylandi. 1991 yil 29 dekabr va 2000 yil 9 yanvarda to'g'ridan-to'g'ri umumxalq Prezidenti saylovlari o'tkazildi. Saylovlar muqobillik asosida o'tdi va I. A. Karimov Prezident etib saylandi. 1992 yilgi Konstitutsiyaga binoan, Prezident davlat boshlig'i deb e'lon qilindi.

Mamlakatimizning Asosiy Qonuniga, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti to'g'risida"gi, "Fuqarolar saylov huquqlarini kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlar va qonun hujjatlariga binoan, mamlakatimizda saylov demokratiya, ochiqlik va oshkoralik tamoyillari asosida, umumiy va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazildi¹³⁸.

Davlat boshqaruvining Prezidentlik shaklida Prezident umumxalq saylovlarida saylanadi va davlat boshlig'i hisoblanadi. 1992 yilgi Konstitutsiyamizda ayni vaqtda u ijro hokimiyatni xam boshqaradi, faqat o'zi oldida javobgar bo'lgan xukumatni tuzadi deb belgilangan.

Keyinchalik kiritilgan o'zgartirishlarga binoan Prezidentimiz davlat boshlig'i va hokimiyatlar o'rtasida mutanosiblikni ta'minlovchi oliy mansabdor shaxs hisoblanadi.

"Prezident" tushunchasi konstitutsiyaviy-huquqiy ma'noda davlat boshlig'ini anglatadi. Aynan shuning uchun bu institut jahon davlat-huquqiy amaliyotida yaratilgan edi. Uning bunday roli Prezidenti bo'lgan har qanday zamonaviy demokratik respublikaga xosdir. Prezident davlatni jiplashtirishi, davlat hokimiyati mexanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta'minlashi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasiga muvofiq. Prezident — hokimiyatlar bo'linishi printsiipiga rioya qilinishida davlat mexanizmining eng muhim institutidir.

Davlat boshlig'i sifatida Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida yetakchi va muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaydi. Prezident davlat ichida va xalqaro munosabatlarda O'zbekistonning Oliy vakilligini amalga oshiradi.

¹³⁸ Mustaqil O'zbekiston xalqi eng munosib nomzodni sayladi. 23 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. "Adolat", 28 dekabr 2007 yil № 54

Davlat boshlig'i o'zida u yoki bu hokimiyat tarmog'ini emas, balki davlat va butun davlat hokimiyatining birligini namoyon etadi.

Konstitutsiyaning 94-moddasiga muvofik O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaga va konunlarga asoslanib xamda ularni ijro etish yuzasidan mamlakatning butun xududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chikaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z vazifalari va konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshirish maksadida ko'p qirrali huquq, ijodkorligi faoliyatini yuritadi.

Prezident butun O'zbekiston xududida bevosita amal qiladigan, majburiy kuchga ega bo'lgan uch xil normativ-huquqiy hujjat:

- 1) farmonlar;
- 2) qarorlar;
- 3) farmoyishlar chikaradi.

Farmon — anik bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga taallukli bo'lib, uzok muddatga amal qiladi. Farmon — normativ huquqiy hujjat. U huquqni kullash xususiyatiga xam ega bulishi mumkin va demakki, normativ mazmunga ega bulmasligi xam mumkin. Normativ mazmundagi farmonlar nashr etiladi, masalan u yoki bu shaxsni biror lavozimga tayinlash to'g'risida.

Farmoyish — individual tashkiliy xususiyatdagi hujjatdir.

Prezident chikaradigan hujjatlar uning o'zi tomonidan Oliy Majlis yoki boshqa davlat organini xabardor kilmasdan yoki roziligini olmasdan mustakil chikariladi. Prezident chikaradigan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar Konstitutsiya va qonunlarga zid bulmasligi shart. Chunki ular Konstitutsiya va konunlar asosida, ularni bajarish maksadida chikariladi. Prezident chikargan normativ hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofikligi to'g'risidagi masala, zaruriyat tugilganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi tomonidan xal qilinadi (Konstitutsiyaning 109-moddasi). Kurib chikish natijalari buyicha Konstitutsiyaviy sud butun hujjat yoki uning ayrim koidalari Konstitutsiyaviy yoxud g'ayrikonstitutsiyaviy ekanligi hakida qaror qabul qilishi mumkin. Shu tarika Prezident aktlarining Konstitutsiyaviy bulishi kafolati ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari davlat oliy mansabdor shaxsi tomonidan qabul qilingan hujjat hisoblanadi. Lekin, ular Konstitutsiya va mamlakat qonunlariga zid bulmasligi shart (16-modda). Lekin "Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib xamda ularni ijro etish yuzasidan" deyilgan Konstitutsiyaviy bayon qilish, shuningdek, faqat qonun tomonidan tartibga solinadigan masalalar ruyxatining Konstitutsiyada mavjud emasligi — Prezidentning huquq ijodkorligi faoliyatini keng talkin qilishga imkon beradi. Biror masalani qonun bilan tartibga solish mavjud bo'lmagan hollarda, Prezident oldindan ushbu masala yuzasidan normativ farmon chikarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy hujjatlari "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xabarnomasi" vashuningdek, respublika gazetalarda rasman e'lon qilindi.

Ekologik muammolar genezisi

Aslanboev Abduqodir

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Insoniyat tarixiga biz tabiatshunos nuqtai nazaridan bir nazar tashlaydigan bo'lsak, juda qiziq holatlarga duch kelamiz. Inson Yer yuzasida paydo bo'libdiki biron bir «narsa»ga huruj. qilish orqali o'z tinchligi va atrofdagilarning xotirjamligiga salbiy ta'sir eta boshlagan. Ana shu «narsa» bo'lib, ko'pincha, tabiatning muayyan bir komponenti (unsuri) yoki uning kompleksi(majmuasi) chiqqan.

Yosh bolalarga ularning ota-onalari turli xil rivoyatlarni aytib berayotganlarida, albatta, Odam Ato bilan Momo Havoning "jannatdagi sarguzashtlari"ga to'xtalib o'tishadi. Bu o'rinda ma'rivatparvar olim Abdulhay Abduraxmonovning "Saodatga eltuvchi bilim" kitobidan quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin-«Tangri taolo Odam Ato va Momo Havvogo "Ey Odam, jufting bilan jannatga kirgin, barcha ne'matlardan yenglar, ammo bog'ning o'rtdasidagi *daraxt mevasini yemang*, aks holda zolimlardan bo'lib qolursizlar",- deydi. Mamo Havvo esa Iblisning vasvasasiga uchib, o'sha daraxt mevasidan yedi va undan Odam Atoga ham yedirdi. Odam bu mevani chaynab endi yutaman deganida, Tangri taoloning so'zi esiga tushib uni naqd bo'g'izida ushlab qolishga ulgurdi. Aytishlaricha, o'shandan buyon erkaklarning tomog'i dumaloq bo'lib do'ppayib turar emish. Ushbu man qilingan daraxtdan foydalanish oxir oqibatda ularning ikkovlarini ham jannatdan xaydalishga olib kelgan»¹³⁹. Xulosa qilib aytganda, Tangri taolo tomonidan azizu mukarram qilib yaratilgan Odam Ato va Momo Havvoning, ya'ni insoniyatning ezgu niyatlariga zid bo'lgan va unga bo'ysinmaslikka qaror qilgan «Iblis»ning gaplariga kirib ularning tinch va xotirjam hayotlarini tabiat orqali buzayotganla-ring ishlari na dinga va na ilmga to'g'ridir.

«Avesto» kitobiga binoan bolalar yoshligidanoq daraxt ko'chatini o'tkazishlari shart bo'lgan. Inson 9 butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir. Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi jazosiga mahkumdir. Lekin bu kitobda ekologik jazo sifatida bir turdagi tabiiy obektni buzgani uchun ikkinchi bir turdagi tabiiy obektdan qutulishni ham me'yor qilib qo'yanlar. Suvni iflos qilgan yoki ov itini o'ldirgan kishi 1000 ruhiyatni tetiklashtiradigan o'simlik bargi terishi, 1000 ta echkiemar, 1000 ta

¹³⁹ Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim.-T.: Movarounnahr, 2003. 28-33-b.

suv qo'ng'izi va kasallik tarqatuvchi pashshani o'ldirib, gunohini yuvishi lozim bo'lgan. Qadimgi Vavilonda shoh Hammurapi tomonidan «O'rmonlar muhofazasi»ga oid qonun bor yo'g'i shohning tiriklik davrida (eramizdan avval 1792-1750-yillarda) hukm surgan holos. Xuddi shunday holat er. avval III asrda Hindiston rojasi Ashoki qaroriga «Hayvonot dunyosini ovlash qoidalari» ham taalluqlidir. Shunday qilib, ekologik xavfsiz muhit inqirozi kishilar faoliyatining atrof-muhitga antropogen ta'sirining uch oqibatlar majmui – tabiiy resurslar kamayishi, atrof-muhit ifloslanishi va ekologik tizimlarni buzilishi mahsulidir. Tabiiy resurslar kamayishi – kishilarning xo'jalik va boshqa hayotiy faoliyati manbai bo'lgan tabiiy obektlarning yo'qola borishidir. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, «insoniyat tsivilizatsiyasi» davrida, to'g'rirog'i iqtisodiy madaniyatlashgan kishilarning izchil faoliyati davrida Yer kurrasidagi o'rmonlarning 2/3 qismi kesilib ketdi, 250 xil turdagi hayvon va o'simliklar yo'q bo'lib ketdi, 3-4 mlrd. gektar yer qishloq xo'jalik oborotidan chiqarib yuborildi, atmosfera havosidagi kislorodning zahirasi 10 mlrd. tonnaga kamaydi. Keyingi 100 yil ichida, fransuz olimi A. Gerrenning ma'lumotlariga ko'ra, tuproq eroziyasi va texnogen buzilishi 2 mlrd. gektar yerni unumdorligini yo'qotib yuborgan. Shu kunlarda Yer kurrasida 1 daqiqada 20 ta o'rmon kesilmoqda, kuniga bir turdagi hayvonot yoki o'simlik turi qizil kitobga kiritilmoqda. Tabiiy resurslarning kamayib borishidan tashqari atrof tabiiy muhitning ifloslanishi ekologik tizimlarning buzilishiga, modda va energiya almashuvining tabiiy holatda kechishiga keskin ta'sir qilmoqda. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi deb tabiiy moddalar (tuproq, suv, yer osti boyliklari, atmosfera havosi) tarkibining fizik va kimyoviy o'zgarishiga aytiladi. Agarda bunday o'zgarish inson hayotining faoliyati bilan kechsa – antropogen ifloslanish, uning ishtirokisiz kechsa – tabiiy ifloslanish deyiladi¹⁴⁰.

Chunki inson tabiatning bir bo'lagi va uning ajralmas qismidir. Tabiat falokati–insonlar hayotining tugashi bilan yakun bo'lishi mumkinligi haqida barcha muqaddas kitoblar-Avesto, Tavrot, Talmud, Zabur, Injil va Qur'oni Karimda zikr etilgandir. Hattoki, Misrdagi Xeopsa piramidasida fir'avnlar tomonidan toshlarga bitilgan satrlarda ham «qiyomat kuni» haqida shunday deyilgan,- «Insonlar tabiat kuchlaridan oqilona foydalana olmasliklari va bu moddiy dunyoning asl mohiyatini tushuna olmasliklari orqali halok bo'ladilar»¹⁴¹.

Qur'oni Karimning yetmish beshinchi «Qiyomat» surasida qiyomat kuni bo'ladigan hodisalar, hisob-kitob, jazo va mukofotlar kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan bo'lgan munosabatiga qarab o'rnatilgan. Makkada nozil qilingan ushbu suraning 6-oyatida «Qiyomat kuni qachon o'zi?» dagan savol qo'yiladi. Bu savolga quyi oyatlarda javob tariqasida «Bas(atrof muhit dahshatlaridan) ko'z qamashganda, oy ham tutilganda, quyosh va oy

¹⁴⁰ Google poisk. www.Ziynet.uz, www.referat.uz

¹⁴¹ Reymers N.F. Nadejdy na vyjivanie chelovechestva. Kontseptualnaya ekologiya...-M.: ITS «Rossiya Molodaya»-Ekologiya,1992.-S. 8

birlashtirilganda, ana o'sha kunda inson: jazodan qochadigan joy qaerda?—deb qolur!». 13-oyatda esa «U kunda (qiyomatda) insonga (bu dunyoda) qilib o'tgan va qoldirgan(barcha) narsalarining xabari (Rabbing tomonidan) berilur»-deyilgan.

Jyul Vernning 1895 yilda chop etilgan «Suzib yuruvchi orol» nomli fantastik asarida Orolidagi odamlarni o'zlariga bo'ysindirish maqsadida «dushmanlar» ularning orasiga yirtqich hayvonlarni qo'yib yuboradilar. Shu orqali Suzib yuruvchi orolning ekologik barqarorligini izdan chiqarmoqchi va undagi kishilarni qo'rqitish orqali o'zlarining yovuz maqsadlariga erishmoqchi bo'lishadi.

Prezidentimiz I. A. Karimov aytmoqchi¹⁴²-«Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir», Ekologik muammo yetarli darajada global muammoga aylanib qolgan.

Inson bu moddiy dunyoda yashar ekan, umidsizlik ila hayot kechira olmaydi. Ertangi kuniga ishonchsizlik ruhida tarbiyalangan inson axir o'z-o'zini falokatga yuz tutib berishi hech kimga sir emas. Yaponlar «Yaxshi niyatlar ila yasha, yomoni esa o'zi keladi» deyishadi. Bu dono fikrda jon bor. Biz kelajagimizga ishonch ko'zi bilan qarab yashashimiz lozim, zurriyotlar qoldirib, ularning farovon hayotiga zamin yaratishimiz—ham qarz, ham farzdir. Buning uchun fozil ishlarni qilishimiz, Abu Nasr Farobiy aytganidek «Fozil odamlar shahrini» qurmog'imiz darkor. Tabiatni, uning boy ne'matlarini asrab-avaylashimiz, xudoni bergan in'omlarini bola-chaqalarimizga ham bus-butun qoldirishimiz kerak. Xullas, obrazli qilib aytganda, inson o'zi «o'tirgan daraxti»ni tamomila kesib yuborishga yo'l qo'ymaslikni hammamiz anglab yetishimiz darkor.

Sharqona hokimiyat o'ziga xos jihatlari

Axmadjanova Nigora

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Sharq davlatchilik tajribasi, boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari, g'arb davlatchilik tajribasini o'rganish asosida olingan hulosalar davlatimizda sharqona demokratiyani shakllantirdi. O'zbekiston davlatchiligi tarixiga nazar solinsa va qoldirilgan tarixiy manbalarga e'tibor berilsa, mamlakatimiz joylashgan xududlarda mavjud bo'lgan davlatlarda adolatli davlat boshqaruvi va hokimiyat vakolatlari bo'linish tamoyillariga ko'ra ish olib borgan davlatlarni faoliyatini o'rganish mumkinligini ko'ramiz.

¹⁴² Nigmatov A.N., R.N.Sultonov. Ekologiya va hayot. Prezident Islom Karimov asarlarida ekologiya masalalariningyoritilishi.-T.: «O'zbekiston», 2002. 3-b.

Davlatimiz rahbari o'z asarlarida umumjahon demokratiyasi nazariyalari asosida demokratik davlatchilik, fuqarolik jamiyati, ochiq jamiyat masalalarini yoritib bermoqda.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 7 - moddasida «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai» deb belgilangan. Xalq bo'lmagan joyda davlat mavjud bo'lishi to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. Xalq o'z manfaatlarini himoyalash uchun ayrim muassasalarni shakllantiradi. Bu muassasa davlat muassasasi hisoblanib, muayyan hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga hilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

O'zbek xalqi o'z tarixida bunday xalq manfaatlariga zid ravishda hokimiyatni o'zlashtirish harakatlari bo'lgan holatlarni boshidan kechirgan. Lekin xalq xohlamas ekan, albatta bunday hokimiyatchilik harakatlari uchun tegishli choralar ko'riladi. bunga sobiq sovetlar davrini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbari tomonidan aytilganidek, «Konstitutsiyamizning eng muhim mohiyati shundan iboratki, unda «Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'uldirlar», ya'ni, fuqarolar manfaatini ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan. Sobiq totalitar tuzum sharoitida bunday fikrni hech kim xayoliga keltira olmas edi. Bugun esa inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa huquq hamda erkinliklari muqaddas bo'lib, davlat himoyasidir».¹⁴³

Inson yaralibdiki, u o'zining yaratuvchanlik faoliyati orqali jamiyat bilan doimiy munosabatda bo'ladi. Aynan yaratuvchilik faoliyati tufayli, inson tabiatni, jamiyatni, qolaversa, o'zini ham o'zgartiradi, shakllantiradi. Chunki, u maqsadli mehnat faoliyati jarayonida o'z g'oyalari va ma'naviy dunyosini ob'ektiv reallikka aylantiradi va aksincha, muayyan ijtimoiy munosabatlar ta'sirida o'z g'oyalari, qobiliyati va ma'naviy dunyosini boyitadi.

Insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida mavjud ijtimoiy munosabatlarga monand, inson mohiyati muayyan tarixiy mazmun bilan boyib boradi. Har bir individ faoliyatning iqtisod, siyosat, madaniyat kabi turli sohalar orqali ijtimoiy munosabatlarga kirishib boradi va shu tarzda o'zida ijtimoiylikni shakllantiradi. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish hokimiyat vositasida amalga oshiriladi.

¹⁴³ Karimov I. A. Buyuk kelajgimizning huquqiy kafolati. T., «Sharq». 1993 yil. 8-bet

Hokimiyat masalasida huquqshunos H. Odilqoriyev fikr yuritib shunday deydi: “Hokimiyat- kishilik jamiyati paydo bo’lgandan buyon mavjud bo’lib, to hozirgacha qudratli “joziba” ila insonlar aqlini o’ziga tortib kelayotgan nihoyatda murakkab ijtimoiy xodisa. Bugunni kunda aksariyat olimlar e’tirof etgan nuqtai-nazarga ko’ra, hokimiyat-bu muayyan shaxs (guruh) ning u yoki bu kishi (guruh) ustidan boshqaruvni amalga oshirish (hukmronlik qilish), u yoki bu narsaning taqdirini hal etish huquq imkoniyatidir”.

Hokimiyatning muhim sifati uning kishilar o’rtasidagi irodaviy munosabat ekanligida ifodalanadi. Hokimiyat bu shunday ijtimoiy irodaviy munosabatki, bunda hukmron irodaning ustunligi, belgilovchi roli ta’minlanadi¹⁴⁴. Hokimiyat amalga oshgan joyda muayyan irodaviy akt (munosabat) bor va shuning natijasida ro’y beradigan boshqaruv va boshqarilish mavjud bo’ladi. Boshqaruv, ma’lum bo’ysunishni talab etadi. Demak, hokimiyat bo’ysunish va zarur bo’lganda majburlash elementlari orqali amalga oshiriladi. Ma’lum obro’ (avtoritet) va bo’ysunishsiz boshqarish mumkin emas.

Boshqaruv va boshqarilish davrga mos bo’lgan kishilar tabiati asosida amalga oshirilishi lozim aks holda jamiyat a’zolari noroziligi tufayli hokimiyat shakli o’zgartirilishi mumkin. Bu o’zgarish inqilobiy qo’zg’olonlar oqibatida, yoki, jamiyat a’zolarining faol evolyutsion harakatlari oqibatida amag oshadi.

Xalq o’zida shakllangan ijtimoiy-huquqiy ongga muvofiq keluvchi davlat hokimiyatini shakllantiradi.

Sharqona hokimiyat o’ziga xos jihatlarga ega.

-Tarixga nazar tashlasak, qadim sharq hududidagi davlatlarda odamlar o’z yo’lboshchi sardorlarini oqil, adolatli bo’lishlarini istaganliklarini kuzatishimiz mumkin. Xususan, O’zbekiston xududidagi davlatlarda hokimiyat yakka shaxs qo’lida bo’lsada, boshqaruv kengash asosida amalga oshirilganligini ko’ramiz.

-Kengash a’zolari xalq manfaatlariga mos qarorlar kabul qilganlar. Shuningdek, davlatdagi mansabdorlar xalq oldidagi mas’uliyatlarini xis qila biladilar.

Bag’rikenglik

S. Norqo’ziyev

Nam DU dotsenti, f. f. n.

Axloqning ijobiy me’yorlaridan biri – o’zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g’amxo’r saxiy, kengfe’lli bo’lgan, ana shunday ma’naviy fazilatlariga ega kishilarni ifodalovchi tushuncha. Bag’rikenglik o’zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, anana-marosimlariga hurmat-ehtiromda bo’lish, muomala munosabatida kamsitish va tahrirlashlarga yo’l qo’ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun xisoblab, jamoada, ish joylarida mahalla-ko’yda bunga rioya etishni anglatadi. Mazkur me’yor turli

¹⁴⁴ Keyzerev N. M. «Vlast i avtoritet». M., 1973 g, str-38.

dindagi, turli millatva elatlarga mansub kishilarning bir mamlakat doirasida, yagona davlat tarkibida bahamjihat, tinch-osoyishtayashashini ifoda etadi. Bag'rikenglik ayrim shaxslarga yoki butun bir xalqqa xos xususiyat bo'lishi mumkin.

Bag'rikenglik o'zbek xalqining eng oliyjanob fazilatlaridan biridir. Bag'rikenglik millat va diniy tusda namoyon bo'ladi. milliy bag'rikenglik millarlararo totuvlikni anglatasa, diniy bag'rikenglik – turli diniy oqimlarga mansub kishilarning hamjihatlikda yashashini bildiradi. Turli dinlarga e'tiqod qiluvchilar bilan hech bir dinga e'tiqod qilmaydiganlar o'rtasidagi hamjihatlik, hamkorlik va o'zaro hurmat ham bag'rikenglikka kiradi. Bag'rikenglik tor mutaassiblikka zid ma'no beradi. Umuminsoniy qadriyatlarni qadrlaydigan, yuksak ma'rifatli inson hech qachon diniy va milliy ayirmachilik yo'lidan bormaydi, balki barchaga barobar ehtirom va odobda bo'ladi. mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridanoq izchil amalga oshirilayotgan bag'rikenglik siyosati milliy taraqqiyot, mamlakatda qaror topgan osoyishtalikni yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Bag'rikenglik dunyodagi turli madaniyatlar, turfa xalqlar milliy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlarini xurmat qilishini anglatadi.

Prezident Islom Karimov ma'naviyatimizning tarkibiy qismi bo'lgan islom dinining inson hayotida tutgan o'rni xususida to'xtalib, butun dunyoda unga nisbatan qiziqish va intilishning kuchayishini, dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikenglikni, odamzodni doimo ezgulikka chorlashi, xayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va ananalarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bilan izohlaydi.

BEG'ARAZLIK

Axloqning ijobiy me'yorlaridan biri. -1) shaxsning ma'naviy qiyofasiga xos fazilat, kamtarlik, o'zgalar maqsadlariga halal bermaslik, xususiyatlariga xasad, ko'ra olmaslik, baxillik, buzg'unchilik, o'g'irlik, g'iybatchilik, manfaatparastlik va boshqa shu kabi illatlardan holilik sifati 2) bir inson tomonidan boshqa bir insonga ezgu holis niyat bilan qilinadigan moddiy ma'naviy yoki boshqa biror bir turdagi yordam, ko'magi evaziga hech qanday qaytinga umidvor bo'lmasligi, tama qilmasligini bildiruvchi beg'arazlik xalqimiz tarixida azaldan muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Eng ko'xna bebaho yodgorligimiz Avestoda ifodalangan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" tamoyilida beg'arazlik g'oyasi mujassam. Xalqimiz orasida keng tarqalgan Hotamtoy timsolidida ham beg'arazlik inson fazilati namoyon bo'ladi. Yurtimizda yashab, ijod etgan ko'plab allomalarning hayot tarzi, beg'arazlikning yorqin timsolidir. O'rta asrlarda juda mashhur bo'lgan javonmardlik tariqatida beg'arazlik, saxovatpeshalik g'oyat muhim mazmun kasb etgan. Beg'arazlik shuningdek, guruh, tashkilot, korxonada, davlat faoliyatida moddiy yoki ma'naviy yordamga muxtoj kishilarga ko'mak berish orqali namoyon bo'ladi. Masalan,

mustaqillik yillarida mamlakatimiz tomonidan moddiy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan yoki tabiiy ofatdan zarar ko'rgan qo'shni respublikalarga moddiy yordam ko'rsatish, jahondagi turli davlatlarga BMT, YuNESKO, AYSESKO, Qizil yarim oy va boshqa davlatlar tomonidan moddiy va ma'naviy ko'mak uyushtirilishi beg'arazlikka misol bo'la oladi. Shu ma'noda, beg'arazlikni insonlar yoki jamiyatlarga xos ijobiy sifatlarni yaxlit holda ifodalaydigan axloqning me'yori sifatida ta'riflash mumkin.

Sog'lom, barkamol avlod jamiyat tayanchi

*Topildiyev Odiljon Raximjonovich
Namangan davlat universiteti "Ijtimoiy-
madaniy faoliyat" kafedrasini mudiri, t.f.n.*

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda sog'lom ona – sog'lom bola masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan birinchi xalqaro hujjatlardan biri 1992 yil 9 sentyabrda parlamentimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konventsiya bo'lgan bo'lsa, keyinroq esa "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mamlakatimizda ilk ordenlardan biri "Sog'lom avlod uchun" ordenining ta'sis etilishi ham o'ziga xos tarzda ramziy ma'noga ega. Shu asosda mamlakatda sog'lom ona – sog'lom bola masalasiga oid keng ko'lami umummilliy dasturlar doirasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Zero, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlar, mamlakatimizning buyuk kelajagi, ertangi kuni, erkin va farovon hayotimiz, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi, avvalambor, barkamol avlod, o'sib kelayotgan yoshlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, donishmandlarning fikricha, har qanday mamlakatning ayollarga, yoshlarga munosabatidan uning ma'naviy darajasi qanday ekanligini bilib olish qiyin emas. Bu jihatdan O'zbekistonni jahonga ibrat qilib ko'rsatsa bo'ladi. Ma'lumki, ayolga va o'sib kelayotgan yosh avlodga bo'lgan e'tibor, bu – jamiyatning ertasi va kelajagiga e'tibor demakdir. Mustaqillik yillarida oila, onalik, bolalik masalalari O'zbekiston taqdiri va kelajagi bilan uyg'un holda islox etildi. Barkamol avlod tarbiyasi, mamlakatda barqaror tenglik va xavfsizlikni ta'minlash, farovon hayotni barpo etish muhim ahamiyat kasb etdi. Olib borilayotgan barcha ezgu ishlar zamirida onalik va bolalikni himoya qilish, O'zbekiston xalqi uchun muqaddas qadriyatga aylangan oila institutini yanada mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Oila" (XIV bob)¹⁴⁵ deb nomlangan mahsus bobning kiritilishida ham juda katta ma'naviy-falsafiy, axloqiy-tarbiyaviy ma'no

¹⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.

bor. Oilaning davlat muhofazasida bo'lishi, ota-onalarning o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning esa o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburligining belgilanishi esa O'zbekiston jamiyatida inson, uning manfaatlari ustuvorligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda 1998 yilni "Oila yili", 1999 yilni "Ayollar yili", 2000 yilni "Sog'lom avlod yili", 2001 yilni "Onalar va bolalar yili", 2008 yilni "Yoshlar yili", 2010 yilni "Barkamol avlod yili", 2012 yilni "Mustahkam oila yili", 2013 yilni "Obod turmush yili", 2014 yilni "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi aslida jamiyatning ayol zotiga, millat kelajagi bo'lmish bolalar sog'lig'i, ularning barkamolligi yo'lidagi sa'y-harakatlar majmui edi.

Buning natijasida Prezident I. A. Karimov tomonidan 2016-yilni "Sog'lom ona va bola yili"¹⁴⁶ deb e'lon qilinishi ham yurtimizda o'zbek ayollari, onalar, yoshlar hamisha e'tiborda ekanligidan dalolat beradi. O'tgan yillar davomida mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida dadil qadamlar tashlandi. Olib borilayotgan islohotlar natijasida qishloqlar, shaharlar qiyofasi tubdan o'zgarimoqda. Ishlab chiqarish va sanoat jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. O'zbekistonda dunyoning rivojlangan industrial mamlakatlaridan qolishmaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalar ishga tushirilib, ishlab chiqarish modernizatsiya va diversifikatsiya qilinmoqda, mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligi o'sib bormoqda.

Mamlakatda onalar va bolalarni e'zozlash butun jamiyatning eng dolzarb vazifasiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi, Fuqarolik kodeksining 17-moddasida, Oila kodeksining 2-moddasi, Mehnat kodeksining 6-moddasida xotin-qizlarning jamiyatda tutgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, huquqiy o'rni belgilab berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 13 apreldagi "Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1096-sonli hamda 2009 yil 1 iyuldagi "2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida"gi PQ-1144-sonli hamda 2014 yil 1 avgustdagi "2014-2018 yillarda O'zbekistonda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o'smirlar sog'lig'ini muhofaza qilish borasidagi Davlat dasturi to'g'risida"gi 2221-sonli Qarorlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹⁴⁶ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi, 2015 yil 6 dekabr

Mamlakatda Prezident I. A. Karimov rahnamoligida yosh avlodni sog'lom, barkamol etib kamolga yetkazish, onalik va bolalikni muhofazalash, aholi reproduktiv salomatligini saqlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'ziga xos samara bermoqda. Yurtimizda onalik va bolalikni muhofazalash, oilada tibbiy madaniyatni yuksaltirish, millat genofondini mustahkamlashga yo'naltirilgan keng ko'lamli tadbirlar hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Keyingi o'n yilda mamlakatda onalar o'limi koeffitsienti 33,1 promilledan 19,7 promillega, bolalar o'limi koeffitsienti esa 18,9 promilledan 10,1 promillega tushgani, tug'ma va irsiy kasalliklar bilan tug'iladigan bolalar soni qariyb ikki barobar kamaygani ana shu sa'y-harakatlar natijasidir. Bolalarni ko'krak suti bilan oziqlantirishni keng targ'ib etish, homilador ayollarga va chaqaloqlarga integrallashgan usulda tibbiy xizmat ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada onalar va bolalar salomatligi yaxshilanib, bolalar o'limi va kasalliklarining oldini olishga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi bu yo'nalishda jahon miqosida amalga oshirilayotgan xayrli tashabbuslar va loyihalarda ham faol ishtirok etmoqda.

Mamlakatda zamonaviy tibbiyot muassasalari tarmog'i, shu jumladan, respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya, akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy markazlari, perinatal va skrining markazlari, tug'uruqxona majmualari, hududiy ko'p tarmoqli bolalar tibbiyot markazlari, qariyb 3200 dan ziyod qishloq vrachlik punktlari tashkil etilgan. O'zbekistonda bolalar salomatligini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan izchil ishlar ularning 98 foizini yuqumli kasalliklarga qarshi har yili emlashni ham o'z ichiga olgan. Shu tufayli qator kasalliklar, birinchi navbatda, bolalarga yuqadigan xastaliklar mamlakatda ko'p yillardan buyon qayd etilayotgani yo'q.

Yurtimizda yosh avlodni yuksak ma'naviyatli komil inson qilib tarbiyalash, jamiyatda sog'lom muhitni qaror toptirishning asosiy vositasi sifatida sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatning barcha hududlarida, xususan, chekka qishloqlarda ham bunyod etilayotgan zamonaviy sport majmualarida o'g'il-qizlarimiz sport bilan muntazam shug'ullanib, o'z salomatliklarini mustahkamlamoqdalar. Keyingi yillarda respublikada bolalarning bo'yi o'g'il bolalar o'rtasida o'rtacha 3 santimetr, qizlar o'rtasida esa 2,9 santimetr o'sgan. Hozirgi vaqtda 92 foiz o'g'il-qizning vazni va bo'yiga doir ko'rsatkichlari "Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti" standartlariga to'la mos keladi.

Prezident I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida sog'lom ona masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylangani, keng ko'lamli umummilliy dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan ulkan ishlar haqida to'xtalib: "Qiz bolani kollejni bitirmasidan, hunar egallasidan turib, kimki turmushga bermoqchi bo'lsa, bilib qo'yinglar, buni men uzoqni ko'rmaslik, kaltabinlik deb hisoblayman. Qiz bola, avvalo, kasb egallasin, o'z

fikriga ega bo'lsin, hayotni anglasin. Shundan keyin u hayotda o'zining munosib o'rnini topadi, jamiyatimizning faol a'zosiga aylanadi, ertaga u quradigan oila ham mustahkam bo'ladi. Bu mening eng katta orzuim va tilagimdir"¹⁴⁷ deb ta'kidlaganlarida chuqur ma'no-mazmun mujassam.

Jamiyat tayanchi, sog'lom, barkamol avlodni dunyoga keltiruvchi hamda tarbiyalovchi ayolga mehr-ehtirom ko'rsatish xalqimizning azaliy qadriyatlaridandir. Chunki O'zbekiston hududida azal-azaldan xotin-qizlar, ularning ma'naviy-axloqiy sifatlari e'zozlab kelingan. Xotin-qizlar jamiyatni poklantiruvchi, ta'lim-tarbiya beruvchi, oila farovonligi va barqarorligini ta'minlovchilar hisoblanishgan. Hayot davomiyligining asosi bo'lgan ayolni, naslimiz davomchisi bo'lmish farzandlarimiz salomatligini asrash – bu millatni, xalqni asrashdir.

Bugungi kunda sog'lom ona – sog'lom bola degan ulug' g'oyani barcha yurtdoshlarimizning qalbi va ongiga chuqur singdirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi tom ma'noda umummilliy harakatga aylandi. Sog'lom avlod deganda, avvalambor sog'lom naslni tushunamiz. Sog'lom bola, sog'lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizga o'tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan. Agar ota-bobolarimizning turmush va tafakkur tarziga nazar solsak, ular insonning nasl-nasabiga, yetti pushtining tozaligi, avlodning sog'lig'iga juda katta e'tibor berganini ko'ramiz. Mamlakatda o'tgan yillar davomida bolalarning sog'lom tug'ilishi va sog'lom ulg'ayishi uchun keng sharoitlar yaratildi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ta'lim tizimini takomillashtirish, bolalar sportini rivojlantirish kabi sohalardagi izchil islohotlar bir-birini to'ldirib, uzviy tizim shaklini oldi. Bugun zamonaviy tibbiy markazlar, ta'lim muassasalari, sport inshootlari har jihatdan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Ayni paytda bolalar sportining rivoji sog'lom avlodni tarbiyalashning yana bir muhim vositasiga aylandi. Barcha hududlarda, xususan, chekka qishloqlarda bunyod etilgan zamonaviy sport majmualarida 2 milliondan ziyod bola sportning 30 turi bilan muntazam shug'ullanmoqda. Bu jarayonga qizlarni jalb etishga, ularning salomatligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi globallashuv sharoitida "Ommaviy madaniyat"ning ta'sir doirasi muttasil ravishda kengayishi, shubhasiz, oila, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, ayrim hollarda ba'zi yoshlarimiz tabiatida radikal kayfiyatning jumladan, betgachoparlik, tarbiyasizlik, bachkanalik kabi salbiy holatlarning yuzaga kelayotganligi oddiy hol bo'lib qolmoqda. Ayrim yoshi ulug'lar esa turmush, hayot tashvishlarini bahona qilib oilaning muqaddasligi, farzand tarbiyasi

¹⁴⁷ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi, 2015 yil 6 dekabr

ertangi kunimizning taqdiri va qismati bilan bog'liqligini esdan chiqarib qo'ymoqdalar.

Bu o'rinda yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ta'sirlarni o'rganishga kompleks tizimli yondashishda quyidagi ma'naviy tarbiya yo'nalishlarga alohida e'tibor berish lozim:

- Tarbiya turlari;
- Tarbiya usullari;
- Tarbiya vositalari;
- Tarbiya omillari
- Tarbiya jarayoni.

Bugungi kunda oila va mahallada ma'naviy tarbiya yo'nalishlarini takomillashtirib borish asosiy dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, yoshlarning vatanparvarligi oiladagi tarbiya, mahalla va ta'lim muassasalaridagi ma'naviy muhitdan boshlanadi. Bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar aynan oila, mahalla va ta'lim muassasalari muhitida kamol topadi.

Xulosa qilinadigan bo'linsa, sog'lom bola, avvalo, sog'lom va ahil oilaning mevasidir. Sog'lom bolaning tug'ilishi, birinchi navbatda, onaning sog'lig'iga bog'liq. Bo'lajak ona farzandini to'qqiz oy bag'rida avaylab-asrab, yorug' dunyoga keltiradi. Bu jarayonda ayol qanday ruhiy holatni boshidan kechirsa, bu albatta, uning vujudi orqali bolaga ta'sir qiladi. Shu bois ona salomatligini mustahkamlash ertangi kun vorislari salomatligini saqlash demakdir. Sog'lom, barkamol avlod jamiyat tayanchi bo'lib, farzandlarimizning salomatligi ko'p jihatdan oilaga bog'liq. Shunday ekan, oilalarda tibbiy madaniyat yanada yuksalsa, ayollar salomatligiga e'tiborli bo'linsa, naslimiz davomchisi bo'lgan bolalarning sog'lom bo'lishiga erishamiz.

“Devonu lug'ot it turk”dagi qadimgi to'rtliklar tarkibidagi hikmatni tarjima qilish muammolari

I. Tojiboyev

Nam DU katta o'qituvchisi

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asariga asar muallifining o'zidan boshqa real baho beradigan kishi yo'q. U jumladan shunday deydi: “Men bu kitobni alifbo tartibida tartib berdim. Unga turkiy xalq maqollari, to'rtliklari, folklor qo'shiqlari va nasriy namunalardan bezak berdim. Men kitobni o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun undagi tushunilishi qiyin bo'lgan jihatlariga tushuntirishlar berdim. Bunga yillab mehnat qildim. Ayniqsa, donishmandlik xususiyatiga ega bo'lgan maqollarga ahamiyat qaratdim. Ular halqning baxti va baxtsizligi, yaxshi va yomon kunlarini o'zida aks ettirgan bo'lib, uning qadriyatlarini darajasiga ko'tarilgan.”

“Devonu lug'otit turk” asari Mahmud Koshg'ariy tomonidan o'sha davrdagi arab xalifalaridan biri bo'lmish al Muktadiga bag'ishlangan. “Devon”da turli

xalq hikmatlari, janglar tasviriga bag'ishlangan to'rtliklar bilan birgalikda 300 ga yaqin turkiy maqol va hikmatlar mavjud:

•“Dunyoda kun va tunlar xuddi yo'lga chiqqan sayohatchiga o'xshaydi. Ular kim bilan to'qnash kelib qolsa, o'shaning kuchini oladi”.

•Insonning mol-dunyosi uning dushmani hamdir. Sening yig'ib-tergan boyliging xuddi qoyadan pastga suv olib tushib ketayotgan harsangtoshga o'xshaydi. Hamma erkakalar boylik sababli buzildilar. Aynan ana shu mol-mulk tufayli ular xudoni unutadilar, farzandlari va qarindoshlarini bo'g'adilar.”

•“Marhamatli kishilarga ergash, ulardan o'rgan, mag'rurlanma”.

S. Mutalibov “Devonu lug'ot-it turk”ni Basim Atalay amalga oshirgan tanqidiy matn asosida tarjima qilgan.

S. Mutalibovning ta'kidlashicha, “Devonu lug'ot-it turk” asarida iqtibos o'rnida keltirilgan maqola va adabiy parchalar qadimgi adabiy janrlarning namunasi sifatida folklor va adabiyot tarixi uchun muhim qimmatga egadir. Undagi adabiy parchalar bir butun asar holida berilmagan bo'lsa ham, Mahmud Koshg'ariyning ushbu parchalarga bergan izohlari, ularning yaxlit bir qasida, qo'shiq, dostonlarning bir bo'lagi ekanligidan dalolat beradi. Ularni bahor sevinchlari, jang sadolari, botirlarning qo'shiqlari, sevgi tuyg'ulari, ta'limiy parchalar, tabiat tasviri va boshqa mavzular ostida ayrim asarlarga birlashtirish mumkin. Devondagi adabiy parchalar va ular haqidagi Mahmud Koshg'ariyning fikrlari, mazkur muallifning adabiy asarlar bilan ham qiziqishi, ularni diqqat bilan o'rganganligini ko'rsatadi. Mahmud Koshg'ariy Devonda yo'l-yo'lakay bo'lsa ham, ba'zan vazn haqida, ba'zan asar haqida, ba'zan adabiy janrlar haqida, ba'zan istiora, tashbeh va boshqa tasviriy vositalar haqida, xatto she'riy xususiyatlar haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berib o'tadi. Bu o'sha davrlarda ham adabiyot haqidagi fanning mavjudligini bildiradi. Bundan tashqari, bular o'sha paytda ham poetik maktablarning borligidan dalolat beradi. Shu kabi faktlarga ko'ra, o'sha davrlarda yana bir qator boshqa asarlar ham yozilganligini taxmin qilish mumkin. Buni Devondagi ayrim parchalar isbotlaydi. Devondagi ayrim parchalar u davrda butun hayotini ilmiy, ijodiy ishlarga bag'ishlagan, katta asarlar yaratgan yozuvchilar bo'lganligidan darak beradi:

Kuchandi bilagim, yog'udi tilagim,

Tilandi bilagim tegrub angar jartilar.

(Ko'p yozish natijasida belaklarimga og'liq keldi, toldi,

Endi maqsadga yaqin qoldi, dilimda hikmat chashmalari ochildi, zamon meni shu darajaga yaqinlashtirganda umrim tuga yozdi).

Ularning ayrimlarining shakli o'zgargan, ba'zilarining ma'nosi boshqacha tus olgan, ayrimlari iste'moldan chiqib ketgan. U davrda qabilalar tilida qo'llaniluvchi dialektal xususiyatlarning ham hozirgi o'zbek tili dialektlarida mavjudligi diqqatga sazovordir. Mahmud Koshg'ariy ayrim so'zlarni izohlar ekan, u so'z talaffuzida qabila tilida farq borligini ba'zilar bir so'zni a bilan, ba'zilar shu so'zni ye bilan talaffuz qilishlarini ta'kidlab o'tadi. Bu xususiyat, hozir ham o'zbek shevalarida uchraydi: man – men, yangi, yengi, tagida – tegida

kabilarni misol keltirish mumkin. Bu xususiyat hozirgi o'zbek lahjalari (Toshkent va Farg'ona)da saqlanib kelayotganligi ma'lumdir.

Bu faktlar, ya'ni u davr qabilalar tilida bor xususiyatlarning bizning tilimizga yetib kelishi hozirgi tilimizning ko'p lahjalik mohiyatini ochib berish, o'zbek xalqi dialektlari xususiyatlarini aniqlash bilan birgalikda, qadimgi davrda yaratilgan asarlarni hozirgi tillarga moslashtirish, tabdil va tarjima qilish muammolarini yoritishda muhim rol o'ynaydi. Asardagi ushbu to'rtliklardan muallifning o'sha davrda halq orasidagi xikmatlarni sinchiklab o'rganib, ularning qo'llanilishini asarda keng yoritib berganini ko'rish mumkin.

“Devonu lug'ot-it turk”ning ikkinchi kitobida qatardi – qaytardi so'zining ma'nolariga izoh berilar ekan, bunda mazkur so'zning ol atig' qatardi – u otini qaytardi yoki yag'i qatardi – dushmani qaytardi, - kabi ma'nolarda qo'llanilishi bayon qilinadi. Ayni paytda ushbu so'zning qadimgi turk qo'shiqlarida ham ifodalanishidan misol keltiriladi:

“Devon”da:

ARDIY 'AŞIN TATUR GA'N
YAWLAQ YAGIG QATARGA'N
BUYNIN TUTUB QADIRGA'N
BASTIY ULUM 'AGTARUV

O'zbekcha tabdili:

Oshini yediradigan,
dushman to'dasini qaytaradigan,
dushman bo'ynini qayiradigan edi,
o'lim uni ag'darib yiqitdi.

Mahmud Koshg'ariy bu yerda “og'zi endi oshga yetay deganda... o'z maqsadiga yetolmadi” maqolidan foydalangan. Ayni paytda bu hikmat ostida o'sha paytdagi vatanparvarlik, yurtparvarlik g'oyalari tarannum qilinadi. Xalq o'zining ana shunday asl o'g'lonlarini hech qachon unutmasligi, ular hayotiga achinishii ham aks ettirilgan. Hozirgi o'zbekcha tabdilda to'rtlikdagi vazn, qofiya saqlanmagan. Faqat asliyatning mazmuninigina berilgan. Asliyatdagi aaab shaklidagi to'rtlik tabdilda rostmana gap bilan o'girilgan.

Turkchasi:

Ärdi asin taturyän
Yawlaq yayiy qataryän
Boynun tutub qadiryän
Basti ölüm aytaru

Inglizchasi:

Eulogizing a man: “He was one who let his food be tasted, one who turned back his enemies, one who twisted their necks; until death brought him down. ”

Ma'nosi:

Maqtalgan kishi: “O'lim uni yiqitmagunga qadar – u o'z oshini boshqalarga ham baham ko'rishga beradigan, dushmanlarini oraqasiga qaytaradigan, ularning bo'ynini qayirib tashlaydiganlardan biri edi”.

Ko'rinib turganidek, inglizcha tarjimada gap bo'laklari turkiy tillarnikiga qaraganda o'zgacharoq. Inglizcha matnda turkiy gap teskarisidan, ya'ni gapning oxiridan boshiga qarab tarjima qilinadi. Ammo aslyatning ma'nosi to'liq saqlangan. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, aslyatdagi to'rtlikda qo'llanilgan bir qator birikmalarni so'zma-so'z o'girilsa ham mos kelganligini ko'rishimiz mumkin:

Boynun tutub qadiryān - dushman bo'ynini qayiradigan- *twisted their necks*;

Mahmud Koshg'ariyning dushmanga qarshi nafrat bilan yo'g'rilgan she'rlarida arslon kabi olishish lozimligi uqtiriladi. Bundan bilish mumkinki muallif xikmatlarning poetikasini asarda to'laqonli va badiiy jihatdan to'g'ri yoritib bergan.

Demak, so'zma-so'z tarjimada ham turkiy frazeologik birikmalarni o'g'irish mumkin.

Mazkur asar butun dunyo tilshunos va turkshunos olimlarining e'tiboriga tushdi. Jumladan, "Devonu lug'ot it turk"ni 1982 yilda AQSh Chikago universiteti turkshunoslari Robert Denkoff va Jon Kellilar ingliz tiliga tarjima qilishdi. Asarning har uchchala qismi uning turkcha nashridan amalga oshirildi. Bu xayrli ish tufayli okean orti xalqlari ham Mahmud Koshg'ariy ijodidan bahramand bo'lishdi.

"Devoni lug'otit turk" asari ustida olib borilgan ishlarning navbatdagi-laridan biri qozog'istonlik A. M. Auezova nomi bilan bog'liq. U 2005 yilda asarni to'laligicha rus tiliga o'girdi. Ruscha tarjima jami 1281 betdan iborat bo'lib uning kirish qismida A. M. Auezovanning asar ustidagi maxsus tadqiqotlari ham berilgan. Kitob asosan 3 qism – kirish, tarjima va indeksdan iborat.

Hozirda mazkur manba tufayli turkiy maqol va hikmatlarni ingliz tiliga tarjima qilish masalasiga oid boy tajriba yaratildiki, tarjimashunoslik fani oldiga bu juda qiziqarli va dolzarb bir masalani qo'yadi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Mahmud al-Kashgari, *Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lugat at-Turk)*, edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. - Cambridge, Mass. [In: *Sources of Oriental Languages and Literatures*, ed. Sinasi Tekin.] Part I: 1982 (Pp. XI + 416). Part II: 1984 (Pp. III + 381). Part III: 1985 (Pp. 337 + microfiche).

2. Maxmud Kashgariy. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk)/ S. Mutallibov.* - Tashkent, 1960-1963. T. I-III.

3. Malov S. Ye. *Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti.* - M. - L., 1951. - 452 s.

4. www.turklib.com

№	MUNDARIJA	Bet
1.	Muqaddima	3
2.	“Salohiyat-mezoni” nomli ilmiy to’plam tarixi. <i>T. Qozoqov</i>	4
3.	Ma’naviy madaniyat masalasida mulohazalar. <i>O.K.Chuboyeva</i>	6
4.	Fuqarolik jamiyatining ma’naviy asosi. <i>Xurshid Mirzaxmedov</i>	8
5.	Kitob — g’oyalar ummoni. <i>Feruza Abdullayeva</i>	11
6.	Oldi sotdi-shartnomasi huquqiy tartibga solinishi- islohotlar talabidir. <i>N. Jaylanov</i>	13
7.	O’zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subekti. <i>P. Jalilov</i>	18
8.	Fuqarolik ishlari bo’yicha sud majlisi bayonnomasining mazmuni. <i>J. Umarov</i>	20
9.	Davlat mexanizmini isloh qilish nazariy muammolari. <i>Eshmatova Xusnida</i>	23
10.	O’zbekiston badiiy kulolchiligining tarixiy rivojlanish tasnifi <i>Azizbek Soliyev</i>	26
11.	Inglizcha matnlarni o’qishni o’rgatishning samarali vositalari. <i>N. A. Mamadjanova</i>	29
12.	Toza atrof muhitga ega bo’laylik. <i>Nasrullayev Avaz</i>	31
13.	Adolat ustuvorligi tamoyillari. <i>O. Chuboyeva, B.Kenjaye</i>	33
14.	Axborot xavfsizligini ta’minlash barqaror taraqqiyot omili. <i>Xurshid Mirzaxmedov</i>	37
15.	Axborot va jamiyat taraqqiyoti. <i>Abdullayeva Umida</i>	38
16.	Huquqiy davlatda – qonuniylik mohiyati. <i>Valiyeva Guljahon</i>	40
17.	Advokatura instituti genezisi: tarixiy tajriba, islohotlar va amaliyot. <i>O. Chuboyeva, Olimjonov Murodjon</i>	41
18.	Bolaga g’amxo’rlik-kelajakka g’amxo’rlik. <i>Abdug’afforova Dilafruz, B. Tillayev</i>	44
19.	Ma’naviy yuksalish omillari. <i>Abdug’affor Abdulazizov, Obidxon Mamatov</i>	46
20.	Oqilona tarbiya- jamiyat farovonligi. <i>Alimova Nozima</i>	47
21.	Yoshlar ma’naviyatiga ta’sir etuvchi tahdidlar. <i>Karimov O’lmasbek, Azimjonov Ulug’bek</i>	50
22.	Tarjimada uslubiy o’rindoshlik. <i>Dilafruz Sarimsakova, Dilafruz Qodiraliyeva</i>	53
23.	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatrining mustaqillik yillaridagi repertuari va undagi janrlar rang-barangligi. <i>A. Utepbergenov, Ilmiy rahbar: f. n. n., dotsent Z. Arslanbayeva</i>	55
24.	Vatan tuyg’usi oliy qadiryat. <i>Ismoilov Xolmamat</i>	58
25.	Shaxand toponimakasi haqida. <i>Tohirjon Qozoqov</i>	60

26.	Axborotlashgan jamiyat tushunchasi. D. Qodiraliyeva, D. Yuldasheva	62
27.	Tarjimada asliyatning uslubiy-semantik talqini. D.Sarimsakova, Dilafruz Qodiraliyeva	64
28.	Kelajak avlodni tarbiyalashda qonunchilik. B.Абдығаффоров	66
29.	Yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish muammolari. G. Chuboyeva	68
30.	Jamiyatni insonparvarlashtirish g'oyalari tarixidan. M.Irgasheva	71
31.	Inson huquqlari, bolalar va ayollar, erkak va ayollar teng huquqliligi sohasidagi hamkorlik. A.Jumaboyev	73
32.	Kafolatli to'lovlari tushunchasi va uning huquqiy ahamiyati. A.Jumaboyev	75
33.	Tadbirkorlik sohasida huquqiy islohotlar jarayoni. B. A. Karimov	77
34.	Komil inson g'oyasi. D.Abdullayeva, B. Tillayev	79
35.	Mamlakatimizda xalq farovonligini shakllantirishda yoshlarning o'ri. Dilrabo Mirzaxmedova, Nigora Narzullayeva	81
36.	Xorijiy sudyalarning huquqiy maqomi. Jabboraliyev Javohir	83
37.	Davlat hokimiyati nazariy -huquqiy muammolari. S.Xojiboyev	86
38.	Inson huquqlarini himoya qilishda Ombudsmanning o'ri. Abdusalomova Gulmira, Ozoda Chuboyeva	89
39.	Oila muhim axloqiy tarbiya sub'ekti. Javdat Po'latov	90
40.	Millatlararo munosabatlar-milliy taraqqiyotning asosi. Yulduzxon Hamidullayeva, Tohirjon Qozoqov,	93
41.	Sud huquq islohotlari davr talabi. Nosirjonov Azizbek, Yunusova Gulchehra	94
42.	Oila mustahkamligi tayanchi. Kuchkarov Nodir	95
43.	Mutafakkirlar merosi va komil inson tarbiyasi masalalari. D.Po'latova	97
44.	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda yoshlarning tutgan o'ri. U.A.Boyzaqova, X. Mirzaxmedov	100
45.	Ota-ona qaramog'idan maxrum bo'lganlarning huquqiy holati. Sohijonov Zohid	103
46.	Milliy ma'naviyatga qarshi tahdidlarning negizlari. U.Boyzaqova, O. Chuboyeva	105
47.	Bolalar baxtli kelajagimiz. Supiyeva Sayyora	107
48.	Yoshlarga e'tiborning ortishi. B. B. Ibrahimov A. Usmonov	109
49.	Qur'onda inson huquqlari. B. Chuboyeva	110
50.	Milliy g'oya targ'ibotida ma'naviy-axloqiy va mehnat tarbiyasining o'ri. R. G'ulomova, N. Mamadjanova	113

51.	Компетентностный подход педагога к учебному процессу в условиях дистанционного обучения. Ч.Худойберганава	115
52.	Odam savdosi jinoyatchiligini N. Yadigarova	118
53.	Musiqaning ma'naviy tarbiyadagi ahamiyati Hamidullayeva Yulduz, R. Qo'shinova	119
54.	Qadimgi davlatlarda ayol huquqlari. Xamidjanov Sherzod	122
55.	Tarjimada komplementar aloqayo Dilafruz Sarimsaqova	125
56.	O'zbekistonda bola huquqlarini ximoya qilish bo'yicha amalaga oshirilayotgan chora-tadbirlaro O. Chuboyeva, A.To'xtaboyev	127
57.	Globalashuv jarayoni milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi. X.Mirzaxmedov, Lola Mo'minova	129
58.	Diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar. Meliboyev Ilhom	133
59.	Yoshlar o'rtasida xuquqbuzarlikni oldini olish muammolari. O. Chuboyeva, Abduvositov Mavlud	134
60.	Tinchlik va totuvlik. Xurshid Mirzaxmedov, Asila Toshboyeva	137
61.	Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish masalalari. O. Chuboyeva, Sh. Qo'chqorova	139
62.	Ingliz va o'zbek tillarida semantik lakunlarning ishlatilishi. M. Abduraxmanov	140
63.	Nutq o'stirishda didaktik o'yinlarning roli. D. Pulatova, N.Ismailova	142
64.	Teaching vocabulary. N. A. Mamadjanova	144
65.	Qonuniylik va huquqiy tartibot. Miliboyev Sobitxon	147
66.	Milliy o'zlikni anglash - ma'naviy taraqqiyot omili. X.Mirzaxmedov, Doston Ubaydullayev	150
67.	Inson ma'naviy hayotining asosiy me'zonlari. Xurshid Mirzaxmedov, Shahnoza Mamatobilova	153
68.	Qonun ustivorligi... Toshpo'latova Nilufar, B. Tillayev	156
69.	Internet – axborot tarqatishning eng qulay vositasi. N.Bo'riboeva, A. Qambarov	158
70.	Ibn Sino ta'limotida inson kamolotining falsafiy ahamiyati. I.Rustamov	160
71.	O'zbek xalqi madaniy merosining tarixiy ildizlari. N.Imomberdiyeva	162
72.	Konstitutsiya -Oliy qomus. Zokirov Navruz	164
73.	Modernizatsiya jarayonida fuqarolar siyosiy faolligi asosi. I.Shovolotov	167
74.	Parlament –fuqorolik jamiyati asosi. Xoliqov Lochin	171
75.	Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng dolzarb vazifa. A.G'aniev	173
76.	Avestoda davlat hokimiyati masalalari. Tursunov Zavqiddin	175
77.	Qadriyatlarining demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyati. S. Ismoilova	178

78.	Bolani dasturxon atrofida o'tirish odobi. <i>S. Norqo'ziev</i>	180
79.	Qadimgi turkiy obidalar – o'zbek tadqiqotchilari nigohida. <i>Q. Sidiqov, Sh. Abdullaeva, M. Obilov</i>	184
80.	Sovetlar davrida o'lkamizda tibbiyot ilmining rivojlanishi tarixidan. <i>X. K.Boymirzaev, R.A.Mahkamov</i>	186
81.	Shaxs intellektual kamoloti boskichlari. <i>B.B.Ibrohimov</i>	190
82.	Missionerlik-"G'amxo'rlik" soyasida nima bor? <i>O.Abdullayev</i>	191
83.	Javobgarlikdan ozod qilish xususiyatlari. <i>Q.Zayniddinov</i>	193
84.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar. <i>R. Mirzaazimova</i>	197
85.	Ekologik muammolar genezisi. <i>Aslanboev Abduqodir</i>	199
86.	Sharqona hokimiyat o'ziga xos jihatlari. <i>Axmadjanova Nigora</i>	201
87.	Bag'rikenglik. <i>S. Norqo'ziyev</i>	203
88.	Sog'lom, barkamol avlod jamiyat tayanchi. <i>O.Topildiyev</i>	205
89.	"Devonu lug'ot it turk"dagi qadimgi to'rtliklar tarkibidagi hikmatni tarjima qilish muammolari. <i>I. Tojiboyev</i>	209

«Fazilat org texservis» x/k bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, Navoiy ko'chasi, 72.

